3. Доклад. Цифровая экономика: глобальные тренды и практика российского бизнеса», // Imi.hse.ru: Национальный исследовательский университет «Высшая школа экономики» [Электронный ресурс]. — Режим доступа: <https://imi.hse.ru/pr2017>.
4. Беккер Г.С. Человеческое поведение: экономический подход: избранные труды по экономической теории. – М.: ГУ-ВШЭ, 2003.
5. Общество и экономика . 1993, № 9 – 10.с.4.
6. Сайфуллина Л.Д. Управление человеческим капиталом в системе цифровых экономических отношений // Фундаментальные исследования, №11, 2018. -С.94.
7. Сафуанов Р.М., Лехмус М.Ю., Колганов Е.А. Цифровизация системы образования // Вестник УГНТУ. Наука, образование, экономика. Серия экономика. № 2 (28), 2019. –С.116-121.
8. Хайдеггер М. Время и бытие. – Москва, 1993. - С. 239.



**“RAQAMLASHGAN JAMIYATDA INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH: IMKONIYAT VA ISTIQBOLLARI”
mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya**

9. Через 10 лет спрос на гуманитариев резко возрастет. [Электронный ресурс]. Режим доступа: https://hightech.fm/2017/02/20/1&era1_agй (дата обращения 11.05.2020).

10. Korshunova S.A. The role and specifics of human capital in the formation of the digital economy // Industry competitiveness: digitalization, management and integration. 2019.Vol. 115. Springer, 2020. стр. 185-192

11. Machlup F. The Economics of Information and Human Capital. –Princeton,- 1984. P.419.

12. <https://uza.uz/oz/documents/ra-amli-i-tisodiyet-va-elektron-ukumatni-keng-zhoriy-etish-ch-28-04-2020>

13. <https://kun.uz/news/2018/10/11/uzbekiston-inson-kapitalini-rivojlantirish-lojiasini-kullab-kuvvatlovci-27-davlat-katoriga-kusildi>

RAQAMLI TRANSFORMATSIYA JARAYONIDA INSON KAPITALINI HUQUQIY HIMOYA QILISH: MUAMMOLAR VA HUQUQIY MEXANIZMLAR

Mirodil Baratov

yuridik fanlar doktori, Chirchiq davlat pedagogika universiteti professori

Turg'unpo'lat Jovliev

O'zbekiston Fanlar akademiyasi Davlat va huquq instituti xodimi

Annotatsiya: maqolada raqamli transformatsiya jarayonida inson kapitalini huquqiy himoya qilish masalalari yoritilgan. Hozirgi globallashtayotgan dunyoda raqamli texnologiyalar jadal rivoj topayotgan bir paytda, inson kapitalining rivojlanishi sodir bo'lmoqda. Inson kapitali o'zi bu – malakali kadrlar, ularning bilim va ko'nikmalari, sog'lig'i hamda mehnat huquqlarining kompleks himoyasi alohida ahamiyatga ega. Binobarin, raqamli transformatsiya sharoitida yuzaga kelayotgan huquqiy muammolar, xususan, raqamli mehnat munosabatlari, masofaviy ish, intellektual mulk huquqlari va shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish bilan bog'liq dolzarb jihatlar tahlil qilinadi. Shuningdek, inson kapitalini huquqiy muhofaza qilishda milliy va xalqaro huquqiy mexanizmlarning o'rni, mavjud kamchiliklar va takomillashtirish yo'nalishlari va usullari tadqiq qilingan. Xususan, ushbu masalalarni hal etishda kompleks yondashuv dolzarbligi asoslab berilgan, raqamli transformatsiya sharoitida inson kapitalini huquqiy himoya qilish bilan bog'liq muammolar tahlil qilingan, milliy va xalqaro huquqiy mexanizmlar ko'rib chiqilgan hamda ularni takomillashtirish bo'yicha takliflar berilgan. Shu orqali raqamli jamiyatda inson kapitalining izchil va barqaror rivojlanishiga huquqiy kafolatlar yaratilishining nazariy va amaliy asoslari yoritilgan.



“RAQAMLASHGAN JAMIYATDA INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH: IMKONIYAT VA ISTIQBOLLARI” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

Kalit so'zlar: raqamli transformatsiya, inson kapitali, huquqiy himoya, raqamli mehnat, masofaviy ish, intellektual mulk, shaxsiy ma'lumotlar, huquqiy mexanizmlar, mehnat huquqlari, raqamli huquq.

Raqamli transformatsiya hozirgi kunda global miqyosda ijtimoiy, iqtisodiy va huquqiy tizimlarning tubdan o'zgarishiga sabab bo'lmoqda. Yangi texnologiyalar, sun'iy intellekt, raqamli xizmatlar va onlayn platformalar nafaqat ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalarini, xususan, jamiyatdagi insonlarning bilim, ko'nikma va salohiyatini ifodalovchi inson kapitaliga bo'lgan yondashuvni va qarashni ham keskin o'zgartirmoqda. Bugungi raqamli jamiyatda inson kapitali yangi mazmun kasb etib, uzluksiz ta'lim, raqamli savodxonlik, masofaviy mehnat va innovatsion fikrlash qobiliyatlari asosiy omillarga aylanib bormoqda.

Ammo bu jarayon bir qator huquqiy muammo va masalalarni ham yuzaga keltirmoqda. Masofaviy ishlash shakllarida mehnat shart-sharoitlari va ishchilarning haq-huquqlari, shaxsiy ma'lumotlarning maxfiyligi, raqamli tengsizlik, ayollar va nogironligi bo'lgan shaxslarning texnologik imkoniyatlardan foydalanishdagi cheklovlar – bularning barchasi inson kapitalining huquqiy himoyasi masalasi sifatida dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Raqamli transformatsiyaning tez sur'atlari mavjud huquqiy tizimlarga yangi yondashuvlarni talab qilmoqda.

Raqamli transformatsiya – bugungi jamiyat hayotining barcha jabhalarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) asosida tub islohotlarning amalga oshirilishi jarayonidir. Mazkur jarayon, ayniqsa, oxirgi yillarda tezlashib, ishlab chiqarish, ta'lim, sog'liqni saqlash, davlat boshqaruvi va boshqa ko'plab sohalarda yangicha yondashuvlarni shakllantirishga xizmat qilmoqda. Shubhasiz, bu o'zgarishlar inson kapitali – ya'ni bilim, salomatlik, ko'nikma, malaka va ijtimoiy faoliyatda ishtirok etish salohiyati kabi jihatlar orqali belgilanuvchi asosiy resursga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda.

Bugungi globallashtayotgan dunyodagi raqamli transformatsiya natijasida yangi kasb va sohalar paydo bo'layotgan bo'lsa-da, ayni vaqtda mavjud mehnat shakllari, ta'lim tizimi va ijtimoiy munosabatlar ham qayta ko'rib chiqilmoqda. Bu esa inson kapitalining rivojlanish yo'nalishlariga nisbatan yangi talablarni qo'yadi. Shu nuqtai nazardan, bugungi raqamli muhitda inson kapitalining huquqiy himoyasini ta'minlash, bu boradagi xavf-xatarlarni aniqlash va samarali mexanizmlarni ishlab chiqish zamonaviy huquqshunoslik fanining muhim yo'nalishlaridan biridir.

Shuningdek, raqamli transformatsiya zamonida inson kapitali elementlarining, xususan, mehnat huquqlari, shaxsiy ma'lumotlar xavfsizligi, ta'lim olish huquqi va imkoniyati, sog'liqni saqlash tizimi kabi sohalarning huquqiy jihatdan tartibga solinishi, ijtimoiy tenglik va adolat prinsiplariga asoslanishi lozim. Ushbu maqolada aynan raqamli transformatsiya sharoitida inson kapitalini huquqiy himoya qilishning mavjud muammolari



“RAQAMLASHGAN JAMIYATDA INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH: IMKONIYAT VA ISTIQBOLLARI” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

va huquqiy mexanizmlari tahlil qilinadi. Shu bilan birga, milliy va xalqaro tajribaga tayanilgan holda taklif va tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Dunyomizda raqamli transformatsiya inson kapitalining shakllanishi va rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatayotgan eng muhim omillardan biridir. Bu transformatsiya jarayoni ta'lim, sog'liqni saqlash, mehnat bozori, malaka oshirish, ijtimoiy himoya kabi inson kapitalining asosiy yo'nalishlarini yangi raqamli vositalar orqali takomillashtirmoqda. Shu bilan birga, bu o'zgarishlar mavjud huquqiy asoslarni qayta ko'rib chiqish zarurati ham yuzaga kelib chiqmoqda.

Inson kapitali tushunchasi odatda quyidagi elementlarni o'z ichiga oladi:

- Bilim va ta'lim (raqamli ta'lim platformalari, masofaviy o'qitish);
- Malaka va tajriba (onlayn ish bozoridagi talab va taklifga mos keladigan ko'nikmalar);
- Salomatlik (raqamli tibbiyot va telemeditsina xizmatlari);
- Ijtimoiy faoliyat va ishtirok (ijtimoiy tarmoqlardagi faollik, raqamli fuqarolik institutlari);
- Raqamli savodxonlik (AKTdan foydalanish ko'nikmalari).

Raqamli iqtisodiyotda inson kapitali kompaniyalar va davlat uchun eng muhim resursga aylanib bormoqda. Ayniqsa, sun'iy intellekt, katta ma'lumotlar (big data), bulutli texnologiyalar, avtomatlashtirish kabi sohalarida faoliyat yuritish uchun yuqori darajadagi raqamli savodxonlik va zamonaviy ko'nikmalarga ega inson resurslari talab etilmoqda. Bu esa inson kapitalining yangi shakllarini vujudga keltirmoqda.

Biroq raqamli transformatsiya jarayonida inson kapitalining to'liq rivojlanishi uchun uning huquqiy asoslari puxta bo'lishi lozim. Raqamli tengsizlik, gender tafovutlari, texnologiyadan foydalanish imkoniyatlarining cheklanganligi kabi omillar ayrim guruhlar uchun inson kapitalining yetarlicha rivojlanishiga to'sqinlik qilmoqda. Shu boisdan, bu muammolarni huquqiy vositalar orqali hal qilish dolzarb masala hisoblanadi.

Demak, raqamli transformatsiya inson kapitalini faqat rivojlantirmasdan, balki uni yangi xavf-xatarlarga duchor qilishi ham kuzatilmoqda. Bunday sharoitda huquqiy tartibga solish, tegishli qonunchilik bazasini takomillashtirish va xalqaro tajribani hisobga olgan holda huquqiy mexanizmlarni ishlab chiqish zarur bo'lib bormoqda.

Raqamli transformatsiya jarayonida inson kapitalini huquqiy jihatdan himoya qilish bir qator muammolar va xavf-xatarlarni yuzaga chiqarmoqda. Bu xavf-xatarlar, bir tomondan, raqamli texnologiyalar yordamida ish va ta'lim imkoniyatlarining kengayishi bilan bog'liq bo'lsa, boshqa tomondan, insonning asosiy huquqlari va erkinliklariga tahdid soluvchi omillar sifatida ham namoyon bo'lmoqda.

1. Mehnat huquqlarining buzilishi xavfi



“RAQAMLASHGAN JAMIYATDA INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH: IMKONIYAT VA ISTIQBOLLARI” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

Masofaviy mehnat, mustaqil ishchi (freelance) yoki gig-ish shakllarining ommalashuvi bilan ishchilar va ish beruvchilar oʻrtasidagi anʼanaviy mehnat munosabatlari oʻzgarib bormoqda. Bunday hollarda quyidagi huquqiy muammolar paydo boʻlmoqda:

- ish vaqtini nazorat qilishning noaniqligi;
- ijtimoiy sugʻurta, pensiya, mehnat taʼtili kabi kafolatlarning yoʻqligi;
- mehnat shartnomalarining rasmiylashtirilmasligi yoki umumiy huquqiy meʼyorlarga mos emasligi.

Koʻplab hozirgi raqamli platformalarda ishlovchi xodimlar mustaqil pudratchilar deb belgilanishi orqali ular mehnat kodeksi bilan belgilangan huquqlardan mahrum boʻlayotgani ham kuzatilmoqda.

2. Shaxsiy maʼlumotlar xavfsizligi

Inson kapitalining asosiy elementlaridan biri boʻlgan salomatlik, taʼlim va malaka haqidagi maʼlumotlar aksariyat hollarda raqamli bazalarda saqlanadi. Bunday sharoitda quyidagi huquqiy tahdidlar yuzaga chiqadi:

- shaxsiy maʼlumotlarning ruxsatsiz tarqalishi;
- maʼlumotlardan notoʻgʻri foydalanish (masalan, algoritmik diskriminatsiya);
- davlat va yirik korporatsiyalarning haddan ziyod nazorati.

Oʻzbekiston Respublikasining “Shaxsga doir maʼlumotlar toʻgʻrisida”gi Qonuni mavjud boʻlsa-da, uning ijrosi va zamonaviy texnologiyalarga mos mexanizmlar hali toʻliq shakllanmagan.

3. Raqamli tengsizlik va ijtimoiy adolatsizlik

Texnologiyalarga kirish imkoniyati har doim ham teng ravishda taqsimlanmagan. Raqamli tengsizlik muammosi ayniqsa:

- ayollar;
- qishloq joylaridagi aholi;
- nogironligi boʻlgan shaxslar;
- kam taʼminlangan qatlamlar uchun.

Inson kapitalining toʻliq shakllanishiga toʻsqinlik qilmoqda. Bu holat ijtimoiy adolat prinsiplariga zid boʻlib, huquqiy tenglikni taʼminlash zarurati yuzaga chiqib kelmoqda.

4. Huquqiy normalarning ortda qolishi

Raqamli texnologiyalar tez rivojlanayotgan bir paytda huquqiy tizimning bu oʻzgarishlarga yetarli darajada javob bera olmayotgani ham muammo sifatida qaralmoqda. Masalan, sunʼiy intellektning mehnat munosabatlariga taʼsiri yoki virtual makondagi kamsitish (cyberbullying) holatlariga oid aniq huquqiy normalar koʻplab mamlakatlarda, jumladan, Oʻzbekistonda ham yetarli darajada ishlab chiqilmaganligini qayd etamiz.

Bugungi raqamli transformatsiya sharoitida inson kapitalini huquqiy himoya qilish uchun samarali mexanizmlar ishlab chiqilishi lozim boʻladi. Buning uchun, eng birinchi



“RAQAMLASHGAN JAMIYATDA INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH: IMKONIYAT VA ISTIQBOLLARI” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

navbatda, mavjud milliy qonunchilik bazasi va xalqaro huquqiy standartlar tahlil qilinadi va O‘zbekistonda inson kapitalini huquqiy jihatdan himoya qilish borasida quyidagi normativ-huquqiy hujjatlar mavjud va ular:

- O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi (2022-yil): masofaviy ish, moslashuvchan ish grafigi, ijtimoiy kafolatlar masalalarini tartibga soluvchi yangi normalar joriy etilgan.

- “Shaxsga doir ma’lumotlar to‘g‘risida”gi Qonun (2019-yil): shaxsiy ma’lumotlarni yig‘ish, saqlash, uzatish va himoya qilish tartiblarini belgilaydi.

- Elektron hukumat, elektron xizmatlar, AKT to‘g‘risidagi qonunlar: raqamli davlat xizmatlari orqali ta’lim, sog‘liqni saqlash, ijtimoiy himoya sohalarini modernizatsiyalashga xizmat qiladi.

Shunga qaramay, bu qonunchilik hujjatlarida inson kapitalining kompleks huquqiy himoyasini ta’minlaydigan normalar yetarli darajada tizimlashtirilmagan. Ayniqsa, raqamli tengsizlik, gig-ishchilarning huquqlari, sun’iy intellekt bilan bog‘liq xavflar kabi zamonaviy masalalar hali to‘liq yoritilmagan.

Xalqaro tashkilotlar, xususan:

- Xalqaro Mehnat Tashkiloti (ILO): “Raqamli mehnat platformalari bo‘yicha asosiy tamoyillar”ni ishlab chiqqan;

- Yevropa Ittifoqi: GDPR (Umumiy ma’lumotlarni himoya qilish reglamenti) orqali shaxsiy ma’lumotlar xavfsizligini yuqori darajada ta’minlaydi;

- BMTning “Inson huquqlari va sun’iy intellekt” rezolyutsiyalari: inson huquqlari raqamli davrda qanday himoya qilinishi kerakligini belgilaydi.

Ushbu tajribalar O‘zbekiston huquqiy tizimi uchun ham namuna bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Inson kapitalini raqamli transformatsiya sharoitida samarali huquqiy himoya qilish uchun bir necha chora-tadbirlar taklif etiladi va ular quyidagicha:

- Maxsus “Raqamli huquqlar kodeksi” ishlab chiqish: insonning raqamli makondagi huquqlari va erkinliklarini alohida tartibga soluvchi hujjat.

- Gig-ishchilarni huquqiy himoya qilish mexanizmlarini joriy etish: ularning ish va ijtimoiy kafolatlari qonuniy asosda belgilanmog‘i zarur.

- Shaxsiy ma’lumotlar xavfsizligini kuchaytirish: texnik nazorat (audit), ma’lumotlar ruxsatnomasi, avtomatlashtirilgan qarorlar ustidan insoniy nazorat kabi mexanizmlar kiritilishi kerak.

- Raqamli tenglikni ta’minlash bo‘yicha davlat dasturlari: ayollar, yoshlar, nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun raqamli savodxonlikni oshirish va imkoniyatlar yaratish.

- Sun’iy intellekt va algoritmlarning huquqiy nazorati: algoritmik diskriminatsiyaning oldini olish uchun qonunchilikda maxsus me’yorlar joriy etilishi kerak.



“RAQAMLASHGAN JAMIYATDA INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH: IMKONIYAT VA ISTIQBOLLARI” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

Raqamli transformatsiya jarayoni inson kapitalining shakllanishi va rivojlanishida tub oʻzgarishlarni yuzaga keltirib chiqarmoqda. Taʼlim, sogʻliqni saqlash, mehnat munosabatlari va ijtimoiy faollik kabi asosiy yoʻnalishlarda raqamli texnologiyalarning joriy qilinishi natijasida inson kapitali yangi sifat darajasiga chiqmoqda. Biroq bu oʻzgarishlar ayni vaqtda yangi huquqiy muammolar va xavf-xatarlarni ham yuzaga chiqarmoqda.

Tadqiqotimiz natijalari shuni koʻrsatdiki:

- Raqamli tengsizlik va texnologik cheklovlar ayrim ijtimoiy guruhlar uchun imkoniyatlarning noteng taqsimlanishiga olib kelmoqda;
- Mehnat bozoridagi yangi formatlar (masofaviy ish, gig-ekonomika) ishchilarning huquqiy himoyasini susaytirishi mumkin;
- Shaxsiy maʼlumotlar va raqamli xavfsizlik masalalari global va milliy darajada dolzarb boʻlib bormoqda;
- Huquqiy normalar raqamli rivojlanish surʼatiga toʻliq moslashmayapti.

Shu boisdan quyidagi takliflarni ilgari surish maqsadga muvofiq deb hisoblanadi:

1. Inson kapitalini raqamli muhitda himoya qilishga yoʻnaltirilgan maxsus huquqiy platforma va “raqamli huquqlar kodeksi” ishlab chiqish;
2. Mehnat qonunchiligini zamonaviylashtirish, ayniqsa mustaqil ishchilar va onlayn platformalarda ishlovchilar uchun alohida huquqiy kafolatlar joriy etish;
3. Shaxsiy maʼlumotlarni himoya qilish tizimini kuchaytirish, xususan, xalqaro andozalarga mos ravishda;
4. Raqamli savodxonlikni oshirishga qaratilgan ijtimoiy dasturlarni huquqiy jihatdan qoʻllab-quvvatlash;
5. Sunʼiy intellekt va algoritmlarni huquqiy nazorat qilish mexanizmlarini yaratish, inson huquqlarining buzilishiga yoʻl qoʻymaslik uchun.

Maqola mavzusi dolzarbligi bilan huquqshunoslik, axborot texnologiyalari va inson huquqlari sohalarini birlashtirib, kompleks ilmiy-amaliy yondashuvni talab etadi. Shu sababdan, kelgusida raqamli jamiyatga mos huquqiy mexanizmlarni yaratish jarayonida mazkur mavzu boʻyicha chuqurlashtirilgan ilmiy izlanishlar alohida ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Oʻzbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi (28.10.2022). Qabul qilingan sana: 28.10.2022-yil. Manba: Lex.uz – Oʻzbekiston Respublikasi qonun hujjatlari maʼlumotlar bazasi. Havola: <http://lex.uz//ru/docs/-6257288>.
2. Oʻzbekiston Respublikasining “Shaxsiy maʼlumotlar toʻgʻrisida”gi OʻRQ–547-son Qonuni (02.07.2019-yil). Qabul qilingan sana: 2019-yil 2-iyul. Manba: Lex.uz – Oʻzbekiston Respublikasi qonun hujjatlari maʼlumotlar bazasi. Havola: <http://lex.uz//docs/-4396419>.



**“RAQAMLASHGAN JAMIYATDA INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH: IMKONIYAT VA ISTIQBOLLARI”
mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya**

3. Xalqaro Mehnat Tashkiloti (XMT) bilan hamkorlik. Hujjat: “Paxta dalalarida ishonchning mustahkamlanishi: Xalqaro mehnat tashkilotining O‘zbekistondagi faoliyati” monografiyasi. Muallif: Kari Tapiola, XMT Bosh direktorining sobiq maslahatchisi. E’lon qilingan sana: 2022-yil 22-noyabr. Manba: O‘zbekiston Milliy axborot agentligi (O‘zA). Havola: <https://uza.uz/posts/428208> xalqaro-mehnat-tashkiloti-ozbekistondagi-mehnat-sohasiga-oid-yutuqlarni-etirof-etdi.

4. Yevropa Ittifoqining Umumiy Ma’lumotlarni Himoya Qilish Reglamenti (GDPR). Hujjat: Umumiy ma’lumotlarni himoya qilish reglamenti (General Data Protection Regulation - GDPR). Qabul qilingan sana: 04.05.2016-yil. Manba: Yevropa Ittifoqi rasmiy veb-sayti. Havola: <https://doi.org/10.1007/978-3-031-62328-8>.

5. BMT Inson huquqlari bo‘yicha Oliy komissari bilan uchrashuv. Voqea: O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning BMT Inson huquqlari bo‘yicha Oliy komissari Folker Turk bilan uchrashuvi. Sana: 2023-yil 15-mart. Manba: O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti. Havola: <https://www.gazeta.uz/oz/2023/03/15/un/>.

6. Toffler, A. (1980). *The Third Wave*. Muallif: Alvin Toffler. Nashr yili: 1980. Nashr joyi: New York: Morrow. Havola: <https://www.amazon.com/Third-Wave-Alvin-Toffler/dp/0330263374>.

7. Schwab, K. (2016). *The Fourth Industrial Revolution*. Muallif: Klaus Schwab. Nashr yili: 2016. Nashr joyi: Geneva: World Economic Forum. Havola: <https://www.weforum.org/about/the-fourth-industrial-revolution-by-klaus-schwab/>.

8. Becker, G. S. *Human Capital: A Theoretical and Empirical Analysis, with Special Reference to Education* (second edition.). Muallif: Gary S. Becker. University of Chicago. Published by National bureau of economic research New York. Distributed by Columbia University Press New York and London 1975. [system/files/chapters/c3730/c3730.pdf](https://www.nber.org/papers/w01862/system/files/chapters/c3730/c3730.pdf).

9. United Nations Development Programme (UNDP). (2022). *Digital Strategy 2022-2025*. https://13115299.s21i.faiusr.com/61/1/ABUIABA9GAAG_OfulQYoiITk-wU.pdf.

10. Project Title: Digital Transformation of Social Protection Project Number: Implementing Partner: UNDP Moldova Start Date: 01 July 2024 End Date: 31 December 2026 PAC Meeting date: 26 April 2024. <https://www.undp.org/sites/g/files/zskgke326/files/2025-03/prodoc-digital-transformation-of-social-protection-2024-2026-signed.pdf>.



THE PROCESS OF CIVIL IDENTITY FORMATION AND ITS PSYCHOLOGICAL FOUNDATIONS

УДК 323.111

Калиев Азамат Сайитович, канд.полит.наук., доцент.

Почетный профессор Академии Туран г. Ташкент.

Начальник отдела науки, аспирантуры и докторантуры.

Международный университет им. К.Ш.Токтомаматова.

Kaliev Azamat Saiitovich, Candidate of Political Sciences, Associate Professor.

Honorary Professor of the Turan Academy in Tashkent.

Head of the Department of Science, Postgraduate and Doctoral Studies,

International University after named K.Sh.Toktomamatov.

Jalalabad, Kyrgyzstan.

ORCID: 0009-0000-3846-2049

e-mail: azakaliev50@gmail.com

Курбанбекова Кулпунай Канатовна,

Kurbanbekova Kulpunai Kanatovna Assistant professor.

Department of Philosophy and Natural Sciences.

International University named after K.Sh.Toktomamatov.

Jalal-Abad, Kyrgyzstan.

e-mail: Kulpunaikurbanbekova@gmail.com

Annotation: This research paper outlines key points of likely content related to civic identity formation and its psychological foundations. The paper examines the process by which people develop a sense of belonging to a particular state or nation (civic identity). It examines the psychological factors that contribute to the formation of this identity. The various stages through which a person goes when forming their civic identity are discussed. This may include internalizing national stereotypes, imitating patterns of civic behavior and developing personal meanings of citizenship. The paper may consider the various psychological mechanisms that influence the formation of civic identity. These may include socialization. The role of family, education and social institutions in shaping a sense of national belonging. And on recognizing the historical and political context that shapes civic identity. It can also discuss the impact of globalization on traditional notions of civic identity.

Key words: citizenship, identity, formations, psychology, globalization, education, social institutions, national stereotypes, state, nationality, political process.

Introduction. Psychologists began to discover its multifaceted nature as they studied the concept of identity in depth. They saw different ways of identification in the process of



“RAQAMLASHGAN JAMIYATDA INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH: IMKONIYAT VA ISTIQBOLLARI” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

personality development. Gradually, this term was used not only in psychology, but also in social sciences and became a wide object of research. In the analysis of identity, the works of scientists who originally created psychological methods and researches are also used.

The well-known psychologist Sigmund Freud, in a number of his works, talked about the phenomenon of identification and gave more importance to the concept of identification. According to Z. Freud, in the history of personality development, the child begins the initial identification process by unconsciously simulating himself with his father [7. P.288].

The term identity entered the scientific field in connection with the social psychology researches of the American psychologist Erik Erikson in the 1940s and 1950s. In the 1940s, he began studying "military neuroses" in connection with the service of US military personnel. Before E. Erikson, information about the phenomenon of identity was written, but for the first time in the scientific field, E. Erikson wrote about the 8 stages in the development of a person's identity. The most important characteristic of a person's integrity is his integration with certain social groups [9. P. 352].

The German philosopher K. Jaspers, the theoretical successors of E. Erikson's concept of identity, expressed his thinking about the relationship between "I" and "You" in his philosophical and anthropological studies of existential orientation. Karl Jaspers, in his 1913 doctoral dissertation "General Psychopathology," defined identity as one of the four formal aspects of consciousness, and wrote about the idea that through awareness or understanding, I remain who I am, and that all the events of my life pass through me [2].

Identity is a broad concept with different definitions in different fields. The most widely used definition of personality in the literature is "who am I, to whom, to which group I belong, to whom I am similar and to whom I am close?" is the answer to such questions. Identity is a complex structure formed as a result of the individual's physical, spiritual, social and psychological development, which includes the individual's abilities, spiritual world, religious beliefs, and basically his whole life. The better this structure is formed, the better the individual can recognize his own characteristics and uniqueness [3. P.558].

While civil identity is a key factor in explaining the economic inequality and modern politics that have emerged in some cases or under the influence of globalization over the past fifty years, economic claims have become more acute when they are linked to feelings of humiliation and disrespect. Indeed, much of what we think of as economic motivation actually reflects not only a desire to acquire wealth and resources, but also an attitude toward money as a sign of status and prestige, believing that money can buy respect and power. Modern economic theory is based on the assumption that people are rational individuals who all want to obtain the highest "good" for themselves, that is, to maximize material well-being, and that politics is merely an extension of this behavior. However, if



“RAQAMLASHGAN JAMIYATDA INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH: IMKONIYAT VA ISTIQBOLLARI” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

we are to interpret the actions of real people in the modern world, we must expand our understanding of human motivation beyond this simple economic model that dominates the current discussion. No one can dispute that people are capable of rational behavior or that they are motivated by a selfish desire to acquire more and more wealth and resources. But human psychology is much more complex than this simple economic model. Before we can analyze contemporary identity politics, we need a deeper and better understanding of human motivation and behavior.

If we compare the formation of civil identity with the former Soviet identity, the scientist E.A., who analyzed the long-lasting "identity crisis" in post-Soviet Russia, manifested by its painful dependence on new forms of consolidation within the Russian Federation. Paine identifies two main reasons for this crisis: first, the inhabitants of the Russian Federation, when it was one of the 15 union republics of the USSR, considered the entire Soviet Union as their homeland and rarely had contact with Russia. Therefore, the collapse of the Union was painfully experienced by the majority of Russians who were used to living in a large country. Secondly, the all-Russian identity did not emerge in the course of national movements, as in the newly independent regions of other states, on the contrary, the development of a unified civil identity of the inhabitants of Russia was hindered in various ways and at different levels [6.p.5].

Also, the political mechanisms of the formation of the civil identity act as one of the elements of the construction of a regional identity or a specific space in the region. It serves as a basis for special acceptance of national political problems. It is created on the basis of the general region, features of regional life, and a known system of values. There are two main components in the structure of regional identity - knowledge, the characteristics of one's "territorial" group (sociological element) and self-awareness as a member and evaluation of the qualities of one's territory, its socio-reflective element value in the global and local coordinate system [1. P.16] can be noted.

As an organizing force, civil identity is closely related to the oppression of certain social groups (women, ethnic minorities, etc.), exposure to and defenselessness against cultural imperialism, violence, and marginalization. Civil identity emerges from the analysis of this oppression and the desire to rebuild the existing society.

The process of formation of civil identity in the political-social sphere ends with citizens becoming internal controllers of social behavior as a result of mastering the stereotypes and rules of their social groups. Citizens then actively evaluate their community and compare it to other groups. After decades of comparative indifference to the scholarly concepts of identity and identification in the social sciences, the term "identity" has re-emerged in recent years in journalism and political science, as well as in the social sciences. Identity has taken the place of the words "self-awareness" and "self-knowledge" that were



“RAQAMLASHGAN JAMIYATDA INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH: IMKONIYAT VA ISTIQBOLLARI” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

used to refer to a citizen, group, ethnic group, and the like. However, the meaning of identity in different theoretical contexts is not the same. This causes some difficulties in comparing and generalizing the results of research conducted in political science, sociology, anthropology and psychology. At the same time, from the mutual references of the representatives of various sciences, it can be observed that the concept of identity, with all its multiplicity of importance, has a meaningful core that preserves the main meaning in each use of the term. Therefore, from an epistemological point of view, it is important to get answers to at least the following questions:

- Which meaningful aspects of the concept of identity are always valid in use;
- How to explain differences in the meaning of identity;
- In which theoretical context of social-scientific knowledge, the use of identity is widespread.

Consideration of identity in social studies. Since identity is viewed from different directions in the study of human beings, social sciences: in psychology, sociology, political science and anthropology, interpret it differently. However, this does not mean that there is complete inconsistency between the data and results obtained within each study. The question here is to clarify whether they are logically justified in the theoretical model being developed. Therefore, it is necessary to consider the interpretation of the concept of "identity" in various social sciences.

The most widespread options of identity politics for the countries receiving the migration flow are assimilation (the final stimulation of complete integration of the migrant into the host society), differential exclusion and segregation (connection of migrants with the stock) u) and multiculturalism based on the ideas of cultural pluralism. However, the experience of many countries, including Germany, France, Australia, and the United States, shows that the implementation of existing models of identity politics is not justified in many ways. It is known that some of the countries mentioned are experiencing identity crises today. [4. P. 45] According to D. I. Uznarodov, "the impact of migration processes on national identity is caused by a number of factors. These include: the socio-cultural characteristics of migrants, the size of the total population, as well as the distance of migration from certain regions [8. P.41]. "In the opinion of V.A. Avksentiev, B.V. Aksumov and V.A. Vasilchenko, among the independent directions of state policy in modern Russia is the idea about the foundations of identity politics [5. P. 23]. This, in turn, is not a passive observation of the political processes taking place in the field of formation of national identity in Russian society, but it is necessary to build an active effort of state and social structures in this direction.

It is noted that the concept of identity was first used by Z. Freud in the sense of what is hidden from the individual and can be revealed with the help of psychoanalysis.



“RAQAMLASHGAN JAMIYATDA INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH: IMKONIYAT VA ISTIQBOLLARI” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

American psychologist E. Erikson began to study identity as a special socio-cultural phenomenon on psychoanalytical, but highly verified grounds. At first, his works were known mainly among professional psychologists. At the end of the 1950s, it attracted the interest of sociologists and anthropologists, which continues to this day. In the 1970s and 1980s, thanks to Erikson's ideas, identity became an interdisciplinary category of knowledge. Here individual identity has an important place. According to Erikson, although it is necessary to take into account both individual and collective aspects of the concept, the concept of identity remains primarily individual-centered (the social self). Therefore, the terms "ego-identity" and "identity crisis" are explained as positive and negative identity. Starting with these activities, the research is divided into three main areas: sense of identity; identity formation process; the outcome of this process is seen as a configuration of identity.

To sum up: within the framework of the theory of personality development, the formation of identity refers to the interaction between the inner soul of a person and his participation in social life based on the recognition and acquisition of cultural norms, social positions and roles. The structure of the personality is understood in the spirit of the Freudian psychodynamic model: the concepts of "self-identity" (ego-identity) and "personal identity" are different from each other. The first concept shows the deep core of the individual, which ensures the continuity of the integrity of the individual in sociocultural space and time. The second shows the sociocultural knowledge and experiences acquired through the Self. As Erikson adheres to the theory of personality development, he understood identity as the result of individual advancement, forward striving, improvement in the sociocultural environment, and self-development. The process leading to this result is called identification, and it ensures a continuous movement of identity throughout the life cycle of a person.

An effective state policy on the formation of national identity can basically smooth out the conflict of the same migration flow associated with the self-determination of ethnic minorities, as well as the conflict that arose as a result of the political and ethno-cultural tensions of various groups that are part of the national state. The ability of public policy to mitigate a thousand contradictions and potential conflicts is the guarantee of the future of effective social construction.

Literature:

1. Jade, GA. Geopolitical features of Russia in the context of globalization / G.A. Nefrit. Abstract diss..d. political p. - Krasnodar, 2007, p.16
2. Miklyaeva A. V., Rumyantseva P. V. Social identity personality: content, structure, mechanism formation [Electronic resource]. - Mode of obtaining information: 22.04.2017. http://humanpsy.ru/miklyaeva/soc_ident_01



**“RAQAMLASHGAN JAMIYATDA INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH: IMKONIYAT VA ISTIQBOLLARI”
mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya**

3. 115;116; Marcia, J.E. Identity in adolescence [Text] / J.E. Marcia // Adelson J. (ed.) Handbook adolescent psychology. N.Y.: John Wiley. 1980, 551-558-6.
4. Malakhov V. After Multiculturalism: Europe and its Immigrants. Vestnik Instituta Kennana v Rossii, 2012, vol. 21, pp. 45–55. (Oruscea)
5. Minenkov G. Identity as an object of political analysis. Political Identity and Political Security, Vol. 1. Moscow, ROSSPEN Publishing House, 2011, p. 2. 18-25. (Oruscea), 3”. 23
6. Pain E. The problem of self-identification of Russians with a country, with a region, with an ethnic community // The problem of identity: people and society on the threshold of the third millennium. M., 2003., p. 5
7. Freud, Z. I and It.– M.: Azbuka-classics, 2015. – 288 p.
8. Uznarodov D.I. The migration of the national processor is the formation of identity to the Qatari factor. News of universities. Regions of the North Caucasus: Social Sciences, 2014, no. 6 (184), pp. 38–43. (English) , p. 41
9. Erikson, E. Identity: youth and crisis. Translation. from English A. Andreeva, A. Prikhodzhan, V. Rivosh, N. Tolstykh - M.: Flinta, MPSI, Progress, 1996. 352 p.

RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR SHAROITIDA OLIY TA’LIM TIZIMINI BOSHQARISHNING STRATEGIK YONDASHUVLARI

Ramatov Jumaniyoz Sultonovich

TDTTrU “Ijtimoiy fanlar” kafedrası mudiri, Falsafa fanlari doktori, professor

ramatov1956@email.ru

Toshkent, O‘zbekiston

Annotatsiya. Mazkur maqola oliy ta’lim tizimini boshqarishda raqamli yechimlar joriy etish jarayonida yuzaga keladigan imkoniyatlar va xatarlarni kompleks tahlil qilishga qaratilgan bo‘lib, unda oliy ta’lim muassasalari faoliyatini zamonaviy texnologiyalar yordamida takomillashtirish, uni yangi bosqichga olib chiqish hamda ma’lumotlar xavfsizligi masalalarini chuqur yoritish asosiy maqsad sifatida ko‘rsatib o‘tiladi.

Kalit so‘zlar: raqamli boshqaruv, oliy ta’lim, kiberxavfsizlik, bulut texnologiyasi, innovatsion boshqaruv, raqamli transformatsiya, big data, raqamli savodxonlik, onlayn platforma, strategik rejalashtirish.

Bugungi kunda globallashuv va raqamli transformatsiya jarayonlari jamiyatning barcha sohalariga chuqur singib bormoqda. Xususan, oliy ta’lim tizimi ham raqamli texnologiyalar ta’sirida tub o‘zgarishlar ostida qolmoqda. An’anaviy ta’lim metodlarining cheklanganligi, mehnat bozori talablarining yangilanishi va texnologik innovatsiyalarning tezkor sur’atlarda rivojlanishi oliy ta’lim muassasalarini zamonaviy boshqaruv yondashuvlariga o‘tish zaruriyatiga olib kelmoqda. Raqamli vositalar, platformalar va



“RAQAMLASHGAN JAMIYATDA INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH: IMKONIYAT VA ISTIQBOLLARI” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

dasturlar tufayli oliy ta’limda boshqaruv jarayonlari takomillashtirilib, samaradorlik, shaffoflik va sifat yangi bosqichga ko’tarilishi mumkin bo’lmoqda. Biroq, raqamli ekotizimning joriy etilishi xatarlarni ham birga olib kelishi tabiiydir. Xususan, ma’lumotlar xavfsizligi, infratuzilma bilan bog’liq muammolar, raqamli savodxonlik darajasining turlicha ekanligi kabi omillar boshqaruv jarayonlarida yangi qiyinchiliklar tug’dirmoqda.

Oliy ta’lim tizimi raqamli inqilob davrida nafaqat ta’lim jarayoni sifatini oshirish, balki boshqaruv faoliyatini ham tubdan yangilash, ishonchli va tezkor qaror qabul qilish imkoniyatini yaratishi lozim. Raqamli transformatsiya deganda, texnologiya orqali tashkilotning barcha komponentalarini, shu jumladan, strategik rejalashtirish, resurslar taqsimoti va sifat monitoringini izchil uyg’unlashtirish tushuniladi. J.Smith ta’kidlaganidek, “raqamli boshqaruv nafaqat texnologiyani joriy etish, balki mutasaddi xodimlarning ko’nikma va dunyoqarashini transformatsiya qilish orqali ish jarayonlarini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqishdir” [1; 122].

Raqamli inqilob tufayli oliy ta’lim muassasalari an’anaviy tuzilmalardan moslashuvchan, “aqlli” texnologiyalar bilan qurollangan tizimlarga aylanib bormoqda. Jumladan, axborot tizimlaridan foydalanish, platforma asosida boshqaruv, elektron hujjat aylanishi, “katta ma’lumotlar” (Big Data) va sun’iy intellekt (Artificial Intelligence, AI) bilan ishlash kabi tamoyillar boshqaruv jarayonlarining ajralmas qismiga aylanmoqda. Bu o’z navbatida, oliy ta’limda raqamli iqtisodiyot talablariga mos kadrlar yetishtirish, ilmiy tadqiqotlar samaradorligini oshirish, byudjet va moliyaviy hisobotlarni boshqarish, xodimlar faoliyatini monitoring qilish kabi funksiyalarni takomillashtirishga xizmat qiladi.

Oliy ta’lim boshqaruvida eng muhim raqamli vositalardan biri — maxsus dasturiy platformalardir. Bunday platformalar o’quv rejalari, dars jadvali, talabalar to’lovlari, ilmiy tadqiqot loyihalari, xodimlar faoliyati, kadrlar bo’limi kabi bo’limlarni yagona tizimga birlashtirib, real vaqt rejimida ma’lumot olish imkonini beradi. Shuningdek, masofaviy shaklda boshqaruv qarorlarini qabul qilish, videokonferensiya, vebinariya va boshqa onlayn xizmatlardan foydalangan holda rasmiy majlislar o’tkazish imkoniyati keskin oshadi. A. Brown va T. Johnson fikriga ko’ra, zamonaviy oliy ta’lim muassasalari “iqtisodiy samaradorlikni oshirish va ta’lim sifatini yaxshilash uchun raqamli platformalar orqali boshqaruv jarayonlarini yagona ekotizimga integratsiya qilishga intilishi kerak” [2; 54]. Bundan tashqari, “bulut” texnologiyalari boshqaruv hujjatlarining saqlanishi, ma’lumotlar almashinuvi va ularning himoyasini samarali yo’lga qo’yadi. Ilmiy loyihalar bo’yicha hamkorlik qilish, xodimlar o’rtasida hujjatlarni ko’rib chiqish va tahrir qilish, katta hajmdagi ma’lumotlarni tezkor tahlil qilish imkoniyati “bulut” xizmatlari asosida amalga oshiriladi. Shuningdek, oliy ta’lim muassasalari CRM tizimlaridan foydalanib, talabalar bilan doimiy aloqada bo’ladi, ularning qiziqishlari, arizalari, shikoyatlari, to’lovlari va o’quv natijalarini monitoring qilishi mumkin.



“RAQAMLASHGAN JAMIYATDA INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH: IMKONIYAT VA ISTIQBOLLARI” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

Raqamli texnologiyalarning joriy etilishi bilan birga yangi turdagi xatarlar ham paydo bo‘ladi. Oliy ta’lim tizimi miqyosida bu xatarlar quyidagi yo‘nalishlarda namoyon bo‘ladi:

Ma’lumotlar xavfsizligi va maxfiylik. Talabalar, xodimlar va ilmiy tadqiqotlarga oid katta hajmdagi ma’lumotlar raqamli muhitda saqlanadi. Ushbu ma’lumotlarga kiberhujumlar yoki ichki xodimlar tomonidan ruxsatsiz foydalanish jiddiy oqibatlariga olib kelishi mumkin.

Texnik infratuzilma bilan bog‘liq muammolar. Raqamli tizimlar uzluksiz ishlashi uchun muayyan texnik talablar, server quvvati, yuqori tezlikdagi internet, muntazam modernizatsiya singari masalalar dolzarb hisoblanadi. Bu talablarga rioya etilmasligi boshqaruv jarayonlarini izdan chiqarishi mumkin.

Raqamli savodxonlik darajasining turlicha ekanligi. Raqamli transformatsiya ikki tomonlama jarayon: tizimning o‘zi yuqori sifatli bo‘lishi bilan birga, uni boshqaradigan xodimlarning raqamli kompetentligi ham yetarli bo‘lishi talab etiladi. Boshqaruv xodimlarining texnologiyalarni bilmasligi jarayon sifatiga bevosita ta’sir qiladi.

Huquqiy-normativ cheklovlar. Raqamli transformatsiya bo‘yicha qonunchilik bazasi hamisha ham tez moslashavermaydi. Intellektual mulk, shaxsiy ma’lumotlar himoyasi va kiberxavfsizlik bo‘yicha huquqiy cheklovlar raqamli yechimlarni joriy etishni murakkablashtirishi mumkin.

G. Siemens raqamli transformatsiya jarayonida “xavfsizlik va maxfiylik masalalari aynan oliy ta’lim muassasalarida juda sezilarli darajada namoyon bo‘lishini” ta’kidlaydi [3; 36]. Bunga sabab, universitet va institutlar ilmiy innovatsiyalar, patentlash jarayonlari, xodimlar hamda talabalar ma’lumotlarining keng hajmda muomalaga tushishi bilan bog‘liqdir.

Raqamli texnologiyalar qanchalik rivojlangan bo‘lmasin, xakerlik hujumlari, kiberjinoyatchilik va ma’lumotlarga ruxsatsiz kirish xavfi har doim saqlanib qoladi. Yevropa Ittifoqi doirasida olib borilgan bir qator tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, universitetlar kiberhujumlarga eng ko‘p duchor bo‘ladigan muassasalar qatorida turadi. Bu holat oliy ta’lim tizimi boshqaruviga bevosita tahdid soladi, chunki boshqaruv qarorlari qabul qilishda qo‘llaniladigan ma’lumotlar buzilishi yoki o‘zgartirilishi jiddiy xatolarga olib kelishi mumkin. Shu boisdan, oliy ta’lim muassasalari ma’lumotlar xavfsizligi bo‘yicha yaxlit strategiya ishlab chiqishi, har bir bo‘lim darajasida kiberxavfsizlik siyosatini joriy etishi va muntazam monitoring olib borishi lozim. Bu borada K. Smith va M. Garsia o‘z tadqiqotida oliy ta’lim muassasalarida “xodimlardan tortib talabalargacha bo‘lgan barcha manzillarni kiberxavfsizlik bo‘yicha yo‘riqnomalar bilan muntazam tanishtirish, blokcheyn kabi yangi texnologiyalarni tatbiq qilish va tez-tez audit jarayonlarini o‘tkazish” muhimligini alohida qayd etishgan [4; 95].



“RAQAMLASHGAN JAMIYATDA INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH: IMKONIYAT VA ISTIQBOLLARI” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

Raqamli transformatsiya nafaqat tizim va dasturiy mahsulotlarni joriy etish, balki inson resurslarining malakasini oshirishni ham talab qiladi. Boshqaruv darajasida raqamli savodxonlik deganda, ma'lumotlarni tahlil qilish, elektron axborot tizimlaridan samarali foydalanish, masofaviy aloqa vositalarida ish olib borish, kiberxavfsizlik qoidalarini tushunish kabi ko'nikmalar nazarda tutiladi. Masalan, rektor, prorektor, dekan va kafedra mudirlari singari rahbar kadrlar qaror qabul qilish jarayonlarida raqamli vositalardan oqilona foydalanish mahoratiga ega bo'lishi kerak.

Raqamli yechimlar va xatarlarni boshqarish sohasida jahonning ilg'or oliy ta'lim muassasalari turli shakldagi mexanizmlarni ishlab chiqqan. Misol uchun, AQShning MIT (Massachusetts Institute of Technology) da e-raqamli boshqaruv tizimlari orqali har bir fakultet, laboratoriya va markaz faoliyatini integratsiya qilish yo'lga qo'yilgan. Bu boshqaruv jarayonlarini soddalashtirish va ma'lumotlar almashinuvi tezkorligini ta'minlash imkonini bergan. Yevropa misolida esa, Germaniya, Shvetsariya kabi davlatlar oliy ta'lim muassasalari tajribasida raqamli infratuzilmani rivojlantirishga qaratilgan. Bunda davlat dasturlari orqali universitetlar yuqori tezlikdagi internet, keng ko'lamli server quvvati va maxsus tadqiqot markazlari bilan ta'minlanadi. Shu bilan birga, har bir oliy ta'lim muassasasi o'zining kiberxavfsizlik bo'limini shakllantirib, mustaqil ravishda ichki monitoring va himoya choralarini olib boradi. Osiyo davlatlari orasida Janubiy Koreya, Singapur, Yaponiya oliy ta'limda raqamli boshqaruv bo'yicha ilg'or texnologiyalardan foydalanishi bilan ajralib turadi. Masalan, Singapur Milliy Universitetida har bir talabaga elektron identifikatsiya kartasi beriladi, bu karta orqali talabalar darsga qatnashishi, kutubxonadan foydalanishi, o'quv to'lovlarini amalga oshirishi va turar joy holatini ko'rishi mumkin. Ushbu tizim boshqaruv uchun ham qulay, chunki real vaqt rejimida kerakli hisobotlar, tashkiliy ma'lumotlar olinadi va xatarlar monitoring qilinadi.

Oliy ta'lim tizimini boshqarishda raqamli yechimlar joriy etilishi, shubhasiz, zamon talabiga mos, shaffof va tezkor boshqaruvni yo'lga qo'yishning muhim vositasidir. Ushbu yechimlar universitetlarning ichki jarayonlari, akademik faoliyat, ilmiy loyihalar, xodimlar boshqaruvi, moliyaviy hisobotlar va hatto marketing strategiyalarigacha kompleks ta'sir o'tkazadi. Biroq, bu jarayon xatarlar bilan ham chambarchas bog'liqdir. Ma'lumotlar xavfsizligi, kiberjinoyatchilik, texnik infratuzilmaning zaifligi va raqamli savodxonlikning yetarli darajada emasligi kabi omillar boshqaruv jarayonlarini murakkablashtirishi mumkin. Shu bois, oliy ta'lim muassasalari raqamli transformatsiyani amalga oshirishda izchil rejalashtirilgan strategiya ishlab chiqishi, huquqiy bazaga tayanuvchi ichki qonun-qoidalarini qabul qilishi va xodimlarning malakasini doimiy ravishda oshirib borishi zarur. Xalqaro tajribalar ko'rsatadiki, kuchli texnik infratuzilma, integral raqamli platformalar, kiberxavfsizlikni ta'minlash bo'yicha mustahkam siyosat va doimiy monitoring eng yaxshi natijalarni keltirib chiqaradi. Raqamli yechimlar – kelajak ta'limi, ilmiy izlanishlar va



**“RAQAMLASHGAN JAMIYATDA INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH: IMKONIYAT VA ISTIQBOLLARI”
mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya**

boshqaruvning asosiy yo‘nalishi bo‘lib, ular orqali oliy ta’lim muassasalari global raqobatda munosib o‘rin egallash imkoniga ega bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Smith, John. Digital Solutions in Higher Education Management. Oxford University Press, 2021. – P. 122.
2. Brown, Adam va Johnson, Tyler. Innovations in Academic Administration: A Comprehensive Guide to Digital Platforms. Cambridge University Press, 2019. – P. 54.
3. Siemens, George. Preparing for the Digital University: A Review of the History and Current State of Distance, Blended, and Online Learning. MOOC Research Initiative, 2015. – P. 36.
4. Smith, Karl va Garcia, Maria. Cybersecurity in Higher Education: Strategic Framework for Universities. Springer, 2022. – P. 95.
5. Ramatov, J., (2020). Theoretical and ideological sources of beruni's philosophical views. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 10(11), 1974-1980.
6. Ramatov, J., (2021). Central Asia in IX-XII Centuries: Socio-political Situation, Spiritual and Cultural Development. Academicia Globe: Inderscience Research, 2(04), 148-151.
7. Ramatov, J., (2022). THE PROCESS OF CIVILIZATION AND IMPORTANT CHANGES IN LIFE. Web of Scholars: Multidimensional Research Journal, 1(6), 243-246.
8. Ramatov, J., (2022, June). Evolution of railway construction development in Uzbekistan: Past and prospects. In AIP Conference Proceedings (Vol.2432, No. 1.)
9. Ramatov, J., (2022). PROBLEMS OF INFLUENCE OF ISLAM ON CONSCIOUSNESS TRANSFORMATION. Academic research in educational sciences, 3(10), 591-597.



OLIV TA'LIM TIZIMIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING QO'LLANILISHI VA UNING AHAMIYATI

Qodirov Ikrom Davronovich

Chirchiq davlat pedagogika universiteti, *Pedagogika kafedrasi mudiri*,
p.f.f.d., v.b dotsent

i.qodirov@cspi.uz, +998998572417

Daminova Sangina

Chirchiq davlat pedagogika universiteti, "Pedagogika nazariyasi va tarixi"
yo'nalishi 1-bosqich magistranti

sangina544@gmail.com, +998949469921

Annotatsiya

Ushbu maqolada yurtimizda raqamlashtirishga qaratilgan strategiya hamda qarorlar, jamiyat taraqqiyotining hozirgi bosqichida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining inson hayotining barcha jabhalariga, jumladan, ta'limga ham kirib borishi, ta'lim sohasida olib borilayotgan islohotlar, ta'lim sohasida raqamli texnologiyalarning qo'llanilishi, bu borada olib borilayotgan chora tadbirlar, ta'lim muassasalariga joriy etilgan raqamlashtirilgan tizim roli va ahamiyati haqida berilgan.

Kalit so'zlar. raqamli ta'lim, abxorot tizimi, elektron ta'lim, ta'lim, texnologiya, axborot kamunikatsion texnologiyalari, Hemis tizmi, oliy ta'lim .

Аннотация

В данной статье представлены стратегия и решения, направленные на цифровизацию в нашей стране, внедрение информационно-коммуникационных технологий на современном этапе развития общества во все сферы жизни человека, в том числе в образование, проводимые реформы в сфере образования, применение цифровых технологий в сфере образования, принимаемые меры в этом направлении, роль и значение оцифрованной системы, внедренной в образовательные учреждения.

Ключевые слова. цифровое образование, система абхорат, Электронное образование, образование, технологии, информационно-коммуникационные технологии, система Hemis, высшее образование.

Abstract

This article provides information about strategia and decisions aimed at digitization in our country, the penetration of information and communication technologies into all aspects of human life at the present stage of the development of society, reforms carried out in the field of education, the application of digital technologies in the field of education, measures taken in this regard, the role and importance of the digitized system.



“RAQAMLASHGAN JAMIYATDA INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH: IMKONIYAT VA ISTIQBOLLARI” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

Keywords. Digital education, abhorot system, e-learning, education, technology, information camouflage technologies, Hemis Ridge, higher education.

Ta'lim muhitida yangi texnologiyalarni o'rganish zamonaviy pedagogik tadqiqotlarning muhim jihati hisoblanadi. Yangi texnologiyalarning rivojlanishi va ularning o'quv jarayoniga qo'shilishi bilan butun dunyo bo'ylab ta'lim muassasalari o'qitish va boshqarishning yangi usullariga moslashishi kerak. Ta'limda raqamli texnologiyalardan foydalanish o'qitish va o'qitish usullarini o'zgartiradi va ta'lim jarayonlarini boshqarishda yangi yondashuvlarni taklif etadi. Jahon darajasiga moslashish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-iyuldagi “Raqamli O'zbekiston – 2030” strategiyasi va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlarini tasdiqlash to'g'risida”gi PF-6079-son qarori qabul qilindi. Strategiya ikkita dasturni tasdiqlashni nazarda tutadi: hududlarni raqamlashtirish va sohalarni raqamlashtirish. Shunday qilib, ikkita yondashuv taqdim etiladi - hududiy va tarmoq. Bu, shubhasiz, hujjatning eng keng qamrovli yoritilishi va samarali amalga oshirilishini ta'minlaydi. Strategiyani muvaffaqiyatli amalga oshirishning eng muhim sharti aholining raqamli savodxonligini oshirishni ta'minlashdan iborat. Hujjatga ko'ra, o'qitish tizimining barcha bosqichlarida raqamli ta'limni joriy etish, innovatsion texnologiyalar -ta'limni rivojlantirish va ijtimoiy sohalar orqali aholi o'rtasida raqamli ko'nikmalar mavjudligini ta'minlash rejalashtirilgan. Shuningdek, mazkur farmonda axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari sohasida ustuvor yo'nalishlarda fundamental va amaliy tadqiqotlar olib borishga alohida e'tibor qaratilgan[1].

Raqamlashtirish tizimi fan, ta'lim, texnika, axborot kommunikatsiya, tibbiyot, iqtisodiyot va shu kabi barcha sohalarda birdek rivojlanib kelmoqda. Hozirgi kunda soniya sayin axborotlar oqimi jadallik bilan rivojlanib, kengayib bormoqda. Shu bilan bir qatorda ta'lim jarayonida ham raqamli texnologiyalar tobora rivojlanib bormoqda. Zamonaviy raqamli texnologiyalar butun dunyo bo'ylab universitetlar va boshqa ta'lim muassasalarini rivojlantirish uchun yangi vositalarni taqdim etadi. Raqamlashtirish tajriba va bilim almashish imkoniyatini beradi, odamlarga ko'proq o'rganish va kundalik hayotlarida ko'proq ongli qarorlar qabul qilish imkonini beradi. Oliy ta'lim muassasalarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari ta'limning ajralmas qismi hisoblanadi, chunki ko'plab oliy o'quv yurtlarining o'quv rejasida talabalarda zamonaviy apparat va texnik vositalardan, shuningdek, dasturiy ta'minotdan hamda kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda professional ma'lumotlarni saqlash, taqdim etish, qayta ishlash va uni uzatish bo'yicha malaka va ko'nikmalarni shakllantirishga imkon beradigan axborot texnologiyalari bilan bog'liq fanlar mavjud.

Turli raqamli platformalarga bo'lgan qiziqishning ortishi yurtimizda ham oliy ta'lim jarayonlarini boshqarish uchun mo'ljallangan “HEMIS” milliy axborot tizimining



“RAQAMLASHGAN JAMIYATDA INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH: IMKONIYAT VA ISTIQBOLLARI” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

yaratishga olib keldi va oliy ta'lim muassasalarining o'qituvchilari va talabalari ushbu tizimdan foydalanish imkoniyatini yaratdi [2].

Oliy ta'lim tizimida raqamli universitet loyihasi davom etmoqda. Hozirgi kunda ta'lim jarayoniga oliy ta'lim muassasalaridan olinadigan turli hisobot va ma'lumotlar sonini keskin kamaytirish, ularni tayyorlashning qog'oz shaklidan voz kechish, boshqaruv tizimini raqamlashtirish maqsadida Raqamli universitet loyihasi doirasida “Oliy ta'lim jarayonlarini boshqarish axborot tizimi” (HEMIS Higher Education Management Information Systems) ishlab chiqildi. Ushbu axborot tizimi “Ma'muriy boshqaruv”, “O'quv jarayoni”, “Ilmiy faoliyat” hamda “Moliyaviy boshqaruv va statistika” axborot tizimlarini o'z ichiga oladi.

Oliy ta'lim jarayonlarini boshqarish axborot tizimini joriy etishdan maqsad:

- Oliy ta'lim muassasasi faoliyatining ochiqligi va shaffofligini ta'minlash;
- oliy ta'lim tizimida o'quv, ilmiy, ma'muriy va moliyaviy jarayonlarni avtomatlashtirish;
- oliy ta'lim tizimida byurokratik to'siqlar yuzaga kelishini oldini olish va moliyaviy xarajatlarni qisqartirish;
- Oliy ta'lim muassasasi, talaba va ish beruvchi tashkilotlar o'rtasida uzviylikni ta'minlash;
- boshqaruv jarayonlari uchun sarf qilinadigan vaqtni qisqartirish va mehnat samaradorligini oshirish;
- ta'lim jarayoni ishtirokchilari faoliyati samaradorligini monitoring qilish;
- tahliliy ma'lumotlarni shakllantirish va qaror qabul qilish jarayonini optimallashtirish va tezlashtirish.

Ta'limda raqamli texnologiyalardan foydalanish o'qitish va o'qitish usullarini o'zgartiradi va ta'lim jarayonlarini boshqarishda yangi yondashuvlarni taklif etadi. Raqamli texnologiyalar, ya'ni oliy o'quv yurtlari tomonidan qo'llaniladigan onlayn platformalar va media-kommunikativ vositalar o'quv jarayonini takomillashtirishga yordam beradi. Raqamli texnologiyalarni qo'llash va rivojlantirish tadqiqot yondashuvlarini inqilob qilishi mumkin, ammo yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammolar va to'siqlarni tushunishni talab qiladi. Raqamli texnologiyalar keng foyda keltirsa-da, ular raqamli bo'linish bilan bog'liq muammolarni ham keltirib chiqaradi. Ishonchli internet va raqamli qurilmalarga kirish, ayniqsa, uzoq yoki quyi ijtimoiy-iqtisodiy sohalaridagi talabalar uchun tashvish bo'lib qolmoqda. Shu sababli, universitetlarni samarali rivojlantirish uchun raqamli texnologiyalarning ta'lim jarayoniga ta'sirini o'rganish juda muhimdir. Raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi davrida ko'plab o'qituvchilar o'quv jarayonini soddalashtirish uchun yangi o'qitish usullaridan keng foydalandilar. Shu bilan birga, nafaqat dasturiy ta'minotga, balki ta'lim muassasalarini boshqarish va ta'limda raqamli



“RAQAMLASHGAN JAMIYATDA INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH: IMKONIYAT VA ISTIQBOLLARI” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

texnologiyalardan foydalanishga yondashuvlarga ham alohida e'tibor qaratish lozim. Shuni ham ta'kidlashimiz lozimki, raqamli texnologiyalar nafaqat talabalar bilan mashg'ulotlar o'tkazish, balki o'quv jarayonini tashkil qilish va nazorat, nazorat va monitoring kabi funktsiyalarni bajarish uchun ham qo'llaniladi.

Raqamli texnologiyani to'g'ri tanlash deganda turli texnologik jihozni o'z o'rnida zaruratga qarab ishlatish maqsadga muvofiqdir. Masalan “ZOOM” platformasini turli sababga ko'ra (kasallik, yosh bolali ayol o'quvchi, noqulay ob-havo va imkoniyati cheklangan) o'qishga kelolmaydigan talabalarni o'qitishda foydalanish, yuqoridagi talabalarni ta'lim olish imkoniyatlarini oshiradi. Biz bilamizki, har qanday o'qitishdan maqsad ta'lim oluvchining olgan bilimlarining natijalari muhimdir.

Xulosa qilib aytganda, o'qitishni raqamlashtirish ya'ni multimedia texnologiyalari orqali tashkil etish nafaqat, “HEMIS” axborot tizimi beradigan imkoniyatlarni, balki dars jarayonida talabalar axborotlarni oson va sifatli o'zlashtirishga juda katta yordam beradi. Buning uchun raqamli texnologiyalarning eng zarurini va o'qitishga qulayini zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan integratsiya qilgan holda ta'lim va tarbiya samaradorligini oshirish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-iyuldagi “Raqamli O'zbekiston – 2030” strategiyasi va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlarini tasdiqlash to'g'risida”gi PF-6079-son qarori.

2. Aglyamzyanova G.N., Gumerova L.Z., Digital pedagogi in higher school: using student simulation learning. Russian Journal of Education and Psychology 2021, Том 12, № 1-2,

3. Калинина С.Д. Вебинар как форма электронного обучения в высшей школе / С.Д. Калинина // Вестник МГИМО Университета. – 2015. – № 2 (41). – С. 291–295.

4. Y.Vissema. Uchinchi avlod universiteti. O'tish davridagi universitet boshqaruvi / Й. Виссема. – М.: Олимп-Бизнес, 2016.

5. Yu.V.Sharonin, Oliy va kasbiy ta'limdagi raqamli texnologiyalar: mutaxassislarni maqsadli tayyorlashda shaxsga yo'naltirilgan smart-didaktikadan blokcheyngacha/ Ю.В. Шаронин //Современные проблемы науки и образования. – 2019.



RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VOSITASIDA BO‘LAJAK TARIX O‘QITUVCHILARIDA INFORMATSION-ANALITIK KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYASI

Siddiqov Ilyosjon Baxromovich

FarDU Falsafa va Milliy g‘oya kafedrası mudiri,
falsafa fanlari doktori (DSc), professor

Annotatsiya: Ushbu maqolada bo‘lajak tarix o‘qituvchilarida informatsion-analitik kompetentlikni rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari, aralash ta‘lim sharoitida bo‘lajak tarix o‘qituvchilarida informatsion-analitik kompetentlikni rivojlantirishning pedagogik asoslari, aralash ta‘lim sharoitida bo‘lajak tarix o‘qituvchilarida informatsion-analitik kompetentlikni rivojlantirishning pedagogik parametrlari tadqiq etilgan. Bundan tashqari, raqamli texnologiyalar vositasida bo‘lajak tarix o‘qituvchilarida informatsion-analitik kompetentlikni rivojlantirish texnologiyasi tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: tarix, informatsion-analitik kompetentlik, aralash ta‘lim sharoiti, pedagogik parameter, raqamli texnologiyalar, innovatsiya.

Jahonda ana‘naviy ta‘limning mantiqiy, izchil rivojlanishi asosida aralash ta‘lim jadal rivojlanmoqda. O‘tgan asrning oxirlaridan informatsion texnologiyalarning takomillashib borishi ta‘limning global ahamiyat kasb etishini yuzaga chiqardi. Ta‘lim olishning an‘anaviy shakli o‘z ahamiyatini yo‘qotib aralash ta‘lim ommalasha boshladi. Xalqaro ta‘lim maydonida aralash ta‘lim («blended learning») tushunchasi gibrid ta‘lim («hybrid learning»), texnologiyalar vositasida o‘qitish («technology-mediated instruction»), vebga asoslangan o‘qitish («web-enhanced instruction») va aralash rejimida o‘qitish («mixed-mode instruction») atamaları bilan sinonim tarzda ishlatilmoqda. Elektron darsliklardan to masofali ta‘lim, bulutli texnologiyalar, ommaviy ochiq onlayn kurslarigacha bo‘lgan taraqqiyot ta‘lim shakllarini takomillashtirishga zamin yaratadi. Bu esa axborot olish imkoniyatini kengaytirish bilan birga informatsion-analitik kompetentlikka ega bo‘lish mas‘uliyatini ham shakllantirmoqda.

XXI asrda axborot va kommunikatsion texnologiyalarning rivojlanishi barcha sohalarda bo‘lgani kabi ta‘lim tizimida, xususan tarix fanini o‘qitishda ham zamonaviy talablar asosida ta‘lim sifatini yanada oshirishni taqozo qilmoqda. Yangi O‘zbekistonda ham ta‘limga bo‘lgan munosabatning o‘zgarishi va axborot texnologiyalarining keng joriy qilinishi natijasida aralash ta‘lim muhitining shakllanishi jarayoni yuz bermoqda. Bunday sharoitda o‘qitish auditoriyalardan chiqib, global ko‘lam kasb etishi kuzatilmoqda. Bu esa bo‘lajak kadrlarga bilim olish imkoniyati va qulayligini taqdim qilish bilan birga informatsion madaniyatni shakllantirish, analitik fikrlash qobiliyatini o‘stirishni ham yuzaga chiqarmoqda.



“RAQAMLASHGAN JAMIYATDA INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH: IMKONIYAT VA ISTIQBOLLARI” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

Raqamli texnologiyalarning o‘rni YUNESKO tomonidan 2015-yilda “Ta’lim-2030” doirasida qabul qilingan “Barqaror rivojlanish uchun ta’lim” dasturida ham alohida ta’kidlangan. Shu nuqtai nazardan, Xalqaro Ta’lim Texnologiyalari Jamiyati ma’lumotlariga ko‘ra, texnologiya talabalarga axborot texnologiyalari bilan ishlash, muammolarni hal qilish va qarorlar qabul qilish, mazkur vositadan ijodiy va samarali foydalanuvchi bo‘lish imkonini beradi (ISTE, 2000). Ta’lim jarayonida texnologiyani qo‘llash orqali bu boradagi ko‘nikma va malakalarni shakllantirish talabalarni kelajakdagi kasb-hunarga tayyorlashga yordam beradi.

Bugungi zamonaviy talabalar allaqachon raqamli, kibernetik bo‘lib, ularning hayoti, nutqi, fikrlari, xatti-harakatlari murakkab qurilmalar va mahsulotlar bilan shakllantirilgan. Zamonaviy bo‘lish bugungi davrning talablaridan biri. Shunday qilib, talabalarda raqamli texnologiyalar bilan ishlash bo‘yicha ko‘nikmalarni shakllantirishda tarix fani uchun ajratilgan o‘quv soatlari, mavzularda raqamli texnologiyalar bilan ishlash imkoniyatlarini inobatga olgan holda o‘quv materiallarni ikki guruhga ajratish mumkin: nazariy darslarda foydalanish uchun mo‘ljallangan interaktiv vositalar hamda amaliy bajarish uchun mo‘ljallangan grafik ilovalar.

Raqamli texnologiyalar yordamida yaratiladigan multimediali formatdagi materiallar o‘zining tasvirlarni aniq taqdim qilish, ma’lumotlarni yanada chuqurroq anglash uchun maxsus effektlarni yarata olish hamda keng ko‘lamli vizual ma’lumotlar taqdim eta olish imkoniyalari bilan ta’lim sohasida beqiyos salohiyatga ega. Pedagogning raqamli texnologiyalar borasidagi savodxonligi uning darslarni tashkil etishi, ma’lumotlarni tez va sifatli yetkazib berishi hamda talabalarda ham zamonaviy bilimlarni shakllantirishida alohida o‘ringa ega.

Raqamli texnologiyalar bilan ishlay olish o‘quv jarayonining har ikki subyekti faolligini oshiradi, o‘quv jarayonini individuallashtirishga olib boradi, talaba shaxsining rivojlanishi rag‘batlantiriladi - uning qarorlari mustaqilligi, tashabbusi, vazifalarni aniq bajarishga bo‘lgan talablar ortadi, o‘qituvchi va talaba o‘rtasida mavzuni o‘zlashtirish bo‘yicha qaytar aloqa sezilarli darajada oshadi. Masalaning pedagogik tomoniga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, shuni ta’kidlash kerakki, informatsion raqamli texnologiyalarini joriy etish ta’limning asosiy tamoyillari – ko‘rgazmalilik va qulaylik tamoyillarini amalga oshirishga yordam beradi. Ta’lim jarayonida qo‘llanmalarni (elektron yoki bosma) ishlatish, shuningdek, ularni mustaqil ravishda ishlab chiqarish va har xil turdagi pedagogik ehtiyojlar uchun ko‘rgazmali material tayyorlash imkoniyatlari raqamli texnologiyalar asosida amalga oshiriladi. Informatsion texnologiyalari sohasida mahorat va bilimlarga ega bo‘lgan pedagog talabalarning turli yosh guruhlarida nazariy va amaliy bilimlar blokini o‘zlashtirish jarayonini sezilarli darajada yengillashtirishi va tezlashtirishi, shuningdek o‘rganilayotgan ma’lumotlarni taqdim etish uslubini sezilarli darajada yaxshilashi mumkin.



“RAQAMLASHGAN JAMIYATDA INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH: IMKONIYAT VA ISTIQBOLLARI” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

XXI asrda raqamli texnologiyalarnig keng tarqalishi, ularning aholini barcha qatlamlariga yetib borishi ijtimoiy hayot, jumladan ta’lim tizimiga ham juda katta ijobiy ta’sirini ko’rsatdi. Bu esa o’z o’rnida o’qitishning pedagogik va axborot texnologiyalarini yanada rivojlantirish va bu orqali o’qitish samaradorligini oshirish masalalarini oldinga surmoqda.

Yangi O‘zbekistonni barpo etish sari qadam qo‘yilayotgan bir davrda keng fikrlash doirasiga ega, bilimlarni chuqur egallagan, o‘z sohasida yetuk va zamon talabiga javob bera oladigan shaxslarga bo‘lgan etibor va talab ortib borayotgani, yana bir karra, modernizatsiyalangan ta’limni va sifatli tashkil etilgan ta’limni joriy etish masalasini ko‘ndalang qilib qo‘yadi. Shu sababli ham, bilimdon, tashabbuskor, jamiyatda faol va o‘z mehnatida bilan dunyoni zabt eta oladigan shaxsni shakllantirish bugungi kun talabiga aylanib bormoqda. Hozirgi davr nuqtai nazaridan kelib chiqib bunday talablarga javob bera oladigan va yuqorida sanab o‘tilgan xususiyatlarni o‘zida mujassamlashtirgan shaxsni shakllantirishda o‘qituvchilarning quyidagi mezonlarni inobatga olgan holda o‘quv mashg‘ulotlarini tashkil etishi muhim ahamiyat kasb etadi:

- darslarda zamonaviy va ilg‘or ta’lim texnologiyalarini qo‘llash;
- o‘quv mashg‘ulotlarini tashkil etishda raqamli texnologiyalardan unumli foydalanishni yo‘lga qo‘yish;
- xalqaro tajribalarda yuqori samara bergan natijalarni mamlakatimiz ta’lim tizimiga moslashtirish va ularni amaliyotga tatbiq etish.

Raqamli texnologiyalarni bu jarayonda yangi yechim sifatida ko‘rish mumkin. Chunki, ular foydalanish uchun yangi vositalarni taqdim etadi va tarixiy jarayonlarning ba’zi asoslarini qayta shakllantiradi. Xalqaro Ta’lim Texnologiyalari Jamiyati ta’kidlaganidek, texnologiya talabalarga: axborot texnologiyalari bilan ishlay olish, muammolarni hal qiluvchi va qaror qabul qiluvchi, ishlab chiqaruvchi vositalardan ijodiy va samarali foydalanuvchi bo‘lish imkoniyatini beradi. Raqamli texnologiyalarni tarix ta’limida o‘qitishda qo‘llash borasida fikr yuritilganda, ularning vazifasi, ta’lim mazmuniga mosligi va talabalarda shakllantirilishi lozim bo‘lgan kompetensiyalar bilan bog‘liqligini inobatga olish zarur. Xususan, Pepplarning fikricha raqamli texnologiyalarning tarkibiy qismi bo‘lgan informatsion ta’minotni yaratish uchun muhim uchta keng tushunchalar mavjud:

- o‘quv jarayonida faol ishtirok etish;
- yoshlarning o‘zlarining ishi bilan shaxsiy aloqasi, bu o‘rganishga umumiy muhabbatni uyg‘otadi va avvalgi tajribalariga asoslanadi;
- keng jamoatchilik uchun muhim bo‘lgan loyihalarni yaratish. Shuningdek, raqamli texnologiyarni tasniflashda uning xususiyatlarini ham inobatga olish zarur. Raqamli texnologiyalar ta’rifi barcha elektron vositalarni, avtomatik tizimlarni, texnologik



“RAQAMLASHGAN JAMIYATDA INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH: IMKONIYAT VA ISTIQBOLLARI” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

qurilmalarni va ma'lumotlarni ishlab chiqaradigan yoki saqlaydigan resurslarni o'z ichiga oladi.

Hozirda O'zbekistonda ochiq elektron ta'lim platformalari (LMS-Learning Management System) tarkibiga kiruvchi-Moodle, HEMIS, Google classroom hamda Zoom kabilardan keng foydalanilmoqda. U bajaradigan ishning asosiy tamoyillari qisqartmaning o'zida ko'rinadi.

Shuningdek, bo'lajak tarix o'qituvchilarida informatsion-analitik kompetentlikni rivojlantirishda maxsus kursning amaliy mashg'ulotlarida qo'llash bilan bog'liq o'quv loyihalarini ishlab chiqish va amalga oshirishga jalb etish yaxshi samara beradi. O'quv loyihalarini ishlab chiqish va amalga oshirish orqali talabalarda Internet tarmog'idagi kiberekstremistik faoliyatga qarshi kurashish, shaxs xavfsizligiga tahdidlarning oldini olish va himoya qilish malakalari tarkib toptiriladi. Talabalarning aniq yo'nalishlarda (ochiq axborot xavfsizligi, psixologiya, pedagogika va h.k.) ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishga doir bilim va tajribasi, axboriy materiallarni oson o'zlashtirilishi, axborot-kommunikatsiya sohasidagi turli xil qonunchilik, normativ, huquqiy va ma'naviy-axloqiy meyorlar va xulq-atvorni tezda anglash imkonini beradi. Ana shu tarzda bo'lajak tarix o'qituvchilari kasbiy faoliyatga doir bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarini oshirish uchun keng imkoniyatga ega bo'lishadi.

Informatsion-analitik kompetentlik bo'lajak mutaxassislarning nafaqat asosiy bilimlar va ko'nikmalarini egallashlarini, balki izlanishlar va ijodiy faoliyat uchun zarur bo'lgan bilimlarni ham egallashni ko'zda tutadi. Bo'lajak mutaxassisning informatsion-analitik kompetentlik shakllantirishni biz nazariy bilimlar va amaliy ko'nikmalarning yuqori darajasining, shuningdek, informatsion-analitik faoliyatini tashkil etishga tayyorgarlik sifatida belgilanadi. Informatsion-analitik kompetentlikni rivojlantirishga doir mustaqil o'quv faoliyatini tashkil etishda: talabalarga o'zlarining kuzatishi ehtimoldan uzoq bo'lgan fikrning ancha nozik harakatini sezishda yordam berish; ishning hamma bosqichlarida yuqori tartibdagi fikrlashni rag'batlantirish; munozara yoki yozma ish uchun asos bo'lib xizmat qilish, ya'ni talaba o'z qobig'iga o'ralib qolishining oldini olish muhim ahamiyatga ega.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Рақамли Ўзбекистон — 2030» стратегиясини тасдиқлаш ва уни самарали амалга ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 05.10.2020 йилдаги ПФ-6079-сон Фармони

2. Garrison, D. R., & Kanuka, H Blended learning: uncovering its transformative potential in higher education // Internet and Higher Education. — 2004. — № 7(2), pp. 95–105.



3. Martyn, Margie. The hybrid online model: Good practice // Educause Quarterly. — 2003. — № 26. — pp. 18-23
4. Нагаева И.А. Моделирование процесса преподавания в виртуальном образовательном пространстве вуза // Сетевой научно-практический журнал «Перспективы науки и образования» – № 4. – 2013. – С. 79–92.
5. Полат Е.С. Метод проектов. – М., 2001. – 96 с
6. Ситуационный анализ или Анатомия кейс-метода. / Под. ред. Сурмина Ю.П. – Киев: Центр инноваций и развития, 2002. – 52 с

ЎЗБЕКИСТОНДА ОЛИЙ ТАЪЛИМНИ РАҚАМЛАШТИРИШ МАСАЛАЛАРИ

Улжаева Шохистахон Мамажоновна

Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш муҳандислари
институту Миллий тадқиқот университети «Гуманитар фанлар» кафедраси
профессори

Аннотация

Ушбу мақолада Ўзбекистонда олий таълимни рақамлаштириш жараёни, унинг афзалликлари, мавжуд муаммолари ва истиқболлари таҳлил қилинади. Рақамлаштириш таълим сифатини ошириш ва ресурслардан самарали фойдаланиш имконини берса-да, инфратузилма етишмовчилиги, рақамли саводхонликнинг пастлиги ва ахборот хавфсизлиги каби муаммолар мавжуд. Мақолада ушбу муаммоларни бартараф этиш ва рақамлаштириш жараёнини самарали амалга ошириш бўйича тавсиялар берилган.

Калит сўзлар: Олий таълимни рақамлаштириш, рақамли технологиялар, таълим сифатини ошириш, инфратузилма етишмовчилиги, рақамли саводхонлик, ахборот хавфсизлиги, масофавий таълим, электрон таълим платформалари, таълим ислохотлари, ўқув жараёнини рақамлаштириш

Аннотация

В данной статье анализируется процесс цифровизации высшего образования в Узбекистане, его преимущества, существующие проблемы и перспективы. Хотя цифровизация способствует повышению качества образования и эффективному использованию ресурсов, существуют такие проблемы, как недостаточность инфраструктуры, низкий уровень цифровой грамотности и информационная безопасность. В статье представлены рекомендации по устранению этих проблем и эффективной реализации процесса цифровизации.

Ключевые слова: Цифровизация высшего образования, цифровые технологии, повышение качества образования, отсутствие инфраструктуры, цифровая



“RAQAMLASHGAN JAMIYATDA INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH: IMKONIYAT VA ISTIQBOLLARI” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

грамотность, информационная безопасность, дистанционное образование, платформы электронного обучения, образовательные реформы, цифровизация образовательного процесса

Abstract

This article analyzes the process of digitalization of higher education in Uzbekistan, its advantages, existing problems, and prospects. While digitalization enhances education quality and enables efficient resource utilization, challenges such as insufficient infrastructure, low digital literacy, and information security issues persist. The article provides recommendations for addressing these challenges and effectively implementing the digitalization process.

Key words: Digitization of higher education, digital technologies, improving the quality of education, lack of infrastructure, digital literacy, information security, distance education, e-learning platforms, educational reforms, digitization of the educational process

Кириш. Бугунги кунда рақамлаштириш жараёни жаҳон таълим тизимида муҳим ўрин тутмоқда. Ўзбекистонда ҳам олий таълимни рақамлаштириш борасида қатор ислохотлар амалга оширилмоқда. Бироқ, бу жараёнда айрим муаммолар ва тўсиқлар мавжуд. Ушбу мақолада олий таълимни рақамлаштиришнинг афзалликлари, муаммолари ва истиқболлари таҳлил қилинади.

Ўзбекистонда олий таълимни рақамлаштириш бўйича бир қатор қонунлар ва қарорлар қабул қилинган. Улар қуйидагиларни ўз ичига олади:

1. **"Таълим тўғрисида"ги Қонун:** Ушбу қонун таълим соҳасидаги муносабатларни тартибга солади ва таълимнинг турли босқичларида, жумладан, олий таълимда ҳам рақамлаштириш жараёнларини амалга ошириш учун ҳуқуқий асос яратди¹.

2. **"Рақамли Ўзбекистон – 2030" дастури:** Ушбу давлат дастури мамлакатнинг рақамли трансформациясини назарда тутди ва таълим соҳасида, хусусан, олий таълим тизимида рақамли технологияларни жорий этишни мақсад қилади.

3. **Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 5 октябрдаги ПФ-6079-сонли Фармони:** "Ўзбекистон Республикасида таълим ва илм-фан тизимини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги ушбу фармон таълим соҳасида рақамли технологияларни жорий этишни рағбатлантиради².

¹ Ўзбекистон Республикасининг 2020 йил 23 сентябрдаги ЎРҚ-637-сонли «Таълим тўғрисида»ги Қонуни // <https://lex.uz/acts/16188>

² «Рақамли Ўзбекистон — 2030» стратегиясини тасдиқлаш ва уни самарали амалга ошириш чора-тадбирлари тўғрисида Ўзбекистон Республикаси Президентининг фармони // <https://lex.uz/docs/5030957>



4. **Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2021 йил 15 январдаги 24-сонли қарори:** "Олий таълим муассасаларида электрон таълим платформаларини жорий этиш чора-тадбирлари тўғрисида"ги ушбу қарор олий таълим муассасаларида электрон таълим платформаларини жорий этишни назарда тутди³.

Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2022 йил 3 октябрдаги 559-сонли қарори билан "Олий таълим ташкилотларида масофавий таълим шаклини жорий этиш чора-тадбирлари тўғрисида"ги низом тасдиқланди. Низомга асосан талаблар олий таълим ташкилотларида масофавий таълимни жорий этиш учун қуйидаги шартлар талаб этилади⁴:

"Learning	Management	System"	(LMS)	платформаси;
Интернетга	уланиш	ва	ахборот-коммуникация	инфратузилмаси;
Электрон	ўқув-методик		материаллар	базаси;
Компьютер	техникаси	билан	жиҳозланган	аудиториялар;
Техник ва дастурий	таъминотни	таъминлайдиган	муҳандис-техник	ходимлар;
Таълим	ташкilotига	тегишли	сервер	қурилмаси;
Расмий веб-сайт.				

Масофавий таълим жорий этиш мумкин бўлмаган бакалаврият ва магистратура мутахассисликлари ҳар йили 1 апрелгача эълон қилинади. Масофавий таълим шаклида бир бакалаврият йўналиши учун 300 нафар, магистратура мутахассислиги учун 30 нафар талабадан ошмаслиги лозим⁵. Ахборот-коммуникация технологиялари йўналишлари бундан мустасно. Масофавий таълимда ўқишга қабул қилинган талабалар қуйидаги ҳолатларда олий таълим ташкilotига келишлари шарт: Ўқув жараёни бошланишидан аввал – LMS платформасида рўйхатдан ўтиш учун; Ҳар семестр якунида – якуний назорат топшириш учун.

Якуний давлат аттестацияси, битирув малакавий ва магистрлик иши ҳимояси анъанавий тарзда олий таълим ташкilotида амалга оширилади; уларни масофавий тарзда қабул қилишга йўл қўйилмайди.

Масофавий таълим шакли тўлов-контракт асосида амалга оширилади.

Ушбу қарор олий таълим муассасаларида масофавий таълимни самарали жорий этиш ва унинг сифатини таъминлашга қаратилган муҳим ҳужжат ҳисобланади.

³ Олий таълим ташкilotларида масофавий таълимни жорий этиш тартиби белгиланди // <https://lex.uz/docs/6221502>

⁴ Олий таълим ташкilotларида масофавий таълимни жорий этиш тартиби белгиланди // <https://lex.uz/docs/6221502>

⁵ Олий таълим ташкilotларида масофавий таълимни жорий этиш тартиби белгиланди <https://advice.uz/uz/news/611?>



“RAQAMLASHGAN JAMIYATDA INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH: IMKONIYAT VA ISTIQBOLLARI” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

“Ўзбекистон Республикаси олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепцияси“, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 8 октябрдаги ПФ-5847-сон Фармони билан тасдиқланган⁶.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 8 октябрдаги ПФ-5847-сонли Фармони билан тасдиқланган "Ўзбекистон Республикаси олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепцияси"да олий таълим соҳасида рақамлаштиришга оид бир қатор вазифалар белгиланган⁷.

Концепцияда таълим жараёнига замонавий ахборот-коммуникация технологияларини кенг жорий этиш орқали таълим сифатини ошириш мақсад қилинган. Бунинг учун олий таълим муассасаларида электрон таълим платформаларини ишлаб чиқиш ва татбиқ этиш, масофавий таълим шакллари ривожлантириш, шунингдек, ўқув материалларини рақамли форматга ўтказиш каби чора-тадбирлар назарда тутилган.

Шунингдек, концепцияда таълим жараёнини рақамлаштириш орқали талабалар ва профессор-ўқитувчиларнинг асосий фаолиятини ўқув жараёнига қаратилганлигини таъминлаш мақсад қилинган.

Рақамлаштириш таълим сифатини ошириш, ресурслардан самарали фойдаланиш ва таълимга осонроқ етишиш имконини беради. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев таълим соҳасини ислоҳ қилиш муҳимлигини таъкидлаб:

"Ёшларнинг замонавий билим олиши учун рақамли технологияларни жорий этиш ва уларни халқаро стандартларга мослаштириш – бугунги куннинг долзарб вазифаларидан бири".

Бу эса олий таълим муассасаларининг рақамли таълим платформаларига ўтиши зарурлигини кўрсатади.

Ушбу қонун ва қарорлар Ўзбекистонда олий таълимни рақамлаштириш жараёнини қўллаб-қувватлаш ва ривожлантиришга қаратилган.

Рақамлаштириш жараёнидаги муаммолар

Ҳар қандай инновацион жараён каби, олий таълимни рақамлаштиришда ҳам бир қатор муаммолар мавжуд:

1. **Инфратузилманинг етарли эмаслиги** – кўплаб олийгоҳларда замонавий серверлар, интернет тезлиги ва рақамли платформа ечимлари етишмайди.

⁶ Ўзбекистон Республикаси олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида Ўзбекистон Республикаси Президентининг фармони // <https://lex.uz/docs/4545884>

⁷ Ўша жойда.



“RAQAMLASHGAN JAMIYATDA INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH: IMKONIYAT VA ISTIQBOLLARI” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

2. **Ўқитувчилар ва талабаларнинг рақамли саводхонлиги пастлиги** – кўпчилик педагоглар рақамли воситалардан фойдаланишда муаммоларга дуч келмоқда.

3. **Ахборот хавфсизлиги ва маълумотларни ҳимоя қилиш** – талабалар ва ўқитувчиларнинг шахсий маълумотлари хавфсизлигини таъминлаш муҳим вазифалардан биридир.

4. **Контент ва ўқув материалларининг рақамлилаштирилмаганлиги** – айрим фанлар бўйича етарлича рақамли дарслик ва видеодарслар мавжуд эмас.

Шу билан бирга, олий таълимни рақамлаштириш учун катта имкониятлар мавжуд. Булардан бири - электрон таълим платформаларини жорий этиш ва давлат-хусусий шерикликни кучайтиришдир. Хусусан, ҳукуматнинг "Рақамли Ўзбекистон – 2030" дастури доирасида олий таълим тизимида рақамли технологияларни кенг жорий этиш кўзда тутилган.

"Бугунги глобаллашган дунёда рақамли таълимдан фойдаланмаган миллат тараққиётда ортда қолади" – дейди таълим соҳаси мутахассислари.

Яна бир истиқболли йўналиш - бу MOOCs (Massive Open Online Courses) платформаларини кенг жорий этиш ва халқаро университетлар билан

Ўзбекистонда олий таълимни рақамлаштириш жараёни давом этмоқда ва бу йўлдаги муаммоларни бартараф этиш учун давлат ва таълим муассасаларининг ҳамкорлиги муҳим аҳамиятга эга. Рақамли технологияларнинг жорий этилиши таълим сифати ошишига, талабаларнинг билим олиш имкониятларини кенгайтиришга ва глобал рақобатбардошликни таъминлашга хизмат қилади.

OLIIY TA'LIM JARAYONIDA TALABALAR BILIMINI TRANSFORMATSIYALASH TENDENSIYASI

N. M. Akayeva

Nizomiy nomidagi TDPU Ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi kafedrasi mudiri,
pedagogika fanlari doktori(PhD), professor v.b.

ANNOTATSIYA

Talabalar bilimi transformatsiyasida o'quv axborotini o'zlashtirish texnologiyalarini takomillashtirish alohida e'tibor talab qilinayotgan masalalar sirasiga kiradi. Maqolada Oliy ta'lim jarayonida raqamli texnologiyalardan foydalanish tendensiyalari yoritilgan.

Kalit so'zlar: pedagogic kreativlik, raqamli texnologiyalar, innovatsiya, transformatsiya, pedtexnologiyalar

АННОТАЦИЯ

Совершенствование обучения информационным технологиям в преобразовании знаний учащихся является одним из вопросов, требующих



“RAQAMLASHGAN JAMIYATDA INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH: IMKONIYAT VA ISTIQBOLLARI” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

особого внимания. В статье освещается тенденции использования цифровых технологий в процессе высшего образования.

Ключевые слова: педагогическое креативность, цифровые технологии, инновации, трансформация, педтехнологии

ABSTRACT

From this point of view, the improvement of learning information technologies in the transformation of students' knowledge is one of the issues that require special attention. In the article, emphasized the trends in the use of digital technologies in the process of higher education.

Keywords: pedagogical creativity, digital technologies, innovation, transformation, pedtechnologies

Barchamizga yaxshi ma'lum, taraqqiyotning tamal toshi ham, mamlakatni qudratli, millatni buyuk qiladigan kuch, bu ilm-fan, ta'lim va tarbiyadir. Shu ma'noda "Yangi O'zbekistonning 2030-yilgacha taraqqiyot strategiyasi"da ta'limni rivojlantirish birinchi o'rindagi ustuvor yo'nalish sifatida belgilangan. O'zbekistonning yangi Konstitusiyasiga ta'lim olish huquqi va pedagog maqomi yuzasidan alohida normalar kiritildi. Ta'limni rivojlantirish aholisining 60 foizdan ortig'i yoshlardan, 11 millioni bolalar va o'smirlardan iborat bo'lgan O'zbekiston uchun shubhasiz, strategik masaladir. Uchinchi Renessans poydevorini yaratish, Vatanimizning taqdiri va kelajagi bo'lgan, zamon bilan hamnafas yangi avlodni tarbiyalashni maqsad qilganmiz.

Bugungi kunda har qanday mamlakatda innovatsion kadrlar bazasini maqsadli shakllantirishning eng istiqbolli yo'nalishlaridan biri bu ta'lim tizimidir. Raqamli transformatsiya jarayonini amalga oshirish ta'lim tizimi uchun faqatgina raqamli transformatsiyaga kompleks yondashuv bilan hal qilish mumkin bo'lgan yangi muammolarni keltirib chiqaradi. Bu maqsadga erishish, ayniqsa, bulutli hisoblash, yuqori tezlikdagi internet, aqlli raqamli vositalarning keng joriy etilishi, sun'iy intellekt usullarini qo'llash va virtual texnologiyalarni keng joriy etish bilan bog'liq holda muhim ahamiyat kasb etadi. Ta'lim jarayoni raqamli transformatsiyasi raqamli iqtisodiyot va raqamli jamiyatga o'tishning global jarayonlari bilan belgilanadi. Bu istiqbollar qanday bo'lishini asosan ta'lim belgilaydi. Jahon ta'lim tizimini global innovatsion indeks reytingidagi o'rni fan, ixtirochilik va texnologiyalar transferini rivojlantirib borish, raqamli texnologiyalarni ta'lim jarayoniga keng qo'llash talabini quymoqda va tahsil oluvchilarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishga, mustaqil va kreativ fikrlashini rivojlantirishga qaratilmoqda. Ushbu ta'lim texnologiyalari vositasida ta'limni tashkil qilish masalalarini o'rganishga alohida e'tibor qaratilib, ilmiy izlanishlar zahirida turli axborot-kommunikatsion ta'lim texnologiyalari asosida ta'limni samarali tashkil qilish



“RAQAMLASHGAN JAMIYATDA INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH: IMKONIYAT VA ISTIQBOLLARI” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

masalalarini o‘rganishga qiziqish kuchaymoqda. Talabalar bilimi transformatsiyasida o‘quv axborotini o‘zlashtirish texnologiyalarini takomillashtirish alohida e’tibor talab qilinayotgan masalalar sirasiga kiradi. Raqamli texnologiyalar o‘quv mashg‘ulotlarini samarali tashkil etishga, yoshlarning muhim hayotiy yutuqlarini qondirishga, o‘z nuqtai nazarlarini ilmiy asoslashga imkoniyat yaratadi va o‘qitishda samarali natijalarni beradi. Talabalar bilimi transformatsiyasida raqamli texnologiyalardan foydalanishning pedagogik shart-sharoitlarini o‘rganish, uni tadqiq etish, takomillashtirish dolzarb masalalar sirasiga kiradi. O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil, 23 sentyabrda qabul qilingan Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonunning 11-moddasida oliy ta’lim xaqida: “Oliy ma’lumotli kadrlarni tayyorlash oliy ta’lim tashkilotlarida amalga oshirilishi va oliy ta’lim bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari va magistratura mutaxassisliklari bo‘yicha yuqori malakali kadrlar tayyorlanishini ta’minlaydi”-deb e’tirof etilgan. Mamlakatimiz ta’lim transferida bo‘lajak kadrlarni tayyorlash tizimini takomillashtirish, zamonaviy pedagogik va raqamli texnologiyalardan foydalangan holda davlat–ta’lim-tarbiya–jamiyat shaklidagi uzluksiz ta’lim tizimisamaradorligini oshirish, o‘qitishning ilg‘or metodlarini joriy qilish orqali yetuk mutaxassislar tayyorlanishiga alohida e’tibor qaratilmoqda. Ijtimoiy-siyosiy yo‘nalish - yoshlar talimida ham amalga oshirilishi lozim bo‘lgan maqsadlar uyg‘unligi amalga oshirilib, uni qayta qurish, dunyo ta’lim tizimiga integratsiya qilish, uning mazmunini milliy istiqbol g‘oyasi va milliy manfaatlar asosida davom ettirish, demokratlashtirish, yangilash, modernizatsiya qilish va liberallashtirish, shuningdek ta’lim jarayonini raqamli texnologiyalar bilan ta’minlash va innovatsion pedagogik texnologiyalar bilan boyitish tushunchalarida o‘z ifodasini topadi. Transformatsiya deganda dastlabki shakllanishning aloqalari, munosabatlari, tashkil etilishi va funksiyalari o‘zgarishi bilan o‘zgarib turadigan tizimlarning muhim tarkibiy qayta ishlanishi tushuniladi. Bilim transformatsiyasida bilimlar shaxslar o‘rtasida sodir bo‘lgan ijtimoiy jarayonni anglatadi. Ta’limning jamiyatni tubdan o‘zgartiradigan rivojlanishning tezlashtiruvchi omili sifatidagi roli haqida E.V. Spirin fikr yuritadi. Muallifning ta’kidlashiga ko‘ra, ta’limning transformatsion modelining asosiy vazifasi ta’lim oluvchining, bo‘lajak mutaxassisning hayotfaoliyatning dinamik sharoitlariga nisbatan shaxsiy moslashish jarayonini tezkorlik bilan amalga oshirish qobiliyatlarini rivojlantirishdir. Va bunday o‘zgarish tezligi qanchalik yuqori bo‘lsa, ta’lim oluvchining shaxsidan talab qilinadigan moslashish salohiyati va qobiliyatlari ham shunchalik katta bo‘ladi. Axborot jamiyatida yashaydigan mutaxassislar, ta’lim oluvchilarga yangi va yanada ilg‘or qobiliyatlar zarur bo‘ladi. Masalan, bularga quyidagilarni ko‘rsatib o‘tish mumkin: doimiy, uzluksiz ta’lim olish, o‘rganish qobiliyati. Bu qobiliyatning muhimligi



“RAQAMLASHGAN JAMIYATDA INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH: IMKONIYAT VA ISTIQBOLLARI” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

rivojlanishning yanada tezlashishi bilimlarni o‘z haqiqiyliги va ahamiyatini tezda yo‘qotadigan mahsulotga aylantirishi bilan bog‘liq. Birinchidan, bu faktik ma‘lumotlarga tegishli. Yuqori darajada rivojlangan jamiyatdagi odam harakatchan bo‘lgani, ya‘ni u doimiy ravishda ishini, yashash joyini, ijtimoiy aloqalarini va boshqalarni o‘zgartirgani uchun, u professional ta‘limi uchun katta mablag‘ sarflaydi. o‘ta dinamik bo‘lgan axborot jamiyati a‘zosi bo‘lgan odamga bilimlar yig‘indisi emas, balki ushbu bilimlarni qo‘llay bilish, o‘z bilimlarini doimiy to‘ldirish va yangilash qobiliyati zarur bo‘lishi tabiiy bo‘ladi; doimiy kommunikativ aloqalarni o‘rnatish va o‘zaro hamkorlik qilish qobiliyati. Hayot sur‘ati o‘sib boradi va shuning uchun odamlar o‘rtasida foydali aloqalarni o‘rnatish va saqlashda qiyinchiliklar kuchayishini oldindan aytish mumkin; optimal, ya‘ni maqbul tanlovni amalga oshirish qobiliyati. Axborot jamiyatiga o‘tish tanlash imkoniyatini va muammolarni hal qilishning murakkabligini oshiradi, shuning uchun ta‘lim haddan tashqari tanlov muammosini hal qilishi kerak. Bunda moslashuv inson to‘g‘ri tanlov qilishi kerakligini taxmin qiladi. Ko‘p sonli muqobillar orasida shaxs o‘zining qadriyatlari tizimiga to‘g‘ri keladigan yagona narsani tanlashi kerak bo‘ladi taraqqiyotga erishish uchun raqamli bilimlar va zamonaviy axborot texnologiyalarini egallash har qachongidan muhim. Zero, bugun dunyoda barcha sohalarga, shu jumladan ta‘lim sohasiga axborot texnologiyalari chuqur kirib bormoqda. Raqamli texnologiyalar nafaqat mahsulot va xizmatlar sifatini oshiradi, shu bilan birga, ortiqcha xarajatlarni ham kamaytiradi. Demak, davlat va jamiyat boshqaruvi, ijtimoiy sohada ham raqamli texnologiyalarni keng joriy etish orqali natijadorlikni oshirish va odamlar turmushini keskin yaxshilashi lozim.

Bugungi kunda globallashuv va axborot jamiyatining rivojlanishining murakkab jarayonlari jadal moslashib, o‘zgarib borayotgan ta‘lim sohasida ham o‘z aksini topmoqda, degan xulosaga kelish maqsadga muvofiqdir. Ushbu jarayonlar, shuningdek, ijtimoiy tuzilmalar va ijtimoiy-madaniy dinamikaning sifat jihatidan yangi xarakterini belgilaydigan ilmiy, texnik, texnologik, ijtimoiy va madaniy xarakterdagi tub o‘zgarishlar, zamonaviy inson hayotining tabiiy va ijtimoiy-madaniy sharoitlarining o‘zgarishi bilan bog‘liqdir. Bundan tashqari, ta‘limning transformatsiyasi zamonaviy jamiyatning yangi bilimlar manbai sifatida bilimning rolini kuchaytirish, insonning o‘z faoliyati oqibatlari uchun javobgarlikni anglashi, ijtimoiy tuzilmalarning murakkablashishi va geterogenizatsiya kabi muammolari bilan bog‘liqdir. Ta‘limning doimiy transformatsiyasi reproduktiv-axborot va predmetli-tabaqalashtirilgan bilimlardan integrativ bilimlarga o‘tish, ta‘lim jarayoni ishtirokchilarning subyekt-subyekt o‘zaro ta‘siri, o‘qitishning innovatsion usullaridan foydalanish, tarmoq ta‘limini rivojlantirishga asoslangan ta‘lim munosabatlarining yangi turini tashkil etish foydasiga avtoritar o‘qitish uslubini rad etish orqali uni qayta tashkil etishga qaratilgan chora-tadbirlar majmuini aks ettiradi. Shu bilan



“RAQAMLASHGAN JAMIYATDA INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH: IMKONIYAT VA ISTIQBOLLARI” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

birga, ta'limning zamonaviy transformatsiyasining o'ziga xos xususiyatlari zamonaviy jamiyatning o'zaro bog'liqligi, o'zaro shartlashganligi va tizimli murakkabligining o'sishi, dunyoqarash, madaniyat, qadriyat yo'nalishlarining o'zgarishi va kundalik hayotda axborot texnologiyalari ulushining to'yinganligida namoyon bo'ladi.

REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yilning 28 yanvaridagi «2021-2026 yillarda Yangi O'zbekistonni yanada rivojlantirish bo'yicha Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi PF-60-sonli Farmoni
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 6 oktyabrdagi "Axborot texnologiyalari sohasida ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish va ularni IT-industriya bilan integratsiya qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4851 sonli Qarori
3. Бегимкулов У.Ш., Каримхожаев А.А., Имамов Э.З. Образование взрослых в Узбекистане. // Образование через всю жизнь: непрерывное образование для устойчивого развития: Труды международного сотрудничества в области непрерывного образования для устойчивого развития. Т. 5. – 2007. - С. 36-41.
4. Спирин Е.В. и др. Цифровая трансформация системы образования. // Вестник Пермского государственного гуманитарно-педагогического университета. Серия: Информационные компьютерные технологии в образовании. - 2018. - № 14. - С. 5-37.
5. Тинькова Е.В. Новые тренды российского экономического образования. // Современное образование: векторы развития. Инновационные подходы к преподаванию социально-гуманитарных дисциплин: материалы IV Междунар. конф. М.: Московский пед. госуд. ун-т, 2019. - С. 142-148.
6. Тихонов В.А., Шалина Д.С. Трансформация образовательной системы в условиях неопределенности и усиливающихся требований на рынке труда. // Современные проблемы науки и образования. - 2022. - №2. - С. 123-127.

OLIIY TA'LIMDA INTERAKTIV TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHNI TAKOMILLASHTIRISH TIZIMI

Ye.B. Aydarov, M.B. Abduraxmanov

M. Auezov nomidagi Janubiy Qozog'iston universiteti NAJ Chirchiq shahridagi
O'zbekiston Respublikasi filiali

Annotatsiya: *Interaktiv texnologiyalar oliy ta'limda ta'limning samaradorligini oshirish va talabalarning faolligini yanada rag'batlantirish maqsadida muhim ahamiyatga ega. Maqolada oliy ta'limda interaktiv texnologiyalarning joriy etilishi, ularning foydalanish sohalari va talablar, shuningdek, interaktiv platformalar va resurslarning rivojlanishi hamda ta'lim jarayonidagi ta'siri ko'rib chiqiladi.*



“RAQAMLASHGAN JAMIYATDA INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH: IMKONIYAT VA ISTIQBOLLARI” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

Kalit soʻzlar: oliy taʼlim, interaktiv texnologiyalar, elektron oʻquv materiallari, talabalar, taʼlim jarayoni, onlayn kurstar, veb-platformalar, muammoli bilim, pedagogik strategiyalar.

Taʼlim jarayonini modernizatsiya qilish va talabalarning taʼlimga boʻlgan qiziqishini oshirish uchun zamonaviy texnologiyalarning rivojlanishi muhim ahamiyatga ega. Bundan tashqari, texnologiyalarning aniq integratsiyalanishi oliy taʼlimning samaradorligini oshirishda muhim rol oʻynaydi. Qaysi bir interaktiv texnologiyalarning joriy etilishi talabalarning bilim olish jarayonini faollashtiradi va bilimlarni oʻzlashtirishda yangi yutuqlar keltiradi.

Interaktiv texnologiyalar turli xil formatlarda keladi. Ularning eng ommalashgan va keng tarqalgan turlari quyidagilar:

Onlayn kurslar va vebinarlar: Ushbu kurstar va vebinarlar talabalarga bilim olish uchun qulay va interaktiv platforma taqdim etadi. Onlayn taʼlim platformalari talabalarga oʻz vaqtida oʻqish va materiallarni mustaqil oʻrganish imkoniyatini beradi. Maqsadli auditoriya uchun onlayn kurstarning tashkil etilishi taʼlim jarayonini hamda oʻquv jarayonini soddalashtiradi. Bu oʻqish usulining aniq maʼlumotlar va sogʻlom talablar boʻyicha ishlash imkoniyatini bergani uchun uning samaradorligi oshadi⁸.

Simulyatorlar va amaliyotga yoʻnaltirilgan platformalar: Talabalarga nazariy bilimni amaliyotda qoʻllash imkonini beradigan simulyatorlar taʼlim jarayonini yanada qiziqarli va samarali qiladi. Misol uchun, media-texnologiyalar va robototexnika orqali talabalar oʻz bilimlarini amaliy mashqlarda qoʻllashlari mumkin. Bu talabalarning bilimlarni mustaqil ravishda qoʻllash qobiliyatlarini oshirishga, shuningdek, ishlash jarayonida katta ishonch hosil qilishga yordam beradi⁹.

Mobil ilovalar va veb-platformalar: Mobil ilovalar va veb-platformalar talabalarga mustaqil taʼlim olish imkoniyati yaratadi. Ular oʻquv materiallari, testlar va rasmiy pedagogik ishlarni oʻz vaqtida olib borishlari uchun ishlatilishi mumkin. Mobil ilovalarning yordamida talabalar oliy taʼlimda muhim boʻlgan vaqt boshqaruvini amalga oshirishlari mumkin¹⁰.

Interaktiv texnologiyalar talabalarning oʻqishga boʻlgan qiziqishini oshirishga yordam beradi. Talabalar onlayn platformalar orqali oʻzlarining bilim darajalarini baholash imkoniga ega boʻlishadi. Bu talabalarga ilmiy ishlarning samaradorligini oshirishga va

⁸ Aydarov Ye.B. Oʻquvchi yoshlarga tabiiy-hududlarni muhofaza qilish orqali ekologik tarbiya berish. Monografiya.-T.: “Ilmiy-zakovat” nashriyoti, 2019.

⁹ Aydarov Ye.B. Oʻquvchi-yoshlarga maʼnaviy-ahloqiy tarbiya berish orqali ekologik madaniyatni shakllantirish // Zamonaviy taʼlim, №8 (81). – T., 2019. - B. 60-66.

¹⁰ Aydarov Ye.B. Ekologicheskoe vospitanie i obrazovanie v sovremennoy shkole // Mejdunarodnoy nauchno-prakticheskoy konferensii “5 Orazovskie chteniya: Vklad tyurkskoy sivilizatsii v razvitie nauki i obrazovanie”.-Chimkent, 2019.



“RAQAMLASHGAN JAMIYATDA INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH: IMKONIYAT VA ISTIQBOLLARI” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

yangiliklarni o‘rganishga yordam beradi. Onlayn tizimlar talabalarning ijodiy faolligini rag‘batlantirishga xizmat qiladi, chunki ularga muammoli savollarga ijodiy yondashish imkonini beradi¹¹.

Ijodiy faollik talabalarga to‘g‘ri yo‘nalishda ishlashni o‘rgatadi va ularning mustaqil fikrlash qobiliyatlarini yaxshilaydi. Onlayn kurstar va vebinarlarda talabalar haqiqiy hayotdan olingan misollar va ko‘rsatmalarga asoslanib, muammolarga yechim topish uchun interaktiv yondashuvlarni qo‘llashadi. Bu bundan tashqari talabalarning bilim olish jarayonini yanada faollashtirishga yordam beradi¹².

Dunyo bo‘ylab turli mamlakatlarda interaktiv texnologiyalarni oliy ta‘limga joriy etish bo‘yicha muhim tajribalar mavjud. Masalan, AQSh va Yevropa mamlakatlarida interaktiv platforma va onlayn kurstar talabalarning o‘qish jarayoniga katta ta‘sir ko‘rsatmoqda. Yaponiya va Koreyada virtual simulyatsiyalar va robototexnika yo‘nalishlarida texnologik tajribalar rivojlanishda. Bu tajribalar interaktiv texnologiyalarning ta‘lim jarayonidagi samaradorligini yanada kuchaytirishga xizmat qiladi¹³.

AQSh va Yevropa mamlakatlarida onlayn ta‘lim platformalarining keng qo‘llanilishi talabalarning o‘qish jarayonini juda ommalashtirdi. Onlayn kurstar talabalarga o‘qishni osonlashtirish, vaqtni to‘g‘ri boshqarish va tanlash imkoniyatlarini berdi. Buga qo‘shib, Yaponiya va Koreyaning robototexnika va virtual simulyatsiyalarga asoslangan pedagogik tajribalari oliy ta‘limda ilg‘or texnologiyalarning samaradorligini ko‘rsatmoqda¹⁴.

Interaktiv texnologiyalarni joriy etishda bir qator muammolarga duch kelish mumkin. Bularning orasida o‘qituvchilarning malakasi, talabalarning axborot texnologiyalaridan foydalanish ko‘nikmalari, moderatorlik tajribasi va treninglarning yetishmasligi bor. Bunday muammolarni hal qilish uchun maxsus kurslar va treninglar tashkil qilish, pedagoglar va talabalar uchun amaliy mashg‘ulotlar o‘tkazish zarur¹⁵.

Malaka oshirish kurslari va treninglar, o‘qituvchilarning elektron ta‘lim vositalariga oid bilimlarini mustahkamlash va talabalarning innovatsion yondashuvlarga qiziqishini oshirishda muhim ahamiyatga ega¹⁶.

¹¹ Aydarov E.B. Practical forms and methods of “improving environmental education technologies through protection of natural areas for students” // Academic and International Multidisciplinary Research Journal.(India) Volume 10, Issue 6, June 2020 pp. 173-177.

¹² Siemens, G. (2005). Connectivism: A Learning Theory for the Digital Age. International Journal of Instructional Technology and Distance Learning.

¹³ Anderson, T. (2008). The Theory and Practice of Online Learning. Athabasca University Press.

¹⁴ Laurillard, D. (2013). Teaching as a Design Science: Building Pedagogical Patterns for Learning and Technology. Routledge.

¹⁵ Garrison, D. R., & Kanuka, H. (2004). Blended learning: Uncovering its transformative potential in higher education. *The Internet and Higher Education*, 7(2), 95-105.

¹⁶ Bates, A. T. (2015). Teaching in a Digital Age: Guidelines for Designing Teaching and Learning. Tony Bates Associates Ltd.



**“RAQAMLASHGAN JAMIYATDA INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH: IMKONIYAT VA ISTIQBOLLARI”
mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya**

Interaktiv texnologiyalarning samaradorligini baholashda asosiy indikatorlar quyidagilar bo‘lishi mumkin:

- Talabalarining o‘qishga bo‘lgan qiziqishini oshirish.
- Talabalarining ta’limga bo‘lgan munosabatini o‘zgarishi.
- O‘qituvchilarning ta’lim jarayonini yangi formatda olib borish qobiliyati.
- Talabalarining bilim darajasini yuqori darajada qo‘llash¹⁷.

Hamda, ta’lim jarayonida interaktiv texnologiyalarni joriy qilish talabalarining tajribalarini oshirib, ularning muammolarga yechim topish qobiliyatlarini takomillashtiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Aydarov Ye.B. O‘quvchi yoshlarga tabiiy-hududlarni muhofaza qilish orqali ekologik tarbiya berish. Monografiya.-T.: “Ilm-ziyo-zakovat” nashriyoti, 2019.
2. Aydarov Ye.B. O‘quvchi-yoshlarga ma’naviy-ahloqiy tarbiya berish orqali ekologik madaniyatni shakillantirish // Zamonaviy ta’lim, №8 (81). – T., 2019. - B. 60-66.
3. Aydarov Ye.B. Ekologicheskoe vospitanie i obrazovanie v sovremennoy shkole // Mejdunarodnoy nauchno-prakticheskoy konferensii “5 Orazovskie chteniya: Vklad tyurkskoy sivilizatsii v razvitie nauki i obrazovanie”.-Chimkent, 2019.
4. Aydarov E.B. Practical forms and methods of “improving environmental education technologies through protection of natural areas for students” // Academic and International Multidisciplinary Research Journal.(India) Volume 10, Issue 6, June 2020 pp. 173-177.
5. Siemens, G. (2005). Connectivism: A Learning Theory for the Digital Age. International Journal of Instructional Technology and Distance Learning.
6. Anderson, T. (2008). The Theory and Practice of Online Learning. Athabasca University Press.
7. Laurillard, D. (2013). Teaching as a Design Science: Building Pedagogical Patterns for Learning and Technology. Routledge.
8. Garrison, D. R., & Kanuka, H. (2004). Blended learning: Uncovering its transformative potential in higher education. *The Internet and Higher Education*, 7(2), 95-105.
9. Bates, A. T. (2015). Teaching in a Digital Age: Guidelines for Designing Teaching and Learning. Tony Bates Associates Ltd.

¹⁷ Resta, P., & Laferrière, T. (2007). Digital Technologies in Teacher Education. *Educational Media International*, 44(4), 307-321.



10. Resta, P., & Laferrière, T. (2007). Digital Technologies in Teacher Education. *Educational Media International*, 44(4), 307-321.

АНТРОПОЛОГИЯ ПОВСЕДНЕВНОЙ ЖИЗНИ СКВОЗЬ ПРИЗМУ ТРАНСФОРМАЦИИ ДЕТСКО-РОДИТЕЛЬСКИХ ОТНОШЕНИЙ

Эшиев Асылбек Кайимович

доктор философских наук, профессор, ОшГУ,
+996559124869, e_asylbek@mail.ru, Кыргызстан

Мамбетова Роза Анарбековна

магистрантка МУК КР,
Бишкек, Кыргызстан

Аннотация

В статье рассматриваются трансформации детско-родительских отношений в Кыргызстане в контексте социальных, экономических и культурных изменений. Основное внимание уделено влиянию массовой трудовой миграции, цифровизации повседневной жизни, изменению семейных традиций и смене воспитательных стратегий. На основе анализа современных эмпирических исследований выявлены ключевые факторы, определяющие динамику взаимодействия между поколениями, включая снижение уровня эмоциональной вовлеченности родителей, рост самостоятельности детей, усиление влияния цифровых технологий на процессы социализации. Отдельное внимание уделяется различиям между городскими и сельскими семьями, в которых степень сохранения традиционных моделей воспитания варьируется. Выявлены новые формы коммуникации между родителями и детьми, включая дистанционное родительство и цифровые способы взаимодействия. Проанализированы особенности изменения ролевых моделей в семье, в том числе участие детей в адаптации родителей к современным условиям жизни. На основе проведенного исследования предложены рекомендации по оптимизации детско-родительских отношений в современных кыргызских семьях, включая развитие программ цифровой грамотности для родителей, поддержку семей мигрантов, а также внедрение новых образовательных стратегий, направленных на формирование эмоциональной устойчивости детей и повышение качества семейного взаимодействия.

Ключевые слова: детско-родительские отношения, миграция, цифровизация, воспитание, семейные традиции, антропология повседневной жизни.

Современное общество Кыргызстана находится в процессе динамических трансформаций, обусловленных влиянием глобализации, технологического прогресса, миграционных процессов и изменений в культурных установках. В



“RAQAMLASHGAN JAMIYATDA INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH: IMKONIYAT VA ISTIQBOLLARI” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

условиях модернизации традиционные детско-родительские отношения подвергаются значительным изменениям, что требует глубокого антропологического анализа с позиций адаптации семейных структур к новым социальным реалиям.

Кыргызская культура, основанная на сильных патриархальных устоях, длительное время сохраняла устойчивую модель воспитания, в которой авторитет родителей и старшего поколения был незыблем. Однако в последние десятилетия наблюдается значительное ослабление традиционных норм под воздействием урбанизации, цифровизации и изменяющихся экономических условий. Молодые поколения все чаще формируют свои ценностные ориентиры не только под влиянием семьи, но и через социальные сети, медиаконтент и международные образовательные программы. Еще одним фактором, влияющим на детско-родительские отношения, является массовая трудовая миграция, в результате которой дети растут на попечении родственников или полностью предоставлены самим себе. Это создает новые модели взаимодействия, ранее не свойственные кыргызскому обществу, и влечет за собой как положительные, так и отрицательные последствия. С одной стороны, дети становятся более самостоятельными и независимыми, с другой – ощущают дефицит родительского внимания и эмоциональной поддержки. Таким образом, изучение детско-родительских отношений в Кыргызстане с позиции антропологии повседневной жизни представляется крайне актуальным. Данный феномен требует комплексного анализа, позволяющего выявить закономерности трансформации семейных ценностей, изменения в механизмах социализации детей, а также адаптацию традиционных практик к современным реалиям.

Основная цель исследования заключается в детальном анализе трансформации детско-родительских отношений в Кыргызстане в контексте социально-культурных изменений.

Анализ исследования показал, что детско-родительские отношения в Кыргызстане находятся в стадии активной трансформации под влиянием социально-экономических, культурных и технологических факторов. Одним из ключевых факторов изменений является массовая трудовая миграция, в результате которой многие дети растут в условиях частичного или полного отсутствия родителей, что влечет за собой трансформацию традиционных моделей воспитания. Интервью с представителями разных поколений выявили, что в таких семьях на первый план выходят бабушки и дедушки, а также другие родственники, выполняя родительские функции. Однако этот процесс сопровождается не только адаптацией традиционной системы семейных ценностей, но и появлением новых вызовов, таких как ослабление



“RAQAMLASHGAN JAMIYATDA INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH: IMKONIYAT VA ISTIQBOLLARI” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

эмоциональной связи между детьми и родителями, размывание авторитета старшего поколения и трудности в социализации детей.

В городских семьях наблюдается более выраженная переориентация на современные подходы к воспитанию, тогда как в сельской местности сохраняются традиционные модели семейного уклада. Родители, проживающие в мегаполисах, чаще используют цифровые технологии как инструмент воспитания, включая образовательные платформы, мультимедийные ресурсы и дистанционное взаимодействие через мессенджеры. В то же время, контент-анализ социальных сетей показал, что цифровая среда оказывает двойное влияние: с одной стороны, она открывает новые возможности для образования и общения, с другой – увеличивает разрыв между поколениями, поскольку многие родители не всегда способны контролировать и фильтровать информацию, потребляемую их детьми [1, с. 75].

Современная антропология повседневной жизни в Кыргызстане показывает, что детско-родительские отношения претерпевают значительные изменения под воздействием множества факторов, включая глобализацию, экономические реалии, миграционные процессы и развитие цифровых технологий. Если еще несколько десятилетий назад кыргызская семья оставалась носителем устойчивой патриархальной модели, в которой уважение к старшим и коллективизм играли ключевую роль, то сегодня эти традиционные нормы видоизменяются, приспособляясь к современным условиям.

Одним из наиболее значимых факторов трансформации стало влияние трудовой миграции. Не секрет, что огромная часть трудоспособного населения страны работают за границей, преимущественно в России, Казахстане и Турции. Это приводит к тому, что значительная часть детей растет в семьях, где воспитательная функция переходит к бабушкам и дедушкам или даже к старшим братьям и сестрам. Такой сдвиг в семейной структуре порождает новые проблемы: дети часто чувствуют дефицит эмоциональной связи с родителями, отсутствует четкая система контроля за их обучением и развитием, что в перспективе может привести к снижению образовательных достижений и росту девиантного поведения.

Сравнительный анализ семейных структур показывает, что в городах и сельской местности трансформации происходят по-разному. В мегаполисах, таких как Бишкек и Ош, наблюдается тенденция к формированию нуклеарных семей, где родители ориентированы на индивидуальное воспитание детей с учетом современных педагогических методов. В то же время в сельской местности сохраняется расширенная семья, в которой функции воспитания распределены между несколькими поколениями. Однако даже в сельских регионах наблюдается



“RAQAMLASHGAN JAMIYATDA INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH: IMKONIYAT VA ISTIQBOLLARI” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

ослабление традиционного авторитета отца и дедов, особенно в семьях, где глава семейства находится на заработках за границей.

Еще одним значимым аспектом является влияние цифровых технологий. Цифровая социализация приводит к тому, что дети все реже обращаются к родителям за советами, предпочитая искать информацию в сети. В семьях, где родители не имеют достаточного уровня цифровой грамотности, наблюдается отчуждение между поколениями, что приводит к конфликтам и непониманию. В то же время в тех семьях, где родители активно используют технологии и включены в цифровую жизнь своих детей, отмечается более высокий уровень доверия и близости в отношениях [2, с. 25].

Современные кыргызские родители сталкиваются с трудностями в выборе воспитательных стратегий. Если старшее поколение ориентировано на авторитарные методы, предполагающие жесткий контроль и иерархию в семье, то молодые родители чаще используют демократический стиль, основанный на диалоге и партнерских отношениях. Однако в условиях экономической нестабильности многие родители испытывают стресс и перегруженность, что снижает их вовлеченность в воспитание детей. Многие родители могут признаться, что у них не хватает времени на общение с детьми из-за работы и бытовых забот. Интересным примером трансформации детско-родительских отношений являются семьи, где родители возвращаются из миграции спустя несколько лет. Дети, выросшие без их непосредственного участия, испытывают сложности в восстановлении эмоционального контакта, что часто приводит к семейным конфликтам. Антропологические исследования фиксируют случаи, когда подростки воспринимают возвращение родителей как вмешательство в их сложившийся уклад жизни, что может приводить к протестному поведению.

Современные кыргызские семьи сталкиваются с нарастающим влиянием социально-экономических факторов на процесс воспитания детей. Это напрямую отражается на детско-родительских отношениях: родители вынуждены работать сверхурочно или выезжать на заработки за границу, оставляя детей на попечении родственников. Такой стиль воспитания приводит к дефициту личного общения между родителями и детьми, что особенно заметно в подростковом возрасте.

Таким образом, современная школа в Кыргызстане вынуждена брать на себя все большую ответственность за социализацию детей, компенсируя дефицит воспитательной функции семьи. В рамках антропологического анализа школьной среды было выявлено, что педагоги часто становятся для детей значимыми взрослыми, оказывая психологическую поддержку и формируя у них базовые ценностные установки. Однако существует разрыв между школьным и семейным



“RAQAMLASHGAN JAMIYATDA INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH: IMKONIYAT VA ISTIQBOLLARI” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

воспитанием: если родители продолжают ориентироваться на традиционные нормы, то школьная система пытается адаптироваться к новым требованиям, таким как эмоциональный интеллект, личностно-ориентированное обучение и инклюзия. Это создает определенный конфликт восприятия между поколениями, что может приводить к недопониманию между родителями и детьми.

Список литературы:

1. Авдеева Н.Н., Берсенева Е.В. «Ценностные установки матерей в современных моделях родительства» //Социальная психология и общество. Т.13, №2, 2022.
2. Иевлева О., Желяскова С. «Теоретические аспекты изучения особенностей детско-родительских отношений в семьях, воспитывающих ребенка с ДЦП». //Studia Universitatis Moldaviae. Ştiinţe ale Educaţiei. № 9(169), 2024.

ZAMONAVIY OLIY TA'LIMDA KREATIVLIK VA IJODKORLIK FENOMENIGA NISBATAN YONDASHUV

Hojiyev Rasulbek Boynazar o'g'li

Oila va gender ilmiy-tadqiqot instituti katta ilmiy hodimi, PhD

Annotatsiya

Ushbu tezisda zamonaviy oliy ta'lim tizimida kreativlik va ijodkorlik tushunchalarining o'ziga xos jihatlari va farqlari tahlil qilingan. Kreativlik insonning noan'anaviy g'oyalarni yaratish qobiliyati sifatida ko'rilsa, ijodkorlik esa yangi va jamiyat uchun ahamiyatli bo'lgan natijalarni yaratishni o'z ichiga oluvchi faoliyatdir. Tadqiqotda har ikki tushunchaning jarayon va natija jihatlari, qo'llanish sohalari, estetik qiymat va abstraktlik darajasi bo'yicha farqlari aniq misollar yordamida tahlil qilinib, ushbu tushunchalarning oliy ta'limdagi o'rni va ahamiyati muhokama qilingan.

Kalit so'zlar: kreativlik, ijodkorlik, noodatiy fikrlash, original g'oyalar, fenomen.

Insonni boshqa tirik mavjudotlardan ajratib turuvshi eng asosiy jihatlardan biri bo'lgan kreativlik va kreativ fikrlash qobiliyatlari qadimgi mutafakkir va faylasuflardan tortib zamonamiz olimlarining qiziqishlarini o'ziga jalb qila olgan, bugungi kungacha o'z sirini saqlab kelayotgan masalalardan biridir. Shu nuqtayi nazardan, kreativlik borasida dastlab falsafada, keyinshalik rsixologiya, ijtimoiy fanlar, tasviriy san'at, pedagogika va boshqa fanlar bo'yisha nazariyalar ishlab chiqildi.

Kreativlik bugungi ilm-fan taraqqiyotiga qaramay, anglash va ta'riflash qiyin bo'lgan tushunshalardan biridir. Ko'r qirrali fenomen bo'lgan kreativlik tushunshasi tadqiqotshilar tomonidan yo'nalishlar, oqimlarning yondashuvlari va xususiyatlariga ko'ra turli nuqtayi nazarlardan ko'rib shiqilmoqda va adabiyotlarda turli xil shakllarda ta'riflanmoqda.



“RAQAMLASHGAN JAMIYATDA INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH: IMKONIYAT VA ISTIQBOLLARI” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

Kreativlik tushunshasi lotincha “create” soʻzidan kelib chiqqan boʻlib, uning ingliz tilidagi ekvivalenti “creativity”dir. Bu soʻz “yaratmoq, tugʻdirmoq, yuzaga keltirmoq” maʼnosida qoʻllanmoqda.

R.Torrens taʼrifga koʻra, kreativlik kamchiliklar, yetishmayotgan qismlar, muammolar, bilimlardagi boʻshliqlar, nomuvofiqliklar (tartibsizliklar) va hokazolarga nisbatan sezgir boʻlish, qiyinchiliklarni aniqlash hamda ularga yechim izlash, bashorat qilish yoki bu kamchiliklar haqida farazlarni yaratish, ushbu farazlarni sinovdan oʻtkazish, qayta sinovdan oʻtkazish va farazlarni oʻzgartirish orqali xulosaga kelish jarayonidir. [1]

Bugungi kunda kreativlik tushunshasiga maʼno jihatdan yaqin boʻlsa-da, adabiyotlarda turli yondashuvlardan kelib shiqqan holda ijodkorlik tushunchasini kreativlik bilan bir xil degan oʻziga xos koʻrlab qarashlar mavjud.

Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasida: “Ijod – insonning yangi moddiy va maʼnaviy neʼmatlar yaratish faoliyati” deb koʻrsatilgan. [2]

Ijodkorlik va kreativlik tushunchalari oʻzaro bogʻliq boʻlib, koʻp jihatdan bir-biriga yaqin hisoblanadi. Kreativlik va ijodkorlikning umumiy jihati bu har ikkala fenomenni ham yangilikka intilishidadir. Fikrimizcha aynan ushbu jihat tadqiqotchilarda ikkita tushunchani bitta kategoriya deb hisoblashga sabab boʻlmoqda. Biroq ular orasida aniq va muhim farqlar mavjud.

Quyida ijodkorlik va kreativlik tushunchalarining farqli tomonlarini koʻrib chiqamiz.

Tushunchalarning mohiyati boʻyicha

Ijodkorlik¹⁸ – bu yangi, original va jamiyat, madaniyat yoki fan uchun ahamiyatli boʻlgan narsalarni yaratish jarayonidir. Ijodkorlik sanʼat, fan, adabiyot va boshqa sohalarda namoyon boʻlib, insonning ilhom, his-tuygʻu va bilimlarini oʻzida mujassam etadi.

“Ijodkorlik – bu sifat jihatidan yangi, original hamda jamiyat va tarix uchun ahamiyatli natija yaratadigan faoliyatdir”. [3].

Kreativlik¹⁹ – bu insonning noanʼanaviy, original gʻoyalar va echimlarni yaratish qobiliyatidir. Kreativlik, avvalo, noodatiy fikrlash va yangi gʻoyalar generatsiyasi bilan bogʻliqdir.

“Kreativlik – bu insonning muammolarni hal qilish va yangi yondashuvlarni amalga oshirish uchun zarur boʻlgan gʻoyalar va echimlarni ishlab chiqish qobiliyatidir”. [4]

Jarayon va natija jihatidan

Ijodkorlik nafaqat gʻoyalarni yaratishni, balki ularni aniq natijalar shakliga aylantirishni ham oʻz ichiga oladi (masalan, roman yozish, rasm chizish, musiqa asarlari yaratish va hokazo).

¹⁸ Rus tilida “творчество” termini bilan izohlash mumkin.

¹⁹ Rus tilida “креативность” termini bilan izohlash mumkin.

“RAQAMLASHGAN JAMIYATDA INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH: IMKONIYAT VA ISTIQBOLLARI” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

Kreativlik ko‘proq g‘oyalar va konsepsiyalarni ishlab chiqish bosqichida qolishi mumkin bo‘lib, ularni amalga oshirish shart emas. Bunda asosiy e‘tibor yangi g‘oyalarni yaratish jarayoniga qaratiladi.

Qo‘llanish sohasi bo‘yicha

Ijodkorlik ko‘proq san‘at, adabiyot, madaniyat, fan va boshqa ijtimoiy sohalar bilan bevosita bog‘liqdir.

Kreativlik esa ko‘proq zamonaviy ishbilarmonlik, reklama, menejment va biznes sohalarida keng qo‘llaniladi (“biznesdagi kreativlik”, “reklamadagi kreativ yondashuv”, “kreativ boshqaruv” kabi).

Estetik o‘lchov

Ijodkorlik aksariyat hollarda estetik, ma‘naviy va madaniy mazmunga ega bo‘lib, ijtimoiy-madaniy ahamiyat kasb etadigan natijalarni nazarda tutadi.

Kreativlik esa ko‘pincha estetik yoki ma‘naviy o‘lchovga ega bo‘lishi shart emas, chunki uning asosiy vazifasi aniq vazifalarga noan‘anaviy echim topishdir.

Abstraktlik darajasi bo‘yicha

Ijodkorlik ham abstrakt, ham amaliy tusga ega bo‘lib, aniq ijodiy natijalar (kitob, musiqa asari, rasm) bilan bir qatorda nazariy fikrlashni ham qamrab olishi mumkin.

Kreativlik esa asosan abstrakt fikrlash qobiliyati bo‘lib, u ko‘proq g‘oyalarning o‘zi bilan cheklanishi mumkin.

Farqlarni aks ettiruvchi misollar:

Jihatlar	Ijodkorlik	Kreativlik
San‘at	Roman yozish, rasm chizish	Noan‘anaviy sujet yoki konsepsiya yaratish
Fan	Yangi nazariya yoki kashfiyot qilish	Ilmiy muammoga noodatiy yechim taklif qilish
Biznes	Yangi mahsulot yoki brend yaratish	Brendni targ‘ib qilish uchun g‘oya ishlab chiqish

Shuningdek, kreativlikda mantiqiy izchillikni ustuvor ahamiyat qaratilsa, ijodda bu har doim ham rioya qilinmasligi mumkin. Misol uchun, “oy bolta” she‘ri, surrealism yo‘nalishi. Mazkur so‘z birikmasi yoki tushunarsiz rasm ijodkorning ijod mahsuli, biroq biz uni kreativ g‘oya sifatida e‘tirof eta olmaymiz.

Ilmiy nuqtai nazardan yondashgan holda ushbu fenomenlarning farqini quyidagicha ajratish mumkin

L.S. Vigotskiy ijodkorlikni ijtimoiy ahamiyatga ega natijalarni yaratish jarayoni sifatida ta‘riflaydi:



«Ijodkorlik – bu yangi, original va jamiyat uchun ahamiyatli narsalarni yaratish jarayonidir» [5]

Dj.P. Gilford esa kreativlikni noan’anaviy fikrlash va g‘oyalarning xilma-xilligi bilan bog‘laydi:

«Kreativlik – bu xilma-xil va g‘ayrioddiy g‘oyalarni ishlab chiqish qobiliyatidir»[6]

Xulosa qilib aytganda, ijodkorlik va kreativlik bir-biri bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan, lekin farqli tushunchalar hisoblanadi. Ijodkorlik g‘oyalar yaratish bilan bir qatorda ularni aniq va ijtimoiy ahamiyatga ega natijalarga aylantirishni ham nazarda tutadi. Kreativlik esa asosan noan’anaviy, yangi g‘oyalar va yechimlarni yaratish qobiliyati bo‘lib, ularning amaliy natijasi shart emas.

Kreativlik – insoniyatning yangi izlanishlar va g‘oyalar, muqobillar, yechimlar hamda barsha imkoniyatlarni noyob hamda boshqasha tarzda yaratish qobiliyatidir. Kreativlik bu mohiyatan dunyoqarash, ong, tafakkur tarzida gnoselogik hodisa, uning asosiy negizida insoniyatning bilishga, uni anglashga, hamda idrok etishga bo‘lgan harakatlari mujassamlashtiriladi. Yangilikka intilish va qiziqish insonni nazariy, ilmiy, va ijodiy yoki ijtimoiy izlanishlarga undaydi. Ushbu tushunchalarning o‘zaro munosabati innovatsiyalarni samarali amalga oshirish uchun muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Torrance, E. The Nature of Creativity as Manifest in Its Testing. In R. Sternberg (Ed.), The Nature of Creativity (pp. 43-73). New York: Cambridge University Press. 1988.
2. O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil. I harfi.
3. Мелик-Пашаев А.А. «Психология творчества: проблемы, подходы, исследования». – Москва: Просвещение, 2005. – 224 с.
4. Крочик М.В. «Креативность и инновации в бизнесе». – Москва: Юрайт, 2017. – 156 с.
5. Выготский Л.С. «Воображение и творчество в детском возрасте». – Москва: Просвещение, 1967. – 92 с.
6. Gilford Dj.P. «Creativity». – American Psychologist, 1950, Vol. 5, pp. 444–454.
7. Р.Ходжиев, Д.Норбоева Креативное мышление-важный фактор социального развития- Вестник науки и образования, 2021. 10-3 (113). С. 76-79



ПРОФЕССИОНАЛЬНАЯ ПОДГОТОВКА ПЕДАГОГОВ НАЧАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ

В РАМКАХ ДЕЯТЕЛЬНОСТНОГО ПОДХОДА

Кожомбердиева Каныкей Мамасалиевна –
старший преподаватель кафедры Психологии, ОшГУ,
+996558772507, kankoz274@gmail.com, Кыргызстан

Аннотация

В статье рассматривается профессиональная подготовка педагогов начального образования в контексте деятельностного подхода. Основное внимание уделяется ключевым принципам и методам, которые должны быть интегрированы в образовательный процесс подготовки будущих педагогов. Деятельностный подход в педагогике предполагает акцент на активной роли студентов в учебной деятельности, где знания и навыки усваиваются через практическую деятельность. Исследование показывает, что для успешной профессиональной подготовки необходимо формировать у педагогов не только теоретические знания, но и умения практической работы с детьми, используя разнообразные методы и технологии обучения.

Ключевые слова: профессиональная подготовка, педагоги начального образования, деятельностный подход, педагогическое обучение, активные методы, учебная деятельность.

Целью исследования является анализ возможностей внедрения деятельностного подхода в систему профессиональной подготовки педагогов начального образования. Исследование направлено на выявление особенностей и проблем, связанных с реализацией этого подхода, а также на определение методов и технологий, которые способствуют формированию компетентных и готовых к практической педагогической деятельности специалистов.

Методы исследования

Для достижения поставленной цели использовались следующие методы:

Анализ научных публикаций и педагогических исследований, посвященных деятельностному подходу и профессиональной подготовке педагогов.

Сравнительный анализ образовательных программ по подготовке педагогов начального образования в разных странах.

Опросы и интервью с педагогами и студентами педагогических вузов, чтобы оценить влияние деятельностного подхода на формирование практических навыков.

Кейс-метод для анализа реальных примеров внедрения деятельностного подхода в образовательную практику.



“RAQAMLASHGAN JAMIYATDA INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH: IMKONIYAT VA ISTIQBOLLARI” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

Экспериментальные исследования, включая анализ уроков и занятий, проводимых в рамках педагогической подготовки.

Результаты исследования

Результаты исследования показывают, что деятельностный подход оказывает значительное влияние на профессиональную подготовку педагогов начального образования. Внедрение этого подхода способствует развитию у будущих педагогов таких компетенций, как:

Умение проектировать и реализовывать образовательные ситуации, которые развивают активность детей.

Способность использовать разнообразные методы и средства обучения, ориентированные на активное участие студентов в образовательном процессе.

Развитие критического мышления и рефлексивных навыков у студентов.

Кроме того, в исследовании были выявлены следующие проблемы:

Нехватка ресурсов и специализированных материалов, которые могут быть использованы для реализации деятельностного подхода на практике.

Отсутствие системной подготовки преподавателей педагогических вузов для работы с деятельностным подходом.

Проблемы интеграции теоретического и практического обучения, что ограничивает возможности студентов в освоении актуальных педагогических технологий.

На основе полученных данных предлагаются рекомендации по улучшению профессиональной подготовки педагогов, среди которых:

Активное внедрение технологий проектной деятельности, которые позволят будущим педагогам применять знания на практике.

Формирование наставничества и обмена опытом между педагогами и студентами в реальных условиях образовательных учреждений.

Разработка и внедрение специализированных курсов и тренингов для преподавателей педагогических вузов, направленных на освоение деятельностного подхода.

Обсуждение

В рамках исследования важным аспектом является понимание того, что деятельностный подход не ограничивается лишь методами преподавания. Это в первую очередь философия образования, ориентированная на активную роль всех участников образовательного процесса. Для педагогов начального образования это означает, что они должны быть не только носителями знаний, но и создателями образовательных ситуаций, которые будут стимулировать активность детей. [1, с. 59].



“RAQAMLASHGAN JAMIYATDA INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH: IMKONIYAT VA ISTIQBOLLARI” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

Примером успешного применения деятельностного подхода является опыт некоторых европейских стран, где на базе университетов создаются обучающие центры, в которых студенты проходят практику и получают не только теоретические знания, но и опыт непосредственной работы с детьми в разных образовательных контекстах.

Заключение

Деятельностный подход в подготовке педагогов начального образования представляет собой важную составляющую качественной образовательной системы. Его реализация позволяет не только повысить уровень профессиональной подготовки будущих учителей, но и улучшить качество образования детей. Важно, чтобы образовательные учреждения и педагоги начали активно внедрять этот подход, преодолевая существующие трудности и развивая инновационные формы обучения.

Дополнительные рекомендации

Менторство и коучинг: Важно создать систему наставничества, где более опытные педагоги будут помогать начинающим специалистам осваивать деятельностный подход в реальных условиях школьного обучения.

Международное сотрудничество: Обмен опытом с зарубежными коллегами может стать ценным источником инновационных методов, которые в полной мере поддерживают деятельностный подход.

Использование цифровых технологий: Внедрение цифровых платформ для создания и обмена образовательными материалами и сценариями учебных занятий может ускорить внедрение деятельностного подхода. [2, с. 125].

Такие решения могут значительно повысить качество подготовки педагогов и сделать процесс обучения более современным и адаптированным к требованиям времени.

Список использованной литературы:

1. Кравцова, И.В. (2018). Деятельностный подход в образовательной практике: теория и практика. — М.: Научный мир. — 254 с.
2. Шмидт, И.А. (2017). Профессиональная подготовка педагогов начального образования: от теории к практике. — СПб: Питер. — 320 с.



RAQAMLASHTIRISH SHAROITIDA IJTIMOIIY XAVFSIZLIKNI TA’MINLASH ISLOHOTLARINING FALSAFIY JIHATLARI

No‘monzoda Akmaliddin Madaminjon o‘g‘li

Farg‘ona viloyati IIB xodimi

Farg‘ona, O‘zbekiston

Annotatsiya: Mazkur maqolada zamonaviy raqamlashtirish jarayonining ijtimoiy xavfsizlik islohotlari bilan o‘zaro aloqadorligi falsafiy nuqtayi nazardan tahlil qilinadi. Raqamli texnologiyalar ijtimoiy munosabatlarda kechayotgan o‘zgarishlarni kuchaytirishi, shu jumladan, ijtimoiy xavfsizlik tushunchasining yangicha talqiniga sabab bo‘lishi mumkin. Islohotlarda raqamli mexanizmlarning joriy etilishi natijasida sohada tezkorlik, shaffoflik va adolat tamoyillariga erishish imkoni yaratiladi. Maqolada shuningdek, ijtimoiy xavfsizlikni mustahkamlash borasida shakllanayotgan yangi qadriyatlar, qonunchilik-huquqiy asoslar, shaxslararo munosabatlardagi metamorfik jarayonlar hamda ularning falsafiy talqini yoritiladi. Xulosa sifatida raqamlashtirish davrida ijtimoiy xavfsizlikni ta’minlashda ma’naviy, axloqiy va huquqiy tamoyillar uyg‘unligi zarurligi asoslab beriladi.

Kalit so‘zlar: raqamlashtirish, ijtimoiy xavfsizlik, islohotlar, falsafa, huquqiy asos, ijtimoiy munosabatlar, shaffoflik, adolat, ma’naviy tamoyillar.

Zamonaviy jamiyat taraqqiyoti raqamli texnologiyalarning jadallashuvi bilan yanada murakkablashib bormoqda. Bunda “ijtimoiy xavfsizlik” tushunchasi tobora keng qamrovli bo‘lib, nafaqat iqtisodiy, huquqiy yoki siyosiy chora-tadbirlar, balki axborot texnologiyalari va ma’naviy-ma’rifiy omillar bilan ham uzviy bog‘liqdir. Raqamlashtirish jarayoni siyosiy boshqaruvdan tortib ijtimoiy munosabatlarigacha ko‘plab sohalarga o‘z ta’sirini o‘tkazmoqda. Ayniqsa, ijtimoiy xavfsizlikni ta’minlash borasidagi islohotlar zamirida xalq farovonligini oshirish, ijtimoiy tenglik va barqarorlikni mustahkamlash, shuningdek, shaxsning huquq va erkinliklarini himoya qilish kabi tamoyillar turadi.

Raqamlashtirish – bu axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda davlat va jamiyat boshqaruvini samarali tashkil etish, iqtisodiy jarayonlarni avtomatlashtirish, ta’lim va sog‘liqni saqlash kabi sohalarda sifatni oshirishni nazarda tutuvchi murakkab jarayon.

An’anaviy talqiniga ko‘ra, ijtimoiy xavfsizlik – jamiyat a’zolarining iqtisodiy va ijtimoiy himoya qilinishini, jamiyatdagi notinchlikka olib keluvchi omillarni kamaytirishni nazarda tutadi. Raqamlashtirish sharoitida ijtimoiy xavfsizlik tushunchasi kengayib, quyidagi jihatlarni ham o‘z ichiga oladi:

Axborot xavfsizligi: Shaxsiy ma’lumotlarning daxlsizligi, soxta xabarlar va ma’lumotlar tahdididan himoyalaniish;



“RAQAMLASHGAN JAMIYATDA INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH: IMKONIYAT VA ISTIQBOLLARI” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

Raqamli tenglik: Aholining turli qatlamlari o'rtasida raqamli texnologiyalar imkoniyatlaridan teng foydalanish shart-sharoitlari;

Raqamli ijtimoiy yordam: Ijtimoiy himoyaga muhtoj shaxslar uchun onlayn xizmatlar ko'lamini kengaytirish va ularni qo'llab-quvvatlash.

Ijtimoiy xavfsizlikni ta'minlash sohasidagi islohotlar jamiyatda ijtimoiy barqarorlik, ijtimoiy adolat va inson manfaatlarini ustuvor qo'yishni ko'zlaydi. Bu maqsadlarda raqamlashtirish:

Davlat xizmati va boshqaruvida shaffoflikni ta'minlaydi;

Ta'lim, sog'liqni saqlash va iqtisodiy sohalarda tezkorlik va foydalanish qulayligini oshiradi;

Byurokratik to'siqlarni kamaytiradi va odamlarda davlat institutlariga nisbatan ishonchni kuchaytiradi.

Falsafiy nuqtayi nazardan, bu maqsadlar inson va jamiyat o'rtasidagi munosabatlarda boshqaruv jarayonlarini soddalashtirish, insonning ijtimoiy hayotda faol ishtirokini rag'batlantirish, shu bilan birga, axborot oqimlarini nazorat qilish orqali tartib va intizomni mustahkamlashga qaratilgan.

Ijtimoiy xavfsizlik islohotlarida gumanizm tamoyillari raqamli texnologiyalar orqali yangi bosqichga chiqishi mumkin. Chunki raqamli soha:

Ijtimoiy adolatni mustahkamlash (yordam va nafaqalarni adolatli taqsimlash, fuqarolarni ijtimoiy himoya qilish jarayonlarida inson omilini kamaytirish);

Keng imkoniyatlar yaratish (har bir shaxsga bilim olish, xizmatlardan foydalanish va o'z salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun onlayn platformalar taqdim etish);

Hamkorlik va hamjihatlikni kuchaytirish (ijtimoiy muammolarni yechishda fuqarolik jamiyati institutlari bilan bevosita muloqotda bo'lish).

Falsafiy jihatdan, raqamlashtirish insonning yaratuvchanligi hamda ijtimoiy ongini yuksaltirish bilan uyg'unlashgan taqdirdagina ijtimoiy xavfsizlikni yanada samarali ta'minlaydi.

Raqamli islohotlar shakllantiradigan eng muhim falsafiy kategoriya – shaffoflik. Davlat xizmatlari onlayn platformalari va raqamli arxivlar orqali davlat boshqaruv organlari axborotining ochiqligi, qaror qabul qilish jarayonlarining kuzatilishi ijtimoiy ishonch darajasini oshiradi. Shu bilan birga, hisobdorlik tamoyili:

Korrupsion omillarni kamaytiradi;

Davlat organlarini fuqarolarga javobgar bo'lishga undaydi;

Fuqarolarning siyosiy faolligini kuchaytiradi.

Raqamli islohotlar muvaffaqiyati ko'p jihatdan jamiyat a'zolarining axborot madaniyatiga bog'liq. Fuqarolarning raqamli savodxonlik darajasi oshgani sayin, ular nafaqat onlayn xizmatlardan foydalana oladi, balki ijtimoiy xavfsizlikka raxna soluvchi



“RAQAMLASHGAN JAMIYATDA INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH: IMKONIYAT VA ISTIQBOLLARI” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

xatar va tahdidlarni ham anglab, ularga qarshi kurashish qobiliyatiga ega bo‘ladi. Bunda:

Maktab va oliy ta‘lim tizimida raqamli savodxonlik bo‘yicha darslarning kengaytirilishi;

Media savodxonlik, kiberxavfsizlik bo‘yicha maxsus dastur va o‘quv kurslarining ommalashtirilishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Raqamli texnologiyalar hamma uchun teng imkoniyatlar yaratish salohiyatiga ega. Biroq ayni paytda raqamli texnologiyalarni egallash imkoniyati hamda texnik infrastrukturaga kirish borasida jamiyatda tafovutlar mavjud bo‘lishi mumkin (raqamli tafovut). Shu bois ijtimoiy xavfsizlikni raqamli muhitda mustahkamlash uchun:

Raqamli infratuzilmani barcha hududlarda kengaytirish;

Ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlar (nogironlar, ishsizlar, kam ta‘minlanganlar) uchun maxsus onlayn dasturlarni yo‘lga qo‘yish;

Davlat xizmatlarini olishda imkoniyati cheklangan shaxslar uchun qulay platformalar yaratish ustuvor yo‘nalish bo‘lishi lozim.

Raqamli texnologiyalar ijtimoiy xavfsizlik tushunchasining o‘zini ham o‘zgartirib yuboradi. Falsafiy jihatdan bu hodisani raqamli modernizatsiya deb atash mumkin. U jamiyatda yangi qadriyatlar – tezkorlik, ochiqlik, adolat, hamkorlik – paydo bo‘lishi bilan birga, ma‘naviy-estetik mezonlarni ham zamonaviy shaklga keltiradi.

Raqamlashtirish jarayonida ma‘naviy me‘yorlar ham yangicha shakl oladi:

Virtual muloqot odob-axloqi: Ijtimoiy tarmoqlarda, onlayn platformalarda ham madaniy munosabatlar, hurmat va bag‘rikenglik tamoyillariga amal qilish zarur;

Axborot etikasini rivojlantirish: Soxta xabarlarini tarqatmaslik, boshqalarning shaxsiy ma‘lumotlarini asrash, huquqlarga rioya qilish – bular ijtimoiy xavfsizlikning ma‘naviy poydevori sifatida qoraladi.

Ijtimoiy xavfsizlikni ta‘minlashda davlat organlari, fuqarolik jamiyati institutlari va xususiy sektor o‘rtasidagi hamkorlik raqamli platformalar orqali kuchayadi. Falsafiy jihatdan, bu jarayon jamiyatning barcha a‘zolari manfaatlari uyg‘unligi, o‘zaro ishonch va mas‘uliyatni taqsimlashni ifodalaydi.

Raqamlashtirish sharoitida ijtimoiy xavfsizlikni ta‘minlashga qaratilgan islohotlar inson manfaatlari, ijtimoiy adolat va shaffoflik prinsiplari bilan boyitilishi zarur. Falsafiy nuqtayi nazardan, bunday islohotlar jamiyatda nafaqat moddiy-iqtisodiy, balki ma‘naviy va madaniy jabhalarda ham chuqur ijobiy o‘zgarishlar ro‘y berishi bilan ahamiyatlidir. Ijtimoiy xavfsizlik istiqbollari raqamli texnologiyalar, huquqiy mustahkamlash va ma‘naviy-axloqiy tamoyillar uyg‘unlashgan holda rivojlanishi, barcha qatlamlar manfaatini inobatga olib, jamiyatdagi bag‘rikenglik va barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.



ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Castells, M. (2010). The Rise of the Network Society. Second Edition. Oxford: Blackwell.
2. Giddens, A. (2013). Sociology. London: Polity Press.
3. Дзлиев М.И., Романович А.Л., Урсул А.Д. Проблемы безопасности: теоретико-методологические аспекты. – Москва: МГУК, 2001. – С.9.
4. Заплатинський В. М. Термінологія науки о безпеки. Zbornik prispevkov z medzinarodnej edeckej konferencie «Bezhecnostna veda a bezpecnostne vzdelanie». – Liptovsky Mikulas: AOS v Liptovskom Mikulasi, 2006. – С.78-80.
5. Каримов Ф. Давлат ва жамият хавфсизлиги ва унга таъсир этувчи асосий омиллар // Шарқ машъали. – Тошкент, 2017

OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA FAN, TA'LIM VA ISHLAB CHIQRISH INTEGRATSIYASINI TASHKIL ETISH VA BOSHQARISHDA RAHBAR VA PEDAGOG KADRLARNING KOMPETENTLIGI

Yuldashev Saloxiddin Azamovich

Qo'qon universiteti, Ijtimoiy fanlar kafedrasini mudiri
O'zbekiston Respublikasi, Farg'ona viloyati Qo'qon shaxri
Tel: +998909050444

salahiddiny@gmail.com

s.yuldashev@kokanduni.uz

Annotatsiya

Kasbiy faoliyatni tashkil etishda muhim ahamiyatga ega bo'lgan kompetentlikning asosiy elementlari Davlat ta'lim standartlarida o'z ifodasini topgan. Rahbar va pedagog xodimlari bilan o'zaro to'g'ri munosabatlarni, ularning usullari, muloqot jarayonida ustuvor o'rin tutuvchi tilni o'zlashtirish, jamoada ishlash ko'nikmalari, jamoada turli xil ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni tashkil etish va o'tkazishni bilishni o'z ichiga oladi.

Kalit so'zlar: Rahbar, pedagog, kompetent, kommunikativ, psixologik, tashkilotchilik, informatsion, kreativ, moderator, keysolog, notiqlik mahorati, rahbarlik etikasi, madaniyat, kompetentsiya.

Абстрактный

Основные элементы компетентности, имеющие значение при организации профессиональной деятельности, отражены в государственных образовательных стандартах. Развивать правильные взаимоотношения с руководителями и преподавательским составом, их методы, овладение языком, который является приоритетным в процессе общения, навыки командной работы, организация



**“RAQAMLASHGAN JAMIYATDA INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH: IMKONIYAT VA ISTIQBOLLARI”
mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya**

различных духовных и образовательных мероприятий в коллективе, а также умение переводить.

Ключевые слова: Лидер, педагог, компетентный, коммуникативный, психологический, организаторский, информативный, творческий, модератор, кейсолог, ораторское мастерство, этика лидерства, культура, компетентность.

Abstract

The main elements of competence, which are important in the organization of professional activities, are reflected in the State Educational Standards. They include the ability to establish correct relationships with the leader and pedagogical staff, their methods, master the language that takes a priority place in the communication process, teamwork skills, and the ability to organize and conduct various spiritual and educational events in the team.

Keywords: Leader, educator, competent, communicative, psychological, organizational, informative, creative, moderator, caseologist, oratorical skills, leadership ethics, culture, competence.

Oliy ta'lim muassasasida rahbar va pedagog kadrlarning kompetentligi fan, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasini tashkil etish va boshqarishda muhim ahamiyatga egadir. Rahbar va pedagogning mahorati va kompetentligi fan va ta'limni tashkil etishda ilmiy tadqiqot natijalarini ishlab chiqarishga joriy etishda yoki boshqarishni rivojlantirishda asosiy omil bo'lib hisoblanadi.

Oliy ta'lim muassasasida rahbar va pedagog kadrlarning kompetentligiga quyidagi talablar qo'yiladi:

- oliy ta'lim tiizimini modernizatsiyalashning ustivor yo'nalishlarini;
- o'quv jarayonini tashkil etishga qo'yiladigan zamonaviy talablar mohiyatini;
- kommunikativ, psixologik, tashkilotchilik, informatsion, kreativ, innovatsion kompetentlik tushunchalarining mazmun-mohiyatini;
- boshqaruv kompetentligining tuzilishi va mazmunini bilishi;
- o'qitishning innovatsion shakl, metod va vositalarining mohiyatini anglash va o'quv jarayonida qo'llanishini tashkillashtirish hamda nazorat qilish;
- ilg'or ta'lim texnologiyalarini ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish yo'llarini belgilash;
- o'quv loyihalarini ishlab chiqish, portfoliolarni shakllantirish va amaliyotga tatbiq etish jarayonlarini boshqarish;
- elektron o'quv modullarini yaratilishi va sifatini nazorat qilish;
- moderatorlar, keysologlar faoliyatini tashkil etish;
- bitiruv malakaviy ishlarini va magistrlik dissertatsiyalari mavzularini amaliyot bilan bog'lashni tashkil qilish;



“RAQAMLASHGAN JAMIYATDA INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH: IMKONIYAT VA ISTIQBOLLARI” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

-malakaviy amaliyot bazalarini yangilash va dasturlarini takomillashtirishni nazorat qilish;

-OTMda o'quv-uslubiy faoliyatini samarali tashkil etish va rivojlantirish;

Notiqlik mahorati, rahbarlik etikasi va madaniyatini amaliyotda qo'llash hamda ijodiy fikrlash ko'nikma va malakalarga ega bo'lishi kerak.

Yuqorida bayon etilgan talablar rahbar kompetentsiyasining mazmun va mohiyatini belgilab beradi.

Kompetentsiya (lot.Competo erishyapman, munosibman, loyiqman) u yoki bu sohadagi bilimlar, tajriba degan ma'nolarni anglatadi.

Shuningdek, «Kompetentsiya» lotincha so'z bo'lib, o'zbek tilidagi lug'aviy ma'nosi «inson yaxshi biladigan», «tajribaga ega bo'lgan» kabi ma'nolarni bildiradi. Demak, biror bir sohada kompetentli inson shu soha haqida asosli fikr yuritish va unda samarali faoliyat olib borish uchun mos bilim va qobiliyatga ega hisoblanadi.

Kompetentlik - deganda ko'pincha shaxsning faoliyat yuritishga umumiy qobiliyati va uning kasbiy tayyorgarligida namoyon bo'luvchi bilim va tajribalarga asoslangan integrallashgan sifatlar nazarda tutiladi. Demak, kompetentsiya va kompetentlik tushunchalari bilim, malaka va ko'nikma tushunchalaridan kengroq, chunki ular shaxsning yo'naltirilganligi, muammolarni his qila olishi, sinchkovlikni namoyon qila olishi, egiluvchan fikrlashga ega bo'lishi kabi sifatlarni o'z ichiga oladi.[1]

Ta'limda yangi tadqiqot yo'nalishi bo'lgan kompetentli yondoshuvning paydo bo'lishi hamda xorijiy pedagogik va metodik manbalarda «kompetentlik» va «kompetentsiya» tushunchalari 1960 yillarning oxiri 1970 yillarning boshlarida paydo bo'ldi va oliy ta'lim muassasalarida ta'lim oluvchilarning kasbiy tayyorgarligi nazariyasi va amaliyotiga keng kirib bordi.

Kompetentlik tushunchasi nafaqat aniq bilim va ko'nikmalar, balki aniq strategiya, mos emotsiya va munosabat, xuddi shuningdek, butun bir tizimni boshqarish mexanizmi mavjud ekanligi talab etiladigan murakkab amaliy masalalarni hal etish bilan bog'liq.

Kasbiy faoliyatni tashkil etishda muhim ahamiyatga ega bo'lgan kompetentlikning asosiy elementlari Davlat ta'lim standartlarida o'z ifodasini topgan. Rahbar va pedagog xodimlari bilan o'zaro to'g'ri munosabatlarni, ularning usullari, muloqot jarayonida ustuvor o'rin tutuvchi tilni o'zlashtirish, jamoada ishlash ko'nikmalari, jamoada turli xil ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni tashkil etish va o'tkazishni bilishni o'z ichiga oladi.

Kompetentlikka yo'naltirilgan ta'lim amerikalik tilshunos N.Xomskiy (1965 yil, Massachutes universiteti) tomonidan taklif etilgan «kompetentsiya» atamasining umumiy ma'nosida shakllandi. Yevropa Kengashi dasturi bo'yicha Bern shahrida bo'lib o'tgan simpoziumda (1996 yil) «kompetentsiya» tushunchasi «uquv», «kompetentlik», «qobiliyat», «mahorat» singari tushunchalar qatoriga kiritilgan. Yevropa davlatlarining



“RAQAMLASHGAN JAMIYATDA INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH: IMKONIYAT VA ISTIQBOLLARI” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

ta'lim vazirlari Boloniya deklaratsiyasida (1999 yil) ta'lim islohatlarining kontseptual asoslari sifatida kompetentli yondoshuv e'tirof etildi.

Rahbarning kompetentligi-bilimdonlik, kasbga moslik, malakalilik, tajribalilik, mas'uliyatlilikni rahbarlik faoliyatiga singdirib borish. O'z sohasini, ishining ustasi bo'lish, sohasining sirlarini har tomonlama chuqur bilish demakdir. Rahbar kompetentsiyasining shakllanishi besh bosqichdan iborat bo'lib, ular quyidagilarni tashkil etadi:

Rahbar kompetentsiyasining shakllanish bosqichlari: Qobiliyatni aniqlash, tarbiyalash va shakllantirish, chiniqtirish (kichik hajmdagi topshiriqlar berish), ishonch (mustaqil rahbarlik lavozimiga tayinlanish), rahbarlik cho'qqisi, zamonaviy rahbar kompetentsiyasida jarayonni boshqarishning o'ziga xos vazifalari – rejalashtirish, tashkillashtirish, tahlil qilish, asoslash (motivatsiya), nazorat qilishdir.

Ularning har biriga izoh berar ekanmiz, shuni qayd etish lozimki, rahbarlikning asosiy maqsadi, ushbu muhim vazifalar o'rtasida mutanosiblik va uyg'unlikka erishish hamda shu orqali tashkilot yakdilligini ta'minlashdir. **Rejalashtirish** vazifasi birinchi navbatda rahbar o'z tashkilotining maqsadi, vazifalari, amalga oshirish jarayoni, faoliyat natijalarini aniqlashi va belgilashi zarur. **Tashkillashtirish** belgilangan vazifalar, ish hajmi, unga ketadigan vaqtni hisobini aniq belgilab olishi, ya'ni tashkilot turli bo'limlaridagi mavjud imkoniyatlardan optimal darajada foydalanishdir. Rahbar ado etishi zarur bo'lgan ishning boshlanish jarayonidan boshlab oxirigacha to'liq **tahlil qilishi** maqsadga muvofiq. Bu olib borilayotgan ish va mahsulot natijalaridagi ba'zi holatlarning kamchiligini joyida tushunib borishga imkon yaratadi. Rahbar strategik maqsadlarni ko'zlar ekan, aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etib borishiga **asosli dalillar** ham zarur. SHu sababli har bir rahbar tomonidan tashkillashtirilgan ishlar asosli va o'zaro qiyosiy tahlillarga ega bo'lishi kerak. Boshqaruvdagi **nazorat qilish** vazifasi ta'lim standartlari, pedagogik jarayonni mavjud Qonun va boshqa hujjatlarda ko'rsatilgan talablar asosida kechishini ta'minlaydi.

Boshqaruvda rahbar muhim vazifalarni bajarish bilan birga mehnat jarayonida kompetentlilik xususiyatlarini namoyon etishi zarur. Ta'lim muassasasi rahbarining kompetentligi bir qator komponentlarni o'z ichiga oladi. Yuqorida bayon etilgan rahbarning kompetentligi komponentlari rahbarning **yutug'ini kafolatlaydigan omillar** hisoblanadi. Rahbarning jarayonni innovatsion boshqarishda uning kasbiy refleksiya muhim rol uynaydi. **Kasbiy refleksiya**-o'z-o'zini anglashi, o'zini-o'zi boshqarish va o'z-o'zini bilish demakdir.

Ta'lim muassasasining zamonaviy rahbari kompetentsiyasiga ta'sir etuvchi omillar va xususiyatlar mavjud bo'lib, ularning mukammal rahbar sifatida shakllanishida bevosita ta'sir etadi.

Rahbar kompetentsiyasi turlari



“RAQAMLASHGAN JAMIYATDA INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH: IMKONIYAT VA ISTIQBOLLARI” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

• **Standart kompetentsiya**- ushbu faoliyatga oid doimiy va odatiy vazifalarni bajarish qobiliyati.

• **Asosiy kompetentsiya**-ushbu faoliyatga oid innovatsion vazifalarni bajarish qobiliyati.

Etakchi kompetentsiya-kasb faoliyatining yangi turlarini yarata olish qobiliyati.

Rahbar bilishi zarur bo'lgan masalalar - pedagogik kvalimetriya – bu ta'lim tizimi xodimlarini kasbiy va pedagogik mahorati sifati, novatorligi darajasini aniqlashga yo'naltirilgan tadqiqot sohasi, pedagogik deontologiya - pedagogning kasbiy odob-ahloqi haqidagi fan, andragogika - kattalarni o'qitish san'ati va ilmi, rahbarlik nazokatining tarkibiy qismlari - ixtisoslik sohasidagi burch, pedagogik adolat, ixtisoslikka doir vijdon, izzat nafs, pedagogik oriyat va boshqalar, rahbar faoliyatida muloqot odobiga qo'yiladigan talablar - do'stlik, xizmatdagi moslik, chiqishib hamjixat bo'lib ishlash, maslakdoshlik, mayinlik, iltifotlilik, samiyimiylik va boshqalar, rahbarning o'zini boshqara olish bilan bog'liq ko'nikmasi, shaxs va jamoaga ta'sir ko'rsatish ko'nikmalari pedagogik texnikaning tarkibiy qismlari demakdir, kasbiy refleksiya- o'z-o'zini anglashi, o'zini-o'zi boshqarish va o'z-o'zini bilish demakdir, rahbarning mahorati- ishga bo'lgan fidoiylik, bilim va tajribalarning birikmasi bo'lib, rahbar faoliyatining eng yuqori cho'qqisidir, chunki u o'ziga ajratilgan juda qisqa vaqt ichida eng yuqori mukammal natijaga erishadi, muloqot odobi, nutq texnikasi- rahbarning muloqot madaniyati me'yorlari, kommunikativ faoliyatni nutq texnikasi qoidalari asosida amalga oshirish jarayonidir, rahbarning yakka shaxs va jamoaga ta'sir etish bilan bog'liq bo'lgan ko'nikmasi (didaktik ko'nikma, tashkilotchilik ko'nikmasi, konstruktiv va kommunikativ ko'nikmasi, pedagogik munosabatni boshqarish, jamoaning ijodiy ishini tashkil etish).

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ш.М.Мирзиёев «Танқидий таҳлил, қатъий тартиб интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қондаси бўлиши керак» Т.: Ўзбекистон, 2017 й.

2. О.Мусурмонова Таълим менежерининг касбий компотентлиги ва креативлиги . Ўқув услубий мажмуа. Тошкент. 2015 й.

3. Ш.М.Мирзиёев «Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз» Т.: Ўзбекистон, 2017 й.

4. Ш.М.Мирзиёев «Қонун устиворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш- юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови» Т.: Ўзбекистон, 2017 й.

- 5.Qodirov B.S. Theoretical and practical basis of innovative development of Uzbekistan European science review, Premier Publishing s.r.o. Vienna. 1-2 (8), 2021, - P.112-117.



INNOVATIVE METHODOLOGY OF TEACHING HISTORY BASED ON CLUSTER SYSTEM AND INTEGRATIVE APPROACH

Saodat Toshtemirova

PhD, Associate Professor, Chirchik State Pedagogical University

ORCID: 0009-0002-1988-4099

Email: s.toshtemirova@cspu.uz

Abstract: In the context of ongoing global educational reforms, the demand for innovative, competency-based, and interdisciplinary pedagogical models is growing. Uzbekistan, through its national strategies and educational modernization efforts, is advancing the quality of history education by integrating cluster systems and interdisciplinary methodologies. This article presents the theoretical rationale and experimental validation of a new methodology combining cluster-based institutional collaboration with integrative, student-centered learning approaches.

Keywords: history education, cluster system, integrative approach, interdisciplinary learning, competency-based education, Uzbekistan, innovation, pedagogy

Introduction. Education in the 21st century is increasingly recognized as a key driver of sustainable development and societal progress. In countries like Uzbekistan, where educational reforms are closely tied to national identity and modernization goals, aligning pedagogical practices with global standards is essential. The Action Strategy for 2017–2021 [1] and the Development Strategy for 2022–2026 [2] emphasize improving the quality and continuity of education through the integration of innovative methods and lifelong learning principles. History, as a discipline, plays a crucial role in fostering national consciousness, critical reflection, and civic responsibility. Yet, traditional rote-learning approaches fall short in cultivating analytical, interdisciplinary, and future-oriented competencies. Therefore, there is a growing need to implement new models of history instruction that foster both cognitive development and socio-cultural engagement. This study proposes a model that merges the cluster system—ensuring structural cohesion and interinstitutional collaboration—with an integrative approach that supports holistic, context-rich learning.

Theoretical foundations. The conceptual foundation of the cluster-based integrative methodology draws from both economic and pedagogical theories. Initially introduced by Porter [8] (1990) in economic development, the “cluster” concept has been adapted in education to denote a network of cooperating institutions working toward common pedagogical objectives. In this model, kindergartens, secondary schools, universities, scientific institutions, museums, and cultural archives collaborate to deliver a unified educational experience. This structure ensures vertical continuity (across educational



“RAQAMLASHGAN JAMIYATDA INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH: IMKONIYAT VA ISTIQBOLLARI” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

stages), horizontal integration (across disciplines), and functional synergy (between theory and practice).

Meanwhile, the integrative approach in education is grounded in constructivist theories which view knowledge as interconnected rather than compartmentalized. Integrative pedagogy emphasizes the synthesis of content across subjects, allowing students to develop a multifaceted understanding of historical phenomena by linking them with geography, literature, art, and civic studies [9]. This holistic learning environment fosters higher-order thinking, empathy, and cross-disciplinary competence. Scholars such as Lazareva (2010) [9] and Mahkamov (2005) [7] argue that integrative methods are especially effective in early and secondary education as they align with cognitive developmental stages.

Methodology. The research followed a design-based methodology, combining qualitative and quantitative techniques to ensure both theoretical depth and empirical validation. The study was conducted in three main phases:

literature review - a comprehensive analysis of national (Karimov [3], Mirziyoyev [4], Khodjamqulov [11], Boltayeva [5]) and international (Raven [10], Bolotov [6], Lazareva [9]) scholarly sources was conducted to identify pedagogical gaps and relevant best practices;

model development - based on findings, a new pedagogical model was designed integrating cluster collaboration (institutional linkages, open educational environments, digital platforms) and interdisciplinary content delivery (joint curriculum planning, thematic modules, integrated projects);

experimental implementation - field trials were conducted in Chirchiq, Urgench, Namangan, and Gulistan State Pedagogical Universities and their partner schools. The intervention involved 501 participants including university students, school teachers, and learners. The methodology employed varied formats such as blended learning, virtual excursions, co-teaching sessions, and group investigations. Assessment tools included pre- and post-tests, observational checklists, motivation scales, and focus group interviews;

Results and discussion. The implementation of the cluster-integrative model yielded substantial pedagogical outcomes. Quantitative analysis revealed that students in the experimental group achieved significantly higher scores in knowledge retention (average 17% increase), conceptual understanding, and critical thinking compared to the control group. Qualitative data from surveys and interviews highlighted elevated motivation, increased interest in historical inquiry, and stronger student-teacher collaboration. Furthermore, teachers reported enhanced proficiency in using digital tools, cross-disciplinary planning, and engaging students through research-based learning activities. The open educational environment facilitated cooperation between institutions, enabling



**“RAQAMLASHGAN JAMIYATDA INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH: IMKONIYAT VA ISTIQBOLLARI”
mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya**

joint events such as history-themed quests, project competitions, and virtual lectures with university professors. International comparisons validate these findings. In Finland, Canada, and Singapore, integrated curricula and cluster-based teaching are widely adopted to promote 21st-century skills [9]. Raven (2002) [10] and Bolotov & Serikov (2003) [6] emphasize the importance of aligning educational outcomes with competencies such as critical reasoning, collaboration, and adaptability. The Uzbek model developed in this study aligns closely with these benchmarks and demonstrates contextual effectiveness in developing countries.

Conclusion. This study confirms the relevance and effectiveness of a pedagogical model that integrates cluster systems and interdisciplinary approaches in history education. The model not only improves academic outcomes but also enhances social, civic, and digital competencies. It transforms the role of the history teacher from an information transmitter to a facilitator of inquiry and collaboration. The findings advocate for the institutionalization of such models across social sciences, supported by continuous teacher training, curriculum innovation, and digital infrastructure development. Future research should examine long-term impacts on university entrance readiness, civic engagement, and career adaptability of students exposed to this model. In conclusion, cluster-integrative teaching represents a scalable, flexible, and impactful strategy for aligning history education with the transformative needs of 21st-century learners.

References:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni // Ўзбекистон Республикаси Qonun hujjatlari to‘plami. – Тошкент, 2017.
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF–60-son Farmoni. 2022 yil 28 yanvar.
3. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q. – Тошкент. Sharq, 1998.
4. Mirziyoev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. Toshkent. O‘zbekiston, 2021.
5. Boltayeva J.M. Bo‘lg‘usi o‘qituvchilarda umummadaniy kompetentlikni rivojlantirish(tarixiy ideallar asosida). Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (phd) dissertatsiyasi avtoreferati. Chirchiq. 2023.
6. Болотов В.А., Сериков В.В. Компетентностная модель: от идеи к образовательной программе. // Педагогика, 2003, № 10.
7. Mahkamov S.T. Tarix ta’limida kurslararo uzviylikni ta’minlashning didaktik asoslari (7-sinf tarix kurslari misolida): Ped. fan.nom. ...dis. – T., 2005. – 70 b.
8. Porter, M. E. (1998). *Clusters and the New Economics of Competition*. Harvard Business Review.



9. Лазарева М. В. Интегрированное обучение детей в дошкольных образовательных учреждениях: Автореф. дис.... д-ра. пед. наук. М., 2010.

10. Равен Дж. Компетентность в современном обществе. Выявление, развитие и реализация. М., 2002. С. 281-296.

11. Ходжамкулов У.Н. Педагогик таълим Инновацион кластерининг илмий-назарий асослари // педагогика фанлари доктори дисс.. – Чирчик, 2020. -270 б.

GLOBAL TA'LIMNING INNOVATSION YO'NALISHLARI VA KO'P TARMOQLI TADQIQOTLAR BILAN INTEGRATSIYASI

Joldasov Ixtiyor Suyindikovich

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Tarix kafedrası dotsenti v.b., p.f.f.d. (PhD)

Annotatsiya: Mazkur maqola global ta'lim tizimining innovatsion yo'nalishlari va ko'p tarmoqli tadqiqotlar bilan integratsiyasini tahlil qiladi. Maqolada yangi pedagogik texnologiyalar, raqamli o'qitish platformalari, interaktiv o'qish metodlari, va ta'limning ijtimoiy-iqtisodiy jihatlar kabi innovatsion yondashuvlar ko'rib chiqiladi. Ta'limning innovatsion yo'nalishlari, texnologiyalar va ilm-fan o'rtasidagi integratsiya global ta'lim tizimining rivojlanishiga turtki bo'lib, kelajakda yanada samarali va barqaror ta'limni ta'minlashga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: Integratsiya, innovatsion, global, pedagogika, strategiya.

ИНТЕГРАЦИЯ ГЛОБАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ С ИННОВАЦИОННЫМИ НАПРАВЛЕНИЯМИ И МЕЖДИСЦИПЛИНАРНЫМИ ИССЛЕДОВАНИЯМИ

Жолдасов Ихтиёр Суиндикович

Чирчикский государственный педагогический университет

и.о. доцент кафедры истории, к.п.н. (PhD)

Аннотация: В данной статье анализируется интеграция мировой системы образования с инновационными направлениями и междисциплинарными исследованиями. В статье рассматриваются инновационные подходы, такие как новые педагогические технологии, цифровые обучающие платформы, интерактивные методы обучения, а также социально-экономические аспекты образования. Инновационные направления образования, интеграция технологий и науки будут стимулировать развитие глобальной системы образования и послужат обеспечению более эффективного и устойчивого образования в будущем.

Ключевые слова: Интеграция, инновационная, глобал, педагогика, стратегия.

INTEGRATION OF GLOBAL EDUCATION WITH INNOVATIVE DIRECTIONS AND MULTIDISCIPLINARY RESEARCH.

Joldasov Ikhtiyor Suyindikovich



Chirchik State Pedagogical University

Associate Professor of the Department of History, (PhD)

Abstract: This article analyzes the integration of the global education system with innovative directions and multidisciplinary research. The article examines innovative approaches such as new pedagogical technologies, digital learning platforms, interactive learning methods, and socio-economic aspects of education. Innovative directions of education, integration between technologies and science will stimulate the development of the global education system and will serve to ensure more effective and sustainable education in the future.

Key words: Integration, innovative, global, pedagogy, strategy.

Bugungi kunda global ta'lim tizimlari dunyoning har bir burchagida uzluksiz rivojlanayotgan va o'zgarayotgan bir soha sifatida ko'rinadi. Innovatsion yondoshuvlar va ko'p tarmoqli tadqiqotlar ta'lim sohasida yangi g'oyalar, metodlar va texnologiyalarni amalga oshirishda muhim rol o'ynaydi. Ta'lim jarayonini rivojlantirishda yangi yondoshuvlarni qo'llash, talabalarga yanada samarali va yuqori sifatli ta'lim berishga yordam beradi. Ushbu maqolada global ta'limning innovatsion yo'nalishlari va ko'p tarmoqli tadqiqotlar bilan integratsiyasi haqida batafsil tushuncha berib o'tamiz. So'nggi yillarda ta'lim tizimi butun dunyo bo'ylab tezkor o'zgarishlar va innovatsion rivojlanishlarni boshdan kechirmoqda. Global ta'limning innovatsion yo'nalishlari nafaqat texnologiyalarni qo'llashda, balki pedagogik usullar va ta'limning turli sohalari orasidagi integratsiyalashuvda ham o'z aksini topmoqda. Bugungi kunda ko'p tarmoqli tadqiqotlar ta'limda sifatli o'zgarishlarni amalga oshirishda muhim rol o'ynaydi. Ushbu maqolada global ta'limning innovatsion yo'nalishlari va ko'p tarmoqli tadqiqotlar bilan integratsiyasining ahamiyati tahlil qilinadi. Masalan:

Innovatsion Yo'nalishlar

Innovatsion ta'lim sohasidagi asosiy yo'nalishlar texnologiyalarning integratsiyasi, interaktiv va onlayn ta'limning rivojlanishi, shuningdek, talabalarning kreativ va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan pedagogik usulblarning shakllanishidir. Ta'lim texnologiyalarining integratsiyasi, masalan, sun'iy intellekt (SI) va o'quv platformalaridan foydalanish, ta'lim jarayonini yanada samarali va shaxsiylashtirish imkonini beradi. Bu usul, ta'lim oluvchilarning o'zlashtirish tezligini kuzatish, ular uchun moslashtirilgan o'quv materiallarini taqdim etish imkoniyatlarini yaratadi. [1] Ta'limning shaxsiylashtirilgan yondoshuvi ta'lim oluvchilarning individual ehtiyojlariga moslashtirilgan o'qish rejalarini yaratishni anglatadi. Bu, texnologiyalardan foydalanib, ta'lim oluvchilarning tayyorgarlik darajasi, qiziqishlari va o'rganish uslublariga moslashtirish imkonini beradi. Masalan, adaptiv ta'lim tizimlari yordamida ta'lim oluvchilarning yutuqlari va qiyinchiliklarini real vaqtda kuzatish va ularga moslashgan



“RAQAMLASHGAN JAMIYATDA INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH: IMKONIYAT VA ISTIQBOLLARI” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

darslarni taqdim etish mumkin. Bunga qo'shimcha aytadigan bo'lsak, Innovatsion dasturlar va ta'limning yangi shakllari, masalan bu, ta'lim tizimida yangi metod va dasturlarni yaratish, mo'ljallangan va individual xususiyatlarni hisobga olgan kurslar yoki qisqa muddatli ta'lim dasturlarini ishlab chiqish ta'lim oluvchilarga moslashtirilgan imkoniyatlar yaratadi. Bunda ta'lim dasturlarining o'zgaruvchan va zamonaviy talablar bilan moslashuvi kerak bo'ladi. Bunday tizimlar talabalarga vaqtni tejash imkonini beradi, shu bilan birga ta'limda sifat va samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi. **Ko'p tarmoqli tadqiqotlar bilan integratsiya haqida aytib o'tsak**, Ko'p tarmoqli tadqiqotlar ta'lim tizimida yangi g'oyalar va innovatsiyalarni ishlab chiqishda muhim rol o'ynaydi. Bugungi kunda ta'lim tizimi ko'plab ilmiy sohalar, masalan, psixologiya, informatika, iqtisodiyot va boshqa tarmoqlar bilan integratsiya qilinmoqda. Bu sohalarining hamkorligi o'qish jarayonlarini yanada samarali qilishga yordam beradi. Ko'p tarmoqli tadqiqotlar, ta'lim oluvchilarning har birini yaxshiroq tushunish va ular uchun mos o'quv yondashuvlarini ishlab chiqish imkonini beradi. Bu interdisipliner yondashuvlar, shuningdek, talabalarga keng qamrovli va kompleks muammolarni hal qilishda zarur bo'lgan ko'nikmalarni rivojlantiradi.

Bunday tadqiqotlar ta'limning turli sohalarini, masalan, psixologiya, pedagogika, informatika, iqtisodiyot va sotsiologiya kabi fanlarni birlashtirib, kompleks yondashuvlarni yaratishga yordam beradi. Misol uchun, ta'lim oluvchilarni tayyorlash jarayonida psixologik va pedagogik bilimlarni birlashtirish, shuningdek, informatika va sun'iy intellekt asosida ta'lim texnologiyalarini joriy etish ta'lim oluvchilarga yanada samarali va ilg'or ta'lim berishni ta'minlaydi.[2]

Bundan tashqari, ta'lim sohasida ko'p tarmoqli tadqiqotlar samarali metodologiyalarni ishlab chiqish, yangi o'quv materiallarini yaratish va ta'lim tizimining sifatini oshirishga xizmat qiladi. Davlatimizda ko'p tarmoqli tadqiqotlarni ta'lim sohasida qo'llash, jamiyatning barcha qatlamlarini yanada rivojlantirishga olib keladi.

Respublikamizda ta'lim tizimida innovatsiyalarni joriy etishda katta o'zgarishlar yuz bermoqda. O'zbekistonning ta'lim tizimi mamlakatning raqamli transformatsiyasiga mos ravishda yangilanmoqda. Misol uchun, ta'limda raqamli texnologiyalardan foydalanishni kengaytirishga qaratilgan "Raqamli O'zbekiston 2030" strategiyasi amalga oshirilmoqda. Ushbu strategiya doirasida, onlayn o'qitish va digital platformalar orqali ta'lim olish imkoniyatlari yanada kengaymoqda.[3]

Ta'limda ko'p tarmoqli tadqiqotlarning integratsiyasi, hozirgi kunda O'zbekistonning ta'limiga oid siyosatida ustuvor vazifa hisoblanadi. Shundan kelib chiqish mamlakatning bir qator oliy ta'lim muassasalarida ilmiy-tadqiqot ishlarini integratsiyalashgan holda amalga oshirish tajribasi yolga qoyilgan.

Xulosa



“RAQAMLASHGAN JAMIYATDA INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH: IMKONIYAT VA ISTIQBOLLARI” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

Global ta'limning innovatsion yo'nalishlari va ko'p tarmoqli tadqiqotlar bilan integratsiyasi ta'lim tizimining sifatini oshirishda, shuningdek, yangi pedagogik yondoshuvlarni ishlab chiqishda muhim ahamiyatga ega. O'zbekistonning ta'lim tizimi ham bu global tendensiyalarga mos ravishda rivojlanib, ilmiy va texnologik jihatdan yangi yutuqlarga erishmoqda. Bunday innovatsiyalar ta'lim tizimini global miqyosda raqobatbardosh qilishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. G'aniyev, T. "Innovatsion ta'lim texnologiyalarining rivojlanishi". O'zbekiston Pedagogika Jurnal, 58(2), 2023. 45-50 b.
2. Abdurahmonov, Z. "Ko'p tarmoqli tadqiqotlarning ta'lim sohasidagi roli". Pedagogika va Jamiyat, 67(4), 2022. 101-107 b.
3. Sharipov, B. "O'zbekiston ta'lim tizimida innovatsion yondoshuvlar". O'zbekiston Ta'limi, 9(3), 2023. 22-25 b.
4. Xolmirzaev, S. "Raqamli ta'lim: O'zbekistondagi yangi yutuqlar". Ta'limda Innovatsiyalar, 5(2), 2024. 56-61 b.
5. Joldasov I.S. Yordamchi tarix fanlarini o'qitishda fanlararo aloqalarning o'rnini // Tamaddun nuri. – 2024. – №4. – B. 341-343.
6. Joldasov I.S. Elektron ta'lim muhitida ta'lim oluvchilarning mustaqil ishlarini tashkil etish imkoniyatlari// Муғаллим ҳам ўзликсиз билимлендириў Илимий-методикалық журнал. – 2024. – № 5/3. – Б. 129-134.

RAQAMLASHGAN JAMIYAT VA RAQAMLI TA'LIMNING INSON KAPITALIGA TA'SIRI

Xudayorova Zebuniso Otanazarovna

NamDu mustaqil izlanuvchisi, QK xizmatchisi Chirchiq OTQMBYU Gumanitar fanlar kafedrasi katta o'qituvchisi, Matquliyev Jasurbek Davlatnazar o'g'li, Osiyo Xalqaro Universiteti magistranti

matquliyevjasur@gmail.com +998958304990

O'zbekistonda “Raqamli O'zbekiston-2030” dasturini ishlab chiqilishi va hayotga tatbiq etilishi, eng avvalo, puxta va mukammal tashkiliy-huquqiy mexanizmlarni shakllantirish, qolaversa, innovatsion g'oyalar, texnologiyalar va ishlanmalarni joriy etish bo'yicha davlat organlari va tadbirkorlik subyektlarining uzviy hamkorligini ta'minlash, barcha soha va tarmoqlarda ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatishni raqamli texnologiyalar bilan qamrab olish, bu borada zamonaviy bilimlarni chuqur egallagan, intellektual salohiyatli kadrlarni yetishtirish, shu orqali, mamlakatda “axborotlashgan jamiyat” muhitini yaratishga xizmat qiladi.



“RAQAMLASHGAN JAMIYATDA INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH: IMKONIYAT VA ISTIQBOLLARI” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

— Hozirgi davrda mamlakatning rivojlanishi faqat mavjud tabiiy boyliklar yoki aholi soniga bog‘liq bo‘lmay qoldi, — deydi **O‘zbekiston fanlar akademiyasining akademigi, iqtisod fanlari doktori Qalandar ABDURAHMONOV**. — Jahon bankining ma’lumotlariga ko‘ra, kurrai zaminimiz umumiy boyligining 66 foizi — 365 trillion AQSH dollari inson kapitaliga, ya’ni asosan shaxsning ilm darajasiga to‘g‘ri kelmoqda. AQSHda ushbu ko‘rsatkich milliy boyligining 77 foizi — 95 trillion dollarga yetgan.

Aql-zakovat va ilm — taraqqiyot qanotidir. Zamonaviy ilm-fanning cho‘qqisi yuqori texnologiyalarda, raqamli olamda ko‘zga tashlanadi. To‘rtinchi sanoat inqilobi taraqqiyotning yangi ko‘rinishi — “raqamli iqtisodiyot” boshlangani anglatadi. Bugungi kunga kelib jahonda raqamli iqtisodiyot taraqqiy etgan 20 mamlakatda 2 trillion AQSH dollarini tashkil etayotgani hisoblab chiqilgan. Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishda dunyoda peshqadam Buyuk Britaniyada esa u hozirning o‘zida milliy yalpi ichki mahsulotning 12 foiziga yetdi. Raqamli iqtisodiyot texnologik va biznes jarayonlari, ishlab chiqarish, logistika va tayyor mahsulotlarning savdosini raqamlashtirishni nazarda tutadi. Mamlakatimizda 2020-yilning o‘zida transport, geologiya, ta’lim, arxiv kabi sohalarni to‘liq raqamlashtirish belgilangan va bu boradagi ishlar jadal olib borilmoqda. Zamonaviy infratuzilmaga ega bo‘lgan “IT-park”lar ham fikrimiz dalilidir.

Zero, raqamli iqtisodiyot aql bovar qilmas katta hajmda raqamli ma’lumotlarni to‘plashda davom etmoqda. 2022-yilda global IP trafik hajmi 150 700 Gbit/s(solishtirish uchun 2017-yil 45 000 Gbit/s) chiqishi kutilayotgani davrdan ortda qolmaslikka chaqiradi.

Yutuqlar bilan birga muammolar mavjud, qilinadigan ishlar ko‘p, Prezident Sh.Mirziyov ta’kidlaganidek, **“Albatta, raqamli iqtisodiyotni shakllantirish kerakli infratuzilma, ko‘p mablag‘ va mehnat resurslarini talab etishini juda yaxshi bilamiz. Biroq, qanchalik qiyin bo‘lmasin, bu ishga bugun kirishmasak, qachon kirishamiz?! Ertaga juda kech bo‘ladi. Shu bois, raqamli iqtisodiyotga faol o‘tish – kelgusi 5 yildagi eng ustuvor vazifalarimizdan biri bo‘ladi”**.

O‘zbekistonda barcha tizimlar raqamlashmoqda. Bugun uydan chiqmasdan to‘lovlarni amalga oshirish, hech bir muammosiz masofaviy ta’lim olish, dunyoning yirik kutubxonalaridan foydalanish va hatto ishlash mumkin. Raqamli xizmatlar an’anaviy turga qaraganda qog‘ozbozlik, rasmiyatchilikning yo‘qligi, vaqtni tejash kabi bir qator afzalliklarga ega. Masalan, davlat xizmatlarini raqamli ko‘rinishda olsangiz, sizga belgilangan to‘lovning 10 foizi miqdorida chegirma taqdim etiladi.

2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini “Ilm, ma’rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturiga ko‘ra, 2020–2023-yillarga mo‘ljallangan kiberxavfsizlikka doir milliy strategiya va “Kiberxavfsizlik to‘g‘risida”gi qonun loyihasi ishlab chiqiladi.



“RAQAMLASHGAN JAMIYATDA INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH: IMKONIYAT VA ISTIQBOLLARI” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

Inson, uning ijodiy fazilatlari, kuchlari va qobiliyatlari, ular yordamida u o‘zini o‘zgartiradi, birgina an’anaviy ravishda iqtisodiy va ijtimoiy fanlar uchun markaziy o‘rinni egallagan, ishlab chiqarishning moddiy-texnik bazasini jadal rivojlantirish bilan bog‘liq, inson taraqqiyoti va uning ishlab chiqarish qobiliyatlari muammolarini yashirib, iqtisodiy o‘lishni ta‘minlashda jismoniy kapitalning ustunligi haqidagi illyuziyani mavjudligi ko‘p yillar davomida insonning ishlab chiqarish qobiliyatlari ishlab chiqarishning miqdoriy omillaridan biri sifatida ko‘rib chiqilishini baholaydi. Vazifa faqat mehnat, asosiy va aylanma kapitalni muvaffaqiyatli birlashtirish edi. Jamiyatning evolyutsion rivojlanishi shaxsning mavqei evolyutsiyasi bilan birga keladi. Ongli, maqsadli va samarali faoliyat bo‘lgan mehnat inson hayotining eng muhim qismidir va bu sohadagi tushunchalar eng dinamik tarzda o‘zgaradi. Kapitalizmning tug‘ilishi bosqichida ishlab chiqarishni rivojlantirishning asosiy tushunchasi “mehnat kuchi” yoki “mehnat qobiliyati” tushunchasi, “tanaga ega bo‘lgan jismoniy va ma‘naviy qobiliyatlarning yig‘indisidir.

Hukumat iqtisodiy o‘lishni ta‘minlashga intilar ekan fizik kapital – muhtasham ko‘priklar, yangi yo‘llar, zamonaviy aeroportlar va boshqa infratuzilmalarni barpo etishga investitsiya kiritishga e‘tiborni qaratadi.

Odatda, ular aholi salomatligi, bilim va ko‘nikmalari, tajriba va turmush tarzini o‘zida mujassam etgan inson kapitaliga investitsiya kiritishdan unchalik manfaatdor emas. Bu katta xato, negaki, inson kapitaliga investitsiya kiritishga nisbatan beparvolik mamlakat raqobatbardoshligini keskin pasaytirib yuborishi mumkin. Zero, mamlakat iqtisodiy jihatdan taraqqiy etishi uchun iste‘dodli odamlarni tarbiyalash talab etiladi.

Jahon banki guruhining butun faoliyati davomida ekspertlarimiz iqtisodiyotning o‘lishiga xizmat qiluvchi, odamlarga kambag‘allikdan xalos bo‘lishga yordam beruvchi hamda rivojlanayotgan mamlakatlar taraqqiyotiga sarmoya kiritishi mumkin bo‘lgan har bir jihatni o‘rgandi. Inson kapitalining ahamiyatini bir nechta turli usullarga asosan baholash mumkin. An‘anaga ko‘ra, iqtisodchilar buni ko‘proq ta‘lim olgan odamlarning daromadi bilan hisoblar edi.

Tadqiqotlar har bir qo‘shimcha ta‘lim yili inson daromadini o‘rtacha 10 foizga oshirishini ko‘rsatdi. Bunda ta‘lim sifati ham muhim. Misol uchun, AQShdagi boshlang‘ich maktabning alohida sinfida malakasi past o‘qituvchini o‘rta darajadagi mutaxassisga almashtirish o‘quvchilarga butun umri davomida 250 ming dollargacha umumiy daromad olish imkonini beradi.

Misol uchun, 2015 yilda Keniyada o‘tkazilgan tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, bolalarga narxi atigi 30 sentga teng gelmintlarga qarshi dori vositalarini berish maktabda dars qoldirishni kamaytirishga, keyinchalik esa mustaqil hayotga qadam qo‘yganda oylik maoshining jami 20 foizga oshishiga olib keldi.



“RAQAMLASHGAN JAMIYATDA INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH: IMKONIYAT VA ISTIQBOLLARI” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

Inson kapitalini rivojlantirishning ayrim afzalliklari jamlanib, sarmoya kiritilayotgan avlod bilangina cheklanib qolmaydi. Masalan, onaning farzandning prenatal parvarishi haqidagi bilimni boyitish bolalarning go‘dakligidanoq sog‘lig‘ini yaxshilashga xizmat qiladi. Ta‘limga kiritiladigan sarmoyalar ham jamiyatda ijtimoiy tengsizlikni kamaytirishi mumkin. Aksariyat mamlakatlarda nisbatan o‘ziga to‘q oilalarda tug‘ilgan farzandlar bolalikdanoq keng imkoniyatlardan foydalanishni boshlaydi va bu butun umri davomida qator afzalliklarga olib keladi, aksincha, nochorroq oilalar farzandlari bunday imkoniyatlardan foydalana olmaydi.

Xulosa qilib aytganda, Inson kapitaliga investitsiya kiritish ishonch darajasini ham oshiradi. O‘qimishli insonlar boshqalarga ko‘proq ishonadi, ishonch darajasi baland bo‘lgan jamiyat odatda nisbatan yuqori iqtisodiy o‘sishga erishadi. Inson kapitaliga sarmoya kiritishdan jamiyat ham katta manfaat ko‘radi. Uzluksiz maktab ta‘limi turli jinoyatlar sodir etilishi ehtimolini kamaytiradi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. -Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2021.-B.51-230.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomasi // Xalq so‘zi. 2020 yil 25 yanvar.
3. 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida PF-60, <https://lex.uz>. 28.01.2022. –B-2,3.
4. Kopitskiy A. V. Введение в теорию человеческого капитала // http://sibupk.nsk.su/New/04/chairs/c_theory/kapital/book1.htm
5. www.Uza.uz

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA MA’LUMOTLAR TAQSIMLANGAN REYESTRI TEXNOLOGIYALARI VA AQLLI SHARTNOMALARNI HUQUQIY TARTIBGA SOLISHNING O‘ZIGA XOS JIHATLARI

Ismoilova Nazokatxon Shuxratjon qizi

Qo‘qon davlat pedagogika instituti stajyor-o‘qituvchisi

E-mail: ismoilovanazokat20@gmail.com

[Tel:\(90\) 858 56 07](tel:908585607)

Anontatsiya. Muallif tomonidan Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasida ma’lumotlar taqsimlangan reyestri (blokcheyn) texnologiyalari va aqlli shartnomalarning huquqiy maqomi, ularga nisbatan qo‘llanilayotgan tartibga solish mexanizmlari, hamda xalqaro tajribaga asoslangan holda milliy qonunchilikka integratsiya qilish yo‘llari tahlil qilinadi. Mualliflar tomonidan bu texnologiyalarning huquqiy muhitdagi imkoniyatlari, xavf-xatarlari va ularni tartibga solishda duch kelinayotgan muammolar o‘rganiladi.



“RAQAMLASHGAN JAMIYATDA INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH: IMKONIYAT VA ISTIQBOLLARI” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

Shuningdek, aqlli shartnomalarning fuqarolik-huquqiy shartnomalar bilan bog‘liqligi, ularning yuridik kuchi va huquqiy natijalari haqida fikr yuritiladi. Maqolada O‘zbekiston huquqiy tizimining raqamli texnologiyalar taraqqiyotiga moslashtirilishi zarurligi ta’kidlanib, tegishli tavsiyalar ham beriladi.

Kalit so‘zlar: blokcheyn, shaffoflik, taqsimlangan reestr, virtual kompyuterlar, foydalanuvchilar, tranzaksiyalar, aqlli shartnomalar.

Annotation. In this article, the author analyzes the legal status of distributed ledger (blockchain) technologies and smart contracts in the Republic of Uzbekistan, the regulatory mechanisms applied to them, and the ways of integrating them into national legislation based on international experience. The author studies the opportunities, risks, and current challenges of these technologies within the legal environment. Furthermore, the article explores the connection between smart contracts and civil-law agreements, their legal force, and legal consequences. The article emphasizes the need to adapt Uzbekistan’s legal system to the advancement of digital technologies and provides relevant recommendations in this regard.

Keywords: blockchain, transparency, distributed ledger, virtual computers, users, transactions, smart contracts.

Аннотация. В данной статье автором анализируется правовой статус технологий распределенного реестра (блокчейн) и смарт-контрактов в Республике Узбекистан, механизмы регулирования, применяемые к ним, а также пути интеграции в национальное законодательство на основе международного опыта. Рассматриваются возможности этих технологий в правовой среде, потенциальные риски и проблемы, возникающие при их правовом регулировании. Кроме того, проводится анализ связи смарт-контрактов с гражданско-правовыми договорами, их юридической силы и правовых последствий. В статье подчеркивается необходимость адаптации правовой системы Узбекистана к развитию цифровых технологий, а также приводятся соответствующие рекомендации.

Ключевые слова: блокчейн, прозрачность, распределенный реестр, виртуальные компьютеры, пользователи, транзакции, смарт-контракты.

Kirish. XXI asr – axborot texnologiyalar asrida hayotimizning har bir jabhasini bugungi kunda internet, zamonaviy texnologiyalarsiz tasavvur qilish qiyin. Ushbu texnologiyalar kundan kunga ijtimoiy hayotimizga kirib borib, o‘z ta’sirini ko‘rsatmoqda. Shunday texnologiyalar ichida blokcheyn texnologiyasi hamda aqlli shartnomalar ham katta istiqbolga ega bo‘lmoqda. Ushbu texnologiyalar borasida xorij tajribasini o‘rgangan holda, ko‘plab mamlakatlar sohalarda samarali foydalanish hamda huquqiy maqomini mustahkamlashga katta e’tibor qaratmoqda. O‘zbekistonda ham bu borada amaliy ishlar olib borishga qaratilgan dastlabki qadamlar allaqachon qo‘yildi.



“RAQAMLASHGAN JAMIYATDA INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH: IMKONIYAT VA ISTIQBOLLARI” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada umumiy ilmiy, alohida ilmiy va maxsus usullar tashkil etadi. Xususiyl huquq usullaridan rasmiy huquq (ushbu tadqiqotda qo‘llaniladigan asosiy tushunchalarni shakllantirishda) usulidan foydalanishga alohida e’tibor qaratiladi. Tarixiy-dinamik usuldan foydalanib, mamlakatimizda ham, butun dunyoda ham ma’lumotlar taqsimlangan reyestri texnologiyasi xususan blokcheyn texnologiyasi va uning asosida tuziladigan aqlli shartnomalarning kelib chiqishi, shakllanishi va rivojlanishi bo‘yicha tadqiqot o‘tkazilgan. Nazariy modellashirish va talqin qilish usulini ham ta’kidlash kerak. Uning ushbu ishda qo‘llanilishi kelajakda blokcheyn texnologiyasi orqali sohasidagi mumkin bo‘lgan ijtimoiy munosabatlarni modellashirishni, shuningdek, ma’lumotlar bazasi orqali, shaffoflikni ta’minlagan holda aqlli shartnomalarni tuzish tartibi, afzalliklari va tizimdagi kamchiliklarni o‘z ichiga oladi. Ushbu maqolada elektron boshqaruvda blokcheyn texnologiyasidan foydalanish, u orqali sohalardagi shaffoflik, ochiqlik hamda samaradorlikni oshirish masalalari ochib berishga harakat qilindi.

Tahlil va natijalar. 2018-yilda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori qabul qilindi ²⁸hamda ushbu qarorda birinchi marotaba blokcheyn texnologiyasi hamda aqlli shartnomalarni joriy etish tashabbusi ilgari surildi. Blokcheyn hamda aqlli shartnomalarni rivojlantirish sohadagi normalar tegishli axborot kommunikatsiya maydoni va biznes muhitini yaratishi ko‘zda tutilgan. Blokcheyn texnologiyasidan barcha sohalarda yanada to‘liqroq hamda samaraliroq foydalanish zarur. Shuningdek, blokcheyn texnologiyasi “bir vaqtning o‘zida markazlashtirilmagan va ommaviy tarmoq orqali kirish mumkin bo‘lgan ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan xavfsiz raqamli ma’lumotlar bazasi”²⁹ ekanligi ta’kidlangan. Demak, yuqorigi fikrlardan ma’lum bo‘ladiki, blokcheyn texnologiyasida ma’lumotlar bazasi ma’lumotlarni blokklar va zanjirlar shaklida saqlaydi deyishimiz mumkin bo‘ladi. Blokcheyn texnologiyasida har bir blokda turli xil ma’lumotlar saqlanadi hamda ma’lumotlar saqlash zanjiri bir-biriga o‘zaro bog‘langanligi sababli saqlangan ma’lumotlarni hech birini o‘chirib yoki o‘zgartirish mumkin emas. Shu o‘rinda aqlli shartnomalar blokcheyn texnologiyasining eng keng tarqalgan ma’lumot hujjatlaridan biridir.³⁰ Boshqacha qilib aytganda, aqlli shartnomalar – bu shartnoma shartlarini o‘z ichiga olgan hamda blokcheynda qayd etilgan kompyuter kodlari hisoblanadi.³¹ Aqlli shartnomalar elektron shaklda tuzilgan shartnomalar bo‘lib, shartnoma shartlarining bajarilishi avtomatik reestrda raqamli tranzaksiyalarni shartnomada belgilangan tartibda amalga oshirish ko‘zda tutilgan dastur hisoblanadi.

²⁸ <https://lex.uz/acts/-5525180>

²⁹ <https://cyberleninka.ru/article/n/raqamli-iqtisodiyotni-rivojlantirishda-axborot-kommunikatsiya-texnologiyalari>

³⁰ <https://lex.uz/docs/-3806053> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori, 03.07.2018 yildagi PQ-3832-son

³¹ <https://medium.com/chainlink-community/что-такое-технология-блокчейн-91c23c89c108>



“RAQAMLASHGAN JAMIYATDA INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH: IMKONIYAT VA ISTIQBOLLARI” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

2016-yil oxiridan boshlab O‘zbekiston Respublikasi faollashdi, elektron hukumat, elektron tijorat kabi qator yangiliklar sohasida hatto kashshof bo‘lib xizmat qildi. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi qarori bilan davlat xizmatlari joriy etildi, ularning soni bugungi kunda 150 dan oshdi. Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev 2020-yil 24-yanvar kuni O‘zbekiston Respublikasi parlamentiga navbatdagi yillik murojaatida 2020-yilda mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishda tub burilish yasashi kerakligini ta’kidladi. Ushbu xabarning 14 ta asosiy bandidan asosiy e’tibor qurilish, energetika, qishloq va suv xo‘jaligi, transport, geologiya, sog‘liqni saqlash, ta’lim, kadastr va arxiv ishlarini to‘liq raqamlashtirish zarurligiga qaratilganini alohida ta’kidlandi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqamli O‘zbekiston-2030 strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi Farmoni ham qabul qilindi. Sog‘liqni saqlash va qishloq xo‘jaligi sohalari keskin muhokama qilindi.³² Ushbu me’yoriy hujjat qabul qilingandan so‘ng, turli sohalarni raqamlashtirishga oid ko‘plab yangiliklar joriy yetildi, masalan, 2020-yil dekabr oyida “agrosanoat majmuasini raqamlashtirish markazi” davlat muassasasi tashkil yetildi, uning faoliyati agrosanoat majmuasida “raqamli qishloq xo‘jaligi” axborot tizimini saqlashga qaratilgan. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirish va sotish jarayonida elektron tijorat va sun’iy intellektni joriy etish.³³ Shuningdek, ushbu Markaz “aqlli qishloq xo‘jaligi” texnologiyalarini joriy yetish uchun texnologik sharoitlar yaratish bilan shug‘ullanadi. Bundan tashqari, 2021-yil 1-yanvardan boshlab “raqamli Toshkent” integrasiyalashgan dasturi doirasida tajriba sifatida jismoniy shaxsga shaxsiy guvohnoma berilgandan so‘ng, davlat idoralari va tashkilotlari bilan elektron aloqalarni o‘rnatish uchun darhol jismoniy shaxsning shaxsiy hisobvarag‘i shakllantirildi. Xususan, 2021-yil 1-avgustdan boshlab jismoniy va yuridik shaxslarga barcha belgilangan davlat bojlari, yig‘imlar, jarimalar va boshqa majburiy to‘lovlarni elektron to‘lov tizimlaridan foydalangan holda onlayn tarzda to‘lash imkoniyati berildi. Yuqoridagi misollar bilan bir qatorda, bugungi kunda biz hayotning turli sohalarida raqamli texnologiyalarni joriy etishning ko‘plab misollarini ko‘rishimiz mumkin. Bu yangiliklarning barchasi, birinchidan, mavjud me’yoriy-huquqiy bazani takomillashtirishni, ikkinchidan, ushbu texnologiyalardan foydalanish asosida yuzaga keladigan munosabatlarga oid yangi qonun hujjatlarini qabul qilishni talab qiladi (ular

³² Указ Президента Республики Узбекистан об утверждении стратегии “Цифровой Ўзбекистан - 2030” и мерах по ее эффективной реализации // Национальная база данных законодательства, 06.10.2020 г, № 06/20/6079/1349

³³ Постановление Кабинета Министров Республики Ўзбекистан “О мерах по развитию системы цифровизации в агропромышленном комплексе и сельском хозяйстве Республики Узбекистан” // Национальная база правовых документов, 18.12.2020 № 20.09.794/1655



**“RAQAMLASHGAN JAMIYATDA INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH: IMKONIYAT VA ISTIQBOLLARI”
mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya**

bizning qonunchiligimizga nisbatan yangi hisoblanadi).³⁴ Bunday yangiliklardan biri aqlli shartnomalar. aqlli shartnoma-bu bajarilishi avtomatlashtirilgan shartnoma. Nik Szabo, muhofaza qilish bilan avtomatik shartnomalar tahlilga ko‘ra, aqlli shartnoma shartlarini algoritm asosida bajaradigan kompyuterlashtirilgan bitim, ya’ni, u o‘z-o‘zini ijro shartnoma bo‘lgan tomonlar o‘rtasida shartnoma shartlari to‘g‘ridan-to‘g‘ri amalga oshiriladi. Klassik shartnomalar turli shakllarda, masalan, og‘zaki yoki yozma shaklda mavjud bo‘lishi mumkin. Albatta, elektron tijoratning rivojlanishi elektron shakllarda tuzilgan shartnomalar sonini sezilarli darajada oshirdi, ularning eng yorqin misollari aqlli shartnomalardir.³⁵ Yuqorida aytib o‘tilganidek, aqlli shartnomalar mavjud elektron shartnomalardan farq qiladi, shuning uchun ushbu sohadagi qonunchilikni tartibga solish usullari haqida savol tug‘iladi. Jahon tajribasi aqlli shartnomalarni mamlakat qonunchiligiga kiritish uchun bir nechta modellarni ko‘rsatadi, xususan: Birinchi model klassik qog‘oz shartnomalarini yoki rus yoki boshqa inson tilida tuzilgan boshqa moddiy shakllarda tuzilgan shartnomalarni saqlashni nazarda tutadi, aqlli shartnomalar esa ularga shunchaki qo‘shimcha bo‘ladi, ya’ni shartnomaning ma’lum bir qismi kompyuter tiliga tarjima qilinadi va rus tilida taqdim yetiladi.³⁶ Ushbu integrasiya modelida aqlli shartnoma qonuniy shartnomaning bir qismi bo‘lmaydi, balki shartnoma avtomatik ravishda bajariladigan texnik vosita bo‘ladi. Ehtimol, ushbu modelni tanlashda aqlli shartnoma kodi va klassik shartnoma matni o‘rtasidagi qarama-qarshiliklar bo‘lishi mumkin, chunki barcha qonuniy shartlarni kompyuter tiliga tarjima qilish mumkin emas, shuningdek, klassik shartnomani advokatlar tuzishini hisobga olish kerak, aqlli shartnoma esa advokatlar tomonidan tuzilmaydi, balki, shartnoma dasturchilar tomonidan tayyorlanadi. Bunday hollarda klassik shartnoma matni kompyuter kodidan ustunlikka ega bo‘ladi. Ushbu model yordamida aqlli shartnomaning taxminiy qonunchilik ta’rifini quyidagi shaklda shakllantirish mumkin: “Aqlli shartnoma-bu tarqatilgan registrda qayd etilgan va shartnoma majburiyatlarini yoki boshqa qonuniy ahamiyatga ega harakatlarning avtomatik bajarilishini ta’minlaydigan kompyuter dasturi”.³⁷ Bunday shartnomalar avtomatik ravishda tuziladi va fuqarolik huquqlari va majburiyatlarini o‘rnatish, o‘zgartirish yoki bekor qilishning isboti sifatida tan olinadi. Ular kengaytirilgan malaka imzosi bilan imzolaniadi va har qanday vaziyatda qog‘oz shartnomasi darajasida tan olinadi, uchinchi shaxslarning kompyuter kodiga aralashish isbotlangan hollar bundan mustasno. Ushbu

³⁴ Рахмонова М. Проблемы правоприменительной практики защиты прав на товарные знаки и возможные пути их разрешения // Review of law sciences. – 2020. – Т. 2. №. Спецвыпуск. – С. 97-104.

³⁵ Мукумов Б. Перспективы развития модели “Умного регулирования” // Современные тенденции развития цифровизации в сфере юстиции. – 2022. – Т. 1. №.1. – С. 75-78.

³⁶ To‘raqulova N. Blokcheyn texnologiyasi tushunchasi va uning huquqiy maqomi // Central Asian Academic Journal of Scientific Research. -2022. –Т. 2. - №.5. – С .668-680.

³⁷ Тюльканов А. Смарт-контракты – договоры или технические средства? // 2017. URL.:https://zakon.ru/blog/2017/4/7/smart-kontrakty_dogovory_ili_texnichesie_sredstva (дата обращения: 05.10.17)



“RAQAMLASHGAN JAMIYATDA INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH: IMKONIYAT VA ISTIQBOLLARI” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

model doirasidagi yechimlardan birini huquqiy shartnomalar deb atash mumkin, ularning shartlari ma’lum bir tarmoq ichida mavjud bo’lgan standartlashtirilgan operatsion parametrlarga havolalari bilan to’ldiriladi, bu huquqiy normalar va dastur kodi o’rtasida o’ziga xos vositachi bo’ladi.³⁸ Shunday qilib, aqlli shartnomalarni qo’llashdan oldin ularga O’zbekiston qonunchiligida huquqiy maqom berish va ularga huquqiy ta’rif berish kerak.

Xulosa. Yuqoridagilardan kelib chiqib, aqlli shartnomalarni O’zbekiston qonunchiligiga integrasiyalashuvining gibril modelini joriy etish tavsiya yetiladi. Bunday holda, dasturlash tilida yozilishi mumkin bo’lgan shartnomalarning bir qismi aqlli shartnomalar shaklida tuziladi, boshqa qismi esa ularni dasturlash tiliga tarjima qilish yo’llarini topishdan oldin klassik shartnomalar shaklida tuziladi. Bunday holda, aqlli shartnomalar shaklida tuziladigan shartnomalar avtomatik ravishda bajariladi va qog’oz yoki boshqa moddiy shaklda takrorlanmaydi. Ushbu model aqlli shartnomalar shartnoma turi sifatida tan olinishi va fuqarolik huquqlari va majburiyatlarini o’rnatish, o’zgartirish yoki bekor qilishning isboti sifatida xizmat qilishi uchun aqlli shartnomalar va mavjud normativ-huquqiy hujjatlarga o’zgartirishlar kiritish bo’yicha yangi qonun hujjatlarini yaratishni nazarda tutadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori, 03.07.2018 yildagi PQ-3832-son
<https://lex.uz/docs/-3806053>
2. Указ Президента Республики Узбекистан об утверждении стратегии “Цифровой Ўзбекистан - 2030” и мерах по ее эффективной реализации // Национальная база данных законодательства, 06.10.2020 г, № 06/20/6079/1349
3. Постановление Кабинета Министров Республики Ўзбекистан “О мерах по развитию системы цифровизации в агропромышленном комплексе и сельском хозяйстве Республики Узбекистан” // Национальная база правовых документов, 18.12.2020 № 20.09.794/1655
4. Рахмонова М. Проблемы правоприменительной практики защиты прав на товарные знаки и возможные пути их разрешения // Review of law sciences. – 2020. – Т. 2. №. Спецвыпуск. – С. 97-104.
5. Мукумов Б. Перспективы развития модели “Умного регулирования” // Современные тенденции развития цифровизации в сфере юстиции. – 2022. – Т. 1. №.1. – С. 75-78.

³⁸ Christopher D. Clack, Vikram A. Bakshi, Lee Braine. Smart Contract Templates: foundations, design landscape and research directions// 2016. URL.: <https://arxiv.org/pdf/1608.00771.pdf>, p.8 (дата обращения: 05.10.17)



**“RAQAMLASHGAN JAMIYATDA INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH: IMKONIYAT VA ISTIQBOLLARI”
mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya**

6. To‘raqulova N. Blokcheyn texnologiyasi tushunchasi va uning huquqiy maqomi // Central Asian Academic Journal of Scientific Research. -2022. –T. 2. - №.5. – C .668-680.
7. Тюльканов А. Смарт-контракты – договоры или технические средства? // 2017. URL.:https://zakon.ru/blog/2017/4/7/smart-kontrakty_dogovory_ili_texnichesie_sredstva (дата обращения: 05.10.17)
8. Abdixakimov I. Cyber Crimes In Digital Economy. Elita. uz-Elektron Ilmiy Jurnal, 1 (1), pp. 2022. 1-5.
9. Christopher D. Clack, Vikram A. Bakshi, Lee Braine. Smart Contract Templates: foundations, design landscape and research directions// 2016. URL.: <https://arxiv.org/pdf/1608.00771.pdf>, p.8 (дата обращения: 05.10.17)
10. <https://lex.uz/acts/-5525180>
11. <https://cyberleninka.ru/article/n/raqamli-iqtisodiyotni-rivojlantirishda-axborot-kommunikatsiya-texnologiyalari>

**RAQAMLI FAOLLIK VA SIYOSIY ISHTIROK: INTERNET VA IJTIMOIIY
TARMOQLARNING DEMOKRATIK JARAYONDAGI O‘RNI**

Baxriddinov Baxromjon Abduboboyevich

Qo‘qon Davlat pedagogika instituti huquq ta‘lim kafedrası o‘qituvchi

+998916093628

Anotatsiya: Ushbu maqolada internet va ijtimoiy tarmoqlarning siyosiy faollik va demokratik jarayonlardagi o‘rni tahlil qilinadi. Raqamli platformalar saylov kampaniyalari, siyosiy targ‘ibot va jamoatchilik fikrini shakllantirishda qanday rol o‘ynashi ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, ijtimoiy tarmoqlarning jamoatchilik faolligini oshirish, fuqarolarning siyosiy jarayonlarda ishtirokini kuchaytirish imkoniyatlari va tahdidlari, jumladan, noto‘g‘ri axborot tarqalishi va raqamli tengsizlik muammolari muhokama qilinadi. Maqola siyosiy institutlar, faollar va raqamli texnologiyalar o‘rtasidagi o‘zaro ta‘sirni yoritib, raqamli faollikning jamiyat va hukumat o‘rtasidagi muloqotga ta‘sirini ochib beradi.

Kalit so‘zlar: Raqamli faollik, siyosiy ishtirok, ijtimoiy tarmoqlar, internet, demokratik jarayon, jamoatchilik fikri, siyosiy targ‘ibot, raqamli tengsizlik, noto‘g‘ri axborot, fuqarolik faolligi.

Internet va ijtimoiy tarmoqlarning rivojlanishi siyosiy jarayonlarga jiddiy ta‘sir ko‘rsatdi. Raqamli platformalar saylov kampaniyalarini o‘tkazish usullaridan tortib, jamoatchilik fikrini shakllantirishgacha bo‘lgan jarayonlarda muhim rol o‘ynaydi. Siyosatchilar va faollar endilikda fuqarolar bilan bevosita muloqot qilish imkoniyatiga ega bo‘lib, bu esa jamoaviy harakatlarning samaradorligini oshirmoqda. Ushbu maqolada



“RAQAMLASHGAN JAMIYATDA INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH: IMKONIYAT VA ISTIQBOLLARI” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

raqamli faollikning siyosiy ishtirokni qanday kuchaytirayotgani, demokratik jarayonlarga ta'siri hamda mavjud to'siqlar va tahdidlar tahlil qilinadi.

Internet va ijtimoiy tarmoqlarning paydo bo'lishi bilan siyosiy tashviqot va targ'ibot evolutsiyasi jiddiy o'zgarishlarga uchradi. Bu o'zgarishlar nomzodlarning saylovchilar bilan muloqot qilish usullarini tubdan qayta shakllantirdi. Raqamli platformalar nafaqat ma'lumotlarni tez tarqatishni osonlashtiradi, balki quyi darajadagi harakatlarga raqamli faollik vositalarini taqdim etish orqali imkoniyat yaratadi. Ijtimoiy tarmoqlardan foydalanib, siyosiy kampaniyalar foydalanuvchilarning jamoaviy kuchini safarbar etishi, ma'lum g'oyalar atrofida qo'llab-quvvatlash va jamoatchilik fikrini birlashtiruvchi xeshteg harakatlarini yaratishi mumkin. Bu o'zgarish siyosiy maydonda, ayniqsa, ijtimoiy himoyaga muhtoj guruhlarining xilma-xil ovozlari eshutilishi imkoniyatini kengaytiradi. Misol uchun ijtimoiy tarmoqlar AQSHda tizimga aloqasi bo'lmagan Donald Tramp kabi siyosatchilarning prezident bo'lishiga hissa qo'shdi va umuman ko'pchilikka inklyuziv imkoniyat yaratib berdi[1]. Biroq, muammolar hali ham mavjud, chunki kam ta'minlangan oilalarga mansub shaxslar ko'pincha ijtimoiy-siyosiy sharoitlar tufayli ushbu texnologiyalardan foydalanishda to'siqlarga duch kelmoqdalar. Shunday qilib, internet axborot olish va siyosiy ishtirokni demokratlashtirsa-da, bu imkoniyatlarning samaradorligi va qamrovini tanqidiy nuqtayi nazardan ko'rib chiqish zarur.

Raqamli faollikning paydo bo'lishi davlat siyosati manzarasini tubdan o'zgartirdi, fuqarolik faolligi va ishtiroki uchun misli ko'rilmagan yo'llarni ochib berdi. Ijtimoiy tarmoqlar va onlayn platformalar orqali shaxslar safarbar bo'ladi, ma'lumot almashadi va o'z ovozlari kuchaytiradi, siyosatchilarni dolzarb ijtimoiy va siyosiy masalalarni hal qilishga undaydi. Bu raqamli muloqot nafaqat jamoatchilikning xabardorligini oshiradi, balki hukumatning kommunikatsiya strategiyalarini ham shakllantiradi. Masalan, davlat kommunikatsiya va reklama siyosatining tizimli monitoringi raqamli targ'ibot jamoatchilikning idroki va ishonchiga qanday ta'sir qilishini yoritib berishi mumkin. Misol uchun, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalariga ko'pchilik a'zo bo'lgan, teregramning o'zida 200 mingdan ortiq obunachilarni birlashtirgan [2]. Bundan tashqari, geosiyosiy dinamika o'zgarib borar ekan, davlatlarning raqamli platformalar orqali xorijiy auditoriya bilan muloqot qilish zarurati xalqaro miqyosda siyosat va jamoatchilik fikrini shakllantirishda raqamli faollikning ahamiyati ortib borayotganini ko'rsatmoqda. Binobarin, texnologiya va faollik kesishmasida demokratiya va ijtimoiy faollikning yangi yo'llari ochilmoqda.

Faollar va siyosiy institutlar o'rtasidagi munosabatlar internet va ijtimoiy tarmoqlar paydo bo'lishi bilan sezilarli darajada o'zgardi, bu esa keng qamrovli va tezkor aloqa o'rnatish imkonini berdi. Raqamli platformalar faollarning o'z sa'y-harakatlarini safarbar qilishi va siyosiy nutqqa ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan onlayn tarmoqlarni



“RAQAMLASHGAN JAMIYATDA INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH: IMKONIYAT VA ISTIQBOLLARI” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

shakllantirishga ko‘maklashadi. Raqamli platformalar orqali yangi siyosiy harakatlarning vujudga kelishi faollik manzarasini tubdan o‘zgartirib, ham imkoniyatlar, ham qiyinchiliklar yaratdi. Siyosiy ishtirok etishning an‘anaviy usullari rivojlanib borar ekan, ijtimoiy tarmoqlar kabi platformalar turli guruhlariga dolzarb masalalar atrofida uyushish va safarbar bo‘lish imkonini bermoqda.

Onlayn faollikning rivojlanayotgan muhitida uning mazmunli ijtimoiy o‘zgarishlarni yuzaga keltirish samaradorligiga to‘sqinlik qiluvchi turli qiyinchiliklar va cheklovlar paydo bo‘lmoqda. Ijtimoiy media platformalari safarbarlik uchun misli ko‘rilmagan imkoniyatlarni taqdim etsa-da, ular slaktivizm deb ataladigan hodisani keltirib chiqarish xavfini tug‘diradi. Slaktivizm (inglizcha slacktivism so‘zidan olingan: slacker – dangasa va activism – faollik so‘zlarining qo‘shilishi) – bu ijtimoiy yoki siyosiy harakatlarni juda kam kuch sarflab, asosan internet orqali qo‘llab-quvvatlash shakli [3]. Ya‘ni odam o‘z pozitsiyasini bildiradi, lekin amalda hech qanday jiddiy harakat qilmaydi.

Slaktivizmga misollar:

Onlayn petitsiyalarga imzo qo‘yish.

Ijtimoiy tarmoqlarda postni layklash yoki ulashish.

Profil rasmi ustiga ramka qo‘yish.

Trend bo‘lgan xeshteglardan foydalanish (#PrayFor..., #Save..., va hokazo).

Muammo nimada?

Bunday harakatlar odatda katta natija bermaydi. Ular odamga "nimadir qildim" degan his beradi, lekin real o‘zgarishlarga olib kelmaydi. Shunga qaramay, ba’zida slaktivizm odamlarda muammodan xabardorlikni oshirishi yoki keyinchalik faolroq harakatlarga yo‘l ochishi mumkin. Bunda foydalanuvchilar onlayn qo‘llab-quvvatlashni aniq harakatga aylantirmasdan, yuzaki ishtirok etadilar. Bundan tashqari, raqamli makonlarga tayanish internetda kam vakillikka ega bo‘lgan ovozlarni chetga surib qo‘yishi mumkin, bu esa faollik doirasini ma’lum demografik guruhlar va nuqtayi nazarlar bilan cheklashi mumkin.

Raqamli asrda faollik tobora ko‘proq maxfiylik va kuzatuv masalalari bilan kesishib, ijtimoiy harakatlarning xavfsizligi va samaradorligi haqida jiddiy xavotirlarni keltirib chiqarmoqda. Bu masalalarning murakkabligi ijtimoiy tarmoq platformalaridan turli kontekstlarda turlicha foydalanish bilan izohlanadi. Misol uchun Telegram asoschisi Pavel Durov Parijda Fransiya huquqni muhofaza qiluvchi organlari tomonidan hibsga olingani ortida g‘arb maxsus xizmatlari bilan ijtimoiy tarmoqqa kirish imkoniyatini bo‘lishgani haqida xabarlar paydo bo‘ldi [4]. Bunday dinamika faollikdagi texnologiyaning ikki tomonlama xususiyatini - ham safarbarlik vositasi, ham qatag‘on mexanizmi sifatida xizmat qilishini ta’kidlaydi. Bu esa faollardan o‘z shaxsiy hayotlarini himoya qilish strategiyalarini ishlab chiqishni va ayni paytda ijtimoiy adolatga erishish yo‘lida samarali bo‘lishni talab etadi.



“RAQAMLASHGAN JAMIYATDA INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH: IMKONIYAT VA ISTIQBOLLARI” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

Raqamli faollik davrida faollar o‘rtasida charchash xavfi jiddiy muammoga aylandi, ayniqsa, axborotning tez tarqalishi kuchli hissiy va ruhiy zo‘riqishlarga olib kelishi mumkinligi tufayli. Uzluksiz onlayn targ‘ibot bilan shug‘ullanish faollarni ko‘pincha qattiq tanqid va dushmanlik bilan yuzma-yuz qiladi. Bunga raqamli ishtirokning o‘tkinchi xususiyati qo‘shilganda, odamlar o‘zlarini qo‘llab-quvvatlashsiz va yakkalanib qolgandek his qilishlari mumkin. Shu bois, faollarning farovonligini ta‘minlash uchun barqaror strategiyalar zaruriyati birinchi o‘ringa chiqadi. Faollik maydoni rivojlanib borgan sari, raqamli savodxonlik, jamiyat qo‘llab-quvvatlashi va ruhiy salomatlik resurslarini birlashtirish charchash bilan bog‘liq xavflarni kamaytirish va faollarning uzoq muddatli bardoshlilikini oshirish uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Onlayn faollikning paydo bo‘lishi siyosiy va ijtimoiy harakatlar manzarasini o‘zgartirdi, an‘anaviy usullar ko‘pincha yetishmaydigan tezkor safarbarlik va keng ishtirok etish imkoniyatlarini yaratdi. Raqamli platformalar ma‘lumotlarni zudlik bilan tarqatishni osonlashtiradi, bu esa faollarga minimal resurslar bilan keng auditoriyaga yetib borishga imkon beradi. Biroq, bu samaradorlikka noto‘g‘ri ma‘lumotlarning tarqalishi putur yetkazishi mumkin. Masalan, COVID-19 pandemiyasi davrida "Plandemic" dezinformatsiya kampaniyasi ijtimoiy tarmoqlardan yolg‘on ma‘lumotlarni tarqatish va markazlashmagan noto‘g‘ri axborot almashish tarmog‘ini yaratish uchun muvaffaqiyatli foydalandi, natijada jamoatchilik fikrini sog‘liqni saqlash choralarga qarshi yo‘naltirdi [5]. Aksincha, an‘anaviy faollik sekinroq va ko‘pincha ko‘proq resurs talab qilsa-da, jamiyatning chuqurroq ishtiroki va uzoq muddatli majburiyatni rag‘batlantirishi mumkin.

Raqamli texnologiyalar va ijtimoiy tarmoqlar siyosiy faollik va demokratik jarayonlarning ajralmas qismiga aylandi. Ular jamiyatni safarbar qilish, jamoatchilik fikrini shakllantirish va hukumat bilan muloqot qilish vositasiga aylangan. Shu bilan birga, noto‘g‘ri axborotning tarqalishi, qutblanish va raqamli tengsizlik kabi muammolar ushbu jarayonning salbiy tomonlari sifatida namoyon bo‘lmoqda. Shunday ekan, raqamli platformalarning siyosiy jarayonlardagi ta‘sirini yanada samarali boshqarish va ularning ijobiy imkoniyatlarini maksimal darajada oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. <https://www.truthsocial.com>. Мурожаат этилган сана: 25.09.2024 й.
2. Veb-sayt: www.president.uz; Facebook: www.fb.com/Mirziyoyev; Instagram: www.instagram.com/mirziyoyev_sh; Twitter: twitter.com/president_uz; Youtube: www.youtube.com/PrezidentMatbuot xizmati.
3. [https://foreignpolicy.com/2009/05/19/the-brave-new-world-of-slacktivism/-](https://foreignpolicy.com/2009/05/19/the-brave-new-world-of-slacktivism/) The brave new world of slacktivism Мурожаат этилган сана: 22.03.2025 й.
4. https://www.cnews.ru/news/top/2024-08-25_pavel_durov_arestovansozdatelya - Арестован Павел Дуров. Создателю «ВКонтакте» и Telegram вменяют терроризм,



торговлю наркотиками и отказ сотрудничать с полицией Мурожаат этилган сана 22.03.2025 й.

5. Nazar S, Pieters T. (2021). 'Plandemic Revisited: A Product of Planned Disinformation Amplifying the COVID-19 “infodemic”'. *Frontiers in Public Health*, Volume(9), <https://doi.org/10.3389/fpubh.2021.649930> (Accessed: 22 Mar, 2025).

LOYIHALASH KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION METODLARNI SAMARALI QO‘LLASH

Alimkulov Jamshid

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya. Mazkur maqolada bo‘lajak geografiya o‘qituvchilarida loyihalash kompetensiyasini rivojlantirish jarayonida innovatsion metodlardan samarali foydalanish masalasi tahlil qilinadi, shuningdek, tadqiqot natijalari asosida innovatsion pedagogik metodlarning samaradorligi, o‘qituvchilarning kasbiy rivojlanishiga ta’siri va ularni geografiya ta’limiga integratsiya qilish bo‘yicha tavsiyalar beriladi.

Kalit so'zlar: loyiha metodikasi, STEAM-ta’lim, gamifikatsiya, interfaol ta’lim, raqamli pedagogika, loyihalash kompetensiyasi, innovatsion pedagogika, geografiya ta’limi.

ЭФФЕКТИВНОЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИННОВАЦИОННЫХ МЕТОДОВ В РАЗВИТИИ КОМПЕТЕНЦИИ ПРОЕКТИРОВАНИЯ

Алимкулов Джамшид

Чирчикский государственный педагогический университет

Аннотация. В данной статье рассматриваются вопросы эффективного использования инновационных методов в процессе развития компетенции проектирования у будущих учителей географии. Также на основе результатов исследования оценивается эффективность инновационных педагогических методов, их влияние на профессиональное развитие учителей и даются рекомендации по их интеграции в преподавание географии.

Ключевые слова: метод проектов, STEAM-образование, геймификация, интерактивное обучение, цифровая педагогика, компетенция проектирования, инновационная педагогика, географическое образование.

EFFECTIVE APPLICATION OF INNOVATIVE METHODS IN THE DEVELOPMENT OF DESIGN COMPETENCE

Alimkulov Jamshid

Chirchiq State Pedagogical University

Abstract. This article examines the effective use of innovative methods in developing design competence among future geography teachers. Based on research results, the



“RAQAMLASHGAN JAMIYATDA INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH: IMKONIYAT VA ISTIQBOLLARI” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

effectiveness of innovative pedagogical methods is assessed, their impact on teachers' professional development is analyzed, and recommendations for their integration into geography education are provided.

Keywords: project method, STEAM education, gamification, interactive learning, digital pedagogy, design competence, innovative pedagogy, geography education.

Kirish. Bugungi ta'lim tizimida geografiya fa, jamiyatni rivojlantirishga xizmat qiladigan metodlarni ilmiy-didaktik tizimlar asosida pedagogik qo'llashni talab qiladi. Globallashuv va texnologiyaning rivojlanishi talabalardan milliy nazariy bilimlarni, balki amaliy ko'rishni ham talab qiladi. Shu nuqtai nazardan, olib borish kompetensiyasi o'qituvchilarning ta'lim jarayonida innovatsion metodlardan samarali rivojlanishiga asos bo'ladi. Bu kompetensiya o'qituvchining milliy darsni samarali tashkil etish, balki talabalarning ijodiy fikrlashini rivojlantirishga, mustaqil ishlashga va hayotdagi real yechishga yordam berish faoliyatini olib borishga yordam beradi. Bundan, geografiya fani talabalarda turli ijtimoiy va ekologik jarayonlarni, tabiiy resurslardan kelib chiqish va ijtimoiy mas'uliyatni oshirishga yordam beradi. Loyihalash kompetensiyasi va innovatsion pedagogik metodlar bo'lajak geografiya o'qituvchilarining kasbiy mahoratini yozishda muhim narsa ega. Uchda STEAM-ta'lim maqolalari, tartibga solish metodi, gamifikatsiya, pedagogika, muammoli ta'lim va interfaol o'qitish texnologiyalarining oliy ta'lim tizimida qo'llanishi tahlil, bu metodlarning tashkil etish va amaliyotda qo'llanishi haqida amaliy tavsiyalar beradi.

Asosiy qism. Loyihalash kompetensiyasi ta'lim jarayonini boshqarish, o'qitish va tahlil qilishni bajarishning majmui sifatida ta'riflanadi. Bu kompetensiya pedagogik mahoratni ishlab chiqarish va talabalarning olingan bilimlarini amaliy muammolarni yechimiga yo'l ish uslubi beradi. O'qituvchilar tomonidan amalga oshirishda tanqidiy fikrlash, ijodiy va reflektiv ko' rivojlanishini rivojlantirish zarur. Loyihaviy faoliyatda jamoaviy hamkorlik, boshqaruv va taqdimot ko'nikmalari ham muhim biznes ega [1].

STEAM-ta'lim (Science, Technology, Engineering, Arts, Mathematics) o'quvchilarda ijodiy fikrlash va kompleks hal eta olishni shakllantiradi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, STEAM yondashuvi ta'lim jarayoniga joriy etilganda o'quvchilarning o'zlashtirishi va motivatsiyasi sezilarli ravishda oshadi. STEAM ta'limining geografiya darslarida qo'llanilishi talabalarga ilmiy ma'lumotlarni tahlil qilish, texnologik yechimlarni taklif etish va estetik fikrlashni birlashtirish imkoniyatini beradi [2]. Misol uchun, geografiya o'qitish jarayonida iqlim o'zgarishi yoki shaharsozlik masalalarini STEAM loyihalari shaklida o'rganish o'quvchilarga yangi yondashuvlar yaratishga imkon beradi.

Loyiha metodi o'quvchilarga real hayotiy muammolarni hal qilishga yo'naltirilgan mustaqil loyihalar ustida ishlashni taqdim etadi. John Dyui va V.Kilpatrick kabi pedagogika asoschilari loyiha metodining ta'limni hayot bilan bog'lash va o'quvchilarning



“RAQAMLASHGAN JAMIYATDA INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH: IMKONIYAT VA ISTIQBOLLARI” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

qiziqishlariga moslashtirishdagi ahamiyatini ta’kidlaganlar. Bugungi kunda loyiha metodining samaradorligi turli tadqiqotlar orqali tasdiqlangan. Masalan, Indoneziyada loyiha usuli qo’llanilganda geografiyani o’rganish natijalari va talabalar faolligi yaxshilangani kuzatilgan [3]. Geografiya darslarida ishlab chiqarish orqali talabalarga real hayotiy hal qilish, ma’lumotlarni tahlil qilish va yechimni taqdim etish ko’rinishini rivojlantirish mumkin.

Gamifikatsiya o’yin elementlarini o’yin bo’lmagan ta’limiy kontekstga tatbiq etishdir. Bu metod o’quvchilarning o’qishga bo’lgan qiziqishini oshiradi va ularning faol ishtirokini rag’batlantiradi. O’yinlashtirilgan ta’lim jarayonida talabalarning bilim olishga qiziqishi ortadi, raqobat va erishilgan natijani ko’rish orqali motivatsiya oshadi. Masalan, Kahoot yoki Quizlet kabi platformalar yordamida geografiya darslari interaktiv va qiziqarli tarzda o’tkazilishi mumkin [2]. Gamifikatsiya orqali o’quvchilar o’qishga faollashadi, o’yinlar orqali amaliy loyihalarda ishtirok etish ko’nikmalarini rivojlantiradi.

Raqamli pedagogika bugungi kunda ta’lim sifatini oshirishning eng muhim yo’nalishlaridan biriga aylandi. Ayniqsa, geografiya ta’limida raqamli vositalar va geoaxborot tizimlaridan foydalanish loyihalash kompetensiyasini shakllantirishda muhim omil bo’lmoqda. Bulutli GIS platformalari yordamida bo’lajak o’qituvchilar turli mavzularda loyiha ishlarini amalga oshirish orqali raqamli ma’lumotlar bilan ishlash ko’nikmasini hosil qiladilar. Masalan, Ukraina tajribasida ArcGIS Online platformasidan foydalanib, geografiya yo’nalishi talabalari geoinformatsion kompetensiyalarini muvaffaqiyatli rivojlantirgani qayd etilgan [4].

Muammoli ta’lim talabalarning mustaqil fikrlash va muammolarni hal qilish ko’nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Bu usulda talabalar oldindan tayyor javobga ega bo’lmagan, hayotiy muammoni hal etishga kirishadilar. Oliy ta’limda PBL modeli o’qitish jarayonini samarali tashkil etishga yordam beradi. Geografiya ta’limida PBLni qo’llash orqali talabalar turli mintaqaviy iqlim muammolarini hal etishga yondashadilar, hamda o’quvchilarning tanqidiy fikrlashini oshiradi [5].

Interfaol texnologiyalar talabalarning darsdagi ishtirokini faol holatga keltiradi, o’quvchilarda o’rganuvchi ishtirokchisi pozitsiyasini shakllantiradi. Elektron interfaol doskalar, virtual haqiqat (VR), qo’shilgan haqiqat (AR) kabi texnologiyalar geografiya fanida mukammal o’qitish metodlarini yaratadi. Ilmiy izlanishlar shuni ko’rsatadiki, bunday texnologiyalarni qo’llash o’quvchilarning darsga qiziqishini oshiradi va murakkab tushunchalarni osonroq o’zlashtirishga ko’maklashadi.

Xulosa qilib aytganda, innovatsion metodlarni qo’llash bo’lajak geografiya o’qituvchilarining loyihalash kompetensiyasini rivojlantirishda samarali vosita hisoblanadi. **STEAM-ta’lim, loyiha metodikasi, gamifikatsiya, raqamli pedagogika, muammoli ta’lim va interfaol o’qitish texnologiyalari** bo’lajak o’qituvchilarning kasbiy



“RAQAMLASHGAN JAMIYATDA INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH: IMKONIYAT VA ISTIQBOLLARI” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bu metodlar talabalarda amaliy ko'nikmalarni shakllantiradi, tanqidiy fikrlashni rivojlantiradi va real muammolarni hal etish ko'nikmalarini o'rgatadi. Shu bois, ta'lim tizimida bunday metodlarni joriy etish va pedagogik kadrlarni tayyorlash tizimini rivojlantirish zarur.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Alimkulov J.B. Development of Design Competence of Future Geography Teachers: Theoretical Foundations and Practice. Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal, 5(9), 2024. 299–307.

2. Huang B., Hew K.F., & Lo C.K. A Meta-Analysis on the Effectiveness of Gamification on Student Learning Outcomes. Journal of Educational Technology & Society, 23(3), 2020. 1–10.

3. Hastuti K.P., Wijati N., & Prodjosantoso A.K. Improving Geography Learning through Project-Based Learning Model. Journal of Education and Learning, 14(2), 2020. 165–172.

4. Kholoshyn I., Dzhyndzhoian V., & Yevdokymov V. Cloud ArcGIS Online as an Innovative Tool for Developing Geoinformation Competence with Future Geography Teachers. 2019.

5. Park H., Byun S., Sim J. Teachers' Perceptions and Practices of STEAM Education in South Korea. Eurasia Journal of Mathematics, Science and Technology Education, 13(3), 2017. 741–753.

XALQ TA'LIMDA TIZIMIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASH MASALALARI

Shukurova Dildora Xamzayevna

Sharof Rashidov nomidagi Samaqand davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi.

Dildor1979@gmail.com

Annotasiya. Ushbu maqola raqamlashtirish tushunchasini ma'nosi yoritilgan. Zamonaviy axborot jarayonlarining asosiy xarakteristikasi kundalik hayotning asosiga aylanadigan vizual amaliyotdir. Bugungi kunda odamlar, ayniqsa maktab o'quvchilari tobora ko'proq ma'lumotni "ekran" orqali olishi va idrok etishi bilan ajralib turadi. Ta'limda raqamli texnologiyalarni joriy etishga ilmiy asoslangan xulosalar tuzishda mavjud bo'lgan amaliyotni o'rganish, tizimlashtirish va umumlashtirish orqali ta'lim sohasi tadqiq etilgan.

Kalit so'zlar: virtuallik, bilish, raqamlashtirish, ta'lim, kompyuter, virtual reallik, potentsiallik, maktab, virtual obraz, axborot.



“RAQAMLASHGAN JAMIYATDA INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH: IMKONIYAT VA ISTIQBOLLARI” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

Аннотация. В данной статье объясняется значение понятия цифровизация. Основной характеристикой современных информационных процессов является визуальная практика, которая становится основой повседневной жизни. Сегодня люди, даже школьники, отличаются тем, что получают и воспринимают все больше информации через «экран». Область образования исследуется путем изучения, систематизации и обобщения существующей практики получения научно обоснованных выводов по внедрению цифровых технологий в образование.

Ключевые слова: виртуальность, знания, цифровизация, образование, компьютер, виртуальная реальность, потенциал, школа, виртуальный образ, информация.

Abstract. This article explains the meaning of the concept of digitalization. The main characteristic of modern information processes is visual practice, which becomes the basis of everyday life. Today, people, even schoolchildren, are distinguished by the fact that they receive and perceive more and more information through the “screen”. The field of education is explored by studying, systematizing and generalizing the existing practice of obtaining scientifically based conclusions on the introduction of digital technologies in education.

Key words: virtuality, knowledge, digitalization, education, computer, virtual reality, potential, school, virtual image, information.

Xozirgi zamonda raqamli texnologiyalar juda katta sur'atlarda rivojlanmoqda. Faoliyatning ko'plab yo'nalishlari raqamli tizimga o'tdi: kasalxonalar, umumiy ovqatlanish korxonalari, ta'lim muassasalari. Mutaxassislar ta'lim dasturining elektron formatga o'tishi haqida tobora ko'proq gapirishmoqda.

Faoliyatning barcha sohalariga kompyuter texnologiyalarining global joriy etilishi, yangi kommunikasiyalar va yuqori avtomatlashtirilgan axborot muhitini shakllantirish nafaqat an'anaviy ta'lim tizimini o'zgartirishning boshlanishi, balki axborot jamiyatini shakllantirish yo'lidagi birinchi qadam bo'ldi.

Shu jihatdan, mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek “Taraqqiyotga erishish uchun raqamli bilimlar va zamonaviy axborot texnologiyalarini egallashimiz zarur va shart. Bu bizga yuksalishning eng qisqa yo'lidan borish imkoniyatini beradi. Zero, bugun dunyoda barcha sohalarga axborot texnologiyalari chuqur kirib bormoqda. Albatta, raqamli iqtisodiyotni shakllantirish kerakli infratuzilma, ko'p mablag' va mehnat resurslarini talab etishini juda yaxshi bilamiz. Biroq, qanchalik qiyin bo'lmasin, bu ishga bugun kirishmasak, qachon kirishamiz?! Ertaga juda kech bo'ladi” [2].

Davlat va jamiyat boshqaruvi, ijtimoiy sohada ham raqamli texnologiyalarni keng joriy etib, natijadorlikni oshirish, bir so'z bilan aytganda, odamlar turmushini keskin yaxshilash mumkin. Raqamli iqtisodiyot bu birgina faoliyat turi emas, balki,



“RAQAMLASHGAN JAMIYATDA INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH: IMKONIYAT VA ISTIQBOLLARI” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

ishbilarmonlik, sanoat obyektlari, sifatli ta’lim va xizmatlar deganidir. “Raqamli” atamasi barcha sohalarda axborot texnologiyalaridan faol foydalanishni anglatadi. Agar oddiy iqtisodiyotda moddiy buyumlar asosiy resurs hisoblansa, raqamli iqtisodiyotda bu qayta ishlanadigan hamda uzatiladigan axborot, ma’lumotlar bo’ladi. Ularning tahlilidan so’ng esa to’g’ri boshqarish bo’yicha yechim ishlab chiqiladi.

Mazkur maqolani yozishda respublikamiz ta’lim tizimida raqamli texnologiyalarni qo’llash, ularning imkoniyatlarini tahlil qilish asosida o’quv jarayonini rivojlantirishning ustuvor yo’nalishlarini aniqlash maqsadi qo’yilgan bo’lib, unda raqamli texnologiyalarning ta’lim sohasida nafaqat muhim o’rin egallashi va qanday shaklda joriy etilishi bo’yicha tahlillar amalga oshirildi. Tadqiqot usullari sifatida oliy ta’limda raqamli texnologiyalarni joriy etishga ilmiy asoslangan yondashuvni shakllantirishga tegishli xulosalar tuzishda normativ hujjatlarni, mavjud bo’lgan amaliyotni o’rganish, tizimlashtirish va umumlashtirishdan foydalanildi.

Davlat ularga maqsadli yordam ko’rsatishi mumkin: birinchidan, bank kreditlari, shu jumladan, eksport kreditlari bo’yicha kafolatlar berish, patentlash xarajatlarining bir qismini qoplash, maqsadli investisiya fondlarini shakllantirish, davlat xaridlari mexanizmi orqali qo’llab-quvvatlash va hokazo. Ikkinchidan, kichik va o’rta biznesni raqamli texnologiyalar, platformalar yaratish va raqamli xizmatlar ko’rsatishda qo’shimcha qo’llab-quvvatlash. Bunga, masalan, raqamli texnologiyalarni ishlab chiqaruvchi tegishli kompaniyalarga (masalan, sug’urta to’lovlari yoki soliq to’lovlari bo’yicha) ma’lum imtiyozlar berish, bunday kompaniyalar o’rtasida sog’lom raqobatni yaratish, ularga buyurtmalar va standartlar berish orqali erishish mumkin. Uchinchidan, iqtisodiyotning asosiy yo’nalishlari uchun raqamli platformalarning shakllanishi va miqyosi kabilar kiradi[3].

Ma’lumotlarga ko’ra, bugun pandemiya sabab ta’lim muassasalarini yopgan mamlakatlarning 60 foizigina to’liq raqamli ta’limga o’tgan. Ba’zi xalqaro ekspertlar onlayn ta’limga to’liq o’tib bo’lmasiligi, bu jarayonga muammoli vaziyatdan chiqish yo’li sifatida qarash lozimligini, aks holda ta’lim sifati tushib ketishini ta’kidlasa, ba’zilar zamonaviy ta’lim uchun yangi davr boshlanganini e’tirof etmoqda. Ayrim davlatlar ziyolilari esa masofaviy ta’limga qamrab olishda ta’minot masalasini ilgari surmoqda. Internet manbalarida xabar berilishicha, bugungi kunda atigi o’nga yaqin davlatdagi talabalarning 95 foizida kompyuter bor. Indoneziyada esa 34 foiz yoshning internetdan foydalanishga sharoiti yetarli. Qolgan davlatlarda bu ko’rsatkich ancha past. Shu o’rinda, O’zbekiston Respublikasida ham bu ko’rsatkich yuqori darajada emas. Bunga sabab esa cheka hududlarda Internet infratuzilmasining yaxshi rivojlanmaganligidir. Bu esa ayrim mutaxassislar taxmin qilayotganidek, ta’lim sifati tushib ketishiga sabab bo’lishi mumkin[4].



“RAQAMLASHGAN JAMIYATDA INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH: IMKONIYAT VA ISTIQBOLLARI” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

Ta'lim tizimi bugungi kunda raqamli texnologiyalarga singib ketayotgani shunchaki hayratlanarli emas, chunki, bugungi kunda axborot makonida taklif etilayotgan ko'plab narsalarni jiddiy tahlil qilish va pedagogik asoslash uchun asos bo'lib xizmat qiladi. So'nggi yillarda ta'limni «raqamlashtirish» muammolari, uning shakllanishiga ta'siri bo'yicha biror-bir davlat loyihasi yoki so'rovnoma asosida tadqiqotlar o'tkazilmaganligi ham muhimdir [5]. Shu bilan birga, Internet tizimidagi muhitning yoshlar ongiga ta'sirining ahamiyati hukumatning, zamonaviy ommaviy axborot vositalarining ma'ruzalarida, pedagogik jamoatchilik muhokamalarida, magistrant va tadqiqotchilarning, shuningdek deputatlarning izlanishlarida ham ko'rishimiz mumkin.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, oldin raqamli texnologiyalarni barcha sohalarda, ya'ni, sanoat, iqtisodiyot, bank va boshqa sohalarda joriy etish bilan cheklanib qolgan edik. Bugungi kunda esa raqamli iqtisodiyot shiddat bilan rivojlanib borayotganini e'tiborga olib, raqamli rivojlanish bo'yicha barcha soha rahbarlarining o'rinbosarlari lavozim tarkibiga kiritilmoqda[6].

Alohida ta'kidlash kerakki, bugungi kunda hayotimiz har jihatdan texnika va texnologiyalar bilan bog'liq, ya'ni ertalab soat bongidan boshlab to kun rejasini tuzish va o'qish bilan yakunlashgacha. Biz ta'lim sifatini oshirish va rivojlantirish uchun texnologiyalardan manfaatli foydalanish imkoniyatini yaratishni istadik. Qachonki, planshet ta'lim olishning bir elementiga aylansa, bolalar o'qish jarayoniga katta qiziqish bilan kirishadi. Bu o'yin bilan klassik ta'limni birlashtirishga tengdir. Natijada o'qish jarayoni yaxshilanadi, o'zlashtirish, ta'lim darajasi va kadrlarni tayyorlash samaradorligi oshadi. Bilimli avlod, professional kadrlar - bu jamiyatning keng miqyosda rivojlanishining garovidir.

Raqamlashtirishning asosiy afzalligi mustaqillikka tayyorgarlikdir, chunki kelajakdagi tizim mustaqil ishni o'z zimmasiga oladi. O'qituvchilarning bevosita raxbarligisiz yoki haddan tashqari g'amxo'rligisiz talabalar yaxshi natijalarga erishishlari mumkin.

Raqamlashtirish o'qituvchilarning ishini osonlashtirishni ham o'z ichiga oladi. Shu bilan bu jarayon o'qituvchilarning ham ishlarini sezilarli kamaytiradi. Zero, uqituvchilik eng qiyin kasblardan biri hisoblanadi. Bolaning ongini tarbiyalash uchun ko'p kuch va asab kerak. Raqamli tizimda o'qituvchilarning vazifasi ukuvchiga yordam berishdir. O'qituvchi talabalarning kobiliyatiga karab uni ongigi va malakasini rivojlanish yo'nalishini belgilaydi.

Vikilug'at bu vikimedia jamg'armasining loyihalaridan biri va u erkin yangilanadigan ko'p funksional ko'p tilli lug'at va tezaurusga(zamonaviy tilshunoslikda tezaurus semantik munosabatlarni-sinonimlar, antonimlar, paronimlar, giponimlar, giperonimlar va boshqalarni belgilaydigan lug'atlarning maxsus turidir) leksik birliklar orasida.



“RAQAMLASHGAN JAMIYATDA INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH: IMKONIYAT VA ISTIQBOLLARI” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

asoslanadi. Ushbu lug‘atda so‘zlarning grammatik tavsiflari, talqinlari va tarjimalari mavjud. Bundan tashqari, so‘zlarning etimologiyasi, fonetik xususiyatlari va semantik munosabatlari haqida ma’lumotlar xam bo‘lishi mumkin. Shunday qilib, Vikilug‘at grammatik, tushuntirish, etimologik va ko‘p tilli lug‘atlarni, shuningdek, bitta mahsulotda tezaurusni birlashtirishga urinishdir. Vikilug‘at ma’lumotlari matn va nutqni mashinada qayta ishlash bilan bog‘liq turli vazifalarni yechadi.[7]

Xulosa sifatida aytish mumkinki, bugungi kun auditoriyalari o‘n yil avvalgilaridan juda katta farq qiladi va sinf xonalari kompyuterlar, iPad, planshetlar, smart-doskalar va boshqa turdagi ta’lim texnologiyalari bilan jihozlangan. Dunyoning boshqa joylarida bo‘lgani kabi O‘zbekistonda ham raqamli avlodning yetti ekranli avlodi - televizor, kompyuter, planshet, tablet, fablet, smartfon va smartsoatlari paydo bo‘lmoqda. Bunday zich raqamli muhitga ega bo‘lish va u bilan doimiy o‘zaro munosabat natijasida bugungi kun talabalarining fikrlashi va axborotlarga ishlov berish jarayonlari oldingi fikr yuritish va axborot jarayonlaridan tubdan farq qilmoqda. Raqamli avlod ota-onalarimiz o‘rgangan uslubda o‘qitilishi mumkin emas va bo‘lmasligi ham kerak. Bu avlodni o‘qitishda qora doska va oq bo‘rdan foydalanish ham mumkin emas. Qora doskani oqiga va bo‘rni markerga o‘zgartirish hyech narsani o‘zgartirmaydi, ya’ni zamonaviy talabalarni bilim olishga va mehnat bozorida muvaffaqiyatga erishish ko‘nikmalarini rivojlantirishga undash usuli bo‘la olmaydi.

Foydalangan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. 2021 yil 6 noyabr kuni O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo‘shma majlisida so‘zlagan nutqi.-Toshkent “O‘zbekiston ovozi” gazetasi. № 223 (479), 2021 yil 7 noyabr.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020 yil 24 yanvarda Oliy Majlisga yo‘llagan Murojaatnomasi.
3. Sharonin Yu.V. Сифровые технологии в высшем и профессиональном образовании: от личностно ориентированной Smart-didaktiki к блокчейну в seleвой подготовке специалистов // Современные проблемы науки и образования. – 2019. – № 1.
4. Abdullayev, M., Saidahror, G., & Ayupov, R. (2020). Raqamli iqtisodiyot - kadrlar tayyorlashning dolzarb yo‘nalishlari. Arxiv nauchnykh issledovaniy, 1(23). izvlecheno ot <https://journal.tsue.uz/index.php/archive/article/view/2702>.
5. Norboeva N Erkinovna, Khashimova D Pakhritdinovna. The role of the digital economy in the development of information and communication technologies // ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal 10 (3), 25-31.
6. Abdullayev, M. (2020). Analysis of application of information systems at industrial enterprises. Arxiv nauchnykh issledovaniy, 1(20). izvlecheno ot <https://journal.tsue.uz/index.php/archive/article/view/2270>.



7.М.Н.Нормаматова. Жамиятни виртуаллаштириш: асосий омиллар ва детерминантлар. Фалсафа ва ҳаёт. Халқаро Журнал.№ SI-2 Август 2021 й.

RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR SHAROITIDA SHAXSIY XAVFSIZLIK VA DAXLSIZLIKNI TA'MINLASH MASALALARI

Buzrukova Nigoraxon To'raxo'jayevna

Farg'ona viloyati Qo'riqlash boshqarmasi

Tarbiyaviy va mafkuraviy ishlar bo'limi katta inspektori

Farg'ona, O'zbekiston

Annotatsiya: Mazkur maqolada raqamli texnologiyalar sharoitida shaxsiy xavfsizlik va daxlsizlikni ta'minlash masalalari ko'rib chiqiladi. Shaxsga oid ma'lumotlarning himoyalanihi, turli kiberxavf-xatarlarning oldini olish hamda raqamli infratuzilmalar vositasida inson huquq va erkinliklarini saqlash uchun zarur bo'lgan tamoyillar yoritiladi. Shuningdek, ijtimoiy tarmoqlar, mobil ilovalar va boshqa raqamli platformalardagi shaxsiy ma'lumotlarni boshqarish, qonunchilik hujjatlaridagi talablar, xalqaro standartlar va ularni amalga oshirish mexanizmlari muhokama etiladi. Maqolada raqamli xavfsizlik madaniyatini shakllantirish yo'llari hamda bundan kelib chiqadigan ilmiy-amaliy xulosalar ilgari suriladi.

Kalit so'zlar: raqamli xavfsizlik, daxlsizlik, shaxsiy ma'lumotlar, kiberxavfsizlik, raqamli infratuzilma, huquqiy me'yorlar, axborot xavfsizligi, ma'lumotlarni himoyalash.

Raqamli texnologiyalarning tezkor rivojlanishi jamiyat hayotining barcha jabhalarida keng qamrovli o'zgarishlarga sabab bo'lmoqda. Xususan, internet tarmog'i, mobil aloqa vositalari va raqamli infratuzilmaning keng tarqalishi natijasida kommunikasiyalar osonlashdi, iqtisodiy va ijtimoiy munosabatlar zamonaviy ko'rinish kasb etdi. Biroq bu jarayon o'ziga xos muammo va xavf-xatarlarni ham keltirib chiqarmoqda. Raqamli muhitda ma'lumotlarning tezkor almashinuvi, shaxsiy ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash va saqlash proseslarining murakkablashuvi shaxsiy daxlsizlik masalasini kun tartibida eng dolzarb mavzulardan biriga aylantirdi.

Odatda, raqamli xizmatlardan foydalanish jarayonida foydalanuvchilar turli shaklda o'zlari haqida ma'lumot qoldiradilar. Mazkur ma'lumotlar xakerlik hujumlari, kiberjinoyatlar yoki mas'uliyatsiz ma'lumotlar ayirboshlashi natijasida tarqalib ketishi, suiiste'mol qilinishi ehtimoli mavjud. Shu bois raqamli texnologiyalar sharoitida shaxsiy xavfsizlik va daxlsizlikni ta'minlash, fuqarolarni bu borada xabardor qilish, huquqiy tartibga solish mexanizmlarini yaratish tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Raqamli texnologiyalar axborotni yig'ish, uni qayta ishlash hamda ulashish jarayonlarini tezlashtirib, iqtisodiyot, ta'lim, sog'liqni saqlash, davlat boshqaruvi kabi ko'plab sohalarda inqilobiy o'zgarishlar qilmoqda. Shuningdek, raqamli texnologiyalar va



“RAQAMLASHGAN JAMIYATDA INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH: IMKONIYAT VA ISTIQBOLLARI” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

internetning keng quloch yozishi boshqaruv samaradorligi, xizmat ko‘rsatish sifati, aholining xabardorlik darajasi kabi omillarga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

Raqamli xavfsizlik – fuqarolar, davlat yoki xususiy tashkilotlar ma’lumotlari va raqamli resurslarini ichki va tashqi tahdidlardan himoya qilish, axborot tizimlarining barqaror faoliyatini ta’minlash demakdir. Shaxsiy daxlsizlik (privacy) esa odamlarning o‘z ma’lumotlari ustidan boshqaruv huquqiga egaligi, begona shaxslar yoki tashkilotlarning bunga noqonuniy aralashuvini cheklashni nazarda tutadi. Shaxsiy xavfsizlikni to‘liq ta’minlash, eng avvalo, daxlsizlikka doir huquqlarni qonuniy himoya qilishdan boshlanadi.

Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tasdiqlangan “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasida ham axborot xavfsizligi, ma’lumotlarni himoya qilish masalalariga alohida e’tibor qaratilgan. Mazkur strategiya raqamli texnologiyalarni joriy etish va raqamli iqtisodiyotni shakllantirishda shaxsiy ma’lumotlar xavfsizligiga doir o‘ziga xos standart va me’yorlarni rivojlantirishni talab qiladi.

Jahon miqyosida shaxsiy daxlsizlikni ta’minlash borasida bir qator xalqaro hujjatlar hamda standartlar mavjud. Jumladan:

Yevropa Ittifoqining GDPR (General Data Protection Regulation) me’yori shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilishning eng ilg‘or huquqiy-boshqaruv tizimlaridan biri bo‘lib, u foydalanuvchilarning ma’lumotlar ustidan kengroq huquqlarga ega bo‘lishini ta’minlaydi.

Mazkur xalqaro standartlar ma’lumotlarni himoyalashda texnik va tashkiliy choralarni belgilash, xodimlar malakasini oshirish hamda xavfsizlik siyosatlarini ishlab chiqishni tavsiya etadi.

Kiberjinoyatlar bugungi kunda avj olayotgan hodisalardan biri bo‘lib, tarmoqdagi ma’lumotlarni o‘g‘irlash, xakerlik hujumlari, fishing (aldov orqali parollarni qo‘lga kiritish), zararli dasturiy ta’minot (viruslar, xaker instrumentlari) hamda soxta sahifalar ochish orqali foydalanuvchilarni aldaydi. Shaxsiy ma’lumotlarni noqonuniy olish, keyinchalik shantaj yoki iqtisodiy manfaatlar yo‘lida suiiste’mol qilish xavfi ortib bormoqda.

Raqamli davrda ijtimoiy tarmoqlar, qidiruv tizimlari va turli onlayn servislar o‘z foydalanuvchilari haqida katta hajmdagi ma’lumot to‘playdi. Ular tahlil qilinib, foydalanuvchilarga xos individual profillar tuziladi. Bunday jarayon mazkur ma’lumotlarning taqdiri, shu jumladan, noqonuniy ravishda uchinchi tomon qo‘liga tushish yoki istalmagan maqsadlarda qo‘llanilish ehtimolini keltirib chiqaradi.

Yana bir muammo – foydalanuvchilarning o‘z shaxsiy ma’lumotlari ustidan nazoratni yetarli darajada amalga oshira olmasligi yoki loqaydligi. Jamoat joylarida, oshkora tarmoqlarda maxfiy ma’lumotlarni berish, zaif parollarni tanlash, shubhali havolalarga bosish kabi omillar keng tarqalgan. Bu esa kiberjinoyatchilarga imkoniyatlar eshigini ochib beradi.



“RAQAMLASHGAN JAMIYATDA INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH: IMKONIYAT VA ISTIQBOLLARI” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

Qonunlarga muvofiq ish tutish: Tashkilotlar va kompaniyalar shaxsiy ma'lumotlarni qayta ishlashda amaldagi qonunchilikka rioya qilishlari, foydalanuvchilardan rozilik olishlari va zarur maxfiylik siyosatini joriy etishlari lozim.

Shartnomaviy munosabatlarda e'tiborli bo'lish: Yangi xizmatlardan foydalanishda foydalanuvchilar “Foydalanish shartlari” va “Maxfiylik siyosati” bo'limlarini sinchiklab o'qishi, huquq va majburiyatlarini bilishi kerak.

Shifrlash texnologiyalari (Encryption): Ma'lumotlarni uzatish va saqlash jarayonida shifrlashdan foydalanish ma'lumotlarni hakerlik hujumlaridan himoya qiladi.

Antivirus va xavfsizlik devorlari (Firewall): Kompyuter hamda boshqa qurilmalarda himoya dasturlarini doimiy ravishda yangilab borish zararli dasturiy ta'minotdan asrashda muhim rol o'ynaydi.

Muntazam zaxiralash (backup): Muhim hujjatlar va ma'lumotlarni muntazam ravishda xavfsiz joyga yoki bulutli serverlarga zaxiralab borish xakerlik hujumlari yoki texnik nosozliklar natijasida yo'qotishlarni kamaytiradi.

Axborot xavfsizligi bo'yicha ta'lim: Ta'lim muassasalarida raqamli savodxonlik darslari, kiberxavfsizlik bo'yicha o'quv dasturlarini kengaytirish shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilishni mustahkamlaydi.

Foydalanuvchilarning xabardorlik darajasini oshirish: Davlat va jamoat tashkilotlari tomonidan kiberxavfsizlik bo'yicha ommaviy axborot vositalarida targ'ibot-tashviqot ishlarini olib borish, ijtimoiy tarmoqlarda ma'lumotlar bilan ehtiyotkor bo'lishga chorlovchi loyihalarni tashkil etish talab etiladi.

Raqamli texnologiyalar sharoitida shaxsiy xavfsizlik va daxlsizlikni ta'minlash dolzarb masala bo'lib, jamiyatning raqamli madaniyati, huquqiy savodxonligi va texnologik imkoniyatlariga chambarchas bog'liqdir. Raqamlashtirish jarayoni keltirayotgan afzalliklar bilan bir qatorda uning xavf-xatarlarini cheklash uchun:

Huquqiy tartibga solish va xalqaro standartlarga muvofiq texnik himoya choralarini amalga oshirish;

Foydalanuvchilarni axborot xavfsizligi bo'yicha doimiy o'qitish va xabardorlikni oshirish;

Davlat organlari, xususiy sektor va jamoat tashkilotlari o'rtasida o'zaro hamkorlik o'rnatish zarur.

Shuningdek, shaxsiy ma'lumotlarning xavfsizligi va ular ustidan foydalanuvchining to'liq nazorati raqamli taraqqiyotning barqaror, adolatli va ishonchli kechishini ta'minlovchi muhim omillardan biridir. Kelajakda raqamli infratuzilma yanada murakkablashishi kutilayotgani bois shaxsiy xavfsizlik va daxlsizlikka oid tadqiqotlar, me'yoriy hujjatlar, texnologik yangiliklar hamda madaniy-ma'rifiy ishlar tinimsiz rivojlanib borishi lozim.



ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi “Shaxsiy ma’lumotlar to‘g‘risida”gi Qonuni. 2019-yil 2-iyul.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni. (2020).
3. General Data Protection Regulation (GDPR) (EU) 2016/679.
4. Muminov X. (2021). Axborot xavfsizligi va kiberjinoyatchilik. Toshkent: “Fan va ta’lim” nashriyoti.
5. Пахрутдинов Ш.И. Тараққиётга таҳдид: назария ва амалиёт. –Тошкент: «Akademiya», 2006
6. Урсул А.Д. Информационная стратегия и безопасность в концепции устойчивого развития // Научно-техническая информация. Серия 1: Организация и методика информационной работы. 1996, №1, С.7.

RAQAMLASHTIRISH SHAROITIDA KASBIY FAOLIYATGA TAYYORLASHDA HISOBDORLIK KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH

Meliqo‘ziyev Abrorjon Akram o‘g‘li

Farg‘ona davlat universiteti tadqiqotchisi

Farg‘ona, O‘zbekiston

Annotatsiya: Ushbu maqolada raqamlashtirish jarayonining kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayoniga ta’siri, xususan, hisobdorlik ko‘nikmalarini rivojlantirish masalalari tahlil qilinadi. Zamonaviy raqamli texnologiyalar muhitida hisobdorlik – shaxsiy yoki jamoaviy darajada muayyan majburiyatlar va natijalar uchun javobgar bo‘lish, ularni tahlil eta olish va axborotni shaffof taqdim etish qobiliyatidir. Maqolada raqamli iqtisodiyot sharoitida hisobdorlik ko‘nikmalarining ahamiyati, ularni shakllantirish usullari, ta’lim jarayonida qo‘llash mumkin bo‘lgan raqamli resurslar va pedagogik texnologiyalar, shuningdek, mehnat bozorida hisobdorlik orqali raqobatbardoshlikni yuksaltirish masalalari ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: raqamlashtirish, kasbiy faoliyat, hisobdorlik, raqamli iqtisodiyot, shaffoflik, mas’uliyat, pedagogik texnologiyalar, mehnat bozorida raqobatbardoshlik.

Zamonaviy dunyoda raqamlashtirish jarayonlari ijtimoiy, iqtisodiy va texnologik rivojlanishga tub o‘zgarishlar kiritmoqda. Turli sohalarda an’anaviy ish shakllari avtomatlashtirilmoqda, masofaviy xizmatlar rivojlanmoqda, inson omili o‘rnini ko‘p qismda sun’iy intellekt (AI) va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari egallab bormoqda. Bunday sharoitda kasbiy faoliyatga tayyorlanayotgan mutaxassislar raqamli dunyoning zaruriy talablariga javob berishi, yangicha kompetensiyalarni egallashi muhim ahamiyat kasb etmoqda.



“RAQAMLASHGAN JAMIYATDA INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH: IMKONIYAT VA ISTIQBOLLARI” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

Hisobdorlik (accountability) – bu ish jarayonida o‘z vazifalari va natijalar uchun javobgar bo‘lish, natijalar yuzasidan tahlil va hisobot berish, shaffoflikni ta‘minlashga doir muhim ko‘nikma. Bugungi kunda nafaqat menejment, audit yoki buxgalteriya kabi iqtisodiy yo‘nalishlarda, balki boshqa ko‘plab sohalarida ham hisobdorlikka e‘tibor kuchaymoqda. Negaki, jamoaviy loyihalarda, davlat tashkilotlari yoki nodavlat sektorda, xususiyy biznesda – hamma joyda shaffoflik, samarali boshqaruv va javobgarlik tamoyillari jadal ommalashib bormoqda.

Raqamlashtirish – axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng ko‘lamda joriy etib, turli jarayonlarni elektron muhitga o‘tkazish orqali tezkor, soddalashtirilgan va shaffof boshqaruvni ta‘minlashdir. Mazkur jarayon:

Ijtimoiy munosabatlarda: masofaviy o‘qitish, telemeditsina, elektron hukumat (e-government) kabi qulayliklar;

Iqtisodiyotda: elektron savdo, raqamli bank xizmatlari, onlayn marketing, bulutli texnologiyalar;

Mehnat bozorida: global darajada masofaviy ish, freelancing, onlayn platformalar orqali hamkorlik kabilarni yuzaga keltiradi.

Raqamli iqtisodiyot sharoitida kasbiy faoliyatga tayyorlanayotgan shaxslar quyidagi kompetensiyalarga ega bo‘lishi zarur:

Raqamli savodxonlik, texnologik innovatsiyalar bilan ishlash ko‘nikmalari;

Muammolarni hal qilishda kreativ yondashuv, moslashuvchanlik, tezkor qaror qabul qilish;

Hisobdorlik – ish jarayoni va natijalar uchun shaxsiy va jamoaviy javobgarlik, axborotni ochiq va ishonchli tarzda taqdim etish.

Hisobdorlik – individual yoki tashkilot darajasida bajargan ish, kutilayotgan yoki erishilgan natija bo‘yicha javob berishga shaylik bo‘lib, u quyidagi jihatlarni o‘z ichiga oladi:

Javobgarlik (responsibility): Ishonib topshirilgan vazifalarni bajarish, me‘yoriy hujjatlarga rioya qilish;

Natijalar haqida hisobot (reporting): Ish jarayoni, sarflangan resurslar va erishilgan yutuqlar yoki muammolar bo‘yicha hisobotlarni taqdim etish;

Shaffoflik (transparency): Kerakli ma‘lumotlarni oqilona oshkor qilish, halollik va aniqlik tamoyillariga amal qilish.

Raqamlashtirish jarayonida ko‘plab jarayonlar onlayn shaklga o‘tkaziladi, bu esa ish jarayonlarini kuzatish, monitoring qilish, ma‘lumotlarni raqamli shaklda saqlash imkoniyatlarini yanada kengaytiradi. Natijada:

Elektron hujjat almashinuvi ortib, ishonchli ma‘lumotlar bazasi shakllanadi;



“RAQAMLASHGAN JAMIYATDA INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH: IMKONIYAT VA ISTIQBOLLARI” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

Big Data orqali turli jarayonlarni tahlil qilish, real vaqt rejimida xatolarni aniqlash soddalashadi;

Axborot xavfsizligi bilan bog‘liq mas‘uliyat ham kuchayadi, chunki noto‘g‘ri foydalanilgan ma‘lumotlar yoki xakerlik hujumlari salbiy oqibatlar keltirib chiqarishi mumkin.

Projekt (loyiha) metodlari: Talabalar jamoaviy loyihalarda qatnashib, belgilangan muddat va resurslar ichida natijadorlikka erishishi kerak. Bu jarayonlarda har bir ishtirokchi o‘z vazifasi bo‘yicha hisob beradi, taqdimot tayyorlaydi, shaffof tarzda muhokama o‘tkazadi.

Case-study: Hayotiy misollar yoki real kompaniyalar faoliyati asosida talabalarga muammolar yechimiga javobgarlik hissini singdirish, ko‘rsatkichlar monitoringini o‘rgatish.

Onlayn platformalar: Ta‘lim jarayonida Moodle, Google Classroom, Microsoft Teams kabi vositalarda topshiriqlarni belgilash, baholash va tahlil qilish, shuningdek, hisobotlarni elektron shaklda yig‘ish imkoniyati yaratiladi.

Ishlab chiqarish amaliyoti: Talabalar real korxonalar yoki davlat tashkilotlarida stajirovka o‘taganda, ish natijalariga bevosita javobgar bo‘lishni o‘rganadilar.

Metorlik (mentorship): Stajirantning ishida yo‘l-yo‘riq ko‘rsatish bilan birga, bajarilayotgan vazifa uchun javobgarlik mexanizmlarini kiritish – ish kunini rejalashtirish, vazifalarni bajarish muddatini belgilash, natijalarga baho berish.

Elektron monitoring: Stajirovka jarayonida raqamli platformalar orqali vazifalar taqsimoti, bajarilgan ishlarni real vaqt rejimida kuzatish, ball yoki ko‘rsatkichlar sistemasi orqali talabani rag‘batlantirish mumkin.

Raqamlashtirish muhiti hisobdorlik ko‘nikmalarini baholashni ham soddalashtiradi:

Elektron portfolio: Har bir talaba yoki xodimning bajarilgan ishlariga oid ma‘lumotlar, loyihalar, hisobotlar, sertifikatlar yagona platformada saqlanadi.

Sertifikatlash tizimi: Maxsus onlayn testlar, amaliy loyihalar, intervyular orqali hisobdorlik kompetensiyasini aniqlash va hujjatlashtirish.

Gamifikatsiya: Talaba yoki xodimning mas‘uliyati, muddatga rioya qilish, sifati kabi mezonlar bo‘yicha reytinglar, tokenlar yoki ballar shaklida gamifikatsiya mexanizmlari yaratilishi hisobdorlikni rag‘batlantiradi.

Ijtimoiy samara: Shaffoflik va javobgarlikni kuchaytirish orqali korruptsiyaga qarshi kurash, jamiyatda ishonch muhiti shakllanadi.

Iqtisodiy samara: Raqamli resurslardan oqilona foydalanish, zararlar va xatolarni real vaqt rejimida aniqlash natijasida ish sifatini oshirish, moliyaviy barqarorlikka erishish.



“RAQAMLASHGAN JAMIYATDA INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH: IMKONIYAT VA ISTIQBOLLARI” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

Shaxsiy samara: Shaxsiy mas’uliyat, fazilatli xulq, doimiy o‘z-o‘zini baholash va takomillashtirishga yo‘naltirish – bu mehnat bozorida mutaxassisning o‘rnini mustahkamlaydi.

Raqamlashtirish sharoitida kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayonida hisobdorlik ko‘nikmalarini rivojlantirish tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu ko‘nikma nafaqat zarur texnik bilimlar, balki shaxsiy ma’naviy mas’uliyat va jamoaviy etika bilan ham chambarchas bog‘liqdir. Ta’lim jarayonini loyihaviy, interaktiv yondashuvlar va amaliyot bilan boyitish, elektron monitoring va baholash tizimlarini keng qo‘llash hisobdorlik mexanizmlarini shakllantirishda yuqori samaradorlik beradi.

Kelajakda raqamli iqtisodiyot va tezkor globallashtirish sharoitida aynan shaffoflik, ishonchlilik, javobgarlik kabi tamoyillar muvaffaqiyatli kariyeraning asosiy omillaridan bo‘lib qolishi kutiladi. Shu boisdan, kasbiy faoliyatga tayyorlashda hisobdorlik ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan izchil chora-tadbirlar nafaqat individual rivojlanish, balki jamiyatning iqtisodiy va ma’naviy taraqqiyotiga ham xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Osborne, S. P., Radnor, Z., & Kinder, T. (2015). “The role of leadership and culture in public service reform”. Public Management Review, 17(1), 86–94.
2. Боймуродов Г. Педагогик касбга тайёргарлик самараси. Узлуксиз таълим журнали. 2014. 3-сон. –Б. 42
3. Зеер Э.Ф. Психология профессионального образования. – Москва.: «Академия», 2013. –С. 38
4. Лукьянова М.И. Психолого-педагогическая компетентность учителя. // Педагогика. – 2001. – №10. – С. 56-61
5. Муслимов Н.А. Касб таълими ўқитувчисини касбий шакллантиришнинг назарий-методик асослари. Пед.фан док. Дисс... афтореферат. Тошкент.: 2007. –Б. 132

RAQAMLASHTIRISH SHAROITIDA MA’RIFATLI JAMIYAT QURISHDA TASVIRIY VA AMALIY SAN’ATDAN FOYDALANISH

A’zamjonov Axadjon A’zamjonovich

Farg‘ona davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Farg‘ona, O‘zbekiston

Annotatsiya: Mazkur maqolada raqamlashtirish jarayonining ijtimoiy-madaniy hayotga, xususan, tasviriy va amaliy san’at rivojiga ko‘rsatadigan ta’siri tahlil qilingan. Ma’rifatli jamiyat qurilishida vizual (tasviriy) va amaliy san’at turli sohalar kesimida insonning estetik didini rivojlantirish, ma’naviy-ma’rifiy ko‘nikmalarni mustahkamlash va ijodiy jarayonlarda innovatsion usullarni joriy qilishda muhim o‘rin tutishi ko‘rsatib berilgan. Shuningdek, maqolada raqamli texnologiyalardan foydalanish orqali san’atni



“RAQAMLASHGAN JAMIYATDA INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH: IMKONIYAT VA ISTIQBOLLARI” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

ommalashtirish, yosh avlodni san’atga jalb qilish va ular orasida ijodiy qobiliyatlarni rag’batlantirish masalalari yoritilgan. Ma’rifatli jamiyatni shakllantirishda tasviriy va amaliy san’atning ta’lim, ma’naviyat, madaniyat sohalariga ta’siri xususida xulosalar ishlab chiqilgan.

Kalit soʻzlar: Raqamlashtirish, ma’rifatli jamiyat, tasviriy san’at, amaliy san’at, estetik did, innovatsion usullar, ijodkorlik, ma’naviy-ma’rifiy tarbiya, raqamli texnologiya.

Bugungi kunda jadal sur’atlarda kechayotgan raqamlashtirish jarayoni nafaqat iqtisodiyot yoki ilm-fan sohasida, balki madaniy va ijodiy yo’nalishlarda ham katta o’zgarishlarga sabab bo’lmoqda. Raqamli texnologiyalarning rivojlanishi jamiyatni ma’rifiy jihatdan yanada boyitish, milliy va jahon madaniyati yutuqlarini keng ommaga yetkazish, ijodkorlik salohiyatini ro’yobga chiqarish kabi imkoniyatlarni yuzaga keltirmoqda. Ayniqsa, tasviriy va amaliy san’at sohaları raqamlashtirish jarayonidan samarali foydalanish orqali butunlay yangi ko’rinish kasb etmoqda.

Raqamli jamiyatda axborotning tezkor, qulay va keng miqyosda tarqalishi insonlarning dunyoqarashini kengaytirish, ma’naviy va madaniy bilimlarini boyitishga xizmat qiladi. Internet orqali san’at asarlarini onlayn ko’rgazmalar, virtual muzeylar va ijtimoiy tarmoqlar vositasida ommalashtirish imkoniyati paydo bo’ldi. Bu esa har qanday san’at turini keng jamoatchilikka yetkazish, yosh ijodkorlarga ustoz-shogird tizimini yangi shakllarda davom ettirish, xalqaro tajriba almashinuvini kengaytirish imkonini bermoqda.

Tasviriy va amaliy san’atda raqamli texnologiyalarni qo’llash san’at asarlarini saqlash, raqamli arxiv va kataloglar shakllantirish jarayonini sezilarli darajada takomillashtiradi. Jumladan, muzey va galereyalar o’z fondlaridagi eksponatlarni raqamli shaklga o’tkazish orqali dunyoning istalgan burchidagi san’at ixlosmandlariga namoyish etishi mumkin. Bu esa madaniy merosni chuqur o’rganish, uni keng targ’ib qilish va yosh avlodni tarixiy-madaniy qadriyatlarga jalb qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Raqamli texnologiyalar tasviriy va amaliy san’atni yaratish hamda taqdim etish jarayonini tubdan yangilamoqda. Masalan, raqamli grafik programmalarida yaratilgan asarlar rangtasvirga xos barcha xususiyatlarni ifodalay oladi, shu bilan birga, tezkor tuzatishlar kiritish, mualliflik huquqini himoyalash, xalqaro platformalarda sotish kabi qulayliklar taklif etadi.

Mahalliy tajribalar natijasida Namangan Davlat Universiteti loyihasi bo‘yicha joriy etilgan Texnologiyalarda Model + Zoom + "ZiyoNET" milliy platformasi muhim bo‘lib, natijada darslarga qatnashish 89% - 94% O‘rtacha baho 4.2- 4.6ni tashkil etgan. Toshkent Tibbiyot Akademiyasida Innovatsiya asosida Virtual anatomik laboratoriya tashkil etilganligi va uning afzalligida har bir talaba kuniga 24 soat 3D model bilan ishlash imkoniyatiga ega bo‘lishgan. Asosiy tadqiqot natijalari keng qamrovli asosida eng samarali metodlar yaratildi. Aralash ta‘lim modeli asosida NamDU tajribasida haftaning 3 kuni an‘anaviy, 2 kuni onlayn ta‘limda natijada talabalar aktivligi 42% ga oshgan va O‘rinlashtirilgan ta‘lim ToshDSHUda "Tarix Quest" mobil ilovasida 6 oyda test ballari o‘rtacha 78.5 dan 89.2 ga ko‘tarilgan hamda Virtual Ekskursiyalar SamarqandDAUda 360° virtual rejalar asosida 92% talabalar vizual materiallarni yaxshiroq eslab qolishgan.[9]

Aralash ta‘limning afzalliklari va kamchiliklari quyidagilarda namoyon bo‘ladi.

Afzalliklari- Har bir talabaning individual talablarini qondirish. Resurslarni tejash (30% ga kam transport xarajatlari) . COVID-19 kabi favqulodda vaziyatlarda uzluksiz ta‘limning joriy etilishi.[8] Kamchiliklari esa qishloq joylarda internet muammosi (35% hududlar). Yosh o‘qituvchilarning faqat 40% texnologiyalarga to‘liq moslasha olishlarida.

Gumanitar fanlarni o‘qitishda zamonaviy metodlarning qo‘llanilishi, talabalarning ijodiy fikrlashini rivojlantirish, ijtimoiy faolligini oshirish va ta‘limning samaradorligini ta‘minlashda katta rol o‘ynaydi. Innovatsion yondashuvlar, texnologiyalar va interaktiv metodlar orqali ta‘lim jarayonini yanada samarali qilish imkonini beradi. Zamonaviy o‘qitish metodlari, shubhasiz, talabalarning kelajakdagi hayoti va faoliyatida muhim ahamiyatga ega bo‘ladi Ijtimoiy-gumanitar fanlar ta‘limi jamiyatning intellektual, ma‘naviy va madaniy rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda ta‘lim metodlarini modernizatsiyalash, talabalarning ijodiy va analitik qobiliyatlarini rivojlantirish uchun zamonaviy metodlarni joriy etish zarur. Ushbu maqolada zamonaviy o‘qitish metodlari, ularning samaradorligi va innovatsion yondashuvlari haqida batafsil so‘z yuritiladi.[12]



“RAQAMLASHGAN JAMIYATDA INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH: IMKONIYAT VA ISTIQBOLLARI” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

Asosiy qism. Zamonaviy ta'lim metodlari – bu ta'lim jarayonida foydalaniladigan zamon talablariga mos, innovatsion va interaktiv yondashuvlardan iborat usullardir. Ular talabalarning faol ishtirokini, ijodiy fikrlashini va mustaqil o'rganish qobiliyatlarini rivojlantirish maqsadida ishlatiladi. Ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'qitishda texnologiyalarni qo'llash, nafaqat o'qitish jarayonini samarali qiladi, balki talabalarni yanada mustaqil fikr yuritishga, innovatsion yechimlar topishga va zamonaviy jamiyatda o'z o'rnini topishga tayyorlaydi.[2] Quyidagi qatorlarda zamonaviy ta'lim metodlariga ta'rif berib o'tiladi:

1. Interaktiv o'qitish:

- Interaktiv metodlar talabalarni faol ishtirok ettirish, ustida muhokamalar olib borish va ularning o'z fikrlarini ifodalashini rag'batlantiradi. Diskussiyalar, seminarlar, rolli o'yinlar va jamoa ishlari ushbu metodlarga kirib, talabalarning jamoa bilan ishlash qobiliyatlarini rivojlantiradi.[1]

2. Texnologiyalarning qo'llanilishi:

-O'zbekistonda qo'llanilayotgan mahalliy dasturiy ta'minotlar (masalan, "ZiyoNET" platformasi), Virtual laboratoriyalar tajribasi (Toshkent Davlat Sharqshunoslik Universiteti misolida), Sun'iy intellektdan foydalanish (chatbotlar yordamida testlar tuzish).

- Zamonaviy ta'limda axborot va kommunikatsiya texnologiyalari (AKT)dan foydalanish muhimdir. Vebinarlar, onlayn kurslar, multimedia materiallari va ta'lim platformalari talabalarning o'rganish jarayonini yengillashtiradi va samaradorligini oshiradi.

3. Proektga asoslangan o'qitish:

- Talabalarni amaliy loyihalarda ishtirok etishga jalb qilish, ularning nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llash imkonini beradi. Bu metod talabalarning muammolarni hal qilish qobiliyatlarini rivojlantiradi va ularni ijodiy faoliyatga rag'batlantiradi.[3]

4. Tanqidiy fikrlash:

- Zamonaviy ta'limda talabalarning tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga e'tibor qaratilmoqda. Talabalardan muammolarni aniqlash, manbalarni tahlil qilish va turli nuqtayi nazarlarni baholash kerak. Keys-stadiyalar, tahlillar va topshiriqlar orqali bu ko'nikmalarni rivojlantirish mumkin.[5]

5. Ma'naviy va axloqiy ta'lim: - Zamonaviy ta'limda ma'naviy va axloqiy qadriyatlarni shakllantirishga ham katta e'tibor qaratiladi. Talabalarning ijtimoiy mas'uliyatini rivojlantirish va ijtimoiy masalalarga munosabatini shakllantirish maqsadida maxsus tadbirlar va seminarlar tashkil etiladi.[4]

6. Amaliy ta'lim:

- Talabalarning nazariy bilimlarini amaliyotda qo'llashini ta'minlash uchun stajirovka, amaliyot va ishlab chiqarish loyihalari tashkil etiladi. Bu metod talabalarning haqiqiy hayotdagi vaziyatlarga moslashish qobiliyatlarini rivojlantiradi.[6]



“RAQAMLASHGAN JAMIYATDA INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH: IMKONIYAT VA ISTIQBOLLARI” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

Zamonaviy ta'lim metodlari talabalarning faolligini, ijodiy fikrlashini, mustaqil o'rganish qobiliyatlarini va ijtimoiy mas'uliyatini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi[11]. Ular, shuningdek, ta'lim jarayonini yanada samarali bo'lishi va talabalarning bilim olish jarayonini qiziqarli qilishda foydalidir. Ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'qitishda innovatsion texnologiyalar ta'lim jarayonini zamon talablariga moslashtirib, talabalar va o'qituvchilar uchun yangi imkoniyatlar yaratadi. Quyida texnologiyalar va ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'qitishdagi innovatsiyalar haqida ta'rif beriladi:

1. Onlayn ta'lim platformalari:

- Onlayn ta'lim platformalari, masalan, Model, Coursera, va EDX kabi xizmatlar, talabalar uchun ko'plab kurslarni taklif etadi. Bu platformalar orqali talabalar istalgan vaqtda va joyda darslarga kirish imkoniyatiga ega bo'lishadi, bu esa o'rganishni yanada qulaylashtiradi.

2. Multimedia materiallar:

- O'qitishda multimedia vositalaridan, masalan, videolar, animatsiyalar, va interaktiv taqdimotlardan foydalanish, talabalar uchun mavzularni tushunishni osonlashtiradi. Bu metodlar o'rganilayotgan materialni ko'rgazmali va qiziqarli qilishga yordam beradi.[11]

3. Virtual va kengaytirilgan haqiqat.

- Virtual (VR) va kengaytirilgan (AR) texnologiyalari, talabalarni yangi muhitlarga kiritish imkoniyatini beradi. Misol uchun, tarixiy voqealarni virtual ravishda tajribadan o'tkazish yoki san'at asarlarini kengaytirilgan haqiqatda ko'rish imkoniyati, o'qitishda interaktivlikni oshiradi.

4. Ijtimoiy tarmoqlar va forumlar:

- O'qituvchilar va talabalar o'rtasida ijtimoiy tarmoqlar (masalan, Facebook, Twitter, va linkmiding) yoki maxsus forumlar orqali muloqot o'rnatish imkoniyatlari mavjud. Bu usul o'zaro fikr almashish, muammolarni muhokama qilish va hamkorlik qilishni rag'batlantiradi.

5. O'rganish tahlillari va ma'lumotlar analitikasi:

- Ta'lim jarayonida talabalar faoliyatini tahlil qilish uchun ma'lumotlar analitikasi texnologiyalari qo'llanilishi mumkin. Bu usul o'qituvchilarga talabalarni yanada samarali boshqarish, ularning kuchli va kuchsiz tomonlarini aniqlashda yordam beradi.[5]

6. Mobil ilovalar:

- Ta'lim uchun mo'ljallangan mobil ilovalar, masalan, Quizlet yoki Kahoot!, talabalar uchun qiziqarli va interaktiv o'rganish tajribasini taqdim etadi. Bu ilovalar orqali talabalar o'z bilimlarini sinab ko'rish va musobaqalarda ishtirok etish imkoniyatiga ega bo'lishadi.[10]

7. Masofaviy ta'lim va aralash ta'lim.



“RAQAMLASHGAN JAMIYATDA INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH: IMKONIYAT VA ISTIQBOLLARI” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

- Masofaviy ta'lim usullari, talabalar uchun o'qish va ish bilan bandlikni uyg'unlashtirish imkoniyatini taqdim etadi. Aralash ta'lim modelida esa, an'anaviy o'qitish va onlayn o'qitish usullarining kombinatsiyasi orqali samarali natijalarga erishish mumkin.

Ijtimoiy-gumanitar fanlar jamiyatning rivojlanishida, madaniyat va ma'naviyatni shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Ushbu fanlar ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy va siyosiy jarayonlarni tahlil qilish va tushunishga yordam beradi. Ijtimoiy-gumanitar fanlarning ahamiyati haqida quyida batafsil ma'lumotlar keltiriladi:[2].

1. Ijtimoiy faollikni rag'batlantirish:

- Ijtimoiy-gumanitar fanlar talabalarning ijtimoiy masalalarga bo'lgan munosabatini shakllantirishga yordam beradi. Ushbu fanlar orqali talabalar jamiyatdagi muammolarni aniqlash va ularni hal qilish uchun faol qatnashishga rag'batlanadi.[2]

2. Madaniyat va ma'naviylik:

- Ijtimoiy-gumanitar fanlar madaniyatning, milliy an'analarning va ma'naviy qadriyatlarning saqlanishida muhim rol o'ynaydi. Ular odamlarning hissiyotlari, g'oyalari va qadriyatlari bilan bog'liq masalalarni o'rganishga yordam beradi.[4]

3. Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish.

- Ijtimoiy-gumanitar fanlar talabalarning tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan. Bu fanlar talabalarga o'z fikrlarini ifodalash, manbalarni tahlil qilish va muammolarni baholash uchun zarur bo'lgan ko'nikmalarni shakllantiradi.[5]

4. Boshqalar bilan hamkorlik qilish.

- Ijtimoiy-gumanitar fanlar talabalarni jamoa bilan ishlash, muhokamalarda ishtirok etish va boshqalar bilan muloqot qilish kabi ko'nikmalarni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Bu jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarni mustahkamlaydi.

5. Ustuvor yo'nalishlarni aniqlash:

- Ijtimoiy-gumanitar fanlar jamiyatdagi ustuvor yo'nalishlarni aniqlashda yordam beradi. Ular ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy muammolarni tahlil qilish, davlat siyosatini shakllantirishda muhim axborot manbalaridir.

Ushbu maqolada ijtimoiy fanlarni o'qitishda zamonaviy o'qitish metodlari, ularning samaradorligi va innovatsion yondashuvlari haqida batafsil so'z yuritiladi. Jumladan;

1. Interaktiv o'qitish metodlari - Interaktiv metodlar, masalan, guruhdagi muhokamalar, rolli o'yinlar va seminarlar, talabalarni faol ishtirok etishga rag'batlantiradi. Bu metodlar ularning fikrlashini rivojlantirish, ijtimoiy va kommunikativ qobiliyatlarini oshirishda samaralidir.

- Diskussiyalar va seminarlar: Talabalarni faol ishtirok etishga rag'batlantirish, ularning fikrlashini rivojlantirish uchun diskussiyalar va seminarlar samaralidir. Bu



“RAQAMLASHGAN JAMIYATDA INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH: IMKONIYAT VA ISTIQBOLLARI” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

metodlar talabalarining o‘z fikrlarini ifodalash, boshqalarning nuqtayi nazarini eshitish va o‘zaro o‘rganishini ta‘minlaydi.

- Rolli o‘yinlar: Rolli o‘yinlar, ijtimoiy ssenariylarda talabalarining ishtirokini oshirish orqali, ijtimoiy va gumanitar muammolarni bevosita his qilish imkonini beradi. Bu metod talabalarining ijodiy faoliyatini faollashtiradi.

2. Texnologiyalarning qo‘llanilishi:

- Zamonaviy ta‘limda axborot texnologiyalari va internet resurslaridan foydalanish talabalarining o‘rganish jarayonini yengillashtiradi. Onlayn platformalar, vebinarlar va multimedia materiallar talabalarining qiziqishini oshirishda muhim ahamiyatga ega. - Vebinarlar va onlayn kurslar: Zamonaviy ta‘limda vebinarlar va onlayn kurslar talabalarga o‘z vaqtida va joyidan qat‘iy nazar ta‘lim olish imkonini beradi. Bundan tashqari, bu metodlar mustaqil o‘rganishni rag‘batlantiradi.

- Multimedia resurslari: Video, animatsiya va interaktiv materiallar talabalarining diqqatini jalb qilishda muhim ahamiyatga ega. Ular nazariy bilimlarni vizuallashtirishga yordam beradi.

3. Proektga asoslangan o‘qitish: Talabalarni amaliy loyihalarda ishtirok etishga jalb qilish, nazariy bilimlarni amaliyotda qo‘llash imkonini beradi. Bu metod, shubhasiz, talabalarining muammolarni hal qilish qobiliyatlarini rivojlantiradi.[3]

- Amaliyotga asoslangan loyihalar: Talabalarni amaliy loyihalarda ishtirok etishga jalb qilish, nazariy bilimlarni amaliyotda qo‘llash imkonini beradi. Bu, shubhasiz, talabalarining muammolarni hal qilish qobiliyatlarini rivojlantiradi.

- Ommaviy ishlar: Ommaviy loyihalar orqali talabalar jamoa bilan ishlash qobiliyatlarini rivojlantiradi, moslashuvchanlik va sardorlik qobiliyatlarini shakllantiradi.

4. Tanqidiy fikrlash va muammoli ta‘lim: Zamonaviy ta‘limda talabalarining mustaqil fikrlashini rivojlantirish muhimdir. Kritik fikrlash metodlari talabalarga o‘z pozitsiyalarini belgilash, har xil manbalardan ma‘lumotlarni tahlil qilish va baholash imkonini beradi.

- Tanqidiy tahlil: Talabalarining mustaqil fikrlashini rivojlantirish uchun tanqidiy tahlil metodlari juda muhimdir. Talabalardan muammolarni aniqlash va ularni yechishda foydali yondashuvlarni taklif etish talab etiladi.

- Keys-stadiyalar: Aniq muammolarni tadqiq qilish va yechish uchun holatlarni (keysli) tahlil qilish, talabalarga haqiqiy hayotdagi vaziyatlarga moslashish imkonini beradi.[6]

5. Ma‘naviy va axloqiy ta‘lim:

"Ma‘naviyat va ma‘rifat" dasturining samaradorligi.

Mahalliy o‘yinlashtirish (gamification) usullari.

"Hazorasp" loyihasi tajribasi (Xorazmda an‘anaviy hunarmandchilikni o‘rgatish)



“RAQAMLASHGAN JAMIYATDA INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH: IMKONIYAT VA ISTIQBOLLARI” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

- Ijtimoiy mas’uliyat: Zamonaviy jamiyatda ijtimoiy mas’uliyatni shakllantirish, axloqiy qadriyatlarni unutmaslik uchun ijtimoiy-gumanitar fanlar muhim ahamiyatga ega. Ushbu fanlar orqali talabalarning ma’naviy sifatlari rivojlantiriladi.[4]

Xulosa sifatida shuni ta’kidlash mumkinki, Zamonaviy metodlarni joriy etish natijasida O‘zbekistonda 5 yil ichida ta’lim sifatini 65% oshirishi mumkinligi, Talabalarning 78% zamonaviy kasblarga tayyorlanishi hamda Milliy madaniy merosni saqlash imkoniyatini 3 baravar oshirilishiga olib keladi. Ushbu tadqiqotda ijtimoiy-gumanitar fanlarni o‘qitishda zamonaviy metodlarning ahamiyati va samaradorligi chuqur tahlil qilingan. Maqolada quyidagilar yoritilgan:

O‘zbekistonda qo‘llanilayotgan eng innovatsion ta’lim usullari (AR/VR, "aralash ta’lim" flipped classroom)

Interfaol metodlarning talabalarning bilim darajasiga ta’siri (2020-2023-yillardagi statistik ma’lumotlar asosida).

Milliy madaniy qadriyatlarni saqlab qolish bilan texnologiyalarni uyg‘unlashtirish yo‘llari va O‘zbekiston oliy ta’lim muassasalaridagi eng yaxshi amaliyotlar.

Ijtimoiy-gumanitar fanlarni o‘qitishda zamonaviy metodlarning qo‘llanilishi, talabalarning ijodiy fikrlashini rivojlantirish, ularning ijtimoiy faolligini oshirish va ta’limning samaradorligini ta’minlashda katta rol o‘ynaydi. Innovatsion yondashuvlar, texnologiyalar va interaktiv metodlar orqali ta’lim jarayonini yanada samarali qilish imkonini beradi. Ijtimoiy-gumanitar fanlarni o‘qitishda zamonaviy metodlarning qo‘llanilishi talabalarning ijodiy fikrlashini rivojlantirish, ijtimoiy faolligini oshirish va ta’limning samaradorligini ta’minlashda katta rol o‘ynaydi. Interaktiv metodlar, texnologiyalarning samarali qo‘llanilishi va amaliy loyihalar orqali talabalar muammolarni hal qilishda faol ishtirok etadilar[6]. Bu, o‘z navbatida, ularning mustaqil fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiradi va jamiyatda ijtimoiy mas’uliyatni shakllantiradi. Zamonaviy metodlarning samaradorligi, ularning ijtimoiy ta’siri va ta’limdagi ahamiyati, jamiyatdagi ijtimoiy va madaniy rivojlanishga ham ta’sir ko‘rsatadi. Talabalarning bilimlarini amaliyotda qo‘llash imkoniyati ularning kelajakdagi ijtimoiy rollarini mustahkamlashda muhim ahamiyatga ega. Ushbu metodlar talabalarni ma’naviy va axloqiy jihatdan rivojlantirish, ularning ijtimoiy masalalarga bo‘lgan munosabatlarini shakllantirishda ham muhimdir. Shu bilan birga, zamonaviy o‘qitish metodlari jamiyatdagi innovatsion o‘zgarishlarning manzarasini kengaytirish, mustaqil fikrlash va ijodiy yondashuvlarni rag‘batlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday yondashuvlar, shubhasiz, ijtimoiy-gumanitar fanlarni o‘qitishning samaradorligini oshiradi va talabalarning ta’lim olish jarayonini yanada sifatli qiladi. O‘zbekistonda kelajakdagi rivojlanish yo‘nalishlariga Sun’iy intellekt yordamida shaxsiylashtirilgan o‘quv rejalari, Blockchain asosidagi



“RAQAMLASHGAN JAMIYATDA INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH: IMKONIYAT VA ISTIQBOLLARI” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

attestatsiya tizimi va Metaverse virtual auditoriyalarini takomillashtirib borsak ta'lim samaradorligi yuqori ko'rsatkichlarga erisha boradi degan umiddamiz.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Boboev N. (2020). Interaktiv ta'lim metodlari: nazariy va amaliyotdagi aspektlar. Toshkent: O'zbekiston milliy universiteti nashriyoti.
2. Islomov A. (2021). Zamonaviy ta'lim texnologiyalari: metodologik asoslar. Toshkent: O'zbekiston ta'limni rivojlantirish markazi.
3. To'xtasinov Sh. (2019). Proektga asoslangan o'qitish: asosiy prinsiplar va samaradorligi. Toshkent: Toshkent davlat pedagogika universiteti.
4. Raxmonov X. (2022). Ma'naviy va axloqiy ta'lim: zamonaviy yondashuvlar. Toshkent: O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti.
5. Pulatov I. (2018). Tanqidiy fikrlash va muammoli ta'lim. Toshkent: O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti.
6. Qodirov F. (2021). Innovatsion metodlar va texnologiyalar ta'limda: tajribalar va natijalar. Toshkent: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti.
7. UNESCO. (2020). Teaching and Learning: Achieving Quality for All. Paris: United Nations Educational, Scientific and Cultural Organization.
8. OECD. (2019). Teaching for Tomorrow's World: Teaching and Learning in the 21st Century. Paris: Organisation for Economic Co-operation and Development.
9. O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi. (2021). Zamonaviy ta'lim metodlari bo'yicha tavsiyalar. Toshkent.
10. Abdurazzakov, F. (2022). Texnologiyalar va ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'qitishdagi innovatsiyalar. Toshkent: Toshkent davlat pedagogika universiteti.
11. Sultonov, X. (2020). Oliy ta'limda zamonaviy pedagogik texnologiyalar. Toshkent: O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti.
12. Kenjabekov, D. (2021). Ijtimoiy fanlarni o'qitishda zamonaviy metodlar: nazariy va amaliy jihatlar. Toshkent: O'zbekiston milliy universiteti.
13. Milliy Platformalar: "Edu.uz" rasmiy portal "Milliy Bilim" mobil ilova
14. **Elektron Manbalar:** edu.uz/research. unesco.uz/digital-education
15. O'z Ta'lim (2023). Milliy Statistik Hisobot.



O'ZBEKISTONDA JAMIYAT TARAQQIYOTINING YANGI BOSQICHIDA MILLIY YUKSALISH JARAYONINING EVOLYUTSION FALSAFIY TAHLILI

Mavlonov Ilxomjon Xolmirzayevich

Qo'qon universiteti o'qituvchisi, f.f.d (PhD) v.b dotsent.

O'zbekiston Respublikasi Farg'ona viloyati, Dang'ara shaxarchasi

Tel: +998999921844

Qdpiqdpi9@gmail.com

ilxomjonmavlonov561@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ma'naviy yuksalish milliy taraqqiyotning asosi ekanligini ijtimoiy-falsafiy jihatdan ilmiy tadqiq etish o'z navbatida milliy taraqqiyot modellarining xilma-xilligini ham qamrab oladi. Ushbu maqolada milliy yuksalish jarayonining evolyutsiyasi falsafiy tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: ma'naviy yuksalish, jarayon, Vatan, taraqqiyot, milliy taraqqiyot.

АННОТАЦИЯ

Социально-философское научное исследование того, что духовный рост является основой национального развития, охватывает также многообразие моделей национального развития. В статье дается философский анализ эволюции процесса национального вознесения.

Ключевые слова: духовный рост, процесс, Родина, развитие, национальное развитие.

ABSTRACT

The socio-philosophical study of the fact that spiritual growth is the basis of national development, in turn, covers the diversity of models of national development. This article provides a philosophical analysis of the evolution of the national ascent process.

Keywords: spiritual growth, process, homeland, development, national development.

Vatanimiz istiqbolga erishganidan so'ng milliy taraqqiyot masalalariga oid muammolarni holisona hal etish nafaqat davlat siyosatining muhim tamoyili sifatida keng ko'lamli ishlar amalga oshirilayotgan bo'lsa, soha olimlari tomonidan ham jiddiy ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Negaki, «milliy taraqqiyot va ma'naviy yuksalish jarayoni»ni o'rganishga doir turli hil ijtimoiy-falsafiy qarashlar tizimini ilmiy jihatdan tahlil va tadqiq qilish, uni amaliy hayotga joriy etish zarurati butunjahon miqyosida milliy nizolar avjiga chiqqan bir paytda dolzarb ahamiyatga ega masalalardan biriga aylanib bormoqda. Kishilik jamiyati hech qachon bir tekis va silliq rivojlanmagan. Taraqqiyot ortidan inqirozlar, yutuqlar ketidan mag'lubiyatlar, farovonliklar izidan zavorga yuz tutishlar ta'qib etgan. Muayyan jamiyat iqtisodiy-siyosiy, axloqiy-diniy, badiiy-estetik taraqqiyot borasida inqirozga duch kelar ekan, undan chiqib ketish uchun ilg'or falsafiy ta'limotlarga ehtiyoj sezadi. Insoniyat taraqqiyotining har bir bosqichida ushbu muammolar yangidan kun



“RAQAMLASHGAN JAMIYATDA INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH: IMKONIYAT VA ISTIQBOLLARI” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

tartibiga qo'yilaveradi. Ularni o'rganish jarayonida davlat, jamiyat taraqqiy etib boradi. Rim imperiyasi zavolga yuz tutganidan keyin o'z milliy davlatchiligiga ega bo'lgan Yevropa mamlakatlarida, o'rta asrlarga kelib, milliy taraqqiyot yaratish imkoni tug'ildi. To'g'ri, ular umumevropa hududida, Qadimgi Yunoniston va Rim madaniyati negizida shakllandi. Ularda Yevropa xalqlariga xos umumiy jihat va xususiyatlar, umumetnik mentalitet aks etgan edi. Bu jarayon, avvalo, Italiya va Angliyada, so'ngra Frantsiyada yuz berdi [1].

Milliy taraqqiyot va ma'naviy yuksalish jarayonining ijtimoiy-falsafiy negizlarini, tarixiy rivojlanish bosqichlarini ko'zdan kechiradigan bo'lsak, Sharq va G'arb falsafiy tafakkuri rivojida o'ziga xos o'rin tutib, astasekinlik bilan bugungi zamonaviy ko'rinishigacha bo'lgan murakkab bosqichni bosib o'tganligini kuzatishimiz mumkin. Ayniqsa, mazkur muammo R.Dekart, B.Spinoza, I.Kant, I.Fixte, G.Gegel kabi Yevropa faylasuflarining asarlarida alohida mavzu sifatida o'rganila boshlanganligini ko'rishimiz mumkin [2]. Ular, avvalambor, o'z yurti, millati sha'n-u sharafini yuksaklikka ko'tarish, taraqqiyotga olib chiqish uchun ilg'or g'oyalarni o'rtaga tashlagan, davr taqozo etgan mafkuraning shakllanishiga hissa qo'shgan.

XX asrning o'rtalaridan kelibgina Yevropada milliy taraqqiyot va ma'naviy yuksalish jarayonini yaxlit falsafiy muammo sifatida tadqiq etish borasida keng ko'lamli tadqiqotlar amalga oshirildi. Bu tadqiqotlarda ilgari surilgan kontseptual g'oyalar, xulosalar va fikrlar milliy taraqqiyot va ma'naviy yuksalish jarayonining nafaqat inson hayoti, balki ijtimoiy munosabatlar bilan ham bog'liq murakkab, keng qamrovli muammolardan biri ekanini ko'rsatadi. Biz yashayotgan dunyo so'nggi yillarda nihoyatda o'zgarib ketdi. Xususan, Vatanimiz tarixida XX asrning 90-yillarida olamshumul voqealar yuz berdi: mamlakatimiz mustaqillikka erishib, o'ziga xos taraqqiyot yo'lini tanladi, rivojlanishning o'zbek modelini amalga oshirishga kirishdi. Xalqimizning huquqiy demokratik jamiyat barpo etish zarurati dunyoqarashni tubdan o'zgartirish, eski aqidalardan tamoman voz kechish, istiqlol mafkurasini shakllantirish, xalq ma'naviyatini yuksaltirishni taqozo etdi [3].

Milliy tiklanish, taraqqiyot va yuksalish juda keng, chuqur, murakkab tarixiy jarayon bo'lib, u millatimiz hayotining hamma sohalarni: iqtisodiyotni ham, siyosiy faoliyatni ham, ma'naviyatni ham, ilm-fan, til, tarix, urf-odatlar, hunarmandchilik, me'morchilikni ham, inson kamoloti bilan bevosita daxldor barcha masalalarni o'z ichiga qamrab oladi. Milliy tiklanishga birdaniga erishib bo'lmaydi. Milliy tiklanish uzoq davom etadigan, ko'p yillarni o'z ichiga qamrab oladigan murakkab jarayondir. Fuqarolik jamiyatini barpo etish borasida mamlakatimizda amalga oshirilayotgan tub islohotlar xalqimizning milliy o'zligini anglashga bo'lgan intilishlarini rag'batlantirmoqda. Shu ma'noda, milliy taraqqiyot va ma'naviy yuksalish jarayoniga ta'sir etuvchi ob'ektiv shart-sharoitlar va sub'ektiv omillarni ilmiy asosda o'rganish masalasi bugungi kunda tadqiqotchilarning oldida turgan



“RAQAMLASHGAN JAMIYATDA INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH: IMKONIYAT VA ISTIQBOLLARI” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

muhim vazifalardan biridir. Ma’naviy yuksalish milliy taraqqiyotning asosi ekanligini ijtimoiy-falsafiy jihatdan ilmiy tadqiq etish o’z navbatida milliy taraqqiyot modellarining xilma-xilligini ham qamrab oladi. Shu bois ma’naviy yuksalish jarayonlari mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatini takomillashtirish bilan bevosita bog’liqdir [4].

Vatanimiz O’zbekiston Rossiyaning qariyb bir yarim asrlik mustamlaka zulmidan ozod bo’lganiga chorak asr to’lmoqda. Bu davrda behad katta va ulug’vor tarixiy hodisa yuz berdi. Qadimdan dunyoga mashhur bo’lgan davlatchiligimiz zamonaviy asosda qayta tiklanib, jahonga yangitdan tanildi. Vatanimiz ravnaqi O’zbekistonning birinchi Prezidenti Islom Karimovning milliy mustaqillik va taraqqiyot yo’li — «o’zbek modeli» asosida amalga oshib, takomil topmoqda [5].

Milliy yuksalish jarayonining evolyutsion modeli ekanligini anglatadi. O’zbekistonda qurilayotgan huquqiy demokratik davlat xususiyatlari, demokratiya va xalq ruhiyati, demokratik tamoyillar rivoji, madaniyatlar va tsivilizatsiyalar sintezi, fuqarolik jamiyati tizimini shakllantirish yo’llari, milliy mafkura zarurati va uning negizlari, milliy qadriyatlarni tiklash, necha ming yillik tariximizni o’rganishning kontseptual g’oyalari asoslab berildi. Xalqimiz 25 yillik istiqlol davrida erishilgan barcha yutuq va natijalarni haqli ravishda Birinchi Prezidentimiz Islom Karimovning nomi va faoliyati bilan uzviy bog’liq holda ko’radi. Butun O’zbekiston bolalari – mening farzandlarim deb bilgan, mamlakatimizning kelajagi zamonaviy bilim va kasb - hunarlarni puxta egallagan, iste’dodli, izlanuvchan yoshlar qo’lida ekanini chuqur anglagan holda, u kishi yoshlarimizning ongu tafakkuri va dunyoqarashini yuksaltirishga xizmat qiladigan, navqiron avlodni tarbiyalab voyaga yetkazishning yangi tizimini shakllantirish hamda hayotga joriy etish ishlariga bevosita rahbarlik qildi. Mustaqil demokratik taraqqiyot va jamiyat rivojlanish qonununiyatlarini asoslab, o’z asarlarida muhim nazariy kontseptual g’oyalarni ishlab chiqdi. Ma’lumki, Islom Abdug’anievich Karimov o’z rahbarlik faoliyatining mazmuniga aylangan «Bizdan ozod va obod Vatan qolsin!» degan ezgu g’oyani ilgari surgan va bu shior barchamizning, butun xalqimizning qalbidan chuqur joy olgan edi. Ulug’ yo’lboshchi ana shu buyuk vazifani hamma vaqt, har qanday vaziyatda ham sharaf bilan ado etdi, bu yo’lda beqiyos kuch-g’ayrati va aql-zakovatini, kerak bo’lganda hatto aziz jonini ham ayamadi. Ko’pni ko’rgan xalqimiz aynan Islom Abdug’anievich rahbarligida g’oyat murakkab tarixiy davrda mamlakatimiz mustaqillikka erishganini, milliy davlatchiligimizni tiklash va dunyo hamjamiyatidan munosib o’rin egallash, O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini ishlab chiqish va amalga tatbiq etish, hayotning barcha soha va tarmoqlarini isloh qilish borasida ulkan yutuqlarni qo’lga kiritganini, bularning barchasi erkin va farovon hayotimiz uchun mustahkam poydevor bo’lib kelayotganini hech qachon unutmaydi. Dunyoda ikki yuz ellikdan ortiq davlat,



“RAQAMLASHGAN JAMIYATDA INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH: IMKONIYAT VA ISTIQBOLLARI” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

minglab xalq va elat bor. Ular orasida O'zbekiston deya atalmish go'zal va betakror mamlakatning o'z o'rnini va nufuzini, o'ziga xos taraqqiyot yo'li borligi qalbimizga iftixor bag'ishlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. - Тошкент: Ўзбекистон, 2017.- Б. 80.
2. Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида /Расмий нашр/ - Тошкент: Адолат. 2017. – Б.112.
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 26 март «Маънавиймаърифий ишлар тизимини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида» ПҚ-5040-сон Қарори.
4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 8 октябрдаги «Ўзбекистон Республикаси олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш Концепциясини тасдиqlаш тўғрисида» ПФ-5847-сонли Фармони
5. Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. Жилд 1. – Тошкент: Ўзбекистон. 2017. –Б 592.
6. Фалсафа асослари. – Тошкент. Ўзбекистон, 2005. – Б. 384.
7. Норалиев Р.И. Миллий тараққиёт ва маънавий юксалишнинг ўзаро алоқадорлик хусусиятлари. Фалсафа фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун тақдим этилган диссертация автореферати. Тошкент, 2011. – Б 24.
8. Холбоев С. Миллий мустақиллик ва тараққиётнинг ўзбек модели. – Тошкент. Ўзбекистон, 2014. –Б 260.

TA'LIM VA SALOMATLIK – INSON KAPITALINING ASOSI SIFATIDA

Saidkulov Nuriddin Akrmakulovich,

Guliston davlat pedagogika instituti dotsenti

+99897-340-22-99

mannur_25@mail.ru

Inson kapitali nafaqat iqtisodiy, balki strategik ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy omildir. Bugungi kunda inson kapitali eksporti mamlakatning xalqaro nufuzini mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Davlat boshqaruv tizimida kadrlar salohiyati masalasi inson kapitali barqarorligining muhim shartlaridan biridir. Rivojlangan davlatlarda bo'lgani kabi, mamlakatimizda ham amalga oshirilayotgan islohotlar zamirida ham kuchli kadrlar salohiyatiga ega bo'lish masalasi yotibdi. O'zbekistonda inson kapitalini rivojlantirish uchun bu boradagi ishlarni samarali yo'lga qo'yish va kadrlar salohiyatini yanada kuchaytirish zarur. Bugun ishonch bilan aytish mumkinki, davlatimiz inson kapitalini



“RAQAMLASHGAN JAMIYATDA INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH: IMKONIYAT VA ISTIQBOLLARI” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

rivojlantirishdan manfaatdordir. Boshqacha aytganda, mamlakatda tabiiy resurslar omilini inson omiliga almashtirish jarayoni jadal sur’atda davom etmoqda.

Jamiyat barqarorligining kafolati bo’lgan inson kapitali va uning resurslarini rivojlantirish Yangi O‘zbekistonda davlatning strategik maqsadiga aylandi. Bu maqsadni amalga oshirish uchun mamlakat bo‘ylab juda muhim loyiha va dasturlar amalga oshirilmoqda. Bu loyihalar jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy sohalarini qamrab olmoqda. So‘ngi yillarda inson kapitalini shakllantirishga kiritilgan sarmoyani bilish uchun O‘zbekiston hukumati tomonidan ta’lim, sog‘liqni saqlash va fanni rivojlantirishga sarflangan mablag‘larni hisobga olish kifoya. Shu bilan birga, O‘zbekistonda odamlarning moddiy farovonligini, turmush darajasini, ekologik muhitini yaxshilash siyosati izchil amalga oshirilmoqda. Bu esa inson kapitali sifatini oshishga xizmat qiladi.[1]

Ta’lim va salomatlik har bir jamiyatning taraqqiyotini belgilovchi muhim omillardan biridir. Inson kapitali deganda faqat moddiy resurslar emas, balki insonning bilim darajasi, kasbiy mahorati va jismoniy hamda ruhiy salomatligi ham tushuniladi. Yaxshi ta’lim insonning intellektual salohiyatini oshirib, jamiyatga foydali innovatsiyalar yaratish imkoniyatini beradi. Sog‘lom inson esa o‘z bilim va malakasidan samarali foydalana oladi. Shu bois, davlat va jamiyat rivojlanishida ushbu ikki omil – ta’lim va salomatlik – ustuvor ahamiyat kasb etishi lozim. Ularning rivojiga investitsiya kiritish kelajakda iqtisodiy barqarorlik va ijtimoiy farovonlikni ta’minlashga xizmat qiladi. Ta’lim va salomatlik esa ushbu kapitalni shakllantiruvchi asosiy omillar sifatida e’tirof etiladi. Ushbu ikki omil jamiyatning iqtisodiy rivojlanishi, innovatsion taraqqiyoti va ijtimoiy farovonligining muhim shartlaridandir.

Ta’lim – inson kapitalini shakllantirishning asosiy ustuni. Ta’lim insonning intellektual va kasbiy salohiyatini oshiradi. Zamonaviy dunyoda bilim va texnologiyalar tez rivojlanayotgan bir sharoitda sifatli ta’lim quyidagi jihatlarga ta’sir ko‘rsatadi:

- shaxsiy taraqqiyot – inson o‘z bilim va ko‘nikmalarini rivojlantirib, jamiyatda o‘z o‘rnini topadi;
- iqtisodiy rivojlanish – malakali kadrlar bozor talablariga mos ravishda ishlab chiqarish jarayonlarini yaxshilaydi va samaradorlikni oshiradi;
- innovatsiya va texnologik taraqqiyot – ilmiy bilimlarga asoslangan ta’lim yangi ixtirolar, texnologiyalar va yangiliklarni yaratishda muhim rol o‘ynaydi;
- ijtimoiy farovonlik – ta’lim darajasi yuqori bo‘lgan jamiyatlarda jinoyatchilik kamayadi, fuqarolik faolligi oshadi va yashash darajasi yaxshilanadi.

Salomatlik – samarali inson kapitalining garovi. Salomatlik insonning jismoniy va ruhiy holatini belgilab beradi, uning mehnat qobiliyatini oshiradi va umr ko‘rish davomiyligini uzaytiradi. Yaxshi salomatlik quyidagilarga ijobiy ta’sir qiladi:



“RAQAMLASHGAN JAMIYATDA INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH: IMKONIYAT VA ISTIQBOLLARI” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

- ish unumdorligi – sog‘lom inson o‘z vazifalarini samarali bajara oladi, kamroq kasallikka chalinadi va mehnat bozorida barqaror bo‘ladi;
- sog‘lom avlod – yaxshi tibbiy xizmat va sog‘lom turmush tarzi kelajak avlodning jismoniy va aqliy rivojlanishiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi.
- davlat iqtisodiyoti – sog‘lom aholi tibbiyot xarajatlarini kamaytiradi, ishlab chiqarish jarayonining barqarorligini ta‘minlaydi va iqtisodiy o‘rishni jadallashtiradi.
- ruhiy barqarorlik – psixologik jihatdan sog‘lom inson ijtimoiy muammolarni oson hal qiladi, stressga chidamli bo‘ladi va jamiyatga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi.

Ta‘lim va salomatlik bir-birini to‘ldiruvchi muhim omillardir. Sifatli ta‘lim olgan inson sog‘lom turmush tarzini yuritish bo‘yicha ongli qarorlar qabul qilishi mumkin. Shu bilan birga, sog‘lom inson ta‘lim jarayonida yaxshiroq natijalarga erishadi va o‘z bilimlarini samarali qo‘llay oladi.

Ta‘limning eng muhim ahamiyatini namoyon etadigan yana bir ko‘rsatkich shundan iboratki, jamiyat har qanday inqirozga yuz tutganda, eng avvalo, ta‘lim sohasida o‘z aksini ko‘rsatadi. Inqirozdan, eng avval, ta‘lim tizimi zarar ko‘radi. Bugungi kunda ta‘limning o‘rni va ahamiyati oldingi vaqtlardan tubdan farq qiladi. XXI asrda biz zamonaviy hayot panoramasida ikkita dominant dinamikani kuzatib turimbiz: ulardan biri raqamli texnologiyalarining keng ommalashib borishi hamda sun‘iy intellektning barcha sohalarga shu jumladan ta‘limga ham kirib kelishi, ikkinchisi kapitalning dunyo bo‘ylab yoyilishi bilan birga yuz beradigan iqtisodiy globallashtirish. Biz yashayotgan raqamli texnologiyalar asrida daqiqa sayin yangi ma‘lumotlar hayotimizga juda tez fursatlarda kirib kelmoqda. Bir necha yil oldin olgan bilimlarimiz o‘z ahamiyatini yo‘qotmoqda, biz yaqin-yaqingacha amin bo‘lgan eski bilimlarimiz noto‘g‘riligi isbotlangan va dunyoqarashimizni tubdan o‘zgartira oladigan yangi bilimlar paydo bo‘lmoqda. Yangi ma‘lumotlarga ega bo‘lgan odamlar soni ham keskin o‘shib bormoqda. [2]

Ilmiy bilimlarning shakllanish sur‘atining jadal rivojlanishi natijasida bilimlarning tarqalish tezligi an‘anaviy “bilish” va “o‘rganish” tushunchalarining mazmun-mohiyatini qayta ko‘rib chiqishni talab etmoqda. Shu kungacha ta‘lim tizimi yosh avlod hamda yangi mehnat resurslarini samarali faoliyat yuritishga tayyorlashga yo‘naltirilgan bo‘lib, hosildorlikni oshirish, ekologik muhofazani ta‘minlash, jamiyatning turli sohalarida faol ishtirok etish, sog‘lom turmush tarzini shakllantirish hamda iqtisodiy farovonlikka erishish kabi fundamental bilimlarni o‘rgatib kelmoqda.

Bugungi kunda pedagogika sohasida faoliyat yurituvchi mutaxassislar oldida yangi va murakkab muammolar yuzaga chiqmoqda. Xususan, insoniyatning raqamli texnologiyalar asriga moslashuvi uchun qanday kompetensiyalar rivojlantirilishi lozim va ta‘lim jarayoni qanday formatda tashkil etilishi maqsadga muvofiq ekanini muhim masalalar sirasiga kiradi. Ilm-fan taraqqiyoti sharoitida masofaviy ta‘lim hamda an‘anaviy ta‘lim o‘rtasidagi asosiy



“RAQAMLASHGAN JAMIYATDA INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH: IMKONIYAT VA ISTIQBOLLARI” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

tafovutlar, ularning ustunlik va cheklovlarini har tomonlama o'rganish talab etiladi. Shuningdek, kelajakda o'quvchilarning individual hamda jamoaviy faoliyatlari bugungi tushunchalarimizdan qanday farq qilishi masalasi ham dolzarb bo'lib qolmoqda. Ushbu savollar taraqqiyot sari intiluvchi har bir ziyoli insonning e'tibor markazida bo'lishi lozim.

Ta'lim jarayoni insonning farovon turmush tarziga, porloq kelajagiga sezilarli darajada ta'sir qiladi. Bilim darajasi inson hayotining turli jabhalariga, jumladan, salomatlik, ijtimoiy munosabatlar, madaniy hordiq, siyosiy faollik, tartibli hayot tarziga va boshqa ko'plab sohalarga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatadi. Ta'lim bolalar tarbiyasi bilan shug'ullanayotgan ota-onalarga farzandining salomat bo'lishida va sifatli ta'lim olishida zamonaviy bilimlarga ega bo'lish imkoniyatini yaratadi. Bir oltin qoidani esdan chiqarmasligimiz zarur. Onaning ta'lim darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, chaqaloqlar va bolalar o'limining darajasi shunchalik past bo'ladi.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekistonda 2022-yilda chaqaloqlar o'limi darajasi har 1000 tirik tug'ilgan chaqaloqqa 19,196 nafarni tashkil etadi, bu 2021-yilga nisbatan 2,09 foizga kamaygan. 2021-yilda chaqaloqlar o'limi ko'rsatkichi har 1000 tirik tug'ilgan chaqaloqqa 19,606 nafarni tashkil etdi, bu 2020-yilga nisbatan 2,04 foizga kam. 2020-yilda chaqaloqlar o'limi darajasi har 1000 tirik tug'ilgan chaqaloqqa 20,015 o'limni tashkil etdi, bu 2019-yilga nisbatan 2,01 foizga kam. 2019-yilda chaqaloqlar o'limi koeffitsienti har 1000 tirik tug'ilgan chaqaloqqa 20,425 nafarni tashkil etdi, bu 2018-yilga nisbatan 1,96 foizga kam bo'lganini ko'rsatadi". [3] Ushbu yillar kesimidagi statistik ma'lumotlardan bilish mumkinki, chaqaloqlar o'limi so'ngi yillarda kamayib borayapti. Demak, ota-onalarning, xususan onalarning savodxonlik darajasi oshib bormoqda. Buning yana bir isboti ta'lim dargohlarida xotin-qizlar sonining ortib borayotganidan bilish mumkin. Shuning uchun oilaning moliyaviy ahvoli qanday bo'lishidan qat'i nazar, bolalarni tarbiyalash, salomatligi va sifatli ta'lim olishiga eng avval e'tibor berish zarurdir. Shu tariqa, ta'lim va tarbiya orqali nafaqat falsafiy tushunchalar, balki ijtimoiy-siyosiy va huquqiy me'yorlar ham yosh avlodga yetkaziladi. Natijada, butun bir davlat va jamiyatning tafakkur darajasi yuqorilashadi.

Xulosa qilib aytganda, ta'lim va salomatlik bir-birini to'ldiruvchi ikki ustun sifatida inson kapitalini mustahkamlab, har bir shaxs va umuman jamiyatning farovonligini ta'minlaydi. Bu ikkovi o'zaro bog'liq: sog'lom odam yaxshiroq ta'lim oladi, yaxshi ta'lim olgan odam esa o'z salomatligini muhofaza qilish uchun bilimli qarorlar qabul qila oladi. Shu sababli, davlatlar va tashkilotlar ushbu sohalarga sarmoya kiritish orqali kelajak uchun eng muhim resurs – inson salohiyatini – rivojlantirishi zarur. Ta'lim va salomatlik inson kapitalining asosiy poydevori hisoblanadi. Ta'lim insonni bilim va ko'nikmalar bilan ta'minlasa, salomatlik uning bu imkoniyatlardan to'liq foydalanishi uchun zarur shart-sharoit yaratadi. Bu ikki omil birgalikda shaxsning ham, jamiyatning ham rivojlanishini



ta'minlaydi. Shuning uchun ta'lim va sog'liqqa investitsiya qilish kelajakdagi muvaffaqiyatning kalitidir.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Nuriddin, S. (2024). IMPACT OF MIGRATION PROCESSES ON HUMAN CAPITAL. *Elita. uz-Elektron Ilmiy Jurnal*, 2(1), 12-14.
2. Saidkulov, N. A. (2024). THE ROLE OF THE EDUCATIONAL SYSTEM IN THE DEVELOPMENT OF HUMAN CAPITA. *Academic research in educational sciences*, 5(TSUE Conference 1), 66-70.
3. <https://demografiya.uz/uz/ilmiy-tahliliy-axborotnoma/mamlakatlar-bo-yicha-chaqaloqlar-o-limi-darajasi/>

УДК:81'367.625.432

ОРУС ТИЛ ИЛИМИНДЕ ӨТКӨН ЧАК МААНИЛЕРИ БОЮНЧА ИЗИЛДӨӨЛӨРГӨ СЕРЕП

Женалиева Замира Аралбековна

ага окутуучу

E-mail: zamirazhenalieva@gmail.com,

Б. Осмонов атындагы Жалал-Абад
мамлекеттик Университети

Жалал-Абад, Кыргыз Республикасы
0777002357

Аннотация: Бул макалада генетикалык жактан тектеш эмес тилдердеги этиштин чак маанилеринде, негизинен маанилик бирдейликтер, окшоштуктар бар болгону менен, чак маанилерин туюндуруучу грамматикалык каражаттарда биротоло бирдейликтер, окшоштуктар жана жакындыктар боло бербейт. Мисалы, немец, англис жана башка европалык тилдерде, негизинен, келер чак, учур чак жана өткөн чак деген үч чактын бар экендиги айтылганы менен мына ошол келер жана өткөн чактардын түрдүү өзгөчөлүктөр менен айтылган башка-башка түрлөрү да бар. Бирок мына ошол батыш европалык тилдердеги этиштин чактары боюнча, тактап айтканыбызда, өтөн чак маанилеринин изилдениши боюнча тиешелүү адабияттардын табылышы кыйынчылыкка турду.

Типологиялык түзүлүшү башка болгону менен, этиш сөздөрдүн грамматикалык маанилери дайыма мезгил менен байланышта болуп, бардык тилдерде грамматикалык кыймыл аракет маанилери убакытка карата кандайдыр өздөрүнө тиешелүү болгон өзгөчөлүктөр менен туюндурулат. Тиешелүү бир нече адабияттардан пайдалана алуу мүмкүнчүлүгү бар болуп, орус тилиндеги этиш сөздөр, этиштин чактары, тактап айтканыбызда, орус тилиндеги этиштин өткөн чагы



тууралуу айтылган айрым эмгектерге, жогорку окуу жайлардын студенттерине арналган окуу китептериндеги этиштерди кыскача анализден өткөрүүнү аткаруу керек деп эсептедик.

Түйүндүү сөздөр:, контекст маанилери, өткөн чак маанилери, сөз мааниси, структуралык түзүлүшү, сүйлөмдүн контексттик мааниси.

ОБЗОР ИССЛЕДОВАНИЯ О ЗНАЧЕНИИ ПРОШЕДШЕГО ВРЕМЕНИ В РУССКОМ ЯЗЫКОЗНАНИИ

Женалиева Замира Аралбековна

преподаватель

E-mail: zamirazhenalieva@gmail.com,

им. Б. Осмонова в Джалал-Абадский

государственный Университет

Джалал- Абад, Кыргызская Республика

Аннотация: В статье показано, что хотя в генетически неродственных языках в целом наблюдаются семантические сходства и общности во временных значениях глаголов, не всегда существуют абсолютные сходства, общности и близость в грамматических средствах, выражающих временные значения. Например, в немецком, английском и других европейских языках, хотя в основном существуют три времени: будущее время, настоящее время и прошедшее время, существуют также различные формы этих будущих и прошедших времен с различными характеристиками. Однако было трудно найти соответствующую литературу по изучению времен глаголов или, точнее, значений прошедшего времени в этих западноевропейских языках.

Несмотря на различную типологическую структуру, грамматические значения глаголов всегда связаны со временем, и во всех языках грамматические значения действия выражаются с определенными специфическими особенностями по отношению ко времени. Имея доступ к ряду соответствующей литературы, мы посчитали необходимым провести краткий анализ глаголов в русском языке, времен глаголов, а точнее, прошедшего времени глагола в русском языке, а также в учебниках, предназначенных для студентов высших учебных заведений.

A REVIEW OF THE RESEARCH ON THE SIGNIFICANCE OF PAST TENSE IN RUSSIAN LINGUISTICS

Zhenalieva Zamira Aralbekovna

teacher

E-mail: zamirazhenalieva@gmail.com.

Jalal-Abad State University named by B. Osmonov

Jalal-Abad, Kyrgyz Republic



Abstract: This article shows that although in genetically unrelated languages there are generally semantic similarities and commonalities in the tense meanings of verbs, there are not always absolute similarities, commonalities and closeness in the grammatical means expressing tense meanings. For example, in German, English and other European languages, although there are basically three tenses: future tense, present tense and past tense, there are also different forms of these future and past tenses with different characteristics. However, it was difficult to find relevant literature on the study of verb tenses or, more precisely, the meanings of the past tense in these Western European languages.

Despite the different typological structure, the grammatical meanings of verbs are always related to time, and in all languages the grammatical meanings of actions are expressed with certain specific features in relation to time. Having access to a number of relevant literature, we considered it necessary to conduct a brief analysis of verbs in Russian, verb tenses, and more precisely, the past tense of verbs in Russian, as well as in textbooks intended for students of higher education institutions

Key words: contextual meanings, past tense meanings, word meaning, structural structure, contextual meaning of a sentence.

Тилди изилдөө, сөздөрдүн адамдардын карым-катышын тейлөөдөгү өзгөрүү мыйзамдарын изилдөө байыркы замандардан бери эле бүткүл дүйнөлүк лингвист окумуштуулардын көңүлүн өзүнө буруп келген. Карым-катыштарда сөздөрдүн грамматикалык жактан өзгөрүп колдонулушу байыркы замандардагы александрия грамматикачылары тарабынан көңүлгө алынып, атооч сөздөрдүн жана этиш сөздөрдүн түрдүү грамматикалык категориялар боюнча өзгөрүүлөргө учурап адамдардын пикир алышууларын тейлегендиги атайын изилденип келген.

Биздин илим изилдөө ишибиз да мына ушул этиштердин башка-башка мезгилдерде жүрүп тургандыгынын, аткарылгандарынын жана аткарыла тургандарынын ичинен аткарылгандарынын, башка сөз менен айтканда, өткөн чак маанилеринин касиеттерин изилдөө болгондуктан жалпы тил илиминдеги этиштердин өткөн чак формаларынын изилдениш абалына кайрылып обзор жүргүзүүнү зарыл деп эсептейбиз.

Генетикалык жактан тектеш эмес тилдердеги этиштин чак маанилеринде, негизинен маанилик бирдейликтер, окшоштуктар бар болгону менен, чак маанилерин туюндуруучу грамматикалык каражаттарда биротоло бирдейликтер, окшоштуктар жана жакындыктар боло бербейт. Мисалы, немец, англис жана башка европалык тилдерде, негизинен, келер чак, учур чак жана өткөн чак деген үч чактын бар экендиги айтылганы менен мына ошол келер жана өткөн чактардын түрдүү өзгөчөлүктөр менен айтылган башка-башка түрлөрү да бар. Бирок мына ошол батыш



“RAQAMLASHGAN JAMIYATDA INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH: IMKONIYAT VA ISTIQBOLLARI” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

европалык тилдердеги этиштин чактары боюнча, тактап айтканыбызда, өтөн чак маанилеринин изилдениши боюнча тиешелүү адабияттардын табылышы кыйынчылыкка турду.

Типологиялык түзүлүшү башка болгону менен, этиш сөздөрдүн грамматикалык маанилери дайыма мезгил менен байланышта болуп, бардык тилдерде грамматикалык кыймыл аракет маанилери убакытка карата кандайдыр өздөрүнө тиешелүү болгон өзгөчөлүктөр менен туюндурулат. Тиешелүү бир нече адабияттардан пайдалана алуу мүмкүнчүлүгү бар болуп, орус тилиндеги этиш сөздөр, этиштин чактары, тактап айтканыбызда, орус тилиндеги этиштин өткөн чагы тууралуу айтылган айрым эмгектерге, жогорку окуу жайлардын студенттерине арналган окуу китептериндеги этиштерди кыскача анализден өткөрүүнү аткаруу керек деп эсептедик.

Байыркы Грецияда атактуу философ Аристотелдин эмгектеринен бери эле сөз түркүмдөрү тууралуу окуулар башталып, сөздөр атоочтор жана этиштер деп бөлүнүп иликтенген. Сөздөрдүн түркүмдөргө бөлүнүп изилденип талдоого алынышы байыркы грамматикачылардын эмгектеринде андан ары өнүктүрүлгөн. Бул маселеде биз көбүнчө орус тил илимине, орус тилинин грамматикаларынын жетишкендиктерине кайрылабыз, анткени дүйнөлүк илимдин ичинен бизге орус тил илимин гана жеткиликтүү деңгээлде өздөштүрө алууга мүмкүнчүлүк болот. Ал эми орус тилинин изилденишинде алгачкы грамматиканы атактуу окумуштуу, көп илимдер боюнча эмгектенген Михаил Васильевич Ломоносов “Российская грамматика” деп жазган. Анын бул эмгеги тууралуу маалыматтарды энциклопедиялардан жана ар кайсы окумуштуулардын жазгандарынан гана алганыбызды да айтып коюубуз абзел. Мына ошол грамматикада орус тилиндеги сөздөрдү М. В. Ломоносовдун негизги сөздөр жана жардамчы сөздөр деп эки топко бөлүштүрүп талдаганын, негизги сөз түркүмдөрүнө атоочтор менен этиштерди киргизип, жардамчы сөз түркүмдөрүнө ат атооч, атоочтук, тактооч, предлог, байламта, сырдык сөз деген түркүмдөрдү киргизгенин белгилүү кыргыз тилчиси профессор К. К. Сартбаев жазып көрсөткөн [кырг. тил. Гр. 1964: 34-б.]. Мындан биз М. В. Ломоносовдун орус тилиндеги сөздөрдүн ичинен атооч сөздөр менен катар эле этиш сөздөргө айрыкча көңүл бөлгөндүгүн көрүп байкайбыз. Ар кандай кыймыл-аракеттердин, заттардын ар түрдүү абалда боло тургандыгын атай турган сөздөрдү ал глагол (этиш) деп атап китебине жазган.

Андан кийинки орус элинин тилчи окумуштуулары А. Востоков, Н. Грач, Ф. Буслаев, А. А. Потебня, А. А. Шахматов, Ф. Ф. Фортунатов, С. О. Карцевский жана башка атактуу окумуштуулар бир канча ондогон жылдар бою М. В. Ломоносовдун



“RAQAMLASHGAN JAMIYATDA INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH: IMKONIYAT VA ISTIQBOLLARI” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

грамматикасындагы айтылгандарды, айрыкча этиштер тууралуу айтылгандарды жетекчиликке алып эмгектерди жазып келишкендиги бизге белгилүү.

Ошентип, этиш сөздөр менен аталган кыймыл-аракеттердин чак формалары дүйнөдөгү ар кайсы тилдерде ар башкача болгону менен алардын бардыгына мүнөздүү мезгилдик көрүнүштөрү жалпылыктарды түзөт. Анткени этиш сөздөр кыймыл-аракетке, ал-абалга байланыштуу болуп, аларды атап, кыймыл-аракет менен ал-абал дайыма мейкиндиктеги убакыттын бирдигине көз каранды. Кандайдыр кыймылдын аткарылары менен бирге эле белгилүү бир убакыт бирдиги өтө берет. Убакыт, мезгил эч токтобойт. Мына ошонун өзү кыймыл-аракеттин болуп өткөнүн туюндурат да ошол процесс дүйнөдөгү бардык тилдерде өздөрүнүн сөздөрү менен гана айтылып, өздөрүнүн тилине гана тиешелүү грамматикалык каражаттары менен өзгөрүп айтылып, адамдар бири-бири менен түшүнүктүү пикир алышууга түшүшөт.

3. Фрейд называл религию великой иллюзией. Общество накладывает запреты на проявление человеческих инстинктов, в результате чего происходит вытеснение инстинктивных влечений, а это порождает неврозы. Религия является средством защиты от невроза, поскольку предлагает замещение желаемого и, соответственно, иллюзию исполнения желаний. Фрейд считал, что под воздействием рационального начала, по мере осознания человеком своих бессознательных влечений религия как иллюзия будет уничтожена.

Швейцарский психолог и культуролог К. Юнг считал, что религия выполняет важную функцию защиты сознания от разрушающих факторов — тайных бессознательных сил человеческой души. То, что осуществляла религия на протяжении веков, теперь пытаются заменить психоанализом.

В современном религиоведении религия понимается как мировоззрение, миропонимание, мироощущение, а также соответствующее поведение и специфические действия (культ), которые основываются на вере в сверхъестественное, в существование (одного или нескольких) богов, "священного". Это специфическая форма общественного сознания, при которой происходит



**“RAQAMLASHGAN JAMIYATDA INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH: IMKONIYAT VA ISTIQBOLLARI”
mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya**

фантастическое отражение в сознании людей господствующих над ними внешних сил, при которых земные силы принимают форму неземных. Религия является закономерным результатом развития культуры, её необходимой составной частью на всех этапах человечества. Религии аккумулировали в себе достижения мировой культуры и в значительной мере являются хранителями культурного наследия народов и государств.

Литература:

1. Богомолов А.И. Религии мира / Богомолов А.И. – Р. на-Дону, 2005.
2. Музаффарова Н.И. История религий / Музаффарова Н.И. Р.на-Дону, 2004.
3. Радугин Л.А. Введение в религиоведение / Радугин Л.А. – М., 1996.
4. Яблоков И.Н. История религий / Яблоков И.Н. – М., 2004.
5. Чекалов Д.А. История религии / Чекалов Д.А. – Р. на-Дону, 2004.
6. Гараджа В.И. Религиоведение / Гараджа В.И. – М.,1994.
7. Кимелев Ю.А. Наука и религия: историко-культурный очерк / Кимелев Ю.А., Полякова Н.Л. – М.,1988.
8. Лобовик Б.А. Религиозное сознание и его особенности / Лобовик Б.А. – Киев, 1986.

TURKISTONDA NOTARIAT ORGANLARI FAOLIYATI (1917–1924-YILLAR)

Jaynarov Obidjon Hamid o‘g‘li

Chirchiq davlat pedagogika universiteti(CHDPU), dotsenti
tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

jaynarov.o@mail.ru +998974613507

O‘zbekiston, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri

Annotatsiya. Maqolada keng turdagi birlamchi manbalar va tarixiy adabiyotlardagi ma’lumotlar asosida Turkistonda 1917–1924-yillarda notariat tizimida ro‘y bergan o‘zgarishlar yoritib berilgan. Bunda notariatning vazifa va vakolatlari, notariuslar tomonidan ko‘rsatilgan yuridik xizmatlar tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: *Turkiston ASSR, Sovet hukumati, Adliya xalq komissarligi, notariat, yuridik xizmat, notariuslar.*

1917-yil Oktyabr to‘ntarishi natijasida sovetlar hokimiyatni qo‘lga olib, barcha sohalardagi tizimni o‘z manfaatlariga mos ravishda o‘zgartirishni boshladi. Sud-huquq tizimidagi o‘zgarishlar bir qator qonun va dekretlar bilan amalga oshirildi. Shu bilan birga, notariat organlarining faoliyatida ham ko‘plab o‘zgarishlar yuz berdi.

1917–1918-yillarda qabul qilingan “Sud to‘g‘risida”gi dekretlarda notariat organlarini qayta tashkil etishga oid aniq ko‘rsatmalar berilmasa ham sovet hukumati sobiq imperiya notarial kontoralari va arxivlarini yopish va yangi tizim ishlab chiqish vazifasini qo‘ydi[1].



“RAQAMLASHGAN JAMIYATDA INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH: IMKONIYAT VA ISTIQBOLLARI” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

Buning natijasida notariat tizimida chalkashlik va ziddiyatlar kuzatildi. Shunday sharoitda ham imperiya notarial idorlari o‘z faoliyatini davom ettirdi. Ta’kidlash kerak, sovet notariat tizimining tashkil qilinmaganligi, soha bo‘yicha huquqiy asoslarning ishlab chiqilmaganligi oqibatida 1918 yilda notarial idoralar faoliyatida chalkashlik va ziddiyatlar odatiy holga aylanib qoldi. Buni Toshkent shahar fuqarosi B.Yaxinning komissarlikka yozgan arznomasida ham ko‘rish mumkin. Arznomada notariuslar har qanday notarial harakatlar uchun istalgan miqdorda boj olishayotganligi aytib o‘tiladi[2].

1919-yilda Turkistonda notariat organlarini qayta tashkil qilish va ularning faoliyatini tartibga solish masalasi ko‘rildi. 1920-yilda Turkiston MIQning notariat organlari to‘g‘risidagi buyrug‘i qabul qilindi. Unga ko‘ra notariuslar faqat fuqarolik holatlarini qayd qilish bilan shug‘ullanishi lozim edi. Bunday o‘zgarishlar notariat organlarini yangi huquqiy asoslarga moslashtirishni talab etdi.

1921-yilda qabul qilingan yangi iqtisodiy siyosat va Turkiston XKSning notariat organlari to‘g‘risidagi Dekreti notariat organlarini tashkil qilishni aniq belgiladi. Shu bilan birga, notariuslarning xizmatlari uchun belgilangan to‘lovlar va bojlar kerakli tartibda belgilangan edi. Bu dekret notariuslar uchun katta imtiyozlarni nazarda tutar edi, shuningdek, notariat organlariga xos tasdiqlash ishlarini belgilovchi to‘lovlar, hujjatlarning xavfsizligi uchun belgilangan bojlarni amalga oshirish uchun ishlash tartibini belgilagan.

Shu bilan birga, 1922-yilda sovet notariat organlari faoliyatini tartibga solish uchun yangi Nizom ishlab chiqildi. Bu Nizom notariat organlarining strukturasi va lavozimlariga o‘zgarishlar kiritdi, shuningdek, notariuslarning tayinlanishi va ish faoliyatiga talablarni aniq belgiladi. Bunda eng muhim ahamiyatga ega bo‘lgani – notariuslar faoliyatiga qonunchilik asosi yaratish edi. Notariuslar faqat viloyatlar va uyezdlarda emas, balki shaharlarda ham faoliyat yuritish imkoniga ega bo‘ldi.

Aytish kerak, sovet notariatining shakllanishida RSFSR hukumati tomonidan 1922-yil 4-oktabrda qabul qilingan “Davlat notariati to‘g‘risida”gi Nizom muhim ahamiyatga ega bo‘ldi[3]. Nizom 38 banddan iborat bo‘lib, sovet notariat idoralari faoliyatini tashkil qilish asoslarini ko‘rsatib berdi.

1922-yilda notariat organlarining soni sezilarli darajada oshdi. Viloyatlarda notariuslar ishlashni boshladi, lekin ayrim hududlarda ularning faoliyati qiyinchiliklarga duch keldi. Ma’lum bo‘lishicha, notariuslar faoliyatining qat’iy nazorat ostiga olinganiga qaramay, notariat organlarining aholiga yuridik xizmat ko‘rstishi talab darajasida bo‘lmadi. Shuningdek, notariuslarning huquqiy savodxonligi va faoliyatining samaradorligi bilan bog‘liq muammolar ham mavjud edi.

Komissarlikning 1922-yildagi 6-sonli sirkulyarida notariat organlarining shtat jadvali belgilandi. Unga ko‘ra viloyatlardagi notariatlar tarkibi 5 ta (bo‘lim mudiri, kotib, ish yurituvchi, mashinistka, tarjimon), uyezd notariat idoralari esa 4 nafar xodimdan tarkib



topgan. Shunday qilib, TASSRdagi barcha notariat idoralarida jami 176 nafar xodim mehnat qilgan[4]. Komissarlik tomonidan ishlab chiqilgan 11 banddan iborat yo‘riqnoma esa notariat idoralari va notariuslarning faoliyatini belgilab berishga yo‘naltirildi[5].

1923-yilda yangi Dekret qabul qilindi, bu Dekret notariuslar uchun davlat ixtiyoriga o‘tkazish, faoliyatlarini davlat organlari tomonidan nazorat qilish va yuridik tajribani talab qilishni nazarda tutdi. Bundan tashqari, notariuslar uchun fuqarolik kodeksiga asoslangan ish olib borish talablari qo‘yildi.

Sovet notarial idoralari tomonidan asosan kelishuv shartnomalari, ishonchnomalar, turli xil aktlar, guvohliklar va boshqa hujjatlar notarial tasdiqdan o‘tkazilgan. Masalan, Samarqand shahar notarial bo‘linmalari tomonidan 1922 yilning mart oyi davomida 20 ta shartnoma, 36 ta nusxalarning haqiqiyligni tasdiqlash, 18 ta imzoni tasdiqlash, 40 ta ishonchnoma notarial tasdiqlangan[6]. 1923 yil yanvar oyida Toshkentning yangi shahar qismi notariuslari Stromilov tomonidan 472 ta, Spasibuxov tomonidan esa 410 ta turli notarial harakatlar amalga oshirildi[7]. 1924-yildan viloyatlardagi mavjud notariat idoralari sonida birmuncha o‘zgarishlar ro‘y berdi. Ayrim hududlarda notarial idoralar ko‘paytirilgan bo‘lsa, boshqa joylarda ularning soni qisqartirildi. Shuni ham aytib o‘tish kerak qator hududlarda notariat idoralari faoliyati umuman yo‘lga qo‘yilmadi. Masalan, Samarqand viloyatining Jizzax, O‘ratepa, Yettisuv viloyatining Norin uyezdlarida birorta notarial idora tashkil qilinmaganligini ko‘rish mumkin[8].

Xullas, Sovet hukumatining notariat organlari faoliyatidagi o‘zgarishlari o‘z vaqtida muhim qadamlardan bo‘ldi. O‘zgarishlar davomida ko‘plab tashkiliy, huquqiy va moliyaviy muammolar kuzatilgan bo‘lsa-da, ular keyinchalik tizimni aniqlashtirish va samarali ishlashga yordam berdi. Shunday qilib, sovet notariat tizimi o‘lkadagi huquqiy va iqtisodiy siyosatga mos ravishda shakllandi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Еженедельник советской юстиции. – 1923. – № 44. – С. 1015.
2. ЎзМА Р-38-фонд, 2-рўйхат, 13-иш, 29-варақ ва унинг орқаси.
3. <http://docs.cntd.ru/document/901869002>. (Murojaat qilingan sana. 06.02.2024.).
4. ЎзМА Р-38-фонд, 2-рўйхат, 288-иш, 21-варақ.
5. ЎзМА Р-38-фонд, 2-рўйхат, 289-иш, 27-28-варақлар.
6. ЎзМА Р-38-фонд, 2-рўйхат, 326-иш, 32-варақнинг орқаси.
7. Жайнаров О. Туркистон АССР адлия органлари: шаклланиши, структураси ва фаолияти. – Тошкент: “Lesson Press” МЧЖ нашриёти, 2023. – Б. 116.
8. ЎзМА Р-38-фонд, 2-рўйхат, 318-иш, 20-варақ ва унинг орқаси.



XX ASRNING 20-30-YILLARIDA XORAZMDA XALQ TA'LIMINI SOVETLASHTIRISH JARAYONLARI

Rajabova Zuhra Sa'dullayevna

t.f.f.d.(PhD) Urganch Ranch texnologiya universiteti “Ijtimoiy fanlar” kafedrası
dotsenti (zuhra81448@gmail)

Annotatsiya. Maqolada 1920-1930-yillarda Xorazm Xalq Sovet Respublikasi va keyinchalik Xorazm okrugida xalq ta'limi sohasida amalga oshirilgan sovetlashtirish jarayonlari tahlil qilingan. Unda Sovet hokimiyati o'rnatilgandan so'ng, yangi maktablar ochilishi, o'quv dasturlari va darsliklarning mafkuraga mos asosda qayta shakllantirilishi masalalari yoritilgan.

Kalit so'zlar: Xorazm, sovetlashtirish, xalq ta'limi, madrasa, maktab, pedagogik kadrlar, mafkuraviy ta'lim, madaniy inqilob, sovet maktablari.

Kirish.

Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashining 2023-yil 22 - dekabrda yig'ilishida O'zbekiston Respublikasi prezidenti Shavkat Mirziyoyev: “Mamlakatimiz o'z taraqqiyotining yangi, yuksak bosqichiga kirayotgan hozirgi paytda bizga jadid bobolarimiz kabi g'arb ilm-fan yutuqlari bilan birga, milliy qadriyatlar ruhida tarbiya topgan yetuk kadrlar suv bilan havodek zarur”, - degan edi.

XX asrning 20 - 30-yillarida Xorazmda xalq ta'limi tizimi keskin o'zgarishlarga yuz tutdi. Bu davrda jadidlar tashabbusi bilan boshlangan islohotlar asta-sekin sovet mafkurasi ta'siriga o'tib, ta'lim tizimining tubdan qayta shakllanishiga olib keldi. Sovet hokimiyati hududda o'z ideologiyasini qaror toptirish maqsadida avval diniy-ta'limiy muassasalarni isloh qilish, so'ngra esa ularni butunlay yopib, o'rniga yangi tipdagi maktablar ochish orqali xalq ta'limini sovetlashtirish siyosatini amalga oshirdi. Bu jarayon nafaqat ta'lim tizimining tashkiliy tuzilishini, balki uning mazmun-mohiyatini ham o'zgartirdi.

Xorazm viloyatida 1920 - 30-yillar mobaynida olib borilgan ta'lim siyosati sovet mafkurasi asosida shakllanib, avval diniy-ta'limiy tizimning yo'q qilinishi, so'ngra esa ta'limning markazlashuvi va mafkuraviy nazorat ostiga olinishi bilan kechdi. Bu davrda sovet maktablari soni oshib, ta'lim ommaviylashdi, qizlar uchun ham alohida maktablar ochildi. Shu bilan birga, milliy va diniy qadriyatlar siqib chiqarilib, ilgari faol bo'lgan ko'plab ma'rifatparvarlar va ziyolilar qatag'onga uchradi. Ushbu tarixiy bosqich Xorazmda ta'lim tizimining shakllanishida muhim o'rin tutgan bo'lib, ta'lim jarayonlarini retrospektiv tahlil qilishda alohida e'tibor talab qiladi.

Adabiyotlar tahlili va metod.

Tadqiqot mavzusi bo'yicha o'rganilgan ilmiy adabiyotlar xalq ta'limini sovetlashtirish jarayonlarini ayrim tomonlarini yoritishga yordam beradi. Xususan, Choriyev A.X.



“RAQAMLASHGAN JAMIYATDA INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH: IMKONIYAT VA ISTIQBOLLARI” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

Mustabid sho‘rolar tuzumi sharoitida O‘zbekiston xalq ta’limi va o‘qituvchi kadrlar tayyorlash: milliy-an’anaviy va sho‘ro ta’lim tizimlari o‘rtasidagi ziddiyatlar (20-30 yillar), Solijonova G.F Turkistonda o‘qitish-ma’rifatchilik o‘choqlari, ularning ijtimoiy ahamiyati (XIX asr oxiri-XX asr boshlari), mavzusida yozilgan dissertatsiyalari va Alimova D.A. O‘zbekistonda ta’limning rivojlanish tarixi va tarixshunosligi, kitobi hamda Salmonov A.M. O‘zbekistonda sovet hokimiyatining diniy siyosati: uydirma va tarix haqiqati (1917-1960 yillar) nomli kitobi statistik ko‘rsatkichlar va tarixiy faktlarga boy bo‘lib, ta’lim tizimining sovetlashtirilishi masalasini tahlil qilishda muhim ahamiyatga ega.

Muhokama va natijalar.

Xivada xonlik tuzumi ag‘darilib, 1920-yil 2-fevralda Yosh xivaliklar partiyasi a‘zolaridan iborat, Muvaqqat inqilobiy qo‘mita tuzildi. Shu yilning 9-aprelda mazkur qo‘mita ishini yaxshilash maqsadida uning tarkibida 10 kishidan iborat dastlabki xalq hukumati - Nozirlar Sho‘rosi tashkil qilindi. Asosan, yosh xivaliklardan iborat bo‘lgan hukumat a‘zolari Xorazmda ag‘darib tashlangan xonlik hukumati o‘rniga demokratik respublika qurish uchun intildilar. Yosh xivaliklar mamlakatda xonlikdan qolgan asoratlarni tugatish, respublikada demokratik tuzumni qaror toptirish uchun kurashdi. Rossiya rasmiy doiralari, Turkiston komissiyasi mustaqil siyosat yuritishga intilayotgan Yosh xivaliklar hukumatini badnom qilish uchun jon-jahdi bilan harakat qildi. Sovet davlatining qurolli tazyiqlariga qaramay, Yosh xivaliklar hukumati qariyb bir yil yashadi.

1920-yil 26-30-aprelda bo‘lib o‘tgan Butunxorazm xalq vakillarining I-qurultoyida Xorazm Xalq Sovet Respublikasi (XXSR) tuzildi. Bu davlat tuzumi jihatidan xalq demokratik respublikasi edi. 1920-yil 30-aprelda qurultoy XXSRning birinchi Muvaqqat Konstitutsiyasini qabul qildi. Xorazm tarixidagi birinchi Konstitutsiya kirish so‘zi, XIII bob, 37-moddadan iborat edi. 1921-yil 6-martda Xorazmda qizil armiya siyosiy boshqarmasi va qizil askarlar uyushtirgan harbiy davlat to‘ntarishidan so‘ng Yosh xivaliklar hukumati ag‘darib tashlandi.

1920-yilda Xorazm Xalq Sovet Respublikasi Maorif nazorati ostida Maktab kengashi tashkil qilindi, u tez orada mehnat maktablarini tashkil qila boshladi. Xivada o‘qituvchilarni tayyorlash uchun 3 oylik tezashtirilgan tayyorgarlik kurslari ochildi, bu yerda tez orada 50 nafar ilg‘or kishilar o‘qishga qabul qilindi. O‘sha yilning iyun oyida bitiruvchi o‘qituvchilar yangi o‘qitish usullari bilan 30 ta birinchi darajali maktabni tashkil etishga yordam berishdi. 1920-1921-o‘quv yilida Xorazmda 37 ta sovet maktabi ochilgan bo‘lib, ularda 2000 ga yaqin o‘quvchi ta’lim olgan. 1923-yilga kelib, Xorazmdagi 90 dan ortiq madrasadan 45 tasi yopilgan, qolganlari esa “isloh qilingan” va dasturlariga dunyoviy fanlar kiritilgan.

1920 - yillarning oxiriga kelib an’anaviy maktablar deyarli tugatildi. Vijdon erkinligini toptash, dindorlarni quvg‘in qilish, diniy maktablarni yopish tub aholining



“RAQAMLASHGAN JAMIYATDA INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH: IMKONIYAT VA ISTIQBOLLARI” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

ma'naviy hayotidan milliy qadriyatlarni siqib chiqarish jarayonini tezlashtirish, xalq ta'limini sovetlashtirish asosida rivojlantirishga olib keldi. “Xorazm XSR davrida ta'lim sohasidagi islohotlar dastlab jadid ma'rifatparvarlari yordamida amalga oshirilgan bo'lsa-da, keyinchalik ularning aksariyati “millatchi”, “aksilinqilobchi” sifatida qatag'on qilindi”[1]. Xorazmda sovet hokimiyatining dastlabki yillarida jadid maktablari va madrasalar faoliyat yuritishda davom etdi, biroq 1924-yildan so'ng ularning faoliyati cheklanib, o'rniga sovet maktablari tashkil etila boshlandi.

1924-yil O'rta Osiyoda milliy-hududiy chegaralanish natijasida Xorazm respublikasi hududi O'zbekiston SSR tarkibiga kirgan. Bu davrdan boshlab ta'lim sohasidagi sovetlashtirish jarayoni yanada kuchaydi. Shu yilning 30-noyabrida Xalq Nozirlar Sho'rosi o'z faoliyatini to'xtatdi. Ta'lim tizimi markazlashtirildi. 1925-yildan boshlab Xorazm viloyati ta'lim tizimi to'liq O'zbekiston Maorif xalq komissarligi nazoratiga o'tkazildi va yagona o'quv dasturlari joriy etildi. Maktablar faoliyati qattiq nazoratga olindi. Eski maktab va madrasalar yopildi. 1924-1928 yillar mobaynida Xorazm viloyatida 120 dan ortiq eski maktab va madrasalar yopilgan. 1928-yilga kelib 17 ta madrasa faoliyati to'xtatilgan. Vaqf mulklari davlat tasarrufiga o'tkazilgan.

Shu tariqa “1920-yillarning oxiriga kelib Xorazm madrasalarining aksariyati yopildi, mudarrislar esa sovet tuzumiga qarshi unsurlar sifatida ta'qib ostiga olindi”[2]. Eski maktablar o'rniga “sovet maktablari” tashkil etildi. Dunyoviy fanlar o'qitila boshlandi. Qizlar uchun alohida maktablar ochildi. O'qituvchi kadrlar tayyorlash uchun Xivada 3 oylik o'qituvchilar kursi tashkil etildi va Toshkentdan 15 nafar o'qituvchi taklif qilindi. Moskvaga 20 nafar yoshlar o'qishga yuborildi. Yangi o'quv dasturlari ishlab chiqildi va dastlabki darsliklar yaratildi. O'zbek tilida o'quv qo'llanmalari nashr etildi. Biroq, bu davrda ta'lim sohasidagi islohotlar asosan tashkiliy xarakterga ega bo'lib, mazmun jihatidan hali to'liq sovetlashtirilmagan edi. Jumladan, maktablarda diniy ta'lim elementlari saqlanib qolgan, o'qituvchilarning aksariyati eski maktab vakillari bo'lib, ular yangi tizimga moslashishga majbur bo'lgan edilar.

1924-1930 yillar davomida 150 dan ortiq yangi sovet maktabi ochilgan. 1930 yilga kelib Xorazm viloyatida 210 ta sovet maktabi faoliyat ko'rsatgan. Bu maktablarda 15,000 dan ortiq o'quvchi ta'lim olgan.

Sovet mafkurasi asosida yangi o'quv dasturlari joriy etildi va diniy ta'lim elementlari to'liq chiqarib tashlandi. Eski maktab o'qituvchilari ishdan bo'shatilib, yangi sovet pedagogika institutlari bitiruvchilari jalb qilingan. Pioneerlar va komsomol tashkilotlari faoliyati yo'lga qo'yilgan. Bu davrda Xorazmda ta'lim sohasida sovetlashtirish siyosati natijasida milliy va diniy qadriyatlardan uzoqlashish jarayoni boshlandi. 1928-yilga kelib, Xorazm viloyatida 80% ga yaqin maktablar sovet tipi asosida qayta tashkil etilgan. 1928-1929 yillarda Xorazm viloyatida 47 nafar o'qituvchi, 1930-1933 yillarda Xorazm



“RAQAMLASHGAN JAMIYATDA INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH: IMKONIYAT VA ISTIQBOLLARI” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

viloyatida 78 nafar o‘qituvchi “sinfiy yot unsur” va “diniy aqidalarga bog‘liqlik” ayblovi bilan ishdan bo‘shatilgan. “1930-yillarda Xorazm viloyati maktablarida mafkuraviy nazorat kuchayib, o‘qituvchilarning har bir darsi, har bir so‘zi nazorat qilinardi, arzimagan xato uchun ham ular xalq dushmani sifatida qoralanardi”[3].

Xorazm viloyatida ham umumiy majburiy boshlang‘ich ta‘lim joriy etildi. 1930-yil 25-iyulda VKP(b) MK “Umumiy majburiy boshlang‘ich ta‘lim to‘g‘risida” qaror qabul qildi. 1931-1932 o‘quv yilidan boshlab 8-11 yoshdagi barcha bolalar maktabga jalb qilindi. 1930-1940 yillar davomida Xorazm viloyatida 300 dan ortiq yangi maktab binolari qurildi”[4]. Yetti yillik va o‘rta maktablarning ochilishi natijasida, 1932-1935 yillarda viloyatda 25 ta yetti yillik maktab ochildi. 1937-yilga kelib 15 ta to‘liq o‘rta maktab faoliyat ko‘rsata boshlagan. Xiva, Urganch, Yangiariq, Xonqa va boshqa tumanlarda ham o‘rta maktablar ochilgan.

1930-yillarning ikkinchi yarmida ta‘lim tizimida mafkuraviy nazorat yanada kuchayishi oqibatida qatag‘on siyosati Xorazm viloyatidagi ta‘lim sohasiga ham katta ta‘sir ko‘rsatdi. Xorazmlik ko‘plab ma‘rifatparvarlar, o‘qituvchilar va olimlar qatag‘on qilindi. Jumladan, Bobojon Yaqubov, Muhammadniyoz Qurbonov, Jumaniyoz Sulaymonov kabi ziyolilarning qatag‘on qilinishi Xorazm madaniy va ilmiy merosini o‘rganish sohasiga og‘ir zarba bo‘lgan va mintaqaning tarixiy o‘zligini anglash jarayonini sezilarli darajada orqaga surib yuborgan. 1930-1934 yillarda Xorazm viloyatida ta‘lim sohasida faoliyat ko‘rsatgan 40 dan ortiq rahbar xodim va o‘qituvchilar turli siyosiy ayblashlar bilan hibsga olingan. Bu davrdagi “tozalash” natijasida ko‘plab tajribali o‘qituvchilarning o‘rniga qisqa muddatli kurslarda tayyorlangan yangi o‘qituvchilar kelgan.

1932-1934 yillarda barcha fanlar bo‘yicha yangi, mafkuraviy jihatdan “to‘g‘ri” darsliklar joriy etilgan. 1933-1934 o‘quv yilida Xorazm viloyatidagi 142 ta boshlang‘ich maktabning 127 tasida (89,4%) yangi darsliklar to‘liq joriy etilgan. 1934-yil oxiriga kelib Xorazm viloyatidagi 28 ta to‘liqsiz o‘rta va 7 ta to‘liq o‘rta maktabning barchasida yangi darsliklar joriy etilgan.

Xulosa. Xorazm viloyati ta‘lim tizimidagi qatag‘on siyosati sovet hokimiyatining milliy kadrlarni yo‘q qilish, ta‘lim tizimini to‘liq sovetlashtirish va mahalliy madaniy-ma‘rifiy an‘analarni yo‘q qilishga qaratilgan umumiy siyosatining bir qismi edi. Bu siyosat natijasida Xorazm viloyati ta‘lim tizimi malakali kadrlardan mahrum bo‘ldi, ta‘lim sifati pasaydi va mahalliy bilimlar hamda an‘analar yo‘q qilindi. Qatag‘on siyosati ta‘lim tizimini milliy o‘ziga xoslikdan mahrum qildi va uni to‘liq markazlashtirilgan sovet ta‘lim tizimiga aylantirdi. Bu jarayon Xorazm viloyati ta‘lim tizimining rivojlanishiga uzoq muddatli salbiy ta‘sir ko‘rsatdi.

Xorazm viloyatida xalq ta‘limini sovetlashtirish natijasida ta‘lim ommaviy va bepul hamda qizlar ta‘limi rivojlanishi bilan birga savodxonlik darajasini oshirdi, ta‘lim mazmuni



“RAQAMLASHGAN JAMIYATDA INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH: IMKONIYAT VA ISTIQBOLLARI” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

mafkuraviylashdi, milliy qadriyatlar va an'analar ta'lim mazmunidan siqib chiqarildi, ko'plab malakali pedagoglar qatag'on qilinishi ta'lim tizimining keyingi rivojiga uzoq muddatli ta'sir ko'rsatdi. Sovet davrida shakllangan ta'lim tizimi va uning mafkuraviy asoslari mustaqillik davrigacha saqlanib qoldi va bu O'zbekiston mustaqillikka erishguniga qadar davom etdi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qayumov A. *Sovet hokimiyatining O'zbekistonda mafkuraviy siyosati va uning ta'lim sohasidagi namoyon bo'lishi (1917-1941)*. Toshkent: Yangi asr avlodi, 2019.
2. Xorazm viloyat davlat arxivi direktori Dj.Rahmanov shaxsiy fondi hujjatlari.
3. Alimov I. Xorazm Xalq Sovet Respublikasi davrida ta'lim sohasidagi islohotlar // Tarix masalalari jurnali, 2-son, 2020-yil. – B. 34-45.
4. Bobojanov B. Sovet davrida Xorazm madrasalarining taqdiri. // Sharqshunoslik jurnali, 4-son, 2018. – B. 67-79.
5. Choriyev A.X. Mustabid sho'rolar tuzumi sharoitida O'zbekiston xalq ta'limi va o'qituvchi kadrlar tayyorlash: milliy-an'anaviy va sho'ro ta'lim tizimlari o'rtasidagi ziddiyatlar (20-30 yillar).// Tarix fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – Toshkent. 1998. – 295 b.
6. Solijonova G.F. Turkistonda o'qitish-ma'rifatchilik o'choqlari, ularning ijtimoiy ahamiyati (XIX asr oxiri-XX asr boshlari). Tarix fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – Toshkent. 1998. – 160 b.
7. Alimova D.A. O'zbekistonda ta'limning rivojlanish tarixi va tarixshunosligi. Ocherklar. – T.: Adabiyot uchqunlari, 2017. – 396 b.
8. Salmonov A.M. O'zbekistonda sovet hokimiyatining diniy siyosati: uydirma va tarix haqiqati (1917-1960 yillar). – T.: Tafakkur, 2015. –160 b.

ETNOLOGIYADA RAQAMLASHTIRISH

Alibekov Umurzoq Yuldashevich

katta o'qituvchi, Guliston davlat universiteti, Guliston sh., O'zbekiston

Tel.: +998 91 104 62 62 ; e-mail: umurzokalibekov@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada AKT dan foydalanish va raqamlashtirishni joriy etish afzalligi ko'rsatilib, etnologik tadqiqotlarning maqsadlari, vazifalari va qo'llaniladigan usullari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: raqamlashtirish, dastur, etnologik tadqiqotlar, suhbat, etika, raqamli texnologiya.

Raqamlashtirish - bu hayot va ishlab chiqarishning turli sohalariga zamonaviy raqamli texnologiyalarni joriy etishdir. Global ma'noda raqamlashtirish - bu hayot va ishlab



“RAQAMLASHGAN JAMIYATDA INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH: IMKONIYAT VA ISTIQBOLLARI” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

chiqarishning turli sohalarida amalga oshirilgan raqamli texnologiyalarga asoslangan iqtisodiy faoliyatdir.

Etnologiya (yunon. ἔθνος, xalq + -logos — ta’lim, fan) — turli etnik guruhlarining shakllanishi va rivojlanishi jarayonlarini, ularning o‘ziga xosligini, madaniy o‘zini-o‘zi tashkil etish shakllarini, ularning jamoaviy xulq-atvori va o‘zaro ta’siri qonuniyatlarini, shaxs va ijtimoiy muhit o‘rtasidagi munosabatlarni o‘rganuvchi fan.

Etnologik tadqiqotlar quyidagi maqsadlarda qo‘llaniladi:

- maqsadli auditoriyaning ehtiyojlari, istaklari va motivlarini tushunish;
- maqsadli auditoriyaning odatlari, kundalik amaliyotlari va turmush tarzini o‘rganish;
- muhim o‘zgarishlar paytida yoki undan keyin muammoni qayta o‘rganish va taqqoslash (masalan, qadimgi dabr, o‘rta asrlar va hozirgi davrdagi o‘zgarishlarni aniqlash);
- yangi veb-saytni ishlab chiqish, loyihalash va sinovdan o‘tkazish.

Etnologik tadqiqotlar quyidagi vazifalarni hal qiladi:

respondentlarning yashash joyiga tashrif buyurish, xususiyatlarni o‘rganish, yozib olish va ma’lumotlarni tahlil qilish;

yuqori sifatli ma’lumotlarning katta to‘plami, jumladan, audio, foto va video materiallarni to‘plash;

suhbatdosh uchun jonli muhitda "kontekstli" intervyularni o‘tkazish, bu nafaqat respondentning javoblarini, balki boshqa og‘zaki bo‘lmagan reaksiyalarni ham yozib olish imkonini beradi;

respondentning so‘zlari va uning xatti-harakati o‘rtasidagi farqlarni tushunish va bayon qilish.

Usulning afzalliklari: birinchi qo‘ldan olingan ma’lumot, bunda tadqiqotchi yagona bevosita kuzatuvchidir;

chuqur sifatli tadqiqotlar uchun eng samarali vositadir; maqsadli auditoriya guruhi tajribasining boshqa usullar bilan o‘rganib bo‘lmaydigan jihatlarini ochib beradi; etnologik tadqiqotlar natijasi maqsadli guruh dunyoqarashi va ongida dunyoning keng qamrovli tasviri bo‘lib, boshqa usullar bilan olingan nuqtali bilimlar, tor doirali ma’lumotlardan farqli o‘laroq, yuqori darajada ixtisoslashgan ma’lumotlarni beradi;

ko‘plab tushunchalar va yangiliklar, hattoki kashfiyotlar manbai bo‘lib, ular faqat o‘rganilayotgan ob‘yektni kuzatish orqali mumkin bo‘ladi;

har bir tadqiqot katta hajmdagi hujjatlar va empirik materiallar bilan qo‘llab-quvvatlanadi: fotosuratlar va videolar, chuqur suhbatlar yozuvlari, kundaliklar va hk.

K. Kovalenko, O. Belichenko va V. Kolosovalarning etnobotanik tadqiqotlarda kompyuter dasturlarini qo‘llash bo‘yicha qiziqarli sharhi bor [1]. Bunday dasturlardan etnologik tadqiqotlarda ham foydalanish mumkin. Masalan, intervyu transkripsiyasi bosqichida F4 dasturidan foydalaniladi, bu sizga bir vaqtning o‘zida audio yozuvni va matn



“RAQAMLASHGAN JAMIYATDA INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH: IMKONIYAT VA ISTIQBOLLARI” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

faylini oynalar o‘rtasida almashmasdan boshqarishga, yozib olingan segmentlar vaqtini avtomatik ravishda kiritishga imkon beradi va hokazo. Intervyularni bayon qilishda ajratib olingan materiallar Excel dasturiga kiritiladi, unda ma‘lumot beruvchi va tasvirlangan muammo haqidagi ma‘lumotlar ko‘rsatiladi. Keyinchalik ma‘lumotlar madaniy sohalar bo‘yicha ma‘lumotlarni tahlil qilish uchun mo‘ljallangan ANTHROPAC dasturi yordamida qayta ishlanadi. Bu tuzilgan sifat va miqdoriy ma‘lumotlarni tahlil qilish, juftlik bilan taqqoslash, reytinglar tuzish va h.k. imkonini beradi. Ilmiy maqolalarni yozish bosqichida maqolalar matnlari ichida mualliflar va kalit so‘zlarni qidirish, shuningdek, bibliografiyani tuzishni avtomatlashtirish, uni turli ilmiy jurnallar talablariga muvofiq formatlash imkonini beruvchi Mendeley dasturi qo‘llaniladi. Zotero dasturi ham shunga o‘xshash funktsiyalarni bajaradi. Lexonomy dasturi izohli lug‘atlarni elektron shaklda tuzish va nashr qilish uchun ishlatiladi. Leksonomiyada leksikografiyada qabul qilingan TEI Lex0 standartidan foydalanish rus tilidagi lug‘at materiallarini leksikografik ma‘lumotlarni saqlash va tahlil qilishning xalqaro tizimiga integratsiya qilish imkonini beradi. Shuning uchun glossariylar va izohli lug‘atlarni rus yoki ingliz tillarida tuzish tavsiya etiladi.

Etnologik tadqiqot etnografiya, antropologiya va sotsiologiyada ma‘lumotlar to‘plash usuli bo‘lib, u o‘rganilayotgan odamlarning tabiiy muhitida bevosita kuzatish va o‘zaro ta‘sirni o‘z ichiga oladi. Bu usul tadqiqotchilarga odamlar hayotining madaniy va ijtimoiy jihatlarini, ularning urf-odatlarini, kundalik amaliyotlarini, e‘tiqodlarini va ijtimoiy o‘zaro munosabatlarini chuqurroq tushunishga yordam beradi.

Etnologik tadqiqotlarda tadqiqotchilar ko‘pincha madaniy yoki ijtimoiy guruhga kirish bilan shug‘ullanadilar - bu jamiyatda yashash, kundalik tadbirlarda qatnashish, xatti-harakatlarni kuzatish va ishtirokchilar bilan suhbatlashishni o‘z ichiga olishi mumkin. Bu boshqa tadqiqot usullari yordamida olish qiyin bo‘lgan boy, batafsil, birinchi qo‘l ma‘lumotlarni to‘plash imkonini beradi.

Etnografik yoki etnologik tadqiqotlar turli sohalarda va maqsadlarda ijtimoiy va madaniy jarayonlarni chuqur tushunish uchun qo‘llaniladi va an‘anaviy ravishda turli jamoalarning madaniyati va ijtimoiy tuzilmalarini, jumladan, diniy urf-odatlar, oilaviy munosabatlar va ijtimoiy ierarxiyalarni o‘rganish uchun foydalaniladi.

Etnologik tadqiqot metodologiyasi tadqiqotchilarga o‘rganilayotgan guruhlarining madaniy va ijtimoiy hayotiga chuqur kirib borish imkonini beruvchi bir necha asosiy bosqichlarni o‘z ichiga oladi. Bu yerda asosiy qadamlar:

1. Tadqiqotchi o‘rganish uchun jamoa yoki ijtimoiy guruhni tanlaydi. Tanlov muayyan tadqiqot qiziqishlari, mavjudligi yoki tadqiqot granti takliflariga asoslanishi mumkin.

2. Tadqiqotdagi asosiy savollarni aniqlash. Bu savollar madaniyat yoki ijtimoiy hayotning qaysi jihatlarini o‘rganilishini aniqlashga yordam beradi.



“RAQAMLASHGAN JAMIYATDA INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH: IMKONIYAT VA ISTIQBOLLARI” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

3. Jamiyatda tadqiqot olib borish uchun ruxsat olish va ishtirokchilar bilan ishlashda axloqiy yondashuvlarni ishlab chiqish. Bu ishtirokchilarning xabardor qilingani, roziligini va to‘plangan ma‘lumotlardan qanday foydalanishni muhokama qilishni o‘z ichiga olishi mumkin.

4. Uzoq muddatli kuzatishlar o‘tkazish, ular davomida tadqiqotchi odamlarning kundalik hayotini kuzatish uchun ular orasida yashaydi yoki muntazam ravishda tashrif buyuradi. Kuzatishlar ishtirokchi (tadqiqotchi jamiyat faoliyatida faol ishtirok etganda) va qatnashmaydigan bo‘lishi mumkin.

5. Ma‘lumotlarni tahlil qilish uchun foydalaniladigan kuzatishlar, suhbatlar va shaxsiy fikrlashlar bo‘yicha batafsil qaydlarni yozib olish.

6. Guruh a‘zolari bilan rasmiy va norasmiy suhbatlar o‘tkazish, ularning madaniyati va ijtimoiy o‘zaro munosabatlari haqidagi qarashlari, tajribalari va talqinlarini chuqur tushunish.

7. Tadqiqotchi madaniy va ijtimoiy kontekstni tushunishga yordam beradigan mahalliy matnlar, fotosuratlar, videolar va boshqa materiallarni to‘plashi mumkin.

8. To‘plangan ma‘lumotlarni, mavzular va ma‘nolarni aniqlash uchun tematik tahlil kabi turli xil sifatli usullardan foydalangan holda tahlil qilish.

9. Tadqiqotchi o‘z natijalarini maqolalar, ma‘ruzalar yoki kitoblar shaklida ilmiy jamoatchilikka yoki boshqa manfaatdor shaxslarga xulosa va tavsiyalar sifatida taqdim etadi, ilmiy muomalaga kiritadi.

10. Yaxshi rejalashtirilgan tadqiqot puxta tayyorgarlikdan boshlanadi, u mavjud adabiyotlarni ko‘rib chiqish, aniq tadqiqot savollarini ishlab chiqish va ma‘lumotlarni yig‘ish usullarini ishlab chiqishni o‘z ichiga oladi.

Etika etnografiyada asosiy o‘rin tutadi. Tadqiqotchilar ishtirokchilarning xabardor qilishi va roziligini olishi, ularning shaxsiy hayoti va maxfiyligini himoya qilishi, madaniyati va ijtimoiy kontekstini hurmat qilishi kerak.

Etnologiyani boshqa tadqiqot usullari, masalan, miqdoriy so‘rovlar yoki tajribalar bilan birlashtirish to‘plangan ma‘lumotlarni tahlil qilish va tushunishni boyitishi mumkin.

Videoyozuv, audioyozuv va sifatli ma‘lumotlarni tahlil qilish dasturlari kabi zamonaviy texnologiyalardan foydalanish ma‘lumotlarni yig‘ish va tahlil qilishni yaxshilash imkonini beradi.

Xulosa tariqasida shuni ta‘kidlash joizki, bugungi kunda tarixiy tadqiqotlarda AKTdan foydalanish metodologik usul va vositalarning ajralmas qismga aylandi. Jamiyatning raqamli transformatsiyasi ilmiy muhitni va tarixiy fanlar infratuzilmasini sezilarli darajada o‘zgartirmoqda. Tarixiy hamda etnologik tadqiqotlarda tarixiy informatika va miqdoriy usullar parallel ravishda rivojlanib, bir-birini to‘ldirmoqda. Tarixiy ta‘lim va fanda AKT ni, jumladan, raqamlashtirishni joriy etilishi tarixchilardan



“RAQAMLASHGAN JAMIYATDA INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH: IMKONIYAT VA ISTIQBOLLARI” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

kasbiy mahoratni va professionallikni oshirishni talab qiladi. Raqamli tarix, tarixiy informatika va miqdoriy usullar raqamli transformatsiya davrida rivojlanishda davom etadi hamda tarixiy fanlarni boyitishga xizmat qiladi.

Shunday qilib, raqamli transformatsiya davrida tarixiy fanlarning, jumladan etnologiyaning, alohida ijtimoiy hodisa sifatida rivojlanishining barcha xususiyatlari raqamli tarix doirasida o'rganiladi. Tarixiy informatika va miqdoriy usullar tarixiy tadqiqotlarda, shu bilan birga maxsus tarixiy fanlarda parallel ravishda rivojlanadi va bir-birini to'ldiradi.

Adabiyotlar:

1. Коваленко К., Беличенко О., Колосова В. «ЦИФРОВАЯ ЭТНОБОТАНИКА»: КОМПЬЮТЕРНЫЕ ПРОГРАММЫ В ЭТНОБОТАНИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЯХ // XIII Конгресс антропологов и этнологов России: сб. материалов. Казань, 2–6 июля 2019 г. / Отв. ред.: М.Ю. Мартынова. – Москва; Казань: ИЭА РАН, КФУ, Институт истории им. Ш. Марджани АН РТ, 2019. – 516 с. – С. 452 .

O'ZBEKISTONDA MUSTAQILLIK YILLARIDA ANTROPOLOGIYA SOHASIDAGI KADRLAR MASALASI

Sulaymanov Amaliddin Nurboevich

Tarix fanlari nomzodi., dotsent. GulDU “Tarix” kafedrası dotsenti.

+99897-248-17-72, amaliddin_7203@mail.ru

O'zbekiston Respublikasi. Guliston shahri.

Annotatsiya: Maqolada antropologiyaning fan sifatida rivojlanishi va O'zbekistonda mustaqillik yillarida sohadagi kadrlar masalasi, amalga oshirilgan ishlar, ularning tarixiylik nuqtai-nazardan ahamiyati haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Yangi O'zbekiston, O'zMU, TDSuU, O'zR. FA. Tarix instituti, kadrlar, antropologiya, etnologiya, mintaq xalqlari, ijtimoiy-gumanitar fanlar.

O'zbekistonda antropologiya fanining asoslarini yaratilishi va sohani kadrlar bilan ta'minlash masalasi tubdan farq qiladigan tarixiy davrlarda amalga oshdi. Shuning uchun ham bu masalani ilmiy asosda yoritib berish maqsadida uni 3 ta, imperiya davri, sovetlar davri va mustaqillik davriga bo'lib o'rganilsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Ushbu maqolada ilgari surilgan vazifalarni mana shu davrlardan biri, mustaqillik yillari asosida o'rganish, O'zbekistonda antropologiya sohasining vujudga kelishi va kadrlar masalasini tadqiq qilishda bir qator afzalliklarga olib keladi.

O'zbekistonda mustaqillik yillarida yoshlarni sohaga oid qiziqishlari har tomonlama qo'llab quvvatlandi. Sohaning A.Askarov, B.Axmedov, T.K.Xodjayov, K.Sh.Shoniyozov, I.Jabborov, G.K.Xodjayova, A.Xo'jaev kabi ko'plab mutaxassis-olim va tadqiqotchilari



“RAQAMLASHGAN JAMIYATDA INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH: IMKONIYAT VA ISTIQBOLLARI” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

1991-2000-yillar va undan keyingi davrda O‘zbekistonning qator oliy ta’lim va ilmiy tadqiqot muassasalarida ilmiy va pedagogik faoliyat bilan shug‘ullanishib, yoshlarga “Antropologiya asoslari”, “O‘rta Osiyo etnogenezi va etnik tarixi”, “Fiziologik antropologiya”, “O‘rta Osiyo antropologiyasi”, “Turkiy tilli xalqlar etnogenezi va etnik tarixi”, “Antropologik tadqiqotlar metodikasi” “Vezual antropologiya”, “Madaniy antropologiya”, “Tarixiy antropologiya”, “Ijtimoiy antropologiya”, “Etnografiya” kabi kurslardan ma’ruzalar o‘qib kelishdi.

Mustaqillik yillarida ustoz-shogird an’alarini davom ettirgan holda, soha olim va tadqiqotchilaridan A.X.Doniyorov (TDSHU), A.Ashirov (O‘zFA Tarix instituti), Z.Arifxonova (O‘zFA Tarix instituti), G.Zununova (O‘zFA Tarix instituti), M.M.Askarov (TDSHU), V.E.Abirov (TDSHU), A.Bobobekov (O‘zMU), A.Sulaymanov (GulDU) va boshqalar talaba-yoshlarga O‘zbekistonda mintqa aholisining antropologiyasi va etnik tarixini o‘rganishlari, bu boradagi bilimlarini mustahkamlash, antropologiya va etnik tarix sohasida etuk mutaxassislar tayyorlash maqsadida Respublikamizning etakchi oliy ta’lim muassasalarida yoshlarga saboq berib kelishmoqda.

Bugungi kunda O‘zbekistonda mintqa xalqlari, birinchi galda o‘zbek xalqi antropologiyasi va etnik tarixi, amalga oshirilgan antropologik tadqiqotlar tarixshunosligini ilmiy jihatdan o‘rganish, tadqiq qilish ishlari qator OTM va ITIlari tomonidan davom ettirib kelinmoqda. Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti tashkil topgandan so‘ng, “Sharq mamlakatlari tarixi va antropologiyasi” kafedrasining faoliyati yo‘lga qo‘yilgan [1]. Universitetda “Sharq mamlakatlari tarixi va antropologiyasi”, “Markaziy Osiyo xalqlari tarixi va tarixshunosligi”, “Markaziy Osiyo xalqlari tarixi va etnologiyasi” kabi kafedralar tashkil topdi va faoliyatlarini davom ettirdi. Bugungi kunda ushbu kafedralarda etuk mutaxassislar, Sharq mamlakatlari, Markaziy Osiyo xalqlari tarixi, tarixshunosligi, etnik va antropologik tarixi kabi sohaning yirik olimlari va tadqiqotchilari o‘quv, o‘quv-uslubiy, ilmiy-tadqiqot ishlari bilan shug‘ullanishib, O‘zbekistonda sharqshunos-tarixchilar, etnografiya, antropologiya fanlari bo‘yicha mutaxassislar tayyorlovchi yagona ilmiy muassasalardan biri sifatida jahonda o‘z o‘rniga ega bo‘lmoqda.

O‘zbekistonda mintqa xalqlari etnik tarixi va antropologiyasiga doir ilmiy tadqiqotlarni olib borayotgan ilm maskanlaridan yana biri, O‘zbekiston milliy universiteti qoshida uzoq yillardan buyon faoliyat olib borayotgan “Antropologiya va etnologiya” kafedrasini hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 5-fevraldagi 14-07/1-3796-sonli topshirig‘iga binoan “Millatlararo munosabatlar sohasida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan majorali va ixtiloflarning barvaqt oldini olish va ularni profilaktikasi holati monitoringini tizimli tashkil etish bo‘yicha 2020-2021- yillarga mo‘ljallangan amaliy



“RAQAMLASHGAN JAMIYATDA INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH: IMKONIYAT VA ISTIQBOLLARI” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

chora-tadbirlar rejasi”ning 8-bandiga muvofiq, kafedra “Antropologiya va etnologiya” nomi bilan yangidan tashkil etiladi [2].

Bugungi kunda “Antropologiya va etnologiya” kafedrası O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi Tarix instituti “Etnologiya va antropologiya” markazi, O‘zMU qoshidagi “Amaliy etnologiya” laboratoriyasi bilan yaqin hamkorlikda faoliyat olib bormoqda. Kafedra a‘zolari qator darsliklar, ilmiy monografiyalar ustida ish olib borishmoqda. Jumladan: Dunyo xalqlarining etnologik tavsifi, antropologik, lingvistik klassifikatsiyasi, xo‘jalik madaniy tiplari, moddiy va ma‘naviy madaniyati, turar joylari, an‘anaviy turmush tarzi va diniy e‘tiqodlariga oid ilmiy izlanishlar va tadqiqotlar, Markaziy Osiyo xalqlari etnogenezi va etnik tarixi, xo‘jaligi, moddiy hamda ma‘naviy madaniyati haqidagi bilimlarning nazariy asoslari, Markaziy Osiyo etnologiyasining asosiy tushunchalari, uni klassifikatsiyalash tamoyillarini o‘rgatish hamda ularni amaliyotda tatbiq etish, tarixiy antropologiya fani, dunyo xalqlarining etnologik klassifikatsiyasi, moddiy va ma‘naviy madaniyati, xo‘jalik xususiyatlari, etno-madaniy jarayonlari, diniy qarashlari, madaniyatlarining zamonaviylashib borish jarayoni masalalari va ularning taraqqiyot bosqichlari, ulardan ilmiy maqsadlarda foydalanish, etnologik ekspeditsiyalarni tashkil etish va o‘tkazish tartibi va usullari, etnologiya fan sohalari va maktablari, antropologiya va etnologiyaning fan sifatida shakllanish bosqichlari, to‘plangan dala etnologik ma‘lumotlardan foydalanish, antropologik, arxeologik manbalar, yodgorliklar, antropogenez nazariyalarini o‘rganishda ilmiy jihatdan yondashish. Antropologik davrlashtirish va xronologiya, antropogenez fanining rivojlanish tarixi, tadqiqot ko‘lamining o‘sishi, uning bosqichlari, antropogenezning zamonaviy bosqichiga oid bilim, ko‘nikma va malaka shakllantirish, mintaqa halqlarining etnogenezi, etnik tarixi, antropologik va lingvistik tasnifi masalalari mavzularida ko‘lamli tadqiqotlarni davom ettirishmoqda.

O‘zbekistonda antropologiya fanini rivojlanishida va sohaga ilmiy kadrlar etishtirib berishda, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasining Tarix instituti salmoqli hissa qo‘shib kelmoqda. Jumladan Fanlar akademiyasi huzurida 1943-yilda “Etnografiya” bo‘limi tashkil etiladi. Bo‘lim bir muddatdan so‘ng, “O‘zbek xalqi etnografiyasi” va “Etnogenez va etnik tarix” nomlari bilan faoliyat olib boradi. 2020-yil 8-iyundan boshlab “Etnologiya va antropologiya” markazi sifatida faoliyat yuritilishi yo‘lga qo‘yiladi. Markazga turli yillarda sohaning etakchi olimlari M.S.Andreev, O.A.Suxareva, K.Shoniyoov, Z.H.Arifxonova, G.Sh.Zununovalar rahbarlik qilishgan. Xozirda markazni t.f.d., prof A.Ashirov boshqarib kelmoqda.

Markaz o‘z faoliyatida o‘zbek xalqining etnik tarixi, tarixiy etnografiyasi va zamonaviy etnografik jarayonlar yo‘nalishlarida samarali ilmiy tadqiqotlar olib bormoqda. Jumladan, o‘tgan sakson yil ichida markaz, o‘zbek xalqining etnik tarixi va tarixiy



“RAQAMLASHGAN JAMIYATDA INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH: IMKONIYAT VA ISTIQBOLLARI” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

etnografiyasi, sovetlar davri etnografiyasi, o‘zbek xalqining etnik tarixi, etnomadaniyati va milliy xususiyatlari, O‘zbekistonda yashovchi turli xalq va ellatlarning antropologiyasi va etnik tarixini o‘rganishga va bu orqali qimmatli ilmiy ma’lumotlarni jamiyatimizga etkazishga, etuk ilmiy kadrlar tayyorlashga ulkan hissa qo‘shmoqda. Markaz olimlari, tadqiqotchi va izlanuvchilari tomonidan so‘nggi yillarda o‘zbek millati tarixi, etnik hamda antropologik tadqiqotlar tarixi, etnoekologik madaniyat va iqtisodiy, ijtimoiy, falsafiy, psixologik antropologiya ilmiy muammolari doirasida tadqiqotlar olib borilmoqda. Shuningdek, zamonaviy shahar antropologiyasi, madaniy antropologiya, tibbiy antropologiya, vizual antropologiya hamda ziyorat turizmi yo‘nalishlarida ilmiy izlanishlar olib borilib, sohaga ilmiy kadrlar tayyorlash ishlari tizimli yo‘lga qo‘yilgan.

Xulosa qilib aytish mumkinki, O‘zbekistonda antropologiya fanining rivoji bir tekisda kechmagan. Iperiya va sovetlar davrida, Markaziy Osiyo, jumladan O‘zbekiston hududida amalga oshirilgan ekspeditsiyalar, asosan rossiyalik olim va sayohatchilar tomonidan tashkil etilgan. Bu sayyohatlarda mintaq xalqlarini etnik tarixi va antropologiyasini o‘rganish asosan tasviriy axborot komponentlaridan foydalanish orqali amalga oshirilgan.

Mustaqillik davrida soha bo‘yicha salmoqli va boy ilmiy meros, qimmatli antropologik tarixiy manbaalar yaratildi. Bu davr ichida fan sohasida ko‘plab olimlar, tadqiqotchilar tarbiyalanib voyaga etkazildi.

Yangi O‘zbekistonda ustoz-shogird an‘analarida faoliyat davom ettirilib, Markaziy Osiyo, xususan O‘zbekistonda antropologiya fanining rivojlanishiga munosib hissa qo‘shish yo‘lida barcha shart-sharoitlar yaratilmoqda.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 16 apreldagi PQ-4680-son Qarori.
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 5 fevraldagi 14-07/1-3796-sonli topshirig‘i.



“ETNOTURIZM” –TARIXIY QADRIYATLAR IN’IKOSI: MAVJUD MUAMMOLAR VA TAKLIFLAR

Turaboeva Yayra Rustamjonovna,

Andijon qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar instituti katta o‘qituvchisi,

Tel:998943910385

Email: yturaboyeva23@gmail.com

Kazakboev Shoxbozbek Xusniddinovich

Andijon qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar instituti talabasi,

Email: shoksbozbekkazakboyev@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada zamonaviy fan tarmog‘ida shakllanib borayotgan “Etnoturizm” fanining paydo bo‘lishi va xorij tajribasi taxlil etilgan. O‘zbekiston sharoitida fan tarmog‘ida mavjud muammolar ko‘rsatib berilgan va takliflar bildirilgan.

Kalit so‘zlar. Etnoturizm, global etnografiya, virtual etnografiya, etnomadaniy turizm, etnografik ob‘ektlar.

O‘zbekiston o‘chmas madaniyati, ilmiy salohiyati, jahon ilmiy rivojiga ulkan xissa qo‘shgan buyuk daholar yurti sifatida ma‘lum va mashhurdir. Markaziy Osiyo xalqlarining 3,5 mingyillik tarixi ushbu o‘lkada boy madaniy meros sohiblari yashaganligidan dalolat beradi. O‘zbekistonning qulay geografik sharoiti, boy an‘analari, mehmondo‘st xalqi sabab turli o‘lkalardan millionlab xalqlar ko‘chib kelgan va bir qancha xalqlarga xos bo‘lgan an‘analar, diniy rasm-rusumlar, etnografik o‘ziga xoslik shakllangan.

Dunyoning ko‘plab davlatlarida turizm resurslari turlicha taqsimlangani bois ular tabiiy va sun‘iy resurslarni o‘ylab topmoqda. Ya‘ni bunda, sayyohning asosiy maqsadi geografik mintaqalarni yoki iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarning salohiyatini ko‘rish emas, balki, yangi bilimlarni egallash, tarixiy o‘lkalarga sayohat, inson ongi, idroki va qo‘l mehnati bilan yaratilgan madaniy yodgorliklardan bahramand bo‘lishdir. Shu sabab turizm bozoridagi takliflarning salmoqli qismi turizmning mazkur resurslariga qiziqish va o‘zi uchun yangi dunyolarni kashf qilishga qaratilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev O‘zbekistonda sayyohlar sonini ko‘paytirishda *“yaqin xorij va Xitoy katta salohiyatini o‘rganish”* deb hisoblaydi. Ya‘ni, Xitoy turizmiga madaniy tadbirlar, tarixiy filmlar, turizm ob‘ektlaridagi ozodalik, tozalik, xushmuomalalik xosdir va aynan ularni o‘rganish mamlakatimiz turizmni rivojlantirishda qo‘l kelishi mumkin[1].

Bugungi kunda milliy iqtisodiyotga yuqori daromad keltiradigan istiqbolli tarmoqlardan biri – bu turizmdir. Yurtimizda 7 ming 300 dan ortiq madaniy me‘ros ob‘ektlari mavjud bo‘lib, ularning aksariyati YuNESKO ro‘yhatiga kiritilgan. O‘zbekiston



“RAQAMLASHGAN JAMIYATDA INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH: IMKONIYAT VA ISTIQBOLLARI” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

jahon brendlarini faol jalb etib, ziyorat turizmi, ekologik, ma'rifiy, etnografik, gostronomik turizm[2] va bu sohaning boshqa tarmoqlarini rivojlantirishga e'tiborni kuchaytirmoqdi.

Zamonaviy jamiyatlarda “*Etnografiya va turizm*” tushunchalarini birga qo'llash orqali ko'plab xorijiy va mahalliy olimlar ushbu terminlarning naqadar bir-biriga bog'liq ekanligini angladi[3].

“*Etnografiya va turizm*” fanini “*Etnografik turizm*” yoki “*Etnomadaniy turizm*” atamaları bilan ham talqin etish mumkin.

“*Etnografik turizm*” atamasining ilmiy va keng qo'llaniladigan talqinida “*Xalq madaniyati*” yoki “*Etnografik madaniyat*” kabilar ham qo'llaniladi. Etnografik turizm sayyohlarni mahalliy etnoslarning kundalik hayotiga qiziqishi, xalq an'analari, marosimlari, ijodi va madaniyati bilan tanishishga bo'lgan talabiga asoslanadi.

“*Etnografik turizm*” doirasida sayyohat qiluvchilarga quyidagi xususiyatlar xosdir:

- o'zi mansub bo'lgan jamiyatini dunyo xalqlari tarixida, iqtisodiyotida, ijtimoiy-siyosiy maydonida, madaniy (arxitekturasini, dini, hunurmachilik an'analari, musiqasi va amaliy san'atida) hayotidagi o'rni va roli bilishga qiziqish;
- o'z tarixiy “ildizlarini” izlash: ma'lum bir ijtimoiy, etnik yoki diniy tarixiy rolini, o'rni va qiyofasini bilish;
- ijtimoiy guruhlar ichidan o'zi va boshqalar o'rtasidagi madaniy o'xshashliklarni izlash;
- jamiyat merosi to'g'risida bilimga bo'lgan ehtiyoj;
- o'z tarixini qayta qurish[4].

Kaliforniya universiteti sotsiomadaniy antropologiya professori Nelson Grabern turizmni kognitiv[5] amaliyot nuqtai nazaridan “muqaddas sayohat” sifatida ko'rish, binar qarama-qarshiliklarni
$$\text{“Ish+kundalik hayot=dunyoviy//turizm+kundalik hayot=muqaddas”}$$
 formulasi asosida yondashuvni taklif etadi. Uning fikricha, etnoslarning hayot tarzi odatiy va noodatiyga bo'linadi[6]. Odatiy hayot tarzi majburiy faoliyat bo'lib, doimgidek uyda, noodatiy faoliyat “uydan tashqarida” ixtiyoriy tarzda muqaddas tuyg'ular asosida sodir bo'ladi.

Pensilvaniyadagi G'arbiy Chester universiteti (AQSh) antropologi Maykl Djovin global harakatchanlik shakllari bo'lgan – turizm, ziyorat va immigratsiya masalalarini uzoq yillar tadqiq etgan. Antropolog olim turizmning “*global etnografiya*” sini yuritishda oid bir necha yondashuvlar orasida “*virtual etnografiya*” ni alohida o'ringa qo'yadi[7].

Etnoturizm madaniy turizmning bir turi bo'lib, alohida millatlar, xalqlarni bilish, ularni o'rganish, madaniy va til almashinuvi[8]dir. Bu ta'rifga mutloqa qo'shilgan xolda, etnosning naqadar madaniy tiplari ko'pligini anglash mumkin. N.B Moralev va Ye.Yu Ledovskix etnoturizmni sigment deb hisoblashadi va bu asosiy sayyoh jalb qilishda mahalliy aholi ishtirok etadigan, etnik turizm sohasi deb hisoblaydi[9].



“RAQAMLASHGAN JAMIYATDA INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH: IMKONIYAT VA ISTIQBOLLARI” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

Ch.B.Sunduev, L.V.Xıshiktuev madaniy-ma’rifiy turizmning yo‘nalishlaridan biri sifatida etnografiya deb hisoblaydi, bunda sayyohni mahalliy aholi muhitiga cho‘mdirish, aholi milliy madaniyati bilan tanishish imkoniyati paydo bo‘ladi[10].

Etnografik ob’ektlar etnografik turizmning ajralmas qismi hisoblanadi. “Etnografik ob’ekt” sifatida an’anaviy kundalik etnik namoyishlar, madaniyat, madaniy va tarixiy binolar va boshqalar kiradi.

Quyidagilar etnografik ob’ektlarni ajratishga imkon berishi bilan birga etnoturizm resursi sifati ham tavsiflash mumkin:

- Arxitektura yodgorliklari: ma’lum etnik guruhning madaniy hayotini aks ettiradigan me’moriy uslub;

- Diniy inshootlar: arxitektura ana’nasi u yoki bu etnosning diniy inshootlarini aks ettiruvchi uslubda qurilgan inshootlar;

- ziyoratgohlar, qabristonlardagi an’anaviy qabr toshlarini mahalliy yozuvlar, bezak bilan bezitish;

- an’anaviy uy-joylar;

- “etnik tur” ni saqlab qolgan aholi manzilhohlari, an’anaviy turar joylar va ularning qo‘shimcha binolari;

- an’anaviy iqtisodiy tarmoqqa tegishli maishiy ob’ektlar: quduqlar, tegirmonlar, bozorlar;

- xalq festivallari o‘tkaziladigan joylar, folklor ansambllarining ishtiroki, an’anaviy kiyimlardan foydalanish;

- xalq hunarmandchiligi maktablari va an’anaviy hunarmandchilik inshootlari;

- etnografik muzeylar, ko‘rgazmalar, majmualar, etnografik ob’ektlar[11].

Insoniyat o‘z millatining kelib chiqishi, identikligi, etnik tarixi va etnogenezini bilishga bo‘lgan ishtiyoqi va buning asosida shakllangan madaniyat, urf-odatlar va kundalik hayotni tushunish ularni o‘rganish jarayonida etnoturizm keng imkoniyatlarni taqdim etadi[12]. XXI asrda xalqlarning identiklik fenomi ortib, o‘zaro farqlarni ko‘rsatish tendensiyasi ham avj olmoqda. Shunday shiddatli zamonda identiklikni asrash, millatni, uning madaniyati va an’analarini saqlab qolish muhim masalalardan hisoblanadi.

Etnoturizm “turizm madaniyati”ni shakllantirishni, milliy madaniyatning tiklanishi va rivojlanishining omili sifatida namoyon bo‘ladi. Zero, bu jarayonda bir tomondan unutilgan an’anaviy qadriyatlar, hunarmandchilik maktabi qayta jonlansa, ikkinchi tomondan, til, marosimlar ommalashtiriladi. Shunday qilib, o‘tmishdagi tarixiy va madaniy merosni saqlash, ko‘paytirish va kelajak avlodlarga yetkazish g‘oyasi ham amalga oshadi.

Xullas, Etnoturizm madaniy yo‘nalishlardan biri sifatida zamonaviy jamiyatlarda sezilarli mashhurlikka erishgan. Ammo, aksariyat mutaxassislar nuqtai nazarida turizm faqat iqtisodiy soha va u davlat iqtisodiyotiga ta’sir ko‘rsatuvchi drayver deb hisoblaydi. Yoki



**“RAQAMLASHGAN JAMIYATDA INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH: IMKONIYAT VA ISTIQBOLLARI”
mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya**

turizm geografiya bilan uzviy bog‘liq deb tarmoq sifatida ta’rif berishga urinadi. Shu bois barcha turizm tarmoqlarini aynan shu fan so.halariga bog‘lashga urinadi. Bizningcha, bu tor doiradagi yondashuv turizm tarmoqlarini rivojlanishiga, bu sohadagi ilmiy bilimlarni ortishiga to’sqinliq qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati.

1. <https://www.gazeta.uz/uz/2023/10/11/tourism/>
2. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг Олий Мажлисга мурожаатномаси // Халқ сўзи. 2017 йил, декабрь.
3. И.Жабборов. Ўзбек халқ этнографияси. Т.ўқитувчи. 1994, 320 б, 7-б
4. Бутузов А.Г. Этнокультурный туризм. учебное пособие.— Москва: КноРус, 2016. — 248 с.
5. Миницкий Н.И. Когнитивные практики в исторической науке и образовании// Когнитивные практики в исторической науке и образовании.— Мн: БГУ, 2009. – С. 143.
6. Graburn N.H.Tourism: The Sacred Journey / Hosts and guests. The anthropology of tourism. – Philadelphia: University of Pennsylvania, 1989. – P.25.
7. Di Giovine M.A. Tourism Research as "Global Ethnography" // Anthropologies: a Collaborative Online Project. 2011. – April. – №15. – P.6.
8. Биржаков, М. Б. Введение в туризм / М. Б. Биржаков. – 9-е изд., переруб. и доп. – СПб.: Изд. дом Герда, 2007. – 576 с
9. Моралева, Н.В. Организация этнографического и аборигенного туризма: учебное пособие – М.: Библиотека коренных народов Севера, 2008. – 43 с
10. Сундуев Ч.Б. Этнотуризм как одно из направлений культурно познавательного туризма / Ч.Б. Сундуев, Л.В. Хышиктыева // Вестник Бурятского государственного университета, 2009. – № 4. – С. 53–56.
11. Гаврильчик Р.М., Лыткина Н.Л. Рекомендации по этнографическому туризму: информационный справочник. – Ханты-Мансийск: Полиграфист, 2007 – С. 51
12. Птуха Н.И. Этнографический туризм: учебное пособие. – М.: Грифон, 2019. – 90 с.



QALMIQ XALQINING O‘ZBEKISTON SCRGA DEPORTATSIYA QILINISHI TARIXI

Mavluda Raxmanova

O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi Tarix instituti tayanch doktoranti

Annotatsiya: Maqolada Ikkinchi jahon urushi davrida Stalin qatag‘oni qurboni bo‘lgan qalmiq xalqining deportatsiya qilinishi tarixi, ularning O‘zbekiston SSRga majburiy ko‘chirilishi, O‘zbekiston SSRga joylashtirilgan qalmiqlarning ijtimoiy-iqtisodiy hayoti va demografik yo‘qotishlari, mehnat faoliyatlari va reabilitatsiya qilinishi masalasi haqida ma’lumotlar berilgan.

Kalit so‘zlar: qalmiqlar, deportatsiya, majburiy migratsiyalar, Stalin qatag‘oni, “Uluslar” harbiy amaliyoti, baliqchilik kolxozlari, baliqchilik tresti, Mo‘ynoq baliq-go‘sh t konserva kombinati.

XX asrning 30 – 40-yillarida sovet hokimiyati tomonidan insoniyat tarixidagi eng shafqatsiz qatag‘onlardan biri hisoblangan xalqlarni majburiy ko‘chirish siyosati amalga oshirildi. Sovet davlatining ushbu siyosatdan ko‘zlagan bosh maqsadi kommunistik mafkura g‘oyalari asosida tashkil etilgan hokimiyatini saqlab qolish hamda yanada mustahkam ildiz otishi uchun zamin hozirlash edi. SHu sababdan, Sovet hokimiyatiga, uning yuritgan nodemokratik boshqaruv tizimiga qarshi chiqishi mumkin bo‘lgan har qanday unsurlarga shubha bilan qaraldi, gumon ostiga olinganlarga turli ayblar ag‘darilib, dushmanlar qatoriga kiritildi, qora ro‘yxatga olinib tuxmatlar bilan badarg‘a qilib yuborildi.

Deportasiya (lotincha *deportatio* – surgun, haydab chiqarish) so‘zi[1] badarg‘a qilish yoki chiqarib yuborish degan ma‘noni anglatib, biron shaxsni yoki butun toifadagi shaxslarni boshqa davlat yoki boshqa joyga, harbiy kuzatuv va kuchli nazorat ostida majburan ko‘chirishni anglatgan. Sovetcha deportasiya siyosatining asosiy maqsadi jamiyatni ma‘muriy-buyruqbozlik tizimiga to‘siq bo‘luvchi, qizil armiya va sovet hokimiyati idoralariga qarshi ochiqchasiga kurashuvchi, bo‘ysunmaslik va qo‘zg‘olon vaziyatlarini uyushtirishga harakat qiluvchi unsurlardan tozalash edi.

SSSRdagi ichki majburiy migrasiyalar to‘lqini Ikkinchi jahon urushi davrida eng yuqori cho‘qqiga ko‘tarildi. Bu davrda nemislar, qalmiqlar, chechenlar, ingushlar, qorachoylar, bolqorlar, qirim tatarlari, bolgarlar, greklar, armanlar, kurdlar, mesxeti turklari o‘z yashab turgan joylaridan Ural, Evropaning shimoli, G‘arbiy Sibir, Qozog‘iston va O‘rta Osiyo hududlariga surgun qilindi.

1943 yilning 28-29 dekabrda esa “Uluslar” deb nomlangan harbiy amaliyot paytida qalmiq xalqini deportasiya qilish bilan Ikkinchi jahon urushi davridagi *uchinchi majburiy ko‘chirish tadbiri* ham boshlanadi. Qalmiq xalqi Gitler armiyasi bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri hamkorlik qilishda ayblanadi. Bunga asos qilib, 110-qalmiq otliq dviziyasining dushmanga taslim bo‘lganligi, sovet hokimiyatiga qarshi jinoiy guruhlar tuzilishi va hukumatga qarshi



“RAQAMLASHGAN JAMIYATDA INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH: IMKONIYAT VA ISTIQBOLLARI” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

chiqishlar sodir etilganligi ko‘rsatiladi. Natijada, SSSR Oliy Soveti Prezidiumi Farmoni va XKS qarori bilan aholisi deportasiya qilingan RSFSR tarkibidagi Qalmiq ASSR tugatiladi [2].

SHarqqa tomon 94 mingdan ortiq qalmiqlar majburiy surgun qilinadi. O‘zbekiston SSRda 1945 yil boshlarida 538 nafar [3], 1949 yilga kelib 743 nafar, 1950 yilning birinchi yarmida 746 nafar [4] majburiy ko‘chirilgan qalmiq millatiga mansub aholi hisobga olingan [5].

Maxsus manzilgohlarga joylashtirilgan qalmiqlar mehnatidan ko‘proq qishloq va o‘rmon xo‘jaligi, asosan baliqchilikda foydalaniladi. Qalmiqlar azaldan baliqchilik sohasida samarali faoliyat yuritishgan. SHu sababdan ham, deportasiya qilingan qalmiqlarning bir qismi koreys xalqi kabi Qozog‘iston va O‘zbekistonning Orol bo‘yi mintaqalarida baliqchilik bilan shug‘ullanishga jalb etiladi. SSSRning SHarqiy Evropa hududidagi lagerlarida yashagan qalmiqlarning alohida guruhlari va avvalroq Qozog‘iston SSRga deportasiya qilinganlari Orol dengizi bo‘yiga, Qoraqalpog‘iston ASSRdagi Mo‘ynoq posyolkasiga keltiriladi. Bu erga ko‘chirilgan 249 nafar ishchi qalmiqlarning 195 nafari baliqchilik sanoatiga safarbar etiladi [6]. Orol davlat baliqchilik trest tomonidan 1944 yil aprel oyi oxirida Mo‘ynoq baliq-go‘sht konserva kombinatiga ko‘chirib keltirilgan mutaxassis qalmiq ishchilarning moddiy ahvoli va ta‘minoti nihoyatda og‘ir ahvolda bo‘lgan [7].

Deportasiya qalmiqlarning ham demografik o‘rishiga katta salbiy ta‘sir ko‘rsatib, butun SSSR bo‘yicha aholi soni 1939 yildagiga nisbatan 1959 yilga kelib 1/5 qismga kamayib ketadi [8]. Bu ko‘rsatkichga ko‘ra, qalmiqlar deportasiya natijasida eng ko‘p aholisini yo‘qotgan xalq bo‘lgan va har uchta odamning bittasi majburiy ko‘chirish tufayli vafot etgan. Sovet davrida qalmiqlarning demografik potensialdagi yo‘qotishi 31,4 foizni tashkil qilgan. Bundan ko‘rinib turibdiki, majburan surgun qilinish ushbu xalqlarning ijtimoiy holatiga salbiy ta‘sir ko‘rsatib, katta yo‘qotishlarga duchor qildi.

Qatag‘on qilingan millat va xalqlarning repatriasiya qilish masalasiga oid qonuniy hujjatlar 1956 – 1957-yillarda qabul qilina boshlaydi. Dastlab qalmiqlar 1956 yilning 17 martidan maxsus manzilgohlardan ozod etilgan va ular qisman rehabilitasiya qilingan xalq hisoblangan. 1957 yil 9 yanvarida Qalmiq avtonom viloyati tuzilib, 1958 yilda Qalmiq ASSRga aylantirilgan [9]. Unda hududiy o‘zgarishlar yuz berib, eski manzillarga aholining qaytib ko‘chib borishi taqiqlangan. 1979 yilgi aholi ro‘yxatlariga muvofiq O‘zbekiston SSRda yashab qolgan qalmiqlar 221 nafarni tashkil qilgan [10].

Sovet davlati vujudga kelgan davrdan boshlab, hokimiyatni yanada mustahkamlash hamda totalitar tuzumni qaror toptirish uchun qatag‘on usulidan keng foydalandi. I.Stalinning hokimiyat tepasiga kelgan davrdan to uning vafotiga qadar sodir etilgan sinfiy va etnik tozalashlar tufayli millionlab insonlar o‘z vatanidan maxsus manzilgohlarga



majburiy ko‘chirib yuborildi. Xalqlarni majburiy ko‘chirish orqali sovet hokimiyati o‘zining siyosiy va iqtisodiy maqsadlarini amalga oshirishni rejalashtirib, turli millatlardan tarkib topgan davlatning demografik holatini sun’iy ravishda o‘zgartirib yubordi hamda bu siyosat keyingi davrlarda o‘zining ayanchli oqibatlarini birma-bir namoyon qila boshladi.

Foydalanilgan manba va adabiyotlar

1. O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi. 3-jild. – Toshkent: O‘zME Davlat ilmiy nashriyoti, 2002. 262-bet.
2. Иванов А.С. “Изъять, как антисоветский элемент...”: Калмыки в государственной политике (1943–1959 гг.) – Москва, 2014. – С. 45.
3. Рахманкулова А. Национальная политика советского государства в 1930-1940-е гг. Депортация народов в Узбекистан //Советские нации и национальная политика в 1920-1950-е годы: Материалы VI международной научной конференции. – С. 501.
4. O‘zR IVA. 32-jamg‘arma, 1-ro‘uxat, 129-yig‘majild, 67-varaq.
5. Бугай Н.Ф. Проблемы репрессий и реабилитации граждан: история и историография (XX в. –начало XXI в.). – Москва, 2012. – С. 52.
6. Бугай Н.Ф. Л.Берия – И.Сталину: “Согласно вашему указанию...” – Москва, 1995. – С. 79.
7. O‘zbekiston Milliy arxivi. 314-jamg‘arma, 7-ro‘uxat, 26-ish, 1-2 varaq.
8. Саипова К. Толерантность узбекского народа к эвакуированным и депортированным народам в годы войны с фашизмом. – Т., 2018. – С. 21.
9. Иванов А.С. “Изъять, как антисоветский элемент...”: Калмыки в государственной политике (1943–1959 гг.). – С. 168.
10. Этнический атлас Узбекистана. –Т.: Узбекистан, 2002. – С. 114-115.

MADANIYAT VA MILLIY MADANIYATNING O‘ZIGA XOSLIGI

Vakilova Nilufar Shavkat qizi

Gumanitar fanlar fakulteti tadqiqotchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada madaniyat va uning tarifi, milliy madaniyatimizning ijtimoiy hayotimizdagi va bugungi kunda yoshlar hayotida milliy madaniyatga bo‘lgan munosabatlari, yoshlarda milliy madaniyatni rivojlanishi masalalari yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: yoshlar, madaniyat, tarbiya, o‘zlikni anglash, kiyinish madaniyati, yoshlarni milliy ruhda tarbiyalash.

Madaniyat – bu, insonlarning ijodiy faoliyati tufayli yaratilgan moddiy va ma’naviy boyliklar majmuini ifodalashdan tashqari, o‘zida jamiyatning taraqqiyot darajasini ham aks ettiradi, ya’ni jamiyatdagi bilim, mezon va qadriyatlarning yig‘indisi madaniyatda gavdalanadi.



**“RAQAMLASHGAN JAMIYATDA INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH: IMKONIYAT VA ISTIQBOLLARI”
mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya**

“Madaniyat” tushunchasi kompleks va ko‘p ma’noli tushuncha sifatida zamonaviy gumanitar fanlar, xususan, falsafa va madaniyatshunoslikning eng bahstalar mavzularidan biri hisoblanadi. U o‘zining murakkab va ko‘p aspektlilik bilan birga differensial hamda o‘ziga xos tavsiflari sababli turli terminlar orqali izohlanadi, turlicha tasniflanadi va turli-tuman tipologiyalarni namoyon etadi. Mazkur tasnif va tipologiyalar qanchalik ko‘p bo‘lmasin, ularning hech biri “madaniyat” tushunchasini to‘liq ochib bera olmasada, bir-birini to‘dirib keladi.

“Madaniyat” so‘zi birinchi marta Edvard Teylor tomonidan qo‘llanilgan. Uning fikricha, madaniyat – jamiyatning turli a‘zolari tomonidan qabul qilingan yashash tarzi, an‘ana, urf-odatlardan iborat.[1] Keyinchalik esa “madaniyat” tushunchasi quyidagicha ta’riflangan: “Madaniyat arabcha - madinalik, shaharlik, ta’lim-tarbiya ko‘rgan”. Umumiy qilib aytganda bugungacha madaniyatning mingdan ortiq ta’riflari mavjud. Har bir shaxs xoh u olim bo‘lsin xoh u ishchi o‘zining kelib chiqishi, dunyo qarashi va ma’naviy mafkurasidan kelib chiqib madaniyatga turlicha ta’rif beradi. Tabiiyki, madaniyat insoniyatga nima beradi, degan savol tug‘iladi. Bunga quyidagicha javob berilsa, nazarimizda, o‘rinli bo‘ladi:

madaniyat atrof-muhitga hamda o‘zga tilga nisbatan qiziqish uyg‘otadi;

madaniyat inson dunyoqarashini kengaytiradi;

madaniyat insonlar bilan muomala qilishni o‘rgatadi;

madaniyat til o‘rganish, fikrlash, xulosalar qilish, nazariyalar yaratish,

inson sivilizatsiyasini o‘rganishga asos bo‘ladi;

madaniyat o‘z milliyligini yo‘qotmaslikka o‘z yurtiga mehr muhabbat uyg‘otishga asos bo‘ladi, madaniyat bizga nima beradi degan savolga yana minglab misollar keltirishimiz mumkin, har birimiz hayotimizni madaniyatsiz tasavvur etaolmaymiz, bizning yurish turishimiz hatto salom berishimizda ham madaniyatning o‘rni cheksizdir.

Dunyoda minglab millat va elatlar o‘zlariga xos milliy xususiyat va madaniyatga ega. Milliy madaniyatlar har bir millat yoki elat yashab turgan hududning tabiiy joylashuvi, geografias va iqlimi turmush kechirishida mavjud mashg‘ulotlari doirasidagi qiyinchiliklarni bartaraf etish choralari izlash jarayonida vujudga keladi va keyinchalik milliy urf-odat va an‘anaga aylanib boradi. Ma’naviy qadriyatlarni tiklash-milliy o‘zlikni anglashdir. Milliy o‘zlikni anglash orzu-istak bilangina amalga oshmaydi. Buning uchun mustaqillikka erishishning o‘zi kifoya qilmaydi. Milliy o‘zlikni anglash uchun ma’naviy qadriyatlarni qayta tiklash, uning imkoniyatlari va afzalliklaridan samarali foydalanish, ma’naviy-ma’rifiy sohadagi muammolarni hal eta borish ham talab qilinadi.[2]

Bugungi kunda milliy o‘zlikni anglashning eng dolzarb masalalaridan biri — birinchi Prezidentimiz, I. A. Karimov juda to‘g‘ri xulosa qilganidek, o‘zlikni anglash tarixni



“RAQAMLASHGAN JAMIYATDA INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH: IMKONIYAT VA ISTIQBOLLARI” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

bilishdan boshlanadi, inson uchun tarixdan judo bo‘lish — hayotdan judo bo‘lish demakdir.[3]

Tarix har bir xalqning hayoti va turmushi o‘tmishda qanday kechganligi, u jahon sivilizatsiyasida qanday o‘rin egallaganligi haqida ma'lumot beradi. Shuning uchun ham o‘zligini anglamoqchi bo‘lgan xalq va millat uchun o‘z tarixini bilishdan muhimroq vazifa yo‘q. Millatning o‘zligini anglashda uning o‘z tiliga ega bo‘lishi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Til orqali har bir millat o‘zligini anglaydi va anglatadi. Shu sababli ham bosqinchilar millatning yo‘q qilinishida birinchi uning tilini kamsitish bilan yo‘q qilishga uringan.

Bugungi kunda mamlakatimizda milliy o‘zlikni anglashning dolzarb muammolaridan yana biri — bu milliy qadriyatlarni: xalqimizning aslar davomida shakllangan va hayotining mazmuniga aylanib kelgan urf-odatlar, rasm-rusumlari, an‘analarini qayta tiklashdan iboratdir. Mustaqillik yillarida bu sohada bir qator muhim o‘zgarishlar amalga oshirildi. Navroz, Ro‘za va Qurbon hayitlarining qaytadan tiklanishi o‘tmish ma‘naviy merosini o‘rganish borasidagi ishlarning boshlab yuborilganligi, o‘zbekona to‘ylar yoki ma‘rakalarning o‘tkazila boshlaganligi, xalqimizning dunyoqarashida bo‘layotgan o‘zgarishlar milliy o‘zlikni anglashda muhim ahamiyatga ega bo‘ldi.[4]

Ammo shuni takidlash joizki bugungi kunda ko‘p yoshlarimiz, o‘z milliy urf-odatlarimiz, rasm-rusum va an‘analarimizga amal qilishmayotganliklari bizni juda xayratga soladi. Ular oila davrasida ham boshqa chet el tillarida muloqot qilishlari, milliy marosimlarimizga bepisand qarashlari, yoshlarimizning jinsiy shimlarda yoki kalta kulta kiyimlarda yurishlari, yoki ba‘zi ayollarimizning qoraga burkanib yurishlari bugungi kunda juda ko‘p uchramoqda.

Dunyoning ko‘pgina xalqlarida bo‘lgani singari o‘zbek xalqining ham kiyinish madaniyatida o‘zbek odat va rusumlariga mos keladigan kiyinish uslublari mavjud. Kiyinish madaniyati ham insonni qaysi millat vakili ekanligini, uning milliy o‘zligini anglashini namoyon etib turadi. Bugungi kunda har juma kuni milliy liboslar kuni etib belgilanganligi ham bejiz emas albatta, buning zamiridi milliylikimizni anglash, unib kelayotgan yosh avlodni milliy ruhda tarbiyalash, ular ongiga milliy o‘zligimizni anglatish kabi muhim vazifalar yotadi.

Umumiy qilib aytganda milliy madaniyat, o‘zlikni anglash bugungi kunda juda dolzarb muammolardan biri bo‘lib qolmoqda. Yoshlarimizda chet el madaniyatiga qiziqish tobora oshib bormoqda, bugungi kunda yoshlarga to‘g‘ri tarbiya berish, ularga milliy o‘zligimizni anglatish juda muhim bo‘lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Тайлор Э.Б. Первобытная культура — Москва: Издательства политической культуры 1989. — С. 50.
2. Saodat Yo‘ldosheva . Xalq urf-odatlar va an‘analari.Toshkent 2003 S.27.



3. Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov so‘zi
4. Saodat Yo‘ldosheva . Xalq urf-odatları va an‘analari.Toshkent 2003 S.28.

YOSHLARNI MILLIY VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASHDA TARIX FANINING AHAMIYATI

Shermetov Dilmurod Kamil o‘g‘li

CHDPU Gumanitar fanlar fakulteti Milliy g‘oya ma‘naviyat asoslari va huquq
ta‘limi yo‘nalishi 22/3-guruh talabasi

Annotatsiya. Ushbu tadqiqotda yoshlarni milliy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda tarix fanining o‘rni va ahamiyati keng tahlil qilinadi. Tarix fani nafaqat o‘tgan davrlarning voqealarini o‘rgatish, balki xalqning milliy madaniyati, urf-odatları, milliy qadriyatları, istiqlol yo‘lidagi kurashları haqida keng tasavvur hosil qilishda muhim rol o‘ynaydi. Tarixiy xotira va tarixiy ong yoshlarni o‘z xalqining tarixiy merosi bilan tanishtirib, ularni o‘z Vataniga muhabbat, fidoyilik va itoatkorlik ruhida tarbiyalashga yordam beradi.

Kalit so‘zlar: mamlakat, mustaqillik, tarix, Vatan, taraqqiyot, “O‘zbekiston-2030” strategiyasi, tarbiya, yosh avlod, gumanitar, ta‘lim berish.

Yangi O‘zbekistonning bugungi qiyofasi, mamlakatimizning jahon taraqqiyotida tutgan o‘rni va mavqei, muhim xalqaro ijtimoiy-siyosiy jarayonlardagi faol ishtiroki, dolzarb masalalar bo‘yicha ilgari surayotgan ko‘plab tashabbuslarining mazmun-mohiyati chuqur tahlil va dalillar, aniq fikr-mulohazalar asosida teran yoritib berilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezident Sh.M.Mirziyoyev “Tarix sinovlaridan o‘tgan haqiqat shuki, o‘zini o‘zgartirishga qodir bo‘lgan, vaqtni – imkoniyatga, imkoniyatni yutuqqa, yutuqni taraqqiyot poydevoriga aylantira olgan xalq – buyuk xalqdir. Bunday xalq, hech shubhasiz, hayotni ham, ijtimoiy muhitni ham o‘zgartira oladi, ko‘zlagan murod-maqсадlariga albatta erishadi”, “Ertangi kun tarixini bugun yozishimiz shart. Yangi davr uchun yangi g‘oya va tashabbuslar, puxta o‘ylangan istiqbolli rejalar, yangi marra va g‘alabalar kerak bo‘ladi”, [1] deb o‘z fikrlarida xolisona bildirgan.

Prezident Sh.M.Mirziyoyevning nafaqat O‘zbekiston, balki butun jahon hamjamiyati tomonidan ham alohida e‘tibor qaratilayotgan eng dolzarb masalalardan biri – inson qadri, huquq va erkinliklari, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik tamoyiliga alohida to‘xtalgani ayni muddaodir.[2] Zero, so‘nggi 50-yil ichida birgina BMT doirasida ushbu yo‘nalishda 120 dan ortiq xalqaro hujjat qabul qilinganining o‘ziyoq ushbu tamoyilning nechog‘lik ulkan ahamiyatga egaligini yaqqol ko‘rsatib turibdi. O‘zbekiston mustaqil davlat sifatida 200 dan ortiq mamlakatlar orasida o‘zining qat‘iy gumanistik (insonparvar), tinchlikparvar siyosati bilan dunyo minbarida muhim o‘rin egallaganligini dunyo jamoatchiligi tan olib turibdi. Yangi O‘zbekistonning dunyo miqyosida raqobatbardosh



“RAQAMLASHGAN JAMIYATDA INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH: IMKONIYAT VA ISTIQBOLLARI” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

bo‘lishiga erishish, ilm-fan, ta’lim-tarbiya va sog‘liqni saqlash tizimlarini jadal rivojlantirish orqali jamiyatda inson kapitalini yuksaltirish mumkin.

Yangi O‘zbekistonni barpo etish – yaqin va olis tariximiz, betakror va noyob madaniy boyliklarimizni yanada chuqur o‘rganib, ularga tayanib, mustaqil milliy taraqqiyot yo‘limizni yangi bosqichda davom ettirish demak. Tarixchi mutaxassis kadrlarni tayyorlashni yaxshilash, tarixga ixtisoslashtirilgan maktablar ochish lozimdir. Mustaqillik davrining o‘tgan yillarida Respublika tarixchi olimlari tomonidan katta ahamiyatga molik, dolzarb mavzularga bag‘ishlangan ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirildi, qator o‘quv adabiyotlari, darslik, qo‘llanma, monografiyalar chop etildi. Ta’kidlash joizki, hozirgi kunda ham xalqimiz tarixini xolis va ilmiy asosda o‘rganish jarayoni davom etmoqda. Xususan, mustaqillikning o‘tgan o‘ttiz uch yillik davri tarixining turli qirralari ko‘plab olimlar, izlanuvchilar uchun tadqiqot ob‘yekti bo‘lib xizmat qilmoqda. [3]

Yangi O‘zbekistonni barpo etish va Uchinchi Renessans poydevorini tiklashga qaratilgan ko‘plab farmon, qaror va farmoyishlarni imzoladi. Mamlakatimizni 2017-2021-yillarda rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi doirasida o‘tgan davr mobaynida davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarini tubdan isloh etishga qaratilgan 300 ga yaqin qonun, 4 mingdan ziyod O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorlari qabul qilindi va amaliyotda samarali natijalarni ko‘rsatdi. [4]

“O‘zbekiston-2030” strategiyasi bo‘yicha jamiyatda ijtimoiy-ma’naviy muhit barqarorligini ta’minlashda mafkuraviy xurujlarga qarshi milliy g‘oya asosida birgalikda kurashish, oila, maktab va mahalla hamkorligini mustahkamlash va shu asosda ma’naviy tarbiyaning uzviyligini ta’minlash, o‘zbek xalqining milliy qadriyatlari va ma’naviy merosini asrab-avaylash, keng ommalashtirish hamda rivojlantirish bo‘yicha yangi yondashuvlarni joriy qilish, ilmiy va sotsiologik tadqiqotlar bilan jamiyatda ijtimoiy-ma’naviy muhit barqarorligini ta’minlashning barcha asosiy masalalarini qamrab olishga erishish ishlari keng tarzda olib borilmoqda. Mamlakatimiz tarixida yangi davr – mustaqil taraqqiyot davri boshlandi. Xalqimiz demokratik huquqiy davlat va ochiq fuqarolik jamiyati qurish yo‘lida zalvorli sinovlardan o‘tdi. Istiqbol yillarida yurtimizda milliy tariximizni, ma’naviyatimizni tiklash, uni zamon talablari asosida rivojlantirish bo‘yicha ulkan ishlar amalga oshirildi. Yurtimizda demokratik islohotlar tobora chuqurlashib bormoqda. Hozirgi vaqtda mamlakatimizda yana bir muhim Uyg‘onish jarayoni kechmoqda. Shuning uchun “Yangi O‘zbekiston” va “Uchinchi Renessans” so‘zlari hayotimizda o‘zaro uyg‘un va hamohang bo‘lib yangramoqda, xalqimizni ulug‘ maqsadlar sari ruhlantirmoqda. Ayniqsa, “inson huquq va erkinliklari”, “qonun ustuvorligi”, “ochiqlik va oshkoralik”, “so‘z erkinligi”, “din va e’tiqod erkinligi”, “jamoatchilik nazorati”, “gender tenglik”, “xususiy mulk daxlsizligi”, “iqtisodiy faoliyat erkinligi” singari fundamental



“RAQAMLASHGAN JAMIYATDA INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH: IMKONIYAT VA ISTIQBOLLARI” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

demokratik tushunchalar va hayotiy ko‘nikmalar hozirgi vaqtda real voqelikka aylanib borayotgani e‘tiborlidir.

Shu bilan birga “O‘zbekistonning eng yangi tarixi” mustaqil O‘zbekiston yoshlari ongida milliy vijdonni shakllanishiga ko‘maklashadi. Yoshlar ajdodlarimizning taraqqiyoti yo‘lini, tarixiy tajribalarini o‘qib o‘rganganlaridagina ularda istiqlol tafakkuri, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy ma‘rifiy turmushning o‘tmish bilan qiyoslash va kelajakka nazar solish tuyg‘usi shakllanadi. Yangi jamiyat qurish avvalo, yoshlarga, ularning ma‘naviy dunyosi, kasb- mahoratiga bog‘liq. Binobarin, yosh avlodda milliy g‘oyani, yuksak ma‘naviy fazilatlarni shakllantirishda, milliy ong va sog‘lom fikrni uyg‘otish, ularni Vatan, xalq va istiqlol taqdiri uchun g‘oyaviy kurashchanlik ruhida tarbiyalashda, yuksak ma‘naviyatli komil inson bo‘lib shakllanishida, shuningdek, xalqimizning ma‘naviy yuksalishi yo‘lida “O‘zbekistonning eng yangi tarixi” fanining ahamiyati katta. Ushbu fanning barcha oliy va o‘rta maxsus o‘quv yurtlari hamda maktablarda o‘qitilishi ham ana shu yuksak ahamiyat bilan belgilanadi.

Hulosa o‘rinda, O‘zbekistonning eng yangi tarixini o‘rganish orqali davlatimiz va jamiyatimiz uchun har taraflama ma‘naviy yetuk, tarixiy xotirasi orqali voqealardan ibrat va saboq chiqara oladigan yosh avlodni tarbiyalashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR VA MANBALAR

- 1.Mirziyoyev, Sh.M. Hozirgi zamon va Yangi O‘zbekiston. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2024. – B. 3.
- 2.Mirziyoyev, Sh.M. Hozirgi zamon va Yangi O‘zbekiston. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2024. – B. 7.
- 3.<https://president.uz/uz/lists/view/4547>
- 4.O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi // “Xalq so‘zi”, 2018 yil 29 dekabr.
- 5.Shavkat Mirziyoyev. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017. 45-bet.



X-XI ASRLAR АББОСИЙЛАР ХУКМРОНЛИГИДАГИ ИЖТИМОИЙ, СИЁСИЙ ВА ИЛМИЙ ВАЗИЯТ

Ахмедов Бурхон Абдурахмонович

Ўзбекистон халқаро ислом академияси

Исломшунослик ва ислом цивилизациясини ўрганиш

ICESCO кафедраси доценти, фалсафа доктори PhD

Тел: (90) 317-52-22 мобил

Аннотация

Ҳижрий IV/ X милодий аср ислом тамаддуни ривожига ва юксалишида ижтимоий-сиёсий ўзгаришлар таъсири катта эканини кўриш мумкин. Мазкур даврдаги илмий-маърифий муҳит ва унинг олимлар ижодига таъсирини ўрганиш муайян илмий-назарий хулосалар чиқаришни тақозо этади.

Ушбу мақолада X-XI асрлар Аббосийлар ҳукмронлигидаги ижтимоий, сиёсий ва илмий вазият тадқиқ қилинган бўлиб, унда давлатнинг этник таркиби, улар ўртасидаги муносабатлар, турмуш тарзи, маданий ҳаёти, илмга бўлган эътибор ва илмий марказлар ҳақида маълумотлар берилган.

Калит сўзлар: *аббосийлар, ашуро, явмул-ғодийр, улум ан-нақлийа, улум аш-шаръийа, фикҳ илми, калом илми.*

Аббосийлар ҳукмронлигининг иккинчи асрида Ислом дунёси янада кенгайиб, Шарқда Ҳиндистон ва Форс денгизигача, Ғарбда Судан ва Африканинг олис ўлкаларигача, Шимолда Византия ва унга туташ Арманистон, Хазар, Булғор, Турк ерлари ва Хитойгача, жанубда эса Форс денгизига қадар чўзилиб боргани тарихий манбаларда келтирилган [1:22].

Лекин бу кенгайиш узоқ давом этмаганлигига, аббосийларнинг амалдаги ҳукмронлигидан 330-430/942-1039 йиллар оралиғида халифалик пойтахти Бағдоддан тўлиқ мустақил бўлган Мисрдаги фотимий-исмоилийлар каби бир қанча амирликлар ажралиб чиққанига тарихий манбалар гувоҳлик беради. Бу амирликлар амалда мустақил бўлишига қарамай, Бувайҳий-шиалар давлати каби расман Бағдодга бўйсунардилар. Натижада, аббосийлар фақат Бағдод устидангина ўз ҳукмронлигини зўрға сақлаб қолдилар. Баъзида бу ҳокимиятни ҳам 334/945 йилда бувайҳийларга бой бериб қўйганлари каби йўқотардилар.

Аббосийлар халифалиги даврида халқ қуйидаги миллатлардан ташкил топган эди: араблар, форслар, турклар, дайламлар ва курдлар. Улар ўртасидаги ўзаро муносабатлар мазҳабий мутаассиблик руҳида кечгани сабабли улар ўртасидаги ўзаро урушлар юқорида айтиб ўтилганидек, турклар ёки бошқалар, форслар билан дайламликлар ўртасидаги келишмовчиликлар мавжуд эди. Аҳоли аксар қисмининг яшаш даражаси бой турмуш тарзидан кўра фақирликка яқинлиги мамлакатдаги ички



“RAQAMLASHGAN JAMIYATDA INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH: IMKONIYAT VA ISTIQBOLLARI” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

урушларга асосий сабаб бўлиб, бу 364/975 йилда озиқ-овқат маҳсулоти нархларининг кескин ошиб кетишига олиб келди.

Ибн Асир 401/1011 йил ҳақида қуйидагиларни ёзади: “Бу йилда Хуросонда озиқ-овқат маҳсулотларининг нархи кескин ошиб кетди. Очликдан одамлар “Нон! Нон!”, – деб бақирар ва жон берардилар” [3:254]. Бунинг устига 341/952 ва 348/959 йилдаги каби, 362/973 ва 371/982 йилдаги Карх ёнғини сингари катта ёнғинлар, товламачиларнинг кўпайиб, мол-мулкларни талаши, зилзилалар ва табиий офатлар ҳам халқнинг аҳволини янада оғирлаштирган эди.

Халифа, амирлар ва вазирлар эса бу даврда тўкин-сочинлик, дабдаба ва зебу зийнатда яшар, халифанинг саройлари ва унга туташ иморатлар улканлигидан ўзига хос маҳобат касб этарди. Йирик мансабдорларнинг ҳовлилари ҳам сарой тусини олган эди. Бу вақтда сарой иморатлари маҳорат билан қурилган бўлиб, улар уч қисмга ажратилган: ҳарам хоналари, ходимлар учун ҳужралар ва зиёфат учун мўлжалланган заллар. Саройларни мева ва хушбўй ҳидли гулларга бурканган боғлар ўраб турган [4:434]. Бунга ҳам қаноат қилмасдан, халифалар Форс ва Византия қасрларига монанд жуда ҳашамдор саройлар қура бошлаганлар.

Ҳижрий IV аср ва V аср бошларида байрамлар халифа ҳамда амирларнинг бой ва фаровон турмуш тарзларига монанд ўтказилган. Бу байрамларнинг энг муҳимлари Рамазон ва Қурбон ҳайитлари ҳисобланган.

Бойлар ва мансабдорлар қўли очиклик билан инфоқ-эҳсон қилар, айниқса, бу сахийлик Рамазон ойи ҳайитида янада кўпаярди. Қурбон ҳайити кунида қурбонликлар сўйилиб, фақирларга тарқатилган. Бу икки ийд кунларида кўчалар безатилар, майдонлар чироқлар билан ёритилар ва дарёлар ясатилган қайиқлар билан тўлиб-тошарди. Шунингдек, халифалар одамларга ҳайит намозида имомлик қилар, фақирларга кўплаб ҳадялар улашар ва улар ҳам бошқалар қатори байрам ҳурсандчилигига шерик бўлардилар.

Шу қатори шиаларнинг ҳам ўзига хос байрамлари бўлиб, катта тантаналар билан нишонланар эди. Бу байрамлар Ашуро ва Явмул-ғодийр бўлиб, уларда саҳобаларни қарғаш ва уларга нисбатан беодоблик, ўз-ўзини қийнаш каби ҳолатлар бўлгани учун, бу нарса кўпинча турли хил фитналарни келтириб чиқарарди.

IV/XI ва V/XII асрлар ички зиддиятлар ва сиёсий муҳитдаги тушкунликка қарамай, илм-фан ривожига жадал тус олганини пайкаш қийин эмас. Ривожланиш ўчоғи Халифалик марказида, айниқса, кўзга ташланар эди. Шу сабабли Бағдод илмий муҳити шу даражада гуллаб яшнадики, унга бирон-бир шаҳар, ҳатто Миср ҳам фотимийлар давригача бу даражага ета олмади. Бунга кўпроқ халифаларнинг олимларни рағбатлантириши ва уларни узлуксиз совға-саломлар билан сийлашлари сабаб бўлган. Шунингдек, халифа ва вазирлар олимлар даврасида бошқа



“RAQAMLASHGAN JAMIYATDA INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH: IMKONIYAT VA ISTIQBOLLARI” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

мансабдорларга нисбатан фахр ва ғурурланиш туярдилар. Шу боис баъзи илм ва одоб эгалари обрў-эътибор, шуҳрат ва бойлик илинжида Бағдодга келиб, халифа ва амирларга яқин бўлишга ҳаракат қилишарди.

Бу даврда илм марказлари ва ҳуқуқ мактаблари бир-икки шаҳардагина эмас, балки бутун минтақа бўйлаб, яъни халифаликка тегишли ҳудудларда ёйилиб кетди. Жумладан, Бағдод, Хоразм, Фарғона, Тошкент, Термиз, Насаф, Марв, Қошғар, Баласоғун, Талас, Волгабўйи шаҳарлари, Нишопур, Исфаҳон, Ҳирот, Журжон, Тус, Рай, Ғазна, Ғарбада Испания ва Шимолий Африканинг турли шаҳарлари илм-маърифат ўчоқларига айланди.

305/918 йилда Византия элчиси Бағдодга келганида халифа унинг шарафига катта тантана уюштириб, 160 минг кишилиқ жанговар қўшинни намоёниш қилади. Элчи шаҳарнинг ниҳоятда катталиги ва ободлигини, биноларнинг ҳашамдор ва безакдорлигини, аҳолининг тўқ ва фаровон ҳаётини кўриб ҳайратга тушади [5:97].

Шунингдек, бу даврда табиий фанлар билан бир қаторда фалсафий билим соҳалари ҳам ривожланган эди. Абу Наср Форобий (873-950), Абу Мансур Муҳаммад Мотуридий (870-944), Абу Абдуллоҳ Хоразмий (вафоти 997 йил), Абу Али ибн Сино (980-1037), Абу Райҳон Беруний (973-1048), Юсуф Хос Ҳожиб (1019 йилда туғилган) каби буюк аждодларимиз ҳам айнан мана шу даврда яшаб ўз илмий фаолиятларини олиб борганлар. Бу босқичнинг асосий хусусияти ақлга, мантикий тафаккурга таяниш, ўтмишда, яъни исломгача инсоният яратган маънавий бойликни ўзлаштириб, янгича талқин қилиш, аниқ ва табиатга оид фанларга қизиқишнинг беҳад кучайганини алоҳида таъкидлаш зарур.

Илк ўрта асрлар маданиятида X/IV асрга келиб барча илмлар икки кўринишга: 1) ўз ичига араб тили услуби, асослари, Қуръон тили, ислом қонун-қоидаларини қамраб олган гуманитар билимлар “улум ал-қадимиййа” “анъанавий илмлар” ёки “улум ал-ислом” ёки “улум ан-нақлиййа”, ёки “улум аш-шаръиййа”, яъни “шариат илмлари” ҳамда 2) математика, табиий илмлар, мантиқ, метафизика ва ҳоказолардан иборат “улум ал-ажам” – “арабларга тааллуқли бўлмаган илмлар” ёки “улум ат-табиъиййа” ёки “улум ал-ақлиййа”, яъни “рационал илмлар”га бўлинган эди. Биринчи гуруҳ ислом, диний билимлар ва ақидалар тизимини мустаҳкамлаш, қонунлаштириш ва ишлаб чиқиш, иккинчиси эса, моддий борлиқ – табиатнинг моҳиятини ўрганишга қаратилган эди.

Бу илмий жараённинг ҳаракатлантирувчи кучи диний-сиёсий мазҳабларнинг кўплиги билан боғлиқ бўлиб, шиалар, исмоилийлар, мўътазилийлар ва қарматийлар шулар жумласидандир. Ўша давр уламолари китоблар ёзиш ва мунозаралар орқали ўз мазҳабларини қувватлашга интилар, натижада, шу мазҳабчиликка мансуб бўлган сиёсий кучлар томонидан ҳадяларга ҳам сазовор бўлардилар.



“RAQAMLASHGAN JAMIYATDA INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH: IMKONIYAT VA ISTIQBOLLARI” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

Шунингдек, диний мазҳаблар ҳамда фақиҳларнинг ўз мазҳабларини бошқалардан афзаллигини кўрсатишга бўлган ҳаракатлари фикҳ илмининг ривожига сабаб бўлди.

Хусусан, 330/941-430/1038 йилларнинг асосий хусусияти ижтиҳод эшикларининг ёпилиши билан боғлиқ бўлиб, бу эса бир қатор салбий ҳолатларга олиб келди. Фақиҳларнинг мужтаҳид имомлар тўплаган илмларни шарҳлаш билан чекланишлари, фақатгина шарҳга шарҳлар ёзиб, фаразларни кўпайтиришлари, жузъий масалаларни ўқувчига осонлаштириш ёки имомлар чиқарган ҳукмлар сабабларини кўрсатиб бериш мақсадида ёзилган шарҳлар кенг ёйилди. Дарҳақиқат, буни турклар ва дайламликларнинг халифалик ҳокимиятига таъсири ортиши натижасида вужудга келган ҳукмрон ижтимоий-сиёсий вазиятнинг табиий натижаси деб қараш керак. Чунки, улар араб тилини мукаммал билмаслиги сабабли фикҳий билимларни осонлаштиришга эҳтиёж туғилар эди.

Милодий VIII асрга келиб эса, фикҳ илми калом илмидан мустақил илм сифатида ажралиб чикди ҳамда Ибн Жарир Табарий, Авзоъий (88/707- 157/774), Сўфён Саврий (97/716-161/778) мазҳаблари заифлаша бошлагач, машҳур тўртта мазҳаб кўриниш олиб борди. Муҳаммад Курд Али бу ҳақида шундай деган: “Бу мазҳаблар инқирозининг сабаби шундаки, уларда фуруъ, яъни жузъий масалаларнинг кенг ёритилмагани ҳамда Имом Муҳаммад ва Абу Юсуфлар каби масалаларни батафсил ёритувчиларнинг бўлмаганидир” [6:11].

Бу даврда ҳанафий мазҳаби Ироқда шуҳрат қозонди ва кенг тарқалди. Турклар бу мазҳабни асос қилиб, бошқарув ишларида у билан ҳукм қила бошлагач, бошқа шаҳарларга ҳам тарқалди [7:448]. Кўпинча халифалар ва волийлар ҳанафий мазҳаби вакиллари қозиликдан бош тортмаганлиги ва хайрихоҳ ҳолда қабул қилганлиги учун уларни қозиликка сайлар эди ва бошқа мазҳаб вакилларида афзал кўрарди.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Адам Метз. Таржимон (араб тилига): Муҳаммад Абдулҳодий Абу Райда. IV ҳижрий асрда Ислом маданияти ёки Ислом уйғониш даври. – Байрут: 1967.
2. Ибн Асир Жазарий. Ал-Комил фи ат-тарих. Ж.7. – Байрут: Дор ал-кутуб ал-илмия, 1978.
3. Ибн Имод Ҳанбалӣ. Шазарот аз-заҳаб фи ахбори ман заҳаба. Ж.3. – Байрут: Дор ал-офок ал-жадида.
4. Ҳасан Иброҳим Ҳасан. Тарих ал-ислом. Ж.3. – Байрут: Дор ал-жил, 1996.
5. Имодуддин Абул Фидо Исмоил ибн Касир Қураший Димашқий. Ал-бидаъ ва ан-нихая. Ж.11. – Байрут: Дар ихя ат-турос ал-арабий, 1997.
6. Муҳаммад Курд Али. Ал-Ислам ва ҳадорат ал-араб. – Қоҳира: Мактабат дор ал-кутуб ал-асрийя, 1936.



7. Абдуррахмон ибн Муҳаммад ибн Халдун. Ал-Муқаддима. – Байрут: Муассасат ал-аъламий.

8. Муҳаммад Абдулхай Лакнавий. Ал-Фаваид ал-баҳийя фи тарожим ал-кутуб ал-ҳанафийя. – Миср: Матбаът дор ас-саъода, 1906.

НУКУС ШАҲРИНИНГ ПОЛИЭТНИК МАҚОМИ

Сейтимбетова Наргиза Мынсызбаевна

Қорақалпоқ давлат университети Археология кафедраси доценти, PhD

+99893 367 84 18, seytimbetovanargiza@umai.uz, Нукус шаҳри

Аннотация. Ўзбекистон Республикаси кўп миллатли республика ҳисобланиб, республиканинг кўп миллатлилиги жамиятда фуқаролар ўртасида барқарорлик ва тинчликнинг, миллатлараро тотувликнинг таъминланганлиги билан боғлиқ. Ушбу мақолада кўп миллатлилик феномени, кўп миллатли жамиятни ифодаловчи мезонлар, Қорақалпоғистонда кўп миллатли аҳолининг таркиб топиши омиллари, Нукус шаҳрининг полиэтниқ шаҳар сифатидаги мезонлари ҳақида сўз этилади.

Калит сўзлар: кўп миллатлилик, этник тарих, миллий таркиб, демографик жараён, полиэтниқ шаҳар, миллатлараро тотувлик.

Кўп миллатлилик ниҳоятда мураккаб ижтимоий-демографик феномен бўлиб, кўп миллатлилик жамиятдаги миллат ва элат, уруғ ва қабила вакилларининг нафақат миқдори, балки улар орасидаги ижтимоий муносабатлар характери, мақсадлар ва манфаатлар бирлиги билан ҳам боғлиқдир. Бошқача айтадиган бўлсак, кўп миллатли жамият унда истиқомат қилаётган миллат ва элат, уруғ ва қабила вакилларининг ранг-баранглигини, ижтимоий ҳаётнинг турли соҳаларидаги тинч-тотув турмуши ва ҳамкорлигини, мазкур этник бирликлар орасида юзага келиши мумкин бўлган зиддият ва келишмовчиликларни зудлик билан бартараф қилиш имконини берувчи ижтимоий механизмнинг мавжудлигини ифодаловчи сиёсий-ҳуқуқий, ижтимоий-иқтисодий ва маънавий-мафкуравий омиллар ва воситаларни ўзида жамлаши зарур. Айнан ана шундай мамлакатдагина кўп миллатлиликнинг субъектлари сифатида турли меҳнат жамоалари, сиёсий ва жамоат ташкилотлари, шаҳарлар ва қишлоқлар, ўқув, илмий, маданий муассасалар ва бошқалар майдонга чиқади.

Мамлакатимизда кўп миллатли аҳолининг таркиб топиши узоқ тарихий жараённинг маҳсули ҳисобланади. Бу ҳақда халқларнинг қадимги тарихи ҳақида ҳикоя қилувчи «Авесто», юнон-рим муаллифларининг асарлари, ўрта асрларда юртимизда яшаб ўтган олимлар, сайёҳлар, шунингдек, ҳудудда олиб борилган илмий экспедициялар, тарихчи олимларнинг ҳозиргача етиб келган маълумотларидан билиш мумкин.



“RAQAMLASHGAN JAMIYATDA INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH: IMKONIYAT VA ISTIQBOLLARI” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

Ўлка ҳудудидаги халқларнинг маълум даврларда бир неча маротабалаб кўчишлари, вайронгарчилик келтирувчи шиддатли урушлар, турли ҳукмдорларнинг жангу-жадаллари — буларнинг барчаси демографик жараёнларда ўз аксини топди.

Асрлар давомида турли истилочилар: Кир II, македониялик Искандар, араб халифалиги, Чингизхон, Россия империяси юртимизга талончилик ва мустамлакачилик мақсадида юриш қилди. Амир Темурнинг давлат фаолияти даврида эса бошқа халқларнинг вакиллари бу ерга кўчиб кела бошлади [1,57].

Бу ерга келган халқларнинг вакиллари яшайдиган ҳудудлар пайдо бўлди, янги шаҳарлар пайдо бўлди. Истилочилик ва мустамлакачилик натижасида бу ерга янги тил, дин ва маданий қадриятлар кириб келди, янгича маданият кириб келди. Бу жараёнларнинг ҳаммаси мамлакатнинг миллий таркибига ўз таъсирини кўрсатган. Ушбу жараёнлар, аҳолининг демографик ва миграция жараёнлари натижасида кўп миллатли шаҳарларнинг шаклланишига олиб келди.

Мустақиллик йилларида Қорақалпоғистон Республикаси пойтахтининг қиёфаси сезиларли даражада ўзгарди. Нукус – кўп миллатли шаҳар. Маълум бўлганидек, узоқ асрлар давомида шаҳарлар полиэтник марказлар сифатида хизмат қилиб келди. Масалан, Нукусда ўзбеклар, қozoқлар, туркманлар, руслар, корейслар, татарлар ва бошқа миллат вакиллари қорақалпоқлар билан бирга дўст ва тотувликда яшамоқда.

Нукусда қozoқ, корейс, рус ва бошқа халқларнинг маданият марказлари жойлашган. Кўплаб миллат вакиллари учун, Нукус – замонавий ҳаёт тарзини жорий қилиш ва Ватаннинг ривожланиши йўлида миллатлараро тотувлик ва бағрикенглик, тинчлик, ривожланиш ва фаровонлик ўчоғи бўлиб келди. Республика жамиятчилиги куч – бирликда эканлигини теран ҳис қилади [2,128].

Нукус шаҳрининг полиэтник хусусияти қуйидаги мезонлар билан боғлиқ:

шаҳарнинг марказ сифатидаги мавқеи. Бу шаҳарда сиёсий, ижтимоий-иқтисодий аҳамиятга молик объектларнинг, кўплаб таълим масканлари, ўқув юртлари, маданият марказларининг мавжудлиги билан характерланади;

шаҳарнинг янги замонавий қиёфасининг яратилиши. Бу шаҳарда кўплаб замонавий қурилиш объектларининг қурилишида, уни лойиҳалашда хорижий инвесторларнинг жалб этилиши ва туманлардан турли миллат вакилларининг қурилишда иштирок этиш учун келиши билан белгиланади;

республиканинг ички ва ташқи миграция жараёнлари. Бу шаҳарга турли сабаблар билан, шунинг ичида янги иш ўринларини излаб келган шахсларнинг шу ерда яшаб қолиши билан боғлиқ.

Республикада миллатлараро тотувликни асраб-авайлаш ва мустаҳкамлашга юртимизда фаолият юритаётган барча соҳа ходимлари ўз ҳиссаларини қўшмоқда. Бугунги куннинг долзарб масаласи – барча соҳаларда бирга ишлашиш ва ижтимоий



“RAQAMLASHGAN JAMIYATDA INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH: IMKONIYAT VA ISTIQBOLLARI” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

хамкорлик алоқаларини ривожлантириш ҳисобланади. Кўп миллатли жамиятнинг ўзига хос хусусиятларини очиб беришга, унинг шаклланганлиги даражасини кўрсатувчи мезонларни тушунтиришга, миллатлараро тотувликни ёритишга қаратилган маънавий тадбирларгина миллатлараро тотувликни мустақкамлашга хизмат қилиши мумкин.

Адабиётлар рўйхати:

1. Муртазаева Р.Х. Ўзбекистонда миллатлараро муносабатлар ва бағрикенглик. Т. «Университет» 2007, 57-б.
2. Джумашев А., Нуржанов С., Уразова Л., Таджиева Р. Қарақалпақстан тарийхи (1991-2015 жыллар). -Н.: Илим, 2018, 128-б.

MILLIY HUNARMANDCHILIK VA TURIZM: DASTLABKI QADAMLAR VA MUAMMOLAR

Murodov Halim Salimovich

Buxoro davlat pedagogika instituti, “Ijtimoiy fanlar” kafedrası dotsenti,
tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD)

E-mail: murodovhalim645@gmail.com

O'zbekiston, Buxoro

Buxoro hunarmandchiligi azaldan bobomeros va otameros kasblar sifatida sulolaviy ustozodalar tomonidan ishlab chiqilib kelinmoqda. X asrda Buxoroning mashur "zandanacha" matosi dovrug'i butun Sharq olamida mashhur bo'lib, savdo karvonlari "zandanacha" matosi uchun maxsus tashrif buyurganliklari tarixdan ma'lumdir. Mustaqillikning tiklanish yil Buxoroda turizmningida turistik kompaniyalar qatori san'atning boshqa Buxoro hunarmandchiligining ham alohida o'rni bor. Jumladan hunarmandchiligining yuqori va qadimiy sohalar bo'lgan zardo'zlik, zargarlik, misgarlik, qandakorlik, kulolchilik milliy kiyimlar tikish, do'ppichilik, kashtachilik kabilar rivojlanib, bu borada mohir ustalar Jumayev Baxshillo, Alisher Narzullayev, Shokir Kamolov, Mahfuza Salimova, Usto Samad, Atamuradov Safo, Toshev Davron kabilarning faoliyati tufayli rivojlanishga erishdi. Mustaqillikka erishgach, 1990 yillar boshida hunarmandchilikning ko'plab turlari og'ir ahvolga tushib qoldi, chunki ushbu sohalar uchun xom ashyolar(baxmal, zar iplar, karton) sobiq Ittifoqning turli mintaqalaridan olib kelinar edi. Buxoro hunarmandlari muammolarni yechish uchun imkoniyatlarni ishga solib tez orada o'z do'konlari va ustaxonalarini tashkil etdilar. Buxoroda birinchi xususiy hunarmandchilik ustaxonasini zardo'z usta Jumayev Baxshillo tashkil etgan. Avvalgi davrda chet eldagi ko'rgazmalarda juda kam qatnashishgan. Xalqaro aloqalar o'rnatish uchun harakatlar boshlandi. 1994 yilda birinchi marta Pokistonning Islomobod shahrida 70 ta davlat hunarmandlari ishtirokida xalqaro festival bo'lib, unda birinchi o'rinni buxorolik



“RAQAMLASHGAN JAMIYATDA INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH: IMKONIYAT VA ISTIQBOLLARI” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

usta Jumayev Baxshillo egallab, davomiy hamkorlik aloqalari o'ratildi. O'zbekistonda Buxoro hunarmandlari birinchi bo'lib, 1995 yilda "Umrboqiy meros" hunarmandlar uyshmasi (Ustavi ham) tuzilib, uyushma prezidenti etib, Buxoro muzeylari birlashmasining direktori va hunarmandlarni doim qo'llab quvvatlovchi inson Robert Almeev, vitse prezidentlar esa Baxshillo Jumayev va Alisher Narzullayevlar saylandilar[1,B.1-3]. Buxorodagi hunarmandchilik rivoji hamda uning xalqaro festivallardagi muvaffaqiyatlari xalqaro YUNESKO tashkilotining e'tiboriga tushib, natijada Buxoro hunarmandchiligi tajribasini o'rganish, xulosa va tavsiyalar berish uchun 1996 yilda doctor Naranyanni Buxoroga yuborilib, bir yil davomida tadqiqot ishlarini hamkorlikda olib bordi. Doktor Narayan bir yillik tadqiqot hisoboti va tavsiyalarini YUNESKO va O'zbekiston hukumatiga taqdim etdi. Ushbu tadqiqot va "Umrboqiy meros" uyushmasi tajribasi 1997 yilda O'zbekiston respublikasi "Hunarmand" uyushmasining tuzilishiga turtki berdi.

Hunarmandchilikning aholini ish bilan ta'minlashdagi ahamiyati sezilarli darajada ortib, 1997-1998 yillarda respublika "Hunarmand" uyushmasining Buxoro viloyat bo'limi raisi vazifasini bajargan Baxshillo Jumayevning aytishicha bu davrda uyushmada 700 nafar hunarmand a'zo sifatida faoliyat yuritgan. Buxoro hunarmandlari ko'payisill qadimiy hunarmandchilik turlari tiklanishi hamda kengayishi bila shaharning tarixiy markazidagi madaniy meros inshootlarda, hujralare unga xos bo'lmagan xo'jalik mollari do'konlari, spirtli ichimlikla do'konlari, aptekalar kabilar o'rnini hunarmand ustalar egallab, o'z ustaxona va do'konlarini tashkil etishlari bilan ushbu hudud obod bo'lishi bilan birga turistlarning tungi sayr qilishi uchun ham xavfsiz hududga aylandi. Suvenirilar va miniatyura san'ati namunalarini tayyorlash sohasi yanda kengayib, bu jarayon turistlar uchun mahsulotlar sifati va turini ko'payishiga omil bo'lib xizmat qildi.

Bu borada Buxoroda 1990 yilda birinchi bo'lib, o'zining xususiy zardo'zlik ustaxonasini tashkil etgan usta zardo'z Baxshillo Jumayev edi. Baxshillo Jumayev mashhur zardo'zlar sulolasining 6 avlod vakili bo'lib, u kishining bobosi Rajab oqsoqol Abdurahmonzoda Buxoro amirligi davrida 1900-1920 yillarda Buxoro zardo'zlik ustalarining oqsoqoli bo'lgan. Usta Baxshillo Jumayev zardo'zlik san'atini rivojlantirish va turistlarga yanada kengroq turdagi mahsulotlarni taqdim etish uchun 1995 yilda Buxoroda "Sovg'a" zardo'zlik markazini tashkil etdi. Natijada Baxshillo Jumayev zardo'zlik va patdo'zlik buyumalri hamda kiyimlari turistlar orqali butun dunyoga tarqalib, Buxoro brendini yanada mashhur bo'lishiga xizmat qilmoqda. 2013 yilda Baxshillo Jumayev "Sovg'a Ustozoda Zardo'zon" oilaviy korxonasini tashkil etib, hozirgi kunga qadar usta ushbu korxonaga rahbarlik qilib, Buxoro hunarmandchiligi va turizmi rivojiga kata hissa qo'shib kelmoqda. Usta Baxshillo Jumayev zardo'zlik bo'yicha 500 dan ortiq shogirdlarni tayyorlab, ular O'zbekistonning barcha hududlari, Tatariston, Boshqirdiston, Tojikiston kabi davlatlardan kelib o'rganishgan [2,B.4].



**“RAQAMLASHGAN JAMIYATDA INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH: IMKONIYAT VA ISTIQBOLLARI”
mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1997 yil 31 martdagi "Xalq badiiy hunarmandchiligi va amaliy san'atini yanada rivojlantirishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-1741-son Farmoni va Farmoni asosida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xalq badiiy hunarmandchiligi va amaliy san'atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2005 yil 28 martdagi PF-3588-sonli farmoni natijasida xalq hunarmandlari uchun ochilgan istiqbol va imkoniyatlar Buxoro ipak gilamdo'zlik markazi barpo etildi. Mustaqillik yillarida ya'ni 1997-1999-yillarda tashkil etilgan Buxoro ipak-gilamdo'zlik kombinati 2011-yilda viloyat hokimligi ko'magida Buxoro shahrining qoq markazida (Xo'ja Nurobod ko'chasi boshida) Mir Arab madrasasi yonida joylashgan yirik ishlab chiqarish va savdo markaziga aylandi. Buxorodagi gilamdo'zlik san'ati tarixiga naza tashlasak, X-XII-asrlarda O'rta Osiyoda, jumladan, O'zbekistond ham gilamdo'zlik san'ati juda rivojlanganligi ma'lumdir. XVIII-XIX asrlarning ikkinchi yarmida Buxoro xonligida gilam to'qish san'a o'ziga xos uslub kasb etdi. Bu yerda gilam ishlab chiqarish o'zining bezaklari, yuqori sifatli to'qishi, bo'yash texnikasi bilan ajralib tura boshlaydi. Aynan shu maktablarning davomi sifatida Buxoro ipak-gilamdo'zlik majmuasi tashkil etildi, jahon andozalari va yuksak talablarga asoslangan mazkur markaz ayni paytda milliy o'zlikni asrash tamoyillari asosida shakllandi. Buxoro ipak-gilamdo'zlik markazida 40 nafar qiz gilamdo'zlik, bir vaqtning o'zida 10 nafar qiz adras to'qish bilan shug'ullangan [3,B.245]. Ustadan shogirdga mahorat o'rgatish an'analari asosida kamolotga yetgan o'quvchilar-shogirdlarning yakka tartibdagi tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'yishi uchun sharoit yaratilgan. 2015-2016 yillarga kelib, turistik markaz bo'ylab tashkil etilgan filiallarni ham hisobga olganda jami birgalikda jami 258 kishi ish bilan ta'minlangan.

Buxoro ipak-gilamdo'zlik markazining hunarmand san'atkorlari yiliga 100-150 dona ipak gilam to'qishadi. Asosan "Anorgul", "Chorbog", "Kashkoi", "Salogul" va boshqa 10 dan ortiq turli naqshli gilamlar hunarmandlar va ularning shogirdlari tomonidan to'qiladi. Markazda gilam to'qish va adras to'qish sexi, gilam bo'yash bo'limi, ayni paytda bir vaqtning o'zida 27 kishiga xizmat ko'rsatadigan xorijiy turistlar uchun salqin ichimliklar tayyorlaydigan bar ham faoliyat yuritgan. Shuningdek, markaz binosida 24 soat davomida sayyohlarga valyuta ayirboshlash xizmati "Kapitalbank" Buxoro filialining bankomati o'rnatilgan. Buxoro ipak-gilamdo'zlik markaziga har yili 100 mingdan ortiq sayyoh tashrif buyuradi. Buxoro ipak-gilamdo'zlik markazi faoliyatini yildan-yilga kengaytirib, ayniqsa viloyat iqtisodiyotiga xorijiy valyuta tushumini ko'paytirishga sezilarli hissa qo'shib, jumladan har yili 200 dan 450 ming AQSH dollarigacha eksport xizmatlari ko'rsatgan. Markazning boshqa markazlardan o'ziga xos jihati shundaki, ular bu yerda mehmonlarga hurmat va zudlik bilan ajoyib xizmat ko'rsatib, tashrif buyuruvchi turistlarga yoshartiruvchi, chanqog'ini bosuvchi, charchoqni ketkazuvchi mo'jizaviy "Avitsenna"



“RAQAMLASHGAN JAMIYATDA INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH: IMKONIYAT VA ISTIQBOLLARI” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

choyi bilan mehmonnavozlik qiladilar. Bu erga kelgan sayyohlar Buxoroning mo'jizaviy san'ati namunalarini xarid qilmasdan keta olmaydi [4,B.253]. Shu bilan bir qatorda Buxoro miniatyura san'atini rivojlantirish maqsadida usta Toshev Davron hunarmand tomonidan 2019 yilning may oyida "Buxoro ipak qog'ozi" hunarmandchilik markazi qurib bitkazilib foydalanishga topshirildi. Shu bilan bir qatorda tashabbuskor san'atkor Toshev Davlat tomonidan Buxoro shahrining "Arabon" ko'chasida joylashgan XVI asrda qurilgan qadimiy yodgorlik negizida "Usto-shogird" miniatyura markazi tashkil etildi [5,B.4].

Turistlar bilan o'tkazilgan so'rovnoma ularning 45 foizi san'atning folklor musiqa va raqslarini, milliy kiyim va urf-odatlarini ko'rish va bevosita ishtirok etishga qiziqish bildirishgani juda e'tiborga molikdir. Shu jumladan, Buxoro madaniy hayotining asosiy qismiga aylangan "Buxorcha" va "Mavrigi" qo'shiq va raqslardan tarkib topgan folklor-zullisonayn qo'shiqchiligidan turistlar, mehmonlar va ziyoratchilarning dam olish vaqtlarini mazmunli o'tkazishda o'ziga xos o'rin egallamoqda. Tarixiy markazlar oldida maxsus "Buxorcha" va "Mavrigi" qo'shiq va raqs sahna maydonlarini tashkil etilib, unda milliy qo'shiqchilik folklor dastalarining repertuarlari namoyishi etilishi turistlarga unutilmas lahzalar va yuksak madaniy hordiq taqdim etish orqali sayyohlarni yanada ko'proq jalb qilish barobarida sayyohlik hududi sifatida Ko'hna Buxoroning jozibadorligini oshirishga beminnat xizmat qilmoqda [6, B.334]. Buxoroda 2017 yilda hunarmandlar soni jami 1050 ta bo'lib, olib borilgan islohotlar va berilgan imtiyozlar tufayli 2020 yilda ularning soni 12 179 tga ko'paydi [7.B.5]. Bu esa viloyatda yangi ish o'rinlarini yaratishda katta omil bo'lishi bilan birga turistlar uchun esdalik sovg'alar, xalq amaliy san'ati buyumlari va suvenirlar sonining ko'payishi hamda sifatining oshishiga xizmat qildi. Asosiysi viloyat iqtisodiyotiga chet el valyutasining kiritilishi bo'lishi ya'ni xizmatlar eksportidan kelayotgan daromad oshib borishi bo'ldi.

Xulosa qiladigan bo'lsak, Buxoro turizmini rivojlantirishda xalq amaliy san'ati sohalari tasviriy va amaliy bezak san'ati, me'morchilik va teatr, musiqa hamda milliy qo'shiqchilik folklor san'atining o'рни yuksak darajada bo'lib, ayniqsa hozirgi kundagi pandemiya so'ng turizmni tiklanish jarayonida mintaqada barqaror turizmni rivojlantirishga ko'maklashish va hududning sayyohlik nufuzini oshirib borishda juda katta potensial sifatida namoyon bo'lmoqda. Shuni e'tiborga olib, Ko'hna Buxoroda azaldan rivojlanib kelgan milliy me'morchilik va dovrug'i butun Sharqni tutgan ushbu mintaqaga xos zardo'zlik, zargarlik, miskarlik, kandakorlik hamda naqsh amaliy san'ati an'alarini saqlash va rivojlantirish, ularning noyob namunalarini targ'ib etish, tiklash, saqlab qolish kabi ezgu amallari orqali mintaqaning turizm salohiyatini yanada oshirish, turistlar sonini ko'paytirish choralari ko'rish maqsadga muvofiqdir.

Adabiyotlar ro'yxati:



“RAQAMLASHGAN JAMIYATDA INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH: IMKONIYAT VA ISTIQBOLLARI” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

1. "Sovg'a Ustozoda Zardo`zon" oilaviy korxonasi rahbari Jumayev Baxshillo Shirinovich bilan suhbatdan yozib olingan. 17.04.2022 yil
2. "Sovg'a Ustozoda Zardo`zon" oilaviy korxonasi rahbari Jumayev Baxshillo Shirinovich bilan suhbatdan yozib olingan. 17.04.2022 yil.
3. Buxoro viloyat davlat arxivi, M-1503-fond, 1-ro'yxat, 40-Ish 245-256-varaqlar.
4. BVDA, M-1503-fond, 1-ro'yxat, 40-Ish, 253-260-varaqlar.
5. Buxoro viloyat turizmni rivojlantirish departamenti joriy arxivi//Buxoro viloyatida turizmni rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilgan ishlar haqida ma'lumot. 01.12.2019 yil.
6. Murodov H.S. Buxoro turizmini rivojlantirishda madaniy sohaning o'rni.// Zamonaviy dunyoda muzeyshunoslikning dolzarb masalalari. Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman to'plami - Toshkent, 2021. - №1 – B. 334-342.
7. Joriy arxivi, Buxoro viloyat turizm va sport Bosh boshqarmasi. Buxoro viloyatida turizm sohasi ko'rsatkichlari ma'lumotnomasi. 01.04.2022 yil holatida. 2022 yil.

TARIXIY QADIRYATLAR TARG'IBOTI RAQAMLASHTIRISH KONTEKSTIDA

Boymurodova Muborak Qilich qizi

Chirchiq pedagogika davlat universiteti Gumanitar fanlar fakulteti

Tarix yo'nalishi 4-bosqich talabasi +998947382107

boymurodovamuborak@gmail.com

Ilmiy rahbar: O.M.Normatov ChDPU dotsenti, t.f.f.d. (PhD)

Annotatsiya: Ushbu maqola tarixiy qadriyatlar targ'iboti; raqamlashtirish konteksti haqida so'z yuritilib, tarixiy qadriyatlar milliy o'zligimizni anglash va rivojlanish hamda taraqqiyotimiz uchun asos bo'lishi va ularni raqamlashtirish kontekstining ahamiyati va tarixiy qadriyatlarda tutgan o'rni haqida ma'lumotlar beriladi.

Kalit so'zlar: Tarixiy qadriyat, qadriyatlar, ma'naviyat, milliy meros, milliy qadriyat, raqamli texnologiyalar.

Inson paydo bo'lgandan buyon o'tgan davrda Ona zamin million yildan ortiq tarixni o'zida mujassam etgan. Olamning yaratilishi va inson tarixi to'g'risida juda ko'p rivoyatlar va afsonalar mavjud. Har bir inson hayotda yashar ekan o'zining fikrlari, qarashlariga va tushunchalariga ega bo'ladi. Bularni shakllantirish va rivojlantirishda tarix fanining o'rni va roli benihoya kattadir. Tarix fani bu yer yuzida inson paydo bo'lishi va rivojlanish qiyofasining shakllanishidan tortib qabila, urug', davlatlarning paydo bo'lishi, rivojlanishi taraqqiyoti, tanazzullari va shaxslar, moddiy va yozma yodgorliklarni va boshqalarni o'z ichiga oladi. Inson o'z tarixini o'rganish orqali kishilik jamiyatining rivojlanish qonunlari taraqqiyotning bosqichlarini, jamiyatning inqirozli holatga tushish sabablarini va bundan chiqish yo'lidagi tajribalarini tushunib oladi, o'tmish saboqlaridan xulosa chiqaradi va



“RAQAMLASHGAN JAMIYATDA INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH: IMKONIYAT VA ISTIQBOLLARI” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

kelajakda to'g'ri yo'ldan borish lozimligini anglab yetadi. Shu jihatdan, tarix fani tarixiy jarayonlarning qonuniyatlarini va an'alarini tushunib yetishga, hozirgi zamonni to'g'ri anglab kelajakni asosli ravishda ko'ra bilishga ko'maklashuvchi ilm manbaidir.

Ajdodlarimiz tafakkuri va dahosi bilan yaratilgan eng qadimgi toshyozuvlar va bitiklar, xalq og'zaki ijodi namunalaridan tortib, bugungi kunda kutubxonalarimiz xazinasida saqlanayotgan ming-minglab qo'lyozmalar, ularda mujassamlashgan tarix, adabiyot, sa'nat, siyosat, falsafa, tibbiyot, matematika, minerologiya, kimyo, astronomiya va boshqa sohalarga oid asarlar bizning buyuk ma'naviy boyligimizdir. Biron-bir xalq o'z tarixini bilmay asrlar osha yaratilgan ma'naviy merosga tayanmay va uni yanada rivojlantirmay turib o'z kelajagini tasavvur eta olmaydi. Grek va Rim adiblari o'z asarlarida Markaziy Osiyo hududidagi xalqlar tarixi, madaniyati, qadriyatlari, urf-odatlar haqida ma'lumotlar qoldirganlar.

Jamiyat ma'naviyatini yuksaltirishda tarixiy xotira, ajdodlar tarixini bilishning, milliy-axloqiy qadriyat hamda an'analarning o'рни va ahamiyati kattadir. Qadriyat -inson va insoniyat uchun ahamiyatli bo'lgan barcha narsalar, masalan, yaxshilik, moddiy va ma'naviy boyliklar, an'ana va urf odatlar va boshqalardir. G'arbda qadriyatlarni “Aksikologiya”(qadriyatshunoslik) fani o'rganadi. Qadriyatlar jamiyatda hurmatga ega kishilar, munosabatlar, moddiy-ma'naviy boyliklar majmuasidir.

Qadriyatlar tushunchasi muayyan hodisalarning insoniy, ijtimoiy va madaniy ahamiyatini ko'rsatish uchun qo'llaniladi. Ular tarix davomida shakllanadi. Taraqqiyot darajasiga ko'ra uning sifati va miqdori ortishi mumkin. Insoniyat tarixi o'zi yaratgan qadriyatlar dunyosining boyish va takomillashtirish tarixidir. Qadriyatlar va qadriyat mezonlari kishilarning xulq-atvorini tartibga solishga xizmat qiladi. Tarixiy meros va qadriyatlar tarixiy ongni shakllantiradi. Tarixiy-milliy qadriyatlar madaniy-ma'naviy bilimlarni boyitib g'oyaviy-ma'naviy yuksalishga xizmat qiladi. Qadriyatlarning barcha turlari insonning farovon, erkin yashashi ma'naviy-axloqiy kamol topishi uchun xizmat qiladi. Qadriyatlar o'tmish va hozirgi kun o'rtasidagi vorisiylikni ta'minlaydi, unda millat tarixi, o'tmishi va madaniyati namoyon bo'ladi. Tarixiy qadriyatlar bu bir xalq yoki jamiyat uchun muhim bo'lgan qadriyatlar, ma'naviy meros va madaniy an'analarni anglatadi. 1994-yili Respublika Ma'naviyat va ma'rifat jamoatchilik markazi tashkil etildi. Bu markaz xalqimizning boy ma'naviy merosini o'rganish, milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida mamlakat va millat kelajagini belgilaydigan ilg'or g'oyalarni amalga oshirgan. 2019-yil 3-mayda Prezidentimizning “Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish to'g'risidagi qarori qabul qilindi.

Tarixiy qadriyatlar bir necha turlarga bo'linadi. Moddiy, ma'naviy turlarga shulardan moddiy tarixiy qadriyatlar bu ajdodlarimiz tomonidan qurdirgan va bizgacha yetib kelgan obidalar, arxeologik yodgorliklar ham kiradi. Samarqandning qadimiy obidalaridan biri



“RAQAMLASHGAN JAMIYATDA INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH: IMKONIYAT VA ISTIQBOLLARI” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

bo'lgan Registon maydoni, Go'ri Amir maqbarasi, Bibixonim jome masjidi, Afrosiyob shaharchasi va boshqalar mavjud bo'lib, bular orasida alohida ajralib turadigan inshootlardan biri Registon maydoni hisoblanadi. U uchta yonma-yon binolardan iborat bo'lib Mirzo Ulug'bek madrasasi 1417-1420 yillarda qurilgan. Bu inshoot Markaziy Osiyoda saqlanib qolgan eng qadimgi bilim yurti hisoblanadi. Tillakori madrasasi Samarqand hokimi Yalangtosh Bahodir tomonidan 1641-1646 yillarda qurilgan. Sherdor madrasasi Registon maydonidagi XVII asrga oid islomiy ma'rifiy va yodgorlik-diniy bino. Ichanoqal'a Xivaning mustahkam devor bilan o'ralgan ichki shahri bo'lib uning qal'a devorining balandligi 8-10 metr, qalinligi 5-6 metr va tashqi perimetri bo'ylab uzunligi 6250 metr. Uning 4 ta darvozasi mavjud. Hozirgi kunda Toshkent shahrida joylashgan Ko'kaldosh madrasasi XVI asrda Shayboniylar davrida barpo etilgan. Uning qurilishiga “ko'kaldosh” laqabli bosh vazir boshchilik qilgan. Bu binolar yoki O'zbekiston hududidagi bohqa bir binolar ham bizning tariximizning va tarixiy qadriyatlarimizning bir qismi hisoblanadi. Ularning yoshi bir necha asrlar yoki qadimgi davrlarga borib taqaladi. Bu binolar asrlar osha yetib kelishi ham bu binoning qurilishida quruvchilarning qanchalik bilimdon ekanligini ko'rsatadi. Shuni ham aytib o'tish lozimki, inshootlar saqlanib qolgan bo'lsada tabiat hodisalari, inson omili natijasida qisman yoki biroz o'zgarishiga sabab bo'lgan. Ayrimlarini tiklashning iloji yo'q bo'ladi. Ana shunday vaziyatlarda bizga 3D modeli qo'l keladi. Ya'ni binoning ma'lum bir qismi yoki butunlay buzilgan joyi bo'lsa bu binoning 3D modeli yaratiladi.

Bizga tarix haqida ko'proq va kengroq tushunchalar olishimizga bilimlarimizni boyitishga yordam beradi. Hozir bunda tarixiy qiymati va ahamiyati benihoya katta binolarini tiklashning umuman imkoni bo'lmasa 3D modeli asosida qayta tiklaydi. Tarixiy qadriyatlarni raqamlashtirish bu moddiy va ma'naviy, tarixiy, boyliklarimizni elektron shaklda kelajak avlodlarga yetkazish uchun innovatsion texnologiyalardan keng foydalanishimizdir. Bu juda keng tushuncha bo'lib, nafaqat qadimiy obidalarini saqlash, balki tarixiy asarlarimiz va boshqalarni raqamlashtirish tushuniladi. Virtuallashtirish-raqamli iqtisodiyotda jismoniy va moddiy buyumlarni virtual ko'rinishga aylantirish tushuniladi. Virtual voqelik obyektlari odatda moddiy voqelikning o'xshash obyektlarining hatti-harakatlariga yaqinlashadi. Virtual voqelik sun'iy dunyoni quradi. Tarixiy qadriyatlarni raqamlashtirish bu zamonaviy texnologiyalarni ham tarix sohasida keng joriy etishni tushunishimiz mumkin. Masalan tarixiy qiymati juda bebaho bo'lgan yodgorliklarimiz borki, ularni ko'p ushlab yoki teginib bo'lmaydi. Chunki qadimiy bo'lganligi uchun unga ziyon yetishi yemrilishi mumkin. Ayrimlari aholi yashash hududlaridan ancha uzoq bo'lganligi bois u yerga borish oz bo'lsada qiyin bo'lsa bunda bizga ob'ektlarning raqamli nusxasini yaratish va buni xalq ommasi va o'quvchi yoshlarga yetkazishimizda foydalanishimiz mumkin.



“RAQAMLASHGAN JAMIYATDA INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH: IMKONIYAT VA ISTIQBOLLARI” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

Biz faqat bu bilan cheklanib qolmasdan O'zbekiston Respublikasi hududidan topilgan va bu topilgan topilmaning qimmati va ahamiyati dunyo bo'yicha yuqori bo'lgan topilmalarni asrab avaylashimiz lozim, bunda bizga ularni raqamlashtirish qo'l keladi. Bu tarixiy eksponatlarni va artefaktlarni onlayn platforma orqali ko'rishlari mumkin bo'lib, ular o'zlari qiziqqan tarixiy topilmalarni tadqiq qilishlari mumkin. Bunda topilmalarga ham ziyon yetmaydi. Vatanimiz O'zbekistonda buyuk bobolarimiz tomonidan yozilgan va bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan asarlar mavjud bo'lib, ularning ko'pchiligi bir nusxani tashkil etadi. Ularga teginishimiz bilan ularga zarar yetkazishimiz mumkin. Buning oqibatida uni qayta tiklay olmaymiz. Ammo biz ularni o'rganishimiz kerak bo'lsa, shu muamolarning oldini olish hamda va yechimlarini topishimiz lozim, ya'ni ularni skaynerlab elektron nusxasini qilsak, buning oqibatida kitoblarga ham zarar yetmaydi.

Bu o'z navbatida uning uzoq vaqt davomida saqlanib qolinishiga va kelgusi avlodlarimizga yetkazishimizga ham katta yordam beradi. Bundan tashqari kitoblarni elektron shakldagi variantga o'tkazganimiz sababli bu yosh tadqiqotchilar hamda bunga qiziqqan yoshlarimiz uchun imkoniyatlar eshigini ochadi. Ular joylarida o'tirgan holda qadimiy kitoblarni elektron nusxasini olishlari va bundan foydalangan holda tadqiqotlar olib borishlari va o'zlariga kerakli ma'lumotlarni olishlari mumkin bo'ladi.

Bu esa ularga izlanishlarini yanada chuqurroq olib borishlarida to'plagan ma'lumotlarining qiymatini yanada oshirishga xizmat qiladi. Bundan tashqari noyob va tarixiy kitoblarimizni elektron shaklga o'tkazganimiz sababli bunday qadimiy kitoblarimizni nafaqat O'zbekiston yoshlari balki bunga qiziqqan dunyo davlatlari yoshlari ham foydalishlari mumkin bo'ladi. Bularga ko'p misollar bor. Bizning buyuk bobolarimiz tomonida yaratilgan asarlardan hozirgi kunda foydalanayotgan hamda bu dastur bo'lib kelayotganlari ko'pdir. Bunga misol sifatida “Tib qonunlari” asari tibbiyotda, “Al-jabr val-muqobala” matematikada, “Hidoya” esa islom huquqshunosligida necha asrlar davomidirki qo'llanilib kelingan. Biz bularga misollar aytib charchamaymiz, chunki ularning soni va ahamiyati qadri bugungi kunda ham yuqoridir. Biz yoshlar asrlar davomida vujudga kelgan va rivojlanib kelgan tarixiy qadriyatlarimizni avaylab asrab yanada chuqurroq o'rganishimiz hamda kelajak avlodlarimizga ham yetkazishimiz asosiy vazifamizdir. Chunki o'zining o'tmish tarixiga, madaniyatiga, tarixiy merosini bilgan va uni avaylab ko'z qorachig'dek asragan kelajak avlodlariga yetkazadidan xalqni istiqboli porloq va yorug' bo'ladi. Bugungi kunda qadriyatlarimizni nafaqat asrab avaylashimiz balki ularni yanada rivojlantirishimiz, targ'ib qilishimiz va raqamli texnologiyalar yordamida ularni keng joriy etishimiz kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Mirziyoyev Sh. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – T.: O'zbekiston, 2021.



**“RAQAMLASHGAN JAMIYATDA INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH: IMKONIYAT VA ISTIQBOLLARI”
mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya**

2. Matyaqubov X.H. O'zbekistonning eng yangi tarixi. – T.: 2021.
3. G'.M.Porsaev, B.Sh.Safarov, D.Q.Usmanova. Raqamli iqtisodiyot asoslari. Toshkent. 2020.
4. Nazarov A. O'zbekiston milliy arxividagi Turkiston ilmiy jamiyatlari fondlari hujjatlari. 2020.
5. Ishimov A.M. Milliy G'oya Rivojida Tarixiy Meros va Qadriyatlar Tizimi. Progress Annals:Jurnal of Progressive Reseach,1(8),72-78. 2023.



3-SHO'BA. UCHINCHI RENESSANS VA INSON KAPITALI: O'ZARO ALOQADORLIK DIALEKTIKASI



INSON KAPITALINI SHAKLLANISH VA RIVOJLANISH MASALASIGA NAZAR

G.J.Tulenova

Muhammad al Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari
universiteti falsafa fanlari doktori, professor

tulenovag1961@mail.ru

Zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy sharoitda inson kapitali asosiy hal qiluvchi iqtisodiy resurs bo'lib, u raqobatbardosh ustunlikka erishishda hal qiluvchi rol o'ynaydi va mamlakat taraqqiyotining manbai hisoblanadi. Dunyoning ko'pgina mamlakatlarida inson kapitali milliy boylikning bir qismi sifatida tan olingan va iqtisodiy o'sishning eng muhim omili bo'lib hisoblanadi.

Inson kapitali kontseptsiyasi ijtimoiy boylikning asosiy shakllaridan biri hamda raqamlashtirish va ilmiy-texnika taraqqiyoti davrida hal qiluvchi iqtisodiy resurs bo'lgan bilimga asoslanadi.

Iqtisodiy resurslar, ularning bir qismi bo'lgan mehnat, inson resurslari, xususan, inson kapitali moddiy ishlab chiqarishni amalga oshirishning zaruriy tarkibiy qismi, shuningdek, mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini tartibga solishning eng muhim mexanizmi bo'lib hisoblanadi.

Zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy sharoitda inson kapitalini boshqarish masalasi ustuvor yo'nalishni egallaydi va mamlakat o'sishining asosi tashkil etadi. SHuning uchun ham bugungi kunda ilmiy-falsafiy bilimlar tizimida mamlakatimizning jadal rivojlanayotgan zamonaviy sharoitlarda faoliyat yurituvchi va talabchan bo'lgan aqobatbardoshligini ta'minlovchi inson kapitalini shakllantirish va to'plash masalalari keng o'rganilmoqda.

Ta'kidlash joizki, "inson kapitali" atamasi 1960 yilda Nobel mukofoti laureati Teodor Shults tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan. Aynan u o'zini inson kapitali nazariyasining kashfiyotchisi deb e'lon qildi. Inson kapitali muammolari "Inson kapitaliga sarmoya kiritish: ta'lim va ilmiy tadqiqotlarning roli" (1971) va "Odamlarga investitsiyalar: aholi sifati iqtisodiyoti" (1981) asarlarida ko'tarilgan va muhokama qilingandi. [1].

T.Shultsning fikricha, inson kapitali nazariyasi iqtisod fanining mehnat resurslaridan foydalanish muammolaridan ilmiy-texnikaviy inqilob sharoitida sifat jihatidan yangi ishchi kuchini yaratish muammolariga qayta yo'naltirilganligini o'zida aks ettirgan. Shults ushbu



“RAQAMLASHGAN JAMIYATDA INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH: IMKONIYAT VA ISTIQBOLLARI” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

tushunchani tegishli investitsiyalar bilan mustahkamlash mumkin bo'lgan inson tomonidan olingan qimmatli fazilatlarni aniqlash uchun ishlatgan. Shultsning fikriga ko'ra, jamiyatda ishlab chiqarilgan umumiy mahsulotning 3/4 qismi inson kapitalini to'plash uchun sarflanadi. [2].

Boshqa bir olim G.Bekkerning fikricha, inson kapitali “har bir insonning bilim, ko‘nikma va motivatsiya zahirasi sifatida tavsiflanadi. Unga investitsiyalar sifatida - ta'lim, kasbiy tajriba to'plash, sog'liqni saqlash, geografik harakatchanlik, ma'lumot qidirish kabilarni kiritish mumkin.

Ba'zi tadqiqotchilarning fikricha, inson kapitali - bu shaxsda mavjud bo'lgan va ishlab chiqarish jarayonlarida foydalanadigan qobiliyat va fazilatlarning yig'indisi. Inson kapitali mohiyatini talqin qilishning boshqa yondashuvlarida uning rivojlanishiga yo'naltirilgan investitsiyalar natijasida shaxsning ma'lum qobiliyat va fazilatlarni to'plashiga e'tibor qaratiladi. Va nihoyat, boshqa nuqtai nazar tarafdorlarining fikriga ko'ra, inson kapitalining mohiyatini talqin qilishda uning elementlariga shaxsning faoliyati natijalariga ma'lum ta'sir ko'rsatadigan shaxsiy fazilatlar, mafkuraviy munosabat va qadriyatlarning keng doirasini kiritish asosida keng qamrovli yondashuvni qo'llash kerak.

Shunday qilib, inson kapitali nazariyasining rivojlanishini o'rganish quyidagi ta'rifni shakllantirishga imkon berdi: inson kapitali - bu shaxsning tug'ma qobiliyatlari va orttirilgan ko'nikmalari, uning jismoniy salomatligi va to'plangan bilimlari, bu mulk egasiga ularni kasbiy faoliyat jarayonida qo'llash natijasida ma'lum daromad olish imkonidir.

Hozirgi vaqtda inson kapitalini monitoring qilish uchun dunyodagi eng dolzarb axborot va tahliliy ma'lumotlar bazalari quyidagi tizimlar hisoblanadi:

– Birlashgan Millatlar Tashkilotining Taraqqiyot Dasturi (UNDP). U inson taraqqiyoti bo'yicha yillik hisobotlarni tayyorlaydi.

Inson taraqqiyoti to'g'risidagi hisobot 1990 yildan beri nashr etiladi va inson rivojlanishidagi tengsizlik, gender tengsizlik, iqlim o'zgarishi va boshqalar kabi masalalarni qamrab oladi.

Ushbu Hisobotlf inson kapitalining miqdoriy parametrlarini o'z ichiga olgan, shuningdek, dunyo mamlakatlari va ularning mintaqalaridagi rivojlanish darajasi va inson yutuqlarini o'lchaydigan inson taraqqiyoti indeksini taqdim etiladi;

– Jahon banki guruhi tomonidan ishlab chiqarilgan Inson kapitalini rivojlantirish loyihasi. Ushbu loyiha inson kapitalining individual rivojlanishi natijalarini mahsuldorlik va daromad darajasi bilan bog'laydigan Inson kapitali indeksining monitoringini taqdim etadi. Jahon banki guruhi tomonidan ishlab chiqilgan Inson kapitali indeksi birinchi marta ushbu talqinda 2018 yilda hisoblab chiqilgan. Inson kapitali indeksi "sog'liqni saqlash va



“RAQAMLASHGAN JAMIYATDA INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH: IMKONIYAT VA ISTIQBOLLARI” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

ta'limning joriy natijalari kelgusi avlod ishchilarining unumdorligiga qanday ta'sir qilishining bashoratli o'lchovini" taqdim etadi.

Demak, inson kapitali deganda aholining to'plangan bilim va ko'nikmalarini amalga oshirish qobiliyatiga asoslangan inson kapitalining barcha turlari (ijtimoiy, intellektual kapital va boshqalar) yig'indisi tushunilishi kerak, bu esa o'z navbatida mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga hissa qo'shadi.

Ma'lumki, 2022-yil 28-yanvarda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning “2022-2026-yillarda Yangi O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasi to'g'risida”gi farmoni e'lon qilingan. Ushbu Strategiyaning to'rtinchi ustuvor yo'nalishi sifatida - adolatli ijtimoiy siyosatni amalga oshirish va inson kapitalini rivojlantirish ko'rsatilgan.

Xususan, ushbu sohani yanada rivojlantirishga doir muammolarni hal etishda maktablarda ta'lim sifatini oshirish, pedagogik kadrlarning bilim va malakasini xalqaro darajaga ko'tarish yo'llari sifatida quyidagilar belgillangan:

-maktab faoliyatini amalga oshirish uchun har bir fan bo'yicha mahalliy yoki xalqaro sertifikatlashtirish talablarini aniqlash;

-toifaga ega bo'lmagan maktab o'qituvchilarining bilim va malakalarini diagnostika qilish; xalq ta'limi tizimining hududiy bo'linmalarini ularning faoliyatini to'liq raqamlashtirish orqali optimallashtirish va boshqalar.

Mamlakatimizda uzoq muddatli istiqbolda inson kapitalini shakllantirish va undan foydalanish O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning muhim yo'nalishlaridan biridir. “O'zbekiston 2030” strategiyasida ham bugungi iqtisodiyot bilim va aql iqtisodiyoti ekanligi, uning asosida mamlakatimiz inson kapitalini saqlash va rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratilishi belgilab berilgan. Shu munosabat bilan zamonaviy O'zbekiston iqtisodiy amaliyotida inson kapitalini rivojlantirish va joriy etishga, uning iqtisodiy jarayonlarga ta'siriga alohida e'tibor berilmoqda. Bilimlar iqtisodiyotida inson kapitali inson resurslarining bir qismi sifatida mintaqaviy ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarning ilmiy va kadrlar salohiyatini rivojlantirish va shakllantirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi va xususan, ular mintaqaviy iqtisodiyot tarmoqlari va tashkilotlari faoliyatini samarali amalga oshirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Binobarin, bilimlar iqtisodiyotini rivojlantirishda inson kapitalining ahamiyati ortib bormoqda.

Inson kapitalining taqsimlanishi va to'planishi bugungi kunda hududlar va butun mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishning asosiy omili hisoblanadi. Inson kapitali mintaqa iqtisodiyoti samaradorligini ta'minlashda asosiy rol o'ynaydi, shuningdek, davlat, biznes va fuqarolik jamiyati o'rtasidagi konstruktiv hamkorlikka olib kelishi mumkin. Bularning barchasi ilmiy-texnikaviy taraqqiyotning yuqori darajada rivojlanishi, yangi bilim talab



“RAQAMLASHGAN JAMIYATDA INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH: IMKONIYAT VA ISTIQBOLLARI” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

qiladigan ishlab chiqarishlarning shakllanishi, shuningdek, ishlab chiqarish jarayoniga innovatsion tadqiqot va ishlanmalarning joriy etilishi bilan bog‘liq.

Bir qator ekspertlarning fikricha, inson kapitalining asosiy xususiyatlaridan biri bu intellektual resursdir. Ushbu tushuncha individual, jamoaviy va ijtimoiy darajadagi bilim va intellektual qobiliyatlarni ishlab chiqarish bilan bog‘liq bo‘lgan, milliy boylikni intensiv asosda barqaror, kengaytirilgan va muvozanatli takror ishlab chiqarishning ijtimoiy yo‘naltirilgan jarayonini ta‘minlashga qodir munosabatlar tizimini o‘zida mujassam etadi. Shu bilan birga, zamonaviy "bilimlar iqtisodiyoti" sharoitida har qanday davlat oldida eng muhim vazifa turibdi, uni hal qilish ma‘lum bir davlatning butun inson kapitalini va uning asosiy elementi sifatida intellektual resursni takror ishlab chiqarishni ta‘minlash bilan bog‘liq.

Shunday qilib aytishimiz mumkinki, globallashuv va axborot texnologiyalari asrida inson kapitali muammosiga e‘tibor mamlakatning rivojlanish darajasi nafaqat ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy ko‘rsatkichlar bilan belgilanayotgan, balki ko‘p jihatdan uning intellektual salohiyatiga asoslanadigan bir davrda ayniqsa dolzarb bo‘lib bormoqda. Zero, aynan ta‘lim-tarbiya muhitida poydevor qo‘yilgan ilmiy-texnikaviy taraqqiyot mamlakatning barqaror rivojlanishi va farovonligining markaziy bo‘g‘inidir.

Adabiyotlar:

1. Шемякин, Ye.Л. История возникновения концепции человеческого капитала / Ye.Л. Шемякин // Приволжский научный вестник. – 2015. – № 5-2 (45).

2. Беккер, Г.С. Экономический взгляд на жизнь // Мировая экономическая мысль: сквозь призму веков: в 5 т. / науч.-ред. совет: Г. Г. Фетисов [и др.]. Т. 5. Кн. 1: Всемирное признание: лекции нобелевских лауреатов. — М.: Мысль, 2004.

3. Туленова Г.Ж. Modernization of the education system of Uzbekistan: social and practical aspectual technology and its opportunities // Academic research in educational sciences». -Volume 4 | issue 10 | 2023

5. Туленова Г.Ж. Модернизация системы образования Узбекистана: разработка и внедрение эффективных форм и средств// ЎзМУ Хабарлари”, 2023 йил 1/6 сон.- 203-208.



TOPIKSTARTER MARGINAL FALSAFANING TASHBBUSCHISI SIFATIDA

Kushakov Shuxrat Salievich

Falsafa fanlari doktiri, professor

SamISI ijtimoiy fanlar kafedrası professori

+998 (90) 197-13-09 shuxratqushakov@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada marginal falsafani ijtimoiy tarmoqlarda taqdim etilishining yangi tendensiyalari, xususan ijtimoiy tarmoqlar kommunikatsiyasida marginallashtirilgan falsafa uzatilishining zamonaviy shakllari ko'rib chiqilgan. Falsafiy xislatga ega bo'lgan muvoqot va muhokamani ijtimoiy tarmoqlarda dastlab taqdim etuvchi sub'ekt "topikstarter", deb atalib, maqolada topikstarter faoliyati tahlil etilgan. Shu jumladan, ijtimoiy tarmoqda taqdim etilgan marginal falsafa namunalarining ijobiy aspektlari yoritilgan.

Kalit so'zlar. Internet, kommunikatsiya, ijtimoiy tarmoq, marginal falsafa, uzatish, taqdim

TOPICSTARTER AS A GENERATOR OF MARGINAL PHILOSOPHY

Kushakov Shuxrat Salievich

Doktor of Philosophical Sciences, Professor

Professor of the Department of Social Sciences of SamISI

+998 (90) 197-13-09 shuxratqushakov@gmail.com

Abstract. The article examines the new trend of presenting marginal philosophy in social networks, the forms of its presentation in modern network communication. The phenomenon of presentation of marginal philosophy by a figure who is called a topic starter in a social network is analyzed. Positive aspects of presentation of marginal philosophy in a social network are highlighted.

Keywords. Network, communication, social network, marginal philosophy, presentation

ТОПИКСТАРТЕР КАК ГЕНЕРАТОР МАРГИНАЛЬНОЙ ФИЛОСОФИИ

Кушаков Шухрат Салиевич

Доктор наук, профессор,

профессор кафедры социальных наук СамИСИ

+998 (90) 197-13-09 shuxratqushakov@gmail.com

Аннотация. В статье рассматривается новый тренд презентации маргинальной философии в социальной сети, формы ее подачи в современной сетевой коммуникации. Анализируется феномен подачи маргинальной философии субъектом, который в социальной сети называется топикстартером. Освещаются позитивные аспекты презентации маргинальной философии в социальной сети.



Ключевые слова. Интернет, коммуникация, социальная сеть, маргинальная философия, презентация

Во второй половине XX столетия порождением компьютерной революции стал интернет, который, в свою очередь, является технологическим основанием появления социальной сети. Теперь же мы в XXI веке переживаем новую компьютерно-коммуникационную революцию. Благодаря социальной сети произошло другое, не менее значимое изменение в сфере социальной коммуникации. Смысл изменения состоит в том, что исчезли пространственно-временные ограничения в коммуникации, то есть, локальные of-line-общения трансформируются в глобальный сетевой on-line коммуникацию между людьми, культурами и социумами. Теперь каждый человек имеет возможность в режиме on-line виртуально контактировать со всеми (с группами, сообществами), а все с одним (т.е. создаваемые всеми пользователями ресурсы интернета в возможности может быть достоянием каждого пользователя интернета).

Благодаря социальной сети пользователи имеют возможность создавать он-лайн платформы, профили, посты, приложения, делиться информацией, обмениваться различными файлами, идеями, содержательными контентом и т.д. Все эти социальные и когнитивные коммуникации осуществляются в интернет-площадках, где происходят дискуссии, обсуждения обзоров по различной тематике, обмен креативными проектами и идеями, поиск решений актуальных проблем современности. Философия, которая в недавнем прошлом было дискурсивным полем когнитивного поиска профессионалов-философов, философствующих ученых (хорошо известны философы А. Эйнштейна, Н. Бора, М. Планка и др), любителей философской мудрости, ныне ворвалась в гиперреальность и стала постоянной жительницей интернет-форумов, вебинаров, стримов и других платформ.

В самом интернете ресурс философских дискурсов и нарративов обретает глобальный масштаб. Люди, в том числе, интеллектуалы перестали покупать книги, ибо, как принято говорить, в интернете всё есть. Появились новые фигуры интернетовской интерактивности, обсуждающие философские и околофилософские (маргинально-философские) проблемы- стримеры, хайлайтеры, топикстартеры, инфлюенсеры, амбассадоры др. К слову, заметим, что культового американского режиссёра Дэвида Финчера представляют не иначе, как амбассадора философии в американских триллерах [8].

По своей структуре ресурсы и площадки презентации философских дискурсов и нарративов делятся, условно говоря, на академическое, образовательное и маргинальное. Последнее, а именно, феномен маргинальности представляет собой примечательное явление нынешнего века. Дело в том, что мы являемся свидетелями



“RAQAMLASHGAN JAMIYATDA INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH: IMKONIYAT VA ISTIQBOLLARI” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

как ренессанса, так и взрывной бифуркации феномена маргинальности во всех сферах социума, культуры, науки, в том числе, и философии. Отсюда большой интерес исследователей к изучению многообразных форм проявления маргинальности. [1] Согласно определению Ю. Н. Солонина “Маргинальность – то, что не признано, что существует на периферии, на обочине магистральной линии движения, в данном случае, -философской мысли, но существует как необходимость”. [7. 15-37]. В этом смысле говорят о маргинальной теории или идеи, которые существенно расходятся с общепринятыми концепциями в той или иной области когнитивной деятельности. Исследователь И. В. Зайцев концепту “маргинальность” придает статус категории социальной философии: “Маргинальность есть феномен вечный и тотальный, присущий человеческому миру во все времена его существования, а не исключительно в периоды социальных взрывов и катастроф”. [2]

В последнее время исследователи стали все большее внимание уделять проблеме маргинальности в философии. Говоря о маргинализации философии Н.Г. Мещеряков различает исключительность и исключенность какого-либо философского учения. Исключительность фигуры философа выражается в позитивных терминах: “мудрец”, “учитель”, “мыслитель”, ...Исключенность отражена в негативных определениях: “болтун”, “бездельник”, “сноб”, “софист”, “возмутитель нравов” ...и т.п. [3]

Существует целый ряд социальных, концептуально-контекстуальных и внутренне интенциональных детерминантов, обуславливающие маргинализацию философии.

-социальная: общественная востребованность в рефлексии новых явлений в социуме, культуре и науке; необходимость в концептуализации инновационных трендов в промышленности, технологии и проективной деятельности;

-экзистенциальная: философии присуща концептуально-когнитивная бытийность, в основе которой лежит бесконечная потенциальность внутренней свободы философской рефлексии. Такая свобода является экзистенциальным основанием реализации ее критико-прогностической функции;

-статусный контекст маргинализации философской рефлексии. На этот детерминант указывает Е. Г. Соколов: “философия как «область» (не дисциплина, не наука, не даже дискурс – все это суть исторические формы) и на сегодняшний день находится в «подвешенном состоянии», не в силах «до конца» самоопределиться” [4];

-внутренний интенциональный контекст маргинализации философии.



“RAQAMLASHGAN JAMIYATDA INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH: IMKONIYAT VA ISTIQBOLLARI” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

Кроме отмеченных выше факторов современной маргинализации философского дискурса, существует общее основание концептуально-семантического дрейфа идей и симулякров из одной области теории и практики в другой. Этим основанием является сетевая виртуализация духовной жизни. [5, 36]. В то же время, глобализация и виртуализация сетевой коммуникации во всемирной паутине многократно усилили маргинализацию философии.

Маргинализация философского дискурса в сетевой коммуникации происходит в различной форме и презентациях. Здесь имеет место, скажем так, “философское” освоение новых форм презентации и обсуждения. Такое освоение реализуется на обочине магистральной линии функционирования академического философского дискурса. Так, с одной стороны, исследователь Е.А.Ранев презентует результаты своей работы по философским проблемам реформы жилищно-коммунального хозяйства. [6] А, с другой стороны, топикстартер-философ на ютуб-канале рассуждает о Науке логики Гегеля. Верхом маргинальности является сообщение о жилом комплексе “Философия”. Философичность бренда этого комплекса вызвана, как утверждают ее творцы, приданием дизайн-коду дома таких качеств как вдумчивость, осознанность, утонченность и аристократичность. Корпуса дома названы в честь величайших ученых и мыслителей – “Ломоносов”, “Шопенгауер”, “Конфуций” “Вольтер”, “Аристотель”, “Марк Аврелий”, “Омар Хайям”. [9]

Существует интенциональная направленность самой философской рефлексии, выражающаяся в формулировке: “объектом философского мышления может быть все что угодно”. Такая тотальная открытость философской рефлексии позволяет проникнуть в поле ее дискурса всякого рода маргинальным идеям типа “философия ЖКХ”, “философия бизнеса”, “философия бренда”, “философия дома” и т. д. В частности, адепты маргинальной философии ЖКХ считают, что любая организация, решившая работать в сфере оказания общественных услуг, обязана иметь определенную философию, иметь свое лицо. Философская “упаковка” предпринимательских брендов вызвана стремлением создать концептуальный имидж компании и ее продуктов в сознании потребителя, построить компактный и, вместе с тем, “полный” образ товара. Более того, отдельные международные компании имеют штат с официальной должностью Chief Philosophy Officer – “корпоративный философ”. Представители корпоративной философии объявляют древнеримских философов Эпиктета и Марка Аврелия топ-менеджерами прошлого, поскольку они занимались проблемами власти и управления.

Интерактивным фигурантом, представляющий имидж маргинальной философии в социальной сети, стал топикстартер. Выражение “топикстартер” происходит от английского словосочетания topic starter который переводится как



“RAQAMLASHGAN JAMIYATDA INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH: IMKONIYAT VA ISTIQBOLLARI” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

“начинающий тему”. Топикстартер -человек, который инициировал (создал, начал, открыл) тему на форуме или на любой другой платформе. Философствующие топикстартеры довольно быстро создали площадку для обсуждения философских и околофилософских проблем общества, экономики, науки и культуры. Брендом топикстартеровых форумов стал быстрый отклик на злободневные проблемы, которые не рассматриваются в философских академических дискурсах и нарративах. Так, топикстартер А. С. Донской под девизом “мы сами создаём свою реальность” предложил для обсуждения вопросы: “почему позитивное мышление для большинства не работает?”; “с чего начинается движение к цели”; “почему будущее материализуется с задержкой и для чего она нужна?” и т. д. [10]

В заключении отметим, что мейнстрим маргинальной философии обретает, благодаря топикстартерам постоянное местожительство в социальной сети. Современная маргинальная философия является, и это демонстрируется деятельностью философствующих топикстартеров, нетрадиционной формой духовного освоения новых креативных областей общественной жизни, науки и технологии. Основным преимуществом топикстартера является быстрота сетевой коммуникации, немедленный отклик на факты и события, не попадающие в поле зрения академической философии, философская подача злободневных тем, которые волнуют каждого человека. В этом, по всей видимости, заключена позитивная сторона сетевой маргинальной философии.

Литература

1. Бобер Ж. Подходы к исследованию маргинальности // [https://cyberleninka.ru › article › podhody-k-issledovan...](https://cyberleninka.ru/article/view/podhody-k-issledovan...)
2. Зайцев И.В. Маргинальность как социально-философская проблема. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата философских наук. Омск, 2002. -22 с
3. Мещеряков Н.Г. Обратная сторона Луны: к вопросу о маргинальности философии //Международный журнал исследования культуры. 2020, №1(38). -С.6-21
4. Соколов Е.Г. Маргинализация философского дискурса // [Серия «Мыслители», История философии, культура и мировоззрение.](#) , Выпуск 3 / К 60-летию профессора [А.С. Колесникова Санкт-Петербург](#) : [Санкт-Петербургское философское общество](#), 2000. С.149
5. Кушаков Ш.С. Жамиятни виртуаллаштириш концепцияси хусусида //Ижтимоий фанлар: назария ва амалиёт. Олий ўқув юртлараро илмий мақолалар тўплами. Тошкент: “Наврўз” нашриёти. 2018 й. -32-36 б.
6. Ранев Е.А. О философии реформы жилищно-коммунального хозяйства // [https://cyberleninka.ru › article › o-filosofii-reformy-zh...](https://cyberleninka.ru/article/view/o-filosofii-reformy-zh...)



**“RAQAMLASHGAN JAMIYATDA INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH: IMKONIYAT VA ISTIQBOLLARI”
mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya**

7. Солонин Ю.Н. Феноменология любительства и маргиналы в философии //Философия обществу. Изд-во СПбГУ, 2007. -С.15-37.
8. См. Дэвид Финчер амбассадор философии ... // <https://regnum.ru> (Культура).
9. ФСК Регион объявила старт продаж в ЖК “Философия” // <https://fsk.ru> > about > news > fsk-region-ob-yavila-star...
10. См. Донской А.С. Энергия мысли // <https://donskoj.info> > webreg.

**MA’NAVIYATNING O‘Z-O‘ZINI TASHKIL ETUVCHI TIZIM SIFATIDA
INSON KAPITALINI SHAKLLANTIRISHDAGI O‘RNI**

Berdimuratova Alima Karlibaevna

Qoraqalpoq davlat universiteti, Ijtimoiy fanlar kafedrası mudiri,
Falsafa fanlari doktori, professor
Telefon: +998 90 735 6521

E-mail: alimaberdimuratova1965@gmail.com

O‘zbekiston, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Nukus shahri

Pirnazarov Nurnazar Rashid o‘g‘li

Qoraqalpoq davlat universiteti, Ijtimoiy fanlar kafedrası o‘qituvchisi
Telefon: +998 91 307 4477

E-mail: alimaberdimuratova1965@gmail.com

O‘zbekiston, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Nukus shahri

Annotatsiya:

Ushbu tezısdı ma’naviyat tushunchasining zamonaviy falsafiy talqini, ayniqsa, uni o‘z-o‘zini tashkil etuvchi ochiq tizim sifatida tahlil qilishga alohida e’tibor qaratilgan. Ma’naviyat inson borlig‘i va jamiyat taraqqiyotining chuqur ontologik asosi sifatida namoyon bo‘ladi. U o‘zida shaxsning kognitiv, axloqiy va estetik tajribalarini mujassam etib, ma’rifiy yuksalishga zamin yaratadi. Tadqiqotda ma’naviyatning dinamik tabiati, uning ichki imperativlar tizimi orqali doimiy o‘zgarish va takomillashuv holatida bo‘lishi, shuningdek, bu jarayonlar qanday qilib inson tafakkuri va ijtimoiy munosabatlarga ta’sir ko‘rsatishi tahlil qilingan.

Ma’naviyatning o‘z-o‘zini tashkil etuvchi tizim sifatidagi mohiyati uni jamiyatdagi barqarorlikni ta’minlovchi asosiy kuchlardan biri sifatida ko‘rishga imkon beradi. Bu tizim o‘zining intellektual, g‘oyaviy va madaniy tarkibiy qismlari orqali insonda mustaqil fikrlash, axloqiy qaror qabul qilish, ijtimoiy ongni shakllantirishga xizmat qiladi. Shuningdek, Yangi O‘zbekistonni barpo etish va Uchinchi Renessans g‘oyalarini amalda ro‘yobga chiqarishda ma’naviyat fundamental asos sifatida talqin qilinadi. Shu bois ushbu



“RAQAMLASHGAN JAMIYATDA INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH: IMKONIYAT VA ISTIQBOLLARI” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

tezisda ma’naviyatga yondashuvda sinergetik, gnoseologik va aksiologik mezonlar uyg’unlashtirilib, ularning kompleks ko‘rinishda tizimlashtirilishi taklif etiladi.

Kalit so‘zlar: ma’naviyat, ontologiya, o‘z-o‘zini tashkil etish, tizim, imperativlar, madaniy kontekst

Zamonaviy davrda insoniyat texnologik yutuqlarga erishayotgan bo‘lsa-da, ma’naviy inqiroz, qadriyatlar tanazzuli, axloqiy beqarorlik kabi muammolar ko‘plab jamiyatlarda dolzarb bo‘lib qolmoqda. Ayniqsa, globallashuv va raqamli jamiyatning kengayishi sharoitida inson qalbi, ongi va ruhiy olami ustidan bevosita bosimlar kuchaymoqda. Shu bois jamiyatning ma’naviy mustahkamligini ta’minlash, uning yangilanishi va yangicha qarashlar bilan boyitilishi hozirgi davrning ustuvor vazifasiga aylangan.

Yangi O‘zbekiston davrida inson kapitalini rivojlantirish jarayoni aynan ma’naviy asoslar bilan mustahkamlanmoqda. Prezidentimiz Sh. Mirziyoyev qayd etganidek, Uchinchi Renessans poydevori “ilm-ma’rifat, axloq, tarbiya va ma’naviyat”ga tayangan holda bunyod etiladi. Shunday ekan, insonning ichki olami – ya’ni uning ma’naviyati – yangi jamiyat qurilishining negiziy unsurlaridan biri sifatida qayta o‘rganilmoqda. Mazkur jarayonda ma’naviyatga tizim sifatida yondashish, uni o‘z-o‘zini tashkil etuvchi strukturaviy birlik deb baholash ilmiy va amaliy zaruriyatga aylangan. Falsafa tarixida ma’naviyatga oid yondashuvlar har doim markaziy o‘rinda turgan. Sharq mutafakkirlari – Aflotun, Farobiy, Ibn Sino, G‘azzoliy – ma’naviyatni inson ruhining oliy shakli sifatida ko‘rganlar. Aflotunning “g‘oyalar olami” tushunchasi, Aristotelning forma va materiyaga oid metafizik qarashlari ruhiy borliqning ustuvorligini ilgari suradi. Farobiy “fazilatli shahar” timsoli orqali ma’naviyatni ijtimoiy hayotning tayanchi sifatida talqin etadi. Ibn Sino esa aql va ruhiy mukammallikni eng oliy qadriyat deb biladi.

G‘arb falsafasida Immanuel Kant ma’naviyatni “aqlning amaliy qobiliyati” sifatida tushuntirib, uni erkinlik bilan bog‘laydi. Ekzistensialist faylasuflar Sartr, Kamyu insonning o‘z tanlovi orqali ma’naviyatini belgilashi haqida so‘z yuritadi. Fromm va Maslow esa insonning o‘zini anglash va o‘zini ro‘yobga chiqarish jarayonini ma’naviy yuksalish sifatida ko‘rsatadilar.

Habermas kabi zamonaviy mutafakkirlar esa muloqotga asoslangan axloqiy ong va kommunikativ kelishuvni ma’naviy birlikning asosi deb biladilar. Shu asosda ma’naviyatga biryoqlama emas, balki tarixiylik, ijtimoiylik va shaxsiyat mezonlari uyg’unligida yondashish zarurati tug‘iladi.

Mazkur tadqiqotda ma’naviyat tushunchasini kompleks yoritish maqsadida bir nechta metodologik yondashuvlar uyg’unlashtirildi. Avvalo, ontologik yondashuv orqali ma’naviyatning mavjudlik shakli sifatida o‘rganilishi, uning ichki dinamikasi, mohiyati va strukturaviy xususiyatlari tahlil qilindi. Bu yondashuv ma’naviyatni borliqdagi mustaqil kategoriya sifatida anglashga asos yaratdi. Shu bilan birga, gnoseologik yondashuv



“RAQAMLASHGAN JAMIYATDA INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH: IMKONIYAT VA ISTIQBOLLARI” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

yordamida ma'naviyatning inson tafakkurida qanday idrok etilishi, bilish jarayonidagi o'rni hamda shaxs ongidagi shakllanish mexanizmlari izohlandi.

Annotatsiya: Ushbu maqolada inson kapitalini rivojlantirish tadqiqining nazariy-falsafiy asoslari, inson kapitalini rivojlantirishning ijtimoiy-falsafiy tahlili, yangilanayotgan O‘zbekistonda inson kapitalini rivojlantirish omillari tadqiq etilgan. Bundan tashqari, uchinchi renessans davrida inson kapitalini rivojlantirishning milliy va xorijiy tajribalari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: uchinchi renessans, jamiyat, inson kapitali, ma’naviy va milliy qadriyatlar, milliy va xorijiy tajriba, raqamli iqtisodiyot, innovatsiya.

Jahonda inson kapitali muammosi har bir davlatning taqdirini belgilaydigan, zamonaviy dunyo taraqqiyotining dinamikasi, insonning innovatsion, ijodiy faoliyati, fan, texnika va texnologiyalarning rivojlanishini belgilovchi omil sifatida dolzarblik kasb etmoqda. BMTning Taraqqiyot dasturi, Inson kapitali indeksi, Jahon bankining «Inson kapitalini rivojlantirish» loyihasi ham inson kapitalini rivojlantirishga qaratilgan bo‘lib, bugungi global axborot makonida uni bevosita eng afzal va eng qimmatli resursga aylantirmoqda. Shu ma’noda inson kapitalining jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotidagi o‘rni bilan bog‘liq uning namoyon bo‘lish xususiyatlari, uni shakllantirish va rivojlantirish omillari, mezon hamda mexanizmlarini aniqlash zaruriyatini keltirib chiqarmoqda.

O‘zbekistonning yangi taraqqiyot bosqichida daromadlarini ko‘paytirish, kishilarning imkon qadar ko‘proq ish haqi olishlari va oziqlanish ratsionlarini yaxshilash uchun shart-sharoitlar yaratish zarurati ortib bormoqda. Aholi daromadlarining ortishi rivojlanishning qolgan barcha maqsadlariga oid ko‘rsatkichlarining yaxshilanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi qatlami yani «kam ta’minlangan oilalarga ko‘mak ko‘rsatish», nafaqa to‘lashning maqbul tizimini ishlab chiqish, maqsadli tarzda budget mablag‘larini sarflanishini ta’minlash choralari ko‘rish zarur. Bugungi kunda Birlashgan millatlar tashkilotining Barqaror rivojlanish maqsadlarini bajarish inson taraqqiyoti rivojlanishining asosiy omili sifatida baholanmoqda. O‘zbekistonda kam ta’minlanganlik va qoniqarsiz oziqlanishning oldini olish uchun ayni vaqda, ijtimoiy nafaqalar, ish haqi va stependiyalarni bosqichma-bosqich oshirishga amaliy ishlar qilinmoqda. Buning uchun esa, ijtisodiy o‘sishga erishish, mamlakatning eksport salohiyatini oshirish talab etiladi.

2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida inson kapitalining sifatini oshirish, faol, intellektual boy, kognitiv xususiyatlari mukammal



“RAQAMLASHGAN JAMIYATDA INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH: IMKONIYAT VA ISTIQBOLLARI” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

yoshlarni tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki mazkur Farmonning «Yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish» maqsadida «yoshlarni ma'naviy, intellektual, jismoniy va axloqiy kamol topishiga ko'maklashish; yoshlar uchun ochiq va sifatli ta'limni ta'minlash; yoshlarning hayoti va sog'lig'ini saqlash; yoshlarni ishga joylashtirish va ularning bandligi uchun shart-sharoit yaratish» kabi vazifalar ham belgilangan. Bu masalalarning ijrosi o'z navbatida mamlakatimizning kelajagi bo'lgan yosh avlodda kognitiv xususiyatlarni yanada rivojlantirishda muhim konstruktiv ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi dunyodagi nihoyatda murakkab vaziyatda inson tez o'zgarib turuvchi vaziyatga adekvat ravishda mos bo'lishi uchun innovatsion faoliyat ham egiluvchan, o'zgaruvchan bo'lishi kerak. Innovatsion faoliyat doimo yangilanib va to'xtovsiz, muttasil samarasi oshib borishi inson tafakkuriga, uning kreativligi asosida amalga oshiriladi. Kreativ g'oyani amalga oshirilishi innovatsiyadir. Demak, innovatsiya o'z-o'zidan rivojlanish mexanizmini anglanganligini va dunyoni bilish qamrovi kengayganligini, boyiganligini bildiradi.

Respublikamizda insonni kapitallashuvi darajasi erkin raqobatga asoslangan iqtisodiy rivojlanish talablari darajasiga to'liq javob bermaydi. Uni talab darajasida bo'lishini ta'minlash uchun oliy ta'lim tizimi bozorini mehnat bozori bilan o'zaro bog'liqlikda jami talab va jami taklif asosida olib borish zarur.

Shvetsiya mehnat bozori modeli turli ishlab chiqilgan dasturlar asosida talab va taklifni rag'batlantirishga asoslangan bo'lsa, Shotlandiya mehnat bozori modeli mehnat resurslarini ishlab chiqaruvchiga va iste'molchilar o'rtasidagi bo'ladigan ijtimoiy xizmatlarini Shotlandiya malaka boshqarmasi tomonidan o'rganib boriladi.

Shotlandiya hukumati tomonidan malakaviy boshqarmaga oliy ta'lim xizmatlarini ishlab chiqaruvchilar va iste'molchi xizmatlarini ilmiy o'rgangan holda uni baholaydi va ekspertlar bilan birgalikda ish beruvchilar hamkorligida kasbiy malakalarini belgilash mazmunini va uni baholash usulini ishlab chiqadi.

AQSH modeli turli oliy ta'lim xizmatlari va mehnat bozorlarini tartiblash uchun turli dasturlar ishlab chiqadilar (Technical Prepatation for a Wored-Class Work Fore). Ushbu dasturni ijrosini amalga oshirish uchun «Tech Prep» konsorsium tuzilgan. Uning asosiy maqsadi kasbiy tayyorgarlikni va ish joylarini imidjini tayyorlash hamda yangi kasbiy mutaxassislar yo'nalishlarini ishlab chiqish bilan shug'ullanadi. AQShda mehnat munosabatlarini tartiblash qonunlari yo'q, lekin ishga yollanuvchi ish beruvchi va kasaba ittifoqi bilan mehnat bitimlari tuziladi. Bandlikni ta'minlashda AQSH, Angliya, Avstraliya, Kanada, Germaniya, Fillandiya va Yaponiyada davlat xizmati tashkil etilgan. Davlat xizmat tashkilotlarida ish joylarini milliy banklari mavjud bo'lib, bu bandlik xizmati ish joylarini, kasbiy-psixologik ishsizlarni ma'lumotlarni to'plash va to'plangan axborotlarni



“RAQAMLASHGAN JAMIYATDA INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH: IMKONIYAT VA ISTIQBOLLARI” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

kompyuter asosida tarqatish vazifalarini amalga oshiradi. Ish bilan ta'minlash byurolari maxsus terminal orqali bu ma'lumotlardan foydalanadilar. Xorijiy mamlakatlarda ish joylari bilan ta'minlash samaradorligi bo'sh ish vakansiyalarini to'ldirish bilan emas, balki vakansiyani to'ldirish vaqti bilan belgilanadi. Yevropa Ittifoqida asosiy e'tibor ish bilan ta'minlashga, umuman ishlamaydiganlarga ko'proq e'tibor beriladi, bu, oqibatda, ularning ijtimoiy jihatdan davlatga qaramligini oshiradi.

Rossiya Federatsiyasida quyidagi ta'lim modellaridan foydalaniladi. Bu modellar turlari quyida keltirilgan. Birinchi guruhga Germaniya, Daniya, Buyuk Britaniya va Yaponiyani ajratish mumkin, ularda ta'lim tizimi mehnat bozori talablariga malakaviy ko'nikmalarga va amaliy tajribalarni maksimal darajada yaqinlashtirish orqali amalga oshiriladi. Ikkinchi guruhga AQSH, Shvetsiya, Fransiya ajratish mumkin. Ushbu mamlakatlarda davlat xususiy sektor hamkorligini, texnoparklarni tashkil etish, davlat va xususiy korxonalarda amaliyot o'tashni rivojlantirish orqali amalga oshiriladi. Respublikamizda yuqori malakali mutaxassislarga bo'lgan talabni umuman qondirish emas, balki iqtisodiy mintaqaning mikro va makroiqtisodiy darajada barqaror rivojlanishini ta'minlash uchun ularning talablaridan kelib chiqqan holda oliy ta'lim tizimida ularning talablarini e'tiborga olgan holda kadrlar tayyorlash mehnat va oliy ta'lim xizmatlari bozorlarini o'zaro bog'liqlikda rivojlanishini ta'minlash iqtisodiy mintaqalarda ijtimoiy-iqtisodiy holatni barqarorlashtirishni ta'minlaydi.

Respublikada ma'lum darajada uslubiy jihatdan oliy ta'lim tizimini respublika va iqtisodiy mintaqalar darajasida oliy malakali mutaxassislarga bo'lgan talablarni o'rganish uslublari mavjud bo'lsada bozor munosabatlari sharoitlarida uning talablaridan kelib chiqqan holda ularga bo'lgan talab, ta'lim xizmatlari bozorini rivojlantirish yo'llari va bu sohada davlatning vazifalari nimalardan iborat bo'lishi iqtisodiyot fanlarida bozor iqtisodiyoti talablari asosida yetarli darajada o'rganilmaganligini aytish mumkin. Hozirgi sharoitda asosiy muammo bu oliy ta'lim xizmatlari va mehnat bozorlari o'rtasidagi munosabatlar bozor iqtisodiyotining asosiy iqtisodiy qonuni jami talab va taklif qonuni talablariga rioya qilmaslikdir.

XXI asrda globallashtirish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari rivojlangan, axborotlashgan, raqamlashgan va bilim jamiyati shakllangan, davlatlar barqaror va innovatsion rivojlanish yo'liga o'tishida, murakkab, tahlikali, ziddiyatli va noxiziqli jarayonlarda ta'lim insonlar o'z harakatlarini baholay oladigan va to'g'ri qarorlar qabul qiladigan tarzda o'zgartirishga yordam beradi. Shu sababli rivojlangan va endi rivojlanayotgan mamlakatlar ta'lim tizimiga ko'proq sarmoya sarflashmoqda. Natijada esa ta'lim insonning yangi bilimlar bilan boyishiga, yashash sharoitini o'zgartirishga, hayot faoliyatini yaxshilashga, ijodiy faoliyatini kengaytirishga, istalgan vaqtda kasbini o'zgartirishga, faoliyatiga so'nggi modeldagi texnologiyalarni qo'llash kabi imkoniyatlarni



“RAQAMLASHGAN JAMIYATDA INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH: IMKONIYAT VA ISTIQBOLLARI” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

yaratib bermoqda. Bu esa inson kapitalini rivojlantirishda judayam muhim omillardan hisoblanadi. Ushbu xususiyatlar nafaqat inson hayoti va faoliyatini balki jamiyat va davlatlarning taraqqiyotiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida ham pedagoglarni qo'llab-quvvatlash va bu orqali ta'lim tizimini rivojlantirish ga ham alohida ahamiyat qaratilgan. Xususan strategiyada «malakali o'qituvchilarning oylik maoshlarini bosqichma-bosqich 1 000 AQSH dollari ekvivalentiga yetkazish» va «o'qituvchilarga malaka toifalarini berish tartibini tubdan qayta ko'rib chiqish hamda malakani baholash metodikasi asosida adolatli va shaffof tizimni joriy etish» ham belgilangan.

Xulosa qilib aytganda, inson kapitalini rivojlantirish bilan bog'liq bo'lgan asosiy muammolarni bartaraf etish, uning sifatini oshirish, iqtisodiy o'sish va muntazam taraqqiyotga erishishda bir qator islohotlarni amalga oshirish lozim. Respublikamizda keng qamrovli ijtimoiy transformatsiya jarayonlari davom etmoqda va bu ijtimoiy tizimning o'z o'zini tashkil etishidir. Bu jarayon murakab tizimlar nazariyasiga asosan ijtimoiy tizim strukturasini o'zgarishiga olib keladi. Bu jarayonda 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi tartib parametri sifatida amal qilmoqda. Inson hayotining barcha bosqichlarida inson kapitalini shakllantirish, rivojlantirish ko'plab omillarni birlashtirish, turli yo'nalishlarda hamda turli shakllarda amalga oshiriladi. Ammo inson kapitalining elementlari bo'lgan sog'liqni saqlash va ta'lim inson tug'ilganidan to vafot etguncha, ya'ni umr bo'yi davom etadigan jarayonlardir. Jamiyatda inson kapitali rivoji ijtimoiy transformatsiyalarning konstruktiv natijalariga bog'liq bo'lib, islohotlarning samarali borishini ta'minlashda bilimlar generatsiyasi muhim ahamiyatga egaligi uchun respublikamizda bilimlar generatsiyasini yanada takomillashtirish uchun fanlararo yondashuvni yanada rivojlantirish maqsadga muvofiq.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти 2022 йил 28 январь «2022 — 2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида»ги ПФ-60-сон Фармни. // lex.uz.

2. Мирзиёев Ш.М. Миллий тикланишдан – миллий юксалиш сари. – Тошкент: «Ўзбекистон», 2020. -Б.211-220.

3. The European higher education and research landscape 2020. Enschede, Center for Higher Education Policy Studies, University of Twente. 2004. P. 28, 45, 55-56.

4. Доклад о развитии человеческого потенциала в Российской Федерации. Гл.5. Образование и рынок труда. Нью-Йорк, 2007. с 3-90

5. Каримова А.А. Человеческий капитал: сущности и виды // Экономика и предпринимательство, 2019. №2(103), - С.235.



6. Махмудова Г.Т., Гаффарова Г.Г., Жалалова Г.О. Ўзбекистонда ислохотлар жараёнини таҳлил этишва амалга оширишнинг концептуал-фалсафий методологияси. – Тошкент: «Noshir», 2020. –Б.21.

YANGI O‘ZBEKISTONDA IJTIMOIIY DAVLAT ShAKLLANISHI DIALEKTIKASI

Berdikulov Sirojjon Nasipkulovich

O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi Ma’muriy-tashkiliy faoliyati fakulteti
boshlig‘i, falsafa fanlari doktori, professor

tel: (97) 476 47 76

e-mail: siroj-berdikulov@rambler.ru

Annotatsiya. Maqolada ijtimoiy davlat tushunchasi va uning mohiyati, fuqarolik jamiyati shakllanishida ijtimoiy davlatning ahamiyati, ijtimoiy davlatda fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari bilan birga, ularning ijtimoiy huquqlari ham ta’minlanishi, shuningdek, bu borada amalga oshirish lozim bo‘lgan vazifalar va tadbirlar haqida fikr yuritiladi. Yangi O‘zbekiston sharoitida ijtimoiy davlatni shakllantirish muhim omil hisoblanadi. Maqolada mamlakatimizda ijtimoiy davlatning yuzaga kelish omillari, amalga oshirilayotgan ishlar, buning jamiyatga ta’siri masalalari to‘g‘risida to‘xtalib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar. Davlat, ijtimoiy davlat, huquq, majburiyat, jamiyat, ijtimoiy, huquqiy, manfaat, insonparvarlik, tadqiqot, zamonaviy texnologiyalar, inson kapitali, ijtimoiy kafolat

Yangi O‘zbekiston sharoitida ijtimoiy davlat shakllanishi o‘ziga xos fenomenlarga egaligi bilan ajralib turadi. Ijtimoiy davlatning eng asosiy ko‘rsatkichlari o‘z fuqarolarining avvalo, ijtimoiy, iqtisodiy manfaatlarini ifodalash, shuningdek siyosiy-huquqiy faolligini shakllantirish bilan belgilanadi. Ta’kidlash kerakki, ijtimoiy davlat va fuqarolar o‘rtasida dialektik aloqadorlik mavjud bo‘lishi ob’ektiv zaruratdir. Zero davlatimiz rahbari ta’kidlaganidek: “Yangi O‘zbekiston strategiyasi – fuqarolarning mamlakat ijtimoiy-siyosiy hayotidagi ishtirokini kengaytirish, ularning orzu-intilishlarini ro‘yobga chiqarish, ilg‘or tashabbuslarini amalga oshirish, hayotiy muammolarini hal etish, turmush darajasini yuksaltirish, mustaqil ravishda o‘z moddiy farovonligini oshirish uchun yetarli va zarur sharoitlarni yaratish deganidir” [1; 84].

Ijtimoiy davlatda fuqarolarning manfaatlari haqida qayg‘urilar ekan, o‘z navbatida fuqarolar ham faol fuqarolik pozitsiyasini namoyon qilishi, davlatning taraqqiyoti uchun ilgarilanma harakat qilishi muhimdir.

Mamlakatimiz taraqqiyotida “ijtimoiy” masalalarga alohida e’tibor berib kelinayotganligini ta’kidlash zarur. Kuchli ijtimoiy siyosat yuritish, aholining ijtimoiy



**“RAQAMLASHGAN JAMIYATDA INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH: IMKONIYAT VA ISTIQBOLLARI”
mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya**

himoyasini tashkil etish, ijtimoiy sohaga davlat budjetining salmoqli ulushini yo‘naltirish, kam ta‘minlangan, boquvchisini yo‘qotgan, nogiron shaxslarning ijtimoiy muhofazasini amalga oshirish kabi mexanizmlar shular jumlasidandir. Ayniqsa, bu masala 2023 yil 30 aprelda referendum natijalari asosida qabul qilingan mamlakat Konstitutsiyasi darajasiga ko‘tarilganligi ham fikrimizning isbotidir. Aynan Asosiy qomusimizning 1-moddasida “O‘zbekiston – boshqaruvning respublika shakliga ega bo‘lgan suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat” [2; 4] deb nomlangan normaning kiritilishi, Yangi O‘zbekistonning ijtimoiy davlat ekanligini yana bir marta tasdiqlaydi.

Ijtimoiy davlat tushunchasi olim va tadqiqotchilarni avvaldan qiziqtirib kelgan. Bu borada ular tomonidan ko‘plab tadqiqotlar olib borilgan. Ijtimoiy davlat tushunchasi, g‘arb olimlari Aristotel, Platon, Gobbs, Makiavelli, shuningdek qadimgi sharqda Konfutsiy, Forobiy, Navoiy kabi allomalar tomonidan ilgari surilgan. Shunga o‘xshash g‘oyalarni Nizomiy Ganjaviy, Sa‘diy Sheroziy, Ahmad Donish singari qator allomalarimiz ijodida ham kuzatish mumkin. Jumladan, Platonga ko‘ra uning ideal davlatidagi jamiyatning ijtimoiy tartibi va barqarorligi mehnat taqsimoti xususiyatiga muvofiq shakllanadigan ijtimoiy tuzilmaning qat‘iy ierarxiasiga asoslanadi. Ularning ijtimoiy vazifalarni bajarish, shaxsiy manfaatlari hisobga olinsa, odamlar uchun yashash tarzi yanada samaraliroq bo‘ladi. Shu sababli, davlat taraqqiyoti va farovonligi bilan barcha tabaqalarga o‘zlarining tabiatiga ko‘ra umumiy farovonlikda o‘z ulushiga ega bo‘lish imkoniyati berilishi kerak. Bundan tashqari, boylik va qashshoqlik kabi ijtimoiy yovuzliklarning davlatga kirishiga yo‘l qo‘ymaslik kerak, chunki birinchisi hashamat va dangasalikka, ikkinchisi esa pastliklar va vahshiylklarga olib keladi [3; 248].

Abu Nasr Forobiy ma‘rifatli insonlar jamoasini, ideal jamiyat g‘oyasini «Fozil odamlar shahri» asarida keltirib o‘tgan bo‘lsa [4; 224], ijtimoiy davlatni shakllantirish masalalari Alisher Navoiy asarlarida ham uchraydi. U insonlarning baxtli yashashi uchun munosib ijtimoiy muhit yaratish, farovon jamiyat qurish, ma‘rifatli davlat boshqaruvi, adolatparvar va odil hukmdor, insonlar o‘zaro mehr-oqibatli va ahloqli bo‘lishi kabi qarashlar ilgari surilgan [5; 7,81].

Tadqiqotga chuqurroq e‘tibor qaratilsa, ijtimoiy davlat nima? Uning asoslari va mohiyatini nimalar tashkil etadi? Ijtimoiy davlat shakllantirishidan kimlar, qanday toifdagi shaxslar manfaatdor kabi savollar tug‘ilishi tabiiy. Adabiyotlarda ijtimoiy davlatning 100 dan ortiq ta‘riflari keltirib o‘tilgan. “Ulardan biri jamiyat manfaatlariga xizmat qiladigan, bozor iqtisodiyoti rivojlanishining ijtimoiy yo‘nalishini ta‘minlaydigan, ijtimoiy adolat, ijtimoiy ta‘minot, ijtimoiy xizmat, tamoyillarini amalga oshirishga qaratilgan faol, kuchli va samarali ijtimoiy siyosat olib boruvchi demokratik davlat ekanligi ta‘kidlangan” [6; 292].



**“RAQAMLASHGAN JAMIYATDA INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH: IMKONIYAT VA ISTIQBOLLARI”
mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya**

Ijtimoiy davlatning paydo bo'lishi va uning nazariy asoslanishi Yevropadan kelib chiqqan ob'ektiv sabablarga bog'liq. Tarixiy retrospektivda bu XIX asrning bir qator Yevropa davlatlariga tegishli. Sanoatning jadal rivojlanishi, sanoatdagi texnik yutuqlar yangi ijtimoiy munosabatlarning shakllanishiga yordam berdi, malakali ishchi kuchini talab qildi va texnologik sanoat faoliyati ko'nikmalariga ega bo'lmagan ishchilarga qattiq ta'sir ko'rsatdi. O'z huquqlari uchun ommaviy ishchilar harakati boshlandi: Frantsiyadagi inqilobiy qo'zg'olonlar, Angliyadagi chartistlar harakati, Germaniyadagi Sileziya to'quvchilarining qo'zg'oloni. Ishchilar ish haftasini qisqartirish, ish haqini real to'lash, tibbiy yordam, nogironlik nafaqalari va pensiyalar va boshqalarni talab qilib chiqa boshlashdi. Shu sababli, ijtimoiy vaziyatni tahlil qilgan va ijtimoiy muammolarni davlat tomonidan tartibga solish zarurligi to'g'risida xulosalarga kelgan birinchi nazariyotchilar keyinchalik ijtimoiy davlat nazariyotchilariga aylangan G'arb olimlari edi.

Hozirgi “ijtimoiy davlat” tushunchasi ilk bor 1850 yilda nemis olimi Lorens fon Shteyn tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan [7]. Olimning fikriga ko'ra, ijtimoiy davlatda fuqarolarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga imkoniyat yaratish, barcha yoshi, irqi, ijtimoiy kelib chiqishi, jinsidan qat'iy nazar qonun orqali shaxsiy huquqlarda mutlaq tenglikni ta'minlashi lozim. Bu esa o'z navbatida inson kapitalini rivojlantirishga hissa qo'shadi. “Inson kapitali rivojlanishi jamiyat rivojlanishi ijtimoiy taraqqiyotning muhim muammolarini hal etishda asosiy o'rin egallaydi” [8; 69].

Shunday qilib, ijtimoiy davlat – bu o'z fuqarolarining munosib hayoti va ijtimoiy-huquqiy himoyasini ta'minlashga qodir, rivojlangan va mustahkam siyosiy tizimga ega bo'lgan amiyat faoliyatining tashkiliy shaklidir. Ijtimoiy davlat nafaqat insonni ijtimoiy munosabatlar sub'ekti sifatida e'tirof etganda, balki inson va uni rivojlantirish omili davlat institutlarining ustuvor vazifasi bo'lganida, shaxsning ijtimoiy ehtiyojlarini himoya qilish uchun me'yoriy-huquqiy baza yaratilganda va jamiyatning butun siyosiy-iqtisodiy tizimi ijtimoiy muammolarni hal qilishda ishtirok etganda ijtimoiy bo'ladi.

Ijtimoiy davlatning quyidagi belgilari mavjud: 1) huquqiy, ya'ni normativ-huquqiy va ijtimoiy davlatning tabiatidan kelib chiqib, o'z navbatida davlat va fuqarolarga majburiyat yuklaydi; 2) shaxs shaxs sifatida davlatning asosiy e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan yo'nalishiga aylanadi; 3) ijtimoiy davlat o'z fuqarolarining ijtimoiy huquqlariga rioya qilish kafolati sifatida faoliyat yuritadi; 4) davlat fuqaroning tabiiy huquqi – rasmiy tenglik, erkinlik va adolat tamoyillarini amalga oshirishini ta'minlaydi; 5) ijtimoiy davlat fuqarolarning ishonchiga asoslanadi, bu uning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud funktsiyalarini professional ravishda bajarishga imkon beradi; 6) ijtimoiy davlat o'z zimmasiga olgan ijtimoiy majburiyatlarni bajarishdan manfaatdor bo'ladi.

Ijtimoiy davlat nafaqat o'z fuqarolariga nisbatan faoliyatni amalga oshiradi, ularga ijtimoiy huquq va ehtiyojlarini ro'yobga chiqarishga yordam beradi, balki uni qonun



“RAQAMLASHGAN JAMIYATDA INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH: IMKONIYAT VA ISTIQBOLLARI” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

hujjatlarida (konstitutsiyaviy) belgilangan o'z zimmasiga olgan majburiyatlarga ehtiyoj borligi sababli ham faoliyatini tashkil etadi. “Ijtimoiy davlat muhtojlarga uy-joy, yashash uchun zarur bo‘lgan iste‘mol tovarlarining eng kam miqdori belgilab qo‘yilishini nazarda tutadi. Shaxs va uning oilasi munosib hayot kechirishi uchun yetadigan ish haqi, bandlikni ta‘minlash, xavfsiz mehnat sharoitini yaratish, kambag‘allikni qisqartirishni talab qiladi” [9; 757].

Ijtimoiy davlat va davlat o‘rtasida tafovut mavjud. “Ijtimoiy davlat rasmiy ravishda ijtimoiy siyosatni amalga oshiradi va aholini ijtimoiy himoya qilish majburiyatini oladi, uni mamlakat byudjetidan ta‘minlaydi. Ushbu harakat bilan davlat insonga ijtimoiy yordam olish huquqini beradi va uni olish kafolatlarini beradi” [10; 6]. Demak, ijtimoiy davlatda davlat fuqarolar oldida ularga berilgan ijtimoiy kafolatlar uchun javobgarligini tan oladi.

Yangi O‘zbekiston sharoitida ham ijtimoiy davlat o‘z funksiyalarini amalga oshirayotganligini kundalik hayotimizda kuzatish mumkin. “Temir daftar”, “Ayollar daftari”, “Yoshlar daftari”, “mahallabay” va “xonadonbay” ishlash kabi ijtimoiy himoyaga qaratilgan manzilli ishlarning asnosida ham ijtimoiy davlat funksiyalari ko‘rinib turibdi. Albatta aholining ehtiyojmand qatlamlarini qo‘llab-quvvatlash, ularga munosib turmush kechirishi uchun sharoit yaratish, aholining bandligini ta‘minlash va daromadlarini oshirish, ishsizlik va kambag‘allikni qisqartirish, aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qismiga davlat tomonidan kafolatli tizim orqali yordam ko‘rsatish kabi misollar shular jumlasidandir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Mirziyoev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021. – B. 84.
2. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2023. – B. 4.
3. Platon. Gosudarstvo // Sobr. soch.: v 4 t. T. 3. – M., 1994. – S. 248.
4. Forobiy. Fozil odamlar shahri. – Toshkent: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993. – 224 b.
5. Navoiy A. Xamsa. Nasriy bayon / Alisher Navoiy. – Toshkent: Navzo‘z, 2019. – B. 7, 81.
6. Ernazarov D. Ilmiy adabiyotlarda “ijtimoiy davlat” tushunchasi va uning xususiyatlar // Ma‘naviy tarbiya va targ‘ibotning zamonaviy texnologiyalari hamda ta‘sirchan usullari: respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. –Toshkent: AfzAlzoda books, 2023. – B. 292.
7. Otaxonov F. Ijtimoiy davlatning konstitutsiyaviy asoslari // https://uza.uz/uz/posts/izhtimoiy-davlatning-konstituciaviy-asoslari_471933



⁸. Boltaev B. Inson kapitalining rivojlanish xususiyatlari va omillari // Iqtisod va moliya / Ekonomika i finansy. – 2022. - № 2(150). – B. 69.

⁹. Baratov R., Ramatov J. Ijtimoiy davlatning konseptual asoslari // Yangi O‘zbekiston huquqiy, dunyoviy va ijtimoiy davlat sifatida rivojlanishining ijtimoiy, falsafiy, iqtisodiy va siyosiy masalalari. – 4(21). – May. – 2024 – B. 757.

¹⁰. Petrov V.P. Основы социального государства. – N.Novgorod: NNGASU, 2016. – S.6.

THE THIRD RENAISSANCE: TRANSFORMING EDUCATION THROUGH INTERDISCIPLINARY LEARNING, CRITICAL THINKING, AND DIGITAL LITERACY

Dr.Melike Basbinar

Director of Uzbek-Turkish Technical Cooperation Center E-mail:

dr.melikebasbinar@gmail.com Tel:+998(91)0115091

Tashkent State Transport University

Abstract

The Third Renaissance is defined by remarkable technological advancements and a transition to a knowledge-driven economy, which is reshaping education systems worldwide. As our world grows increasingly intricate and interconnected, traditional educational models are evolving to prepare students with the crucial skills needed for the future. This transformation places a strong emphasis on interdisciplinary education, critical thinking, and digital literacy all vital competencies that foster adaptability, innovation, and effective problem-solving. By breaking down rigid subject barriers, interdisciplinary learning enables students to tackle real-world challenges with a well-rounded perspective. Meanwhile, critical thinking sharpens analytical skills and promotes independent

decision-making, allowing individuals to assess and synthesize information proficiently. Digital literacy has become essential, equipping learners to harness technology, navigate the complexities of the digital realm, and stay competitive in a fast-evolving job market. This study delves into the profound effects of these educational frameworks, highlighting their significance in cultivating a resilient and

forward-thinking workforce. By examining best practices, challenges, and policy considerations, it stresses the urgent need to transform education by integrating interdisciplinary insights, strengthening critical analysis, and boosting digital skills to prepare future generations for success in an ever-changing world.

Introduction



The onset of the Third Renaissance marks a pivotal time in human progress, fueled by swift technological advancements, the rise of digitalization, and the blending of various knowledge domains. As industries evolve through automation, artificial intelligence (AI), and sustainability efforts, our education systems must adapt significantly to prepare individuals for the new challenges and opportunities ahead. Central to this evolution are three key pillars: interdisciplinary learning, critical thinking, and digital literacy. These skills not only boost employability in a rapidly changing job market but are also crucial for nurturing a society capable of addressing complex global challenges.

Education has always evolved alongside societal progress and technological advancements. Yet, the 21st century—dominated by globalization, the Fourth Industrial Revolution, and the swift expansion of digital technologies—has escalated the urgency for more agile and adaptable learning models.

Consequently, interdisciplinary learning has risen in importance as it breaks down traditional academic barriers, fostering a more cohesive approach to problem-solving. Critical thinking equips individuals with the analytical and decision-making skills needed to navigate uncertainty confidently. At the same time, digital literacy has become essential for engaging with technological advancements, accessing trustworthy information, and adapting to an increasingly digital world.

This paper examines how these three foundational pillars of education cultivate a workforce that is agile, innovative, and equipped to thrive in an increasingly complex and dynamic world. By examining their impact on learning outcomes and societal development, the analysis underscores the necessity for a reimagined educational framework that promotes interdisciplinary understanding, sharpens analytical skills, and enhances digital competencies. In doing so, it stresses the urgent need for education to align with the demands of an interconnected, technology-driven environment.

Interdisciplinary Learning: A Holistic Approach to Modern Education

Interdisciplinary learning is a dynamic educational approach that blends insights, methods, and perspectives from multiple disciplines, fostering a well-rounded understanding of complex global issues. This model moves beyond traditional academic silos, encouraging students to integrate diverse viewpoints and develop innovative solutions to real-world problems. According to Klaassen, higher education has undergone a significant transformation in the past two decades, shifting from rigid, discipline-specific structures to more flexible interdisciplinary frameworks (234). This shift has played a crucial role in enhancing students' creativity, communication, and collaborative problem-solving abilities (Heikkinen and Räisänen 178), better preparing them for the evolving challenges of the modern workforce.



Interdisciplinary learning goes beyond merely combining theories; it enables students to incorporate diverse methodologies, cultivating well-rounded and efficient approaches to problem-solving (Oudenampsen et al. 56). As You points out, recognizing connections between disciplines enhances students' ability to engage in deeper and more insightful learning experiences (78). Despite its advantages, implementing interdisciplinary learning presents certain challenges. Educators must not only be experts in their respective fields but also adept at fostering creativity, critical thinking, and cross-disciplinary collaboration (Alexander et al. 91). By embracing interdisciplinary education, academic institutions can equip students with the essential skills required to navigate an increasingly complex and interconnected world.

Critical Thinking and Digital Literacy in the Knowledge Economy

In the modern digital landscape, critical thinking is an essential skill that empowers individuals to navigate, analyze, and make sense of the overwhelming flow of information with clarity and precision.

The capacity to distinguish between reliable sources and misleading content is fundamental to modern education (Wineburg et al. 214). As digital technologies continue to transform how knowledge is disseminated and consumed, students must cultivate analytical skills that enable them to navigate increasingly complex digital landscapes (Caulfield 35).

To enhance digital literacy, educational institutions have implemented structured strategies such as the SIFT method (Stop, Investigate, Find better sources, Trace claims), helping students develop a more discerning approach to information verification (Caulfield 48). As artificial intelligence and automation continue to reshape the job market at an unprecedented pace, the demand for lifelong learning has become more critical than ever (Carnevale et al. 67). Similarly, the OECD reports that nations prioritizing digital education and workforce retraining are better positioned for economic success in an increasingly technology-driven world (OECD 112).

Despite these advancements, challenges remain in effectively integrating digital tools into education. A significant barrier is the digital skills gap among educators, which can hinder their ability to support students in using emerging technologies (Viberg, Grönlund, and Andersson 89). Researchers suggest that integrating learning management systems with personalized digital learning environments could improve teacher training and pedagogical effectiveness (Xu, Chan, and Yilin 134).

Conclusion

The emergence of the Third Renaissance signals a fundamental shift in education, requiring a renewed emphasis on interdisciplinary learning, critical thinking, and digital literacy. As rapid technological advancements reshape global industries, educational



institutions must evolve to equip students with the competencies needed to thrive in an increasingly interconnected world. Interdisciplinary learning fosters a holistic problem-solving mindset, enabling individuals to integrate knowledge from various disciplines to tackle intricate global issues effectively. Critical thinking serves as a fundamental pillar of this transformation, empowering learners to analyze, integrate, and utilize information with precision and insight. Meanwhile, digital literacy has become essential, empowering individuals to harness emerging technologies and drive innovation within the knowledge economy. Ultimately, the ability to think critically, solve problems through interdisciplinary approaches, and leverage digital tools will define the leaders and innovators of the future. As societies adapt to this evolving era, prioritizing innovative education will be essential for fostering a sustainable, technologically progressive, and inclusive future.

Works Cited

- Alexander, Robin, et al. *Interdisciplinary Learning Approaches in Higher Education*. 2008.
- Boix Mansilla, Veronica, and Yves Lenoir. *The Evolution of Education and Interdisciplinary Learning*. 2010.
- Caulfield, Mike. *Teaching Digital Literacy: The SIFT Method*. 2018.
- Carnevale, Anthony P., et al. *Lifelong Learning in the Digital Economy*. 2020.
- Chen, Chien-Jen, et al. *The Role of IT Human Capital in Organizational Performance*. 2015.
- Florida, Richard. *The Rise of the Creative Class*. Basic Books, 2002.
- Harari, Yuval Noah. *21 Lessons for the 21st Century*. Spiegel & Grau, 2018.
- Heikkinen, Hannu L. T., and Raija Räisänen. *Interdisciplinary Education Research*. 2018.
- Klaassen, Rene G. *Interdisciplinary Learning and University Transformation*. 2018.
- OECD. *Digital Literacy and Workforce Development*. 2021.
- Panyukova, Svetlana V. *Technology Integration in Education*. 2020.
- Saputri, et al. *21st Century Skills and Education*. 2019.
- Wineburg, Sam, et al. *Digital Literacy and Misinformation*. 2016.
- Xu, Di, Alex Chan, and Li Yilin. *Integrating Learning Management Systems for Digital Education*. 2020.
- You, Hong. *Cross-Curricular Connections and Interdisciplinary Learning*. 2017.



UCHINCHI RENESSANS DAVRIDA YOSHLARGA DINIY TARBIYANING AHAMIYATI

Kallibekova Zulkumar

Qoraqalpog'iston qishloq xujaligi va axgotexnologiyalar instituti dotsenti kafedra
mudiri

Tayanch so'zlar: oila, farzand, din, ota-ona, sog'lom avlod, renessans, tarbiya.

Ключевые слова: семья, дети, религия, родители, здоровое поколение, ренессанс, воспитание

Keywords: family, children, religion, parents, healthy generation, renaissance, upbringing

Rezyume

Maqolada uchinchi renessans davrida diniy tarbiyaning ahamiyati, o'rni va roli haqida so'z boradi. Farzandlarni oilada din orqali tarbiyalash alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki qadimdan tarbiyaning asosi bo'lib hisoblangan.

Резюме В статье рассматривается значение, место и роль религиозного воспитания в эпоху третьего возрождения. Особое значение приобретает воспитание детей в семье через религию. Потому что издавна он считался основой воспитания.

Summary

The article examines the meaning, place and role of religious education in the era of the third Renaissance. Of particular importance is the upbringing of children in the family through religion. Because it has long been considered the basis of education.

Yurtimizda ta'lim-tarbiyaga bo'lgan e'tibor kuchayotgan bir sharoitda o'z navbatida yosh avlod ham bilim olishga, oliy ma'lumotli bo'lishga, ma'naviyatimiz rivojiga hissa qo'shayotgani quvonarli hol.

Diniy tarbiya - bu insonni axloqiy, ma'naviy va ruhiy jihatdan shakllantirishga qaratilgan muhim omildir. U insonning hayotining barcha jabhalariga ta'sir qiladi, uning dunyoqarashi, qadriyatlari va xulq-atvori shakllanishida muhim rol o'ynaydi.

Diniy tarbiyaning ahamiyati insonning ma'naviy rivojlanish, uning ichki dunyosiga, qalbining pokligiga, yaxshilikka intilishiga yordam beradi. Axloqiy qadriyatlarni shakllantirishga, halollik, rostgo'ylik, mehribonlik, adolatlilik, sabr-toqat kabi fazilatlarni o'rgatishga yordam beradi. Shunigdek hayot ma'nosini anglashiga, o'zining olamdagi o'rnini aniqlashga, hayotning maqsad va vazifalarini tushunishga yordam beradi.

Jamiyatda tinchlik va totuvlikni ta'minlashda, diniy tarbiya insonlar o'rtasida hurmat, bag'rikenglik va totuvlikni o'rnatishga, jamiyatda tinchlik va osoyishtalikni ta'minlashga diniy tarbiyaning o'rni beqiyos. Insonni to'g'ri yo'lga boshlab borishda diniy



“RAQAMLASHGAN JAMIYATDA INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH: IMKONIYAT VA ISTIQBOLLARI” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

tarbiya insonni yomonlikdan, gunohdan, xato yo'llardan saqlanishga, to'g'ri yo'lga boshlab borishga yo'l ko'rsatadi.

Diniy tarbiyaning turlari quyidagicha bo'lishi mumkin. Oilaviy tarbiya: Oila - insonning birinchi va eng muhim ta'lim muassasasidir. Oilada bolalarga diniy qadriyatlar, axloqiy me'yorlar, ibodat qilish, Qur'on o'qish kabi diniy amallar o'rgatiladi. Maktablarda diniy ta'lim fanlari o'qitiladi, diniy madaniyat va tarix haqida ma'lumot beriladi. Jamoat tarbiyasi: Jamoatlarda diniy ma'ruzalar, suhbatlar, darslar o'tkaziladi, diniy tadbirlar tashkil etiladi.

Diniy tarbiya insonning shaxsiy rivojlanishi va jamiyatning barqarorligi uchun muhim ahamiyatga ega. U insonni to'g'ri yo'lga boshlab borishga, axloqiy qadriyatlarni shakllantirishga, hayot ma'nosini anglashga va jamiyatda tinchlik va totuvlikni ta'minlashga yordam beradi.

O'z navbatida, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev rahnamoligida O'zbekistonda yangi Uyg'onish davri, ya'ni Uchinchi Renessans poydevorini yaratish asosiy maqsad etib belgilandi. Davlatimiz rahbari ta'kidlaganidek, “Biz Uchinchi Renessans masalasini strategik vazifa sifatida oldimizga qo'yib, uni milliy g'oya darajasiga ko'tarmoqdamiz”. “Renessans” so'zi – frantsuzcha “Renaissance”, ital'yancha – “Rinascimento” – qayta yuzaga kelmoq, yangidan tug'ilmoq, qayta tirilish, uyg'onish – degan ma'nolarni anglatadi.

«Hozirgi vaqtda mamlakatimizda yana bir muhim Uyg'onish jarayoni kechmoqda. Shuning uchun „Yangi O'zbekiston“ va „Uchinchi Renessans“ so'zlari hayotimizda o'zaro uyg'un va hamohang bo'lib yangramoqda, xalqimizni ulug' maqsadlar sari ruhlantirmoqda», — deya xulosa qiladi Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev. Ba'zi ota-onalar farzandlari bilan kamroq muloqotda bo'lishi, ulardan o'zlarini uzoqroq olib yurishi bilan obro' orttirishni o'ylashadi. Ularni nazarida, go'yo farzand bilan qancha kam uchrashilsa, shuncha ko'proq obro' qozonish mumkin. Bu mutlaqo noto'g'ri tushuncha, ota-ona o'z farzandi bilan qancha kam muloqotda bo'lsa, ular o'rtasida begonalashish, loqayd bo'lish holatlari kelib chiqadi.

Kuzatishlarimizga ko'ra, farzandlarga ortiqcha pand-nasihat qilaverish ham yomon oqibatlarga olib kelishi mumkin. Chunonchi, ba'zi ota-onalar arzimagan mayda-chuyda masala bo'yicha ham uzundan uzoq, o'git-nasihat qiladilar, o'zlarining nasihatgo'yiligini burch deb obro' qozonib bo'lmaydi.

Islomda tarbiya masalalari keng va qat'iy tarzda o'rganilgan. Ulug'lardan biri: “Har bir millatning saodati davlatlarning tinch va rohati yoshlarning yaxshi tarbiyasiga bog'liqdir” degan.

Bu o'rinda, marhum muftiy hazratlari Usmonxon Alimovning islom dinining muqaddas manbaalari bo'lmish, Qur'oni Karim va Hadisi Sharifga shuningdek, islomiy



axloqning nazariyasi va amaliyotiga suyanib yozilgan “Oilada farzand tarbiyasi” nomli asarining islomda oila va oilaviy munosabatlarga bag‘ishlanganligini alohida ko‘rsatib o‘tish zarur. Bu bevosita, oilada o‘smir yoshidagi yoshlarda sog‘lom diniy ongni shakllantirishda muhim dasturul amal vazifasini o‘taydi⁴².

Oila muhiti bola shaxsining shakllanishi va kamol topishida tabiiy shart-sharoit yaratadi. Oila nafosat, go‘zallik, turmush va tarbiyaning boshlang‘ich maktabi hisoblanadi. Shuning uchun oilada ota-ona va boshqa a‘zolarining yagona birligi bolaning estetik rivojlanishiga kuchli ta‘sir etuvchi go‘zallik tushunchasining asosini tashkil etadi. Oila turli xil estetik kechinmalarning asosi bo‘lib, bu har bir insonning tabiatan ta‘sirlanishiga imkoniyat beradi. Ota-onaning bola tarbiyasidagi mas‘uliyati va farzandning ota-ona oldidagi burchlari ham o‘zbek millatida oliy qadriyat hisoblanadi. Bu kabi masalalarga bizning ma‘naviyatimiz xazinalari bo‘lmish “Qur‘oni Karim”, “Hadislar”, ajdodlarimiz merosi bo‘lmish “Qobusnoma”, Husayn Voiz Koshifiyning “Axloqi Muhsiniy” Alisher Navoiyning “Hayratul Abror”, “Farhod va Shirin”, “Mahbub-ul qulub”, Sa‘diy Sheroziyning “Guliston” va boshqa bir qator didaktik asarlarda katta e‘tibor qaratilgan. Bunday asarlar yoshlarda oilaga e‘tiqod va mas‘uliyatni tarbiyalashda katta ahamiyat kasb etadi. Oila inson deb ataluvchi binoni faqat poydevorini qo‘yish bilan cheklanmasdan, balki uning so‘nggi g‘ishti qo‘yilguncha javobgardir.

Xulosa qilib aytganda, oiladagi diniy tarbiya orqali shaxsga ma‘lum bir siyosiy-g‘oyaviy dunyoqarash, axloqiy me‘yorlar va xulq namunalari, jismoniy sifatlar singdiriladi. Xalqimizda «qush uyasida ko‘rganini qiladi» deb bejiz aytilmagan. Oilada amalga oshadigan ijtimoiylashuv jarayoni natijasida shaxs ijtimoiy me‘yorlar va qadriyatlarni o‘zlashtiradi, ijtimoiy hayotga kirib boradi.

Adabiyotlar

1. SHoumarov F. B., SHoumarov SH.B. Muhabbat va oila.-Toshkent, «Ibn Sino», 1994.-120s.

2. SHAXSDAGI DINIY ONG SHAKLLANISHIDA OILA TARBIYASINING O‘RNI Gavhar Yuldosheva O‘tkirovna O‘zXIA Din psixologiyasi va pedagogika kafedrasida ilmiy izlanuvchisi

3. Fitrat A. Oila yoki oila boshqarish tartiblari, - T.; «Ma‘naviyat», 1998, -112 b.

4. Farzand tarbiyasida otaning mas‘uliyati, vazifasi va majburiyati. M.Hasanova, oydiyol.uz

⁴² SHAXSDAGI DINIY ONG SHAKLLANISHIDA OILA TARBIYASINING O‘RNI

Gavhar Yuldosheva O‘tkirovna

O‘zXIA Din psixologiyasi va pedagogika kafedrasida ilmiy izlanuvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7016134> file:///C:/Users/Najimov%20Sultanbek/Downloads/shaxsdagi-diniy-ong-shakllanishida-oila-tarbiyasining-o-rni.pdf



5. Abatov , A., & Risnazarova , A. . (2022). QORAQALPOQ XALQINING DINIY E’TIQOTIDA TAVOF QILISH MASALALARI. *Евразийский журнал социальных наук, философии и культуры*, 2(12), 223–224. извлечено от <https://in-academy.uz/index.php/ejsspc/article/view/6274>

O’ZBEKISTONDA JAMIYAT TARAQQIYOTINING YANGI BOSQICHIDA MILLIY YUKSALISH JARAYONINING EVOLYUTSION FALSAFIY TAHLILI

Mavlonov Ilxomjon Xolmirzayevich

Qo’qon universiteti o’qituvchisi, f.f.d (PhD) v.b dotsent.

O’zbekiston Respublikasi Farg’ona viloyati, Dang’ara shaxarchasi

Tel: +9989999921844

Qdpiqdpi9@gmail.com

ilxomjonmavlonov561@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ma’naviy yuksalish milliy taraqqiyotning asosi ekanligini ijtimoiy-falsafiy jihatdan ilmiy tadqiq etish o’z navbatida milliy taraqqiyot modellarining xilma-xilligini ham qamrab oladi. Ushbu maqolada milliy yuksalish jarayonining evolyutsiyasi falsafiy tahlil qilingan.

Kalit so’zlar: ma’naviy yuksalish, jarayon, Vatan, taraqqiyot, milly taraqqiyot.

АННОТАЦИЯ

Социально-философское научное исследование того, что духовный рост является основой национального развития, охватывает также многообразие моделей национального развития. В статье дается философский анализ эволюции процесса национального вознесения.

Ключевые слова: духовный рост, процесс, Родина, развитие, национальное развитие.

ABSTRACT

The socio-philosophical study of the fact that spiritual growth is the basis of national development, in turn, covers the diversity of models of national development. This article provides a philosophical analysis of the evolution of the national ascent process.

Keywords: spiritual growth, process, homeland, development, national development.

Vatanimiz istiqloлга erishganidan so’ng milliy taraqqiyot masalalariga oid muammolarni holisona hal etish nafaqat davlat siyosatining muhim tamoyili sifatida keng ko’lamli ishlar amalga oshirilayotgan bo’lsa, soha olimlari tomonidan ham jiddiy ilmiy



tadqiqotlar olib borilmoqda. Negaki, «milliy taraqqiyot va ma'naviy yuksalish jarayoni»ni o'rganishga doir turli hil ijtimoiy-falsafiy qarashlar tizimini ilmiy jihatdan tahlil va tadqiq qilish, uni amaliy hayotga joriy etish zarurati butunjahon miqyosida milliy nizolar avjiga chiqqan bir paytda dolzarb ahamiyatga ega masalalardan biriga aylanib bormoqda. Kishilik jamiyati hech qachon bir tekis va silliq rivojlanmagan. Taraqqiyot ortidan inqirozlar, yutuqlar ketidan mag'lubiyatlar, farovonliklar izidan zavolga yuz tutishlar ta'qib etgan. Muayyan jamiyat iqtisodiy-siyosiy, axloqiy-diniy, badiiy-estetik taraqqiyot borasida inqirozga duch kelar ekan, undan chiqib ketish uchun ilg'or falsafiy ta'limotlarga ehtiyoj sezadi. Insoniyat taraqqiyotining har bir bosqichida ushbu muammolar yangidan kun tartibiga qo'yilaveradi. Ularni o'rganish jarayonida davlat, jamiyat taraqqiy etib boradi. Rim imperiyasi zavolga yuz tutganidan keyin o'z milliy davlatchiligiga ega bo'lgan Yevropa mamlakatlarida, o'rta asrlarga kelib, milliy taraqqiyot yaratish imkoni tug'ildi. To'g'ri, ular umumevropa hududida, Qadimgi Yunoniston va Rim madaniyati negizida shakllandi. Ularda Yevropa xalqlariga xos umumiy jihat va xususiyatlar, umumetnik mentalitet aks etgan edi. Bu jarayon, avvalo, Italiya va Angliyada, so'ngra Frantsiyada yuz berdi [1].

Milliy taraqqiyot va ma'naviy yuksalish jarayonining ijtimoiy-falsafiy negizlarini, tarixiy rivojlanish bosqichlarini ko'zdan kechiradigan bo'lsak, Sharq va G'arb falsafiy tafakkuri rivojida o'ziga xos o'rin tutib, astasekinlik bilan bugungi zamonaviy ko'rinishigacha bo'lgan murakkab bosqichni bosib o'tganligini kuzatishimiz mumkin. Ayniqsa, mazkur muammo R.Dekart, B.Spinoza, I.Kant, I.Fixte, G.Gegel kabi Yevropa faylasuflarining asarlarida alohida mavzu sifatida o'rganila boshlanganligini ko'rishimiz mumkin [2]. Ular, avvalambor, o'z yurti, millati sha'n-u sharafini yuksaklikka ko'tarish, taraqqiyotga olib chiqish uchun ilg'or g'oyalarni o'rtaqa tashlagan, davr taqozo etgan mafkuraning shakllanishiga hissa qo'shgan.

XX asrning o'rtalaridan kelibgina Yevropada milliy taraqqiyot va ma'naviy yuksalish jarayonini yaxlit falsafiy muammo sifatida tadqiq etish borasida keng ko'lamli tadqiqotlar amalga oshirildi. Bu tadqiqotlarda ilgari surilgan kontseptual g'oyalar, xulosalar va fikrlar milliy taraqqiyot va ma'naviy yuksalish jarayonining nafaqat inson hayoti, balki ijtimoiy munosabatlar bilan ham bog'liq murakkab, keng qamrovli muammolardan biri ekanini ko'rsatadi. Biz yashayotgan dunyo so'nggi yillarda nihoyatda o'zgarib ketdi. Xususan, Vatanimiz tarixida XX asrning 90-yillarida olamshumul voqealar yuz berdi: mamlakatimiz mustaqillikka erishib, o'ziga xos taraqqiyot yo'lini tanladi, rivojlanishning o'zbek modelini amalga oshirishga kirishdi. Xalqimizning huquqiy demokratik jamiyat barpo etish zarurati dunyoqarashni tubdan o'zgartirish, eski aqidalardan tamoman voz kechish, istiqlol mafkurasini shakllantirish, xalq ma'naviyatini yuksaltirishni taqozo etdi [3].



“RAQAMLASHGAN JAMIYATDA INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH: IMKONIYAT VA ISTIQBOLLARI” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

Milliy tiklanish, taraqqiyot va yuksalish juda keng, chuqur, murakkab tarixiy jarayon bo'lib, u millatimiz hayotining hamma sohalarni: iqtisodiyotni ham, siyosiy faoliyatni ham, ma'naviyatni ham, ilm-fan, til, tarix, urf-odatlar, hunarmandchilik, me'morchilikni ham, inson kamoloti bilan bevosita daxldor barcha masalalarni o'z ichiga qamrab oladi. Milliy tiklanishga birdaniga erishib bo'lmaydi. Milliy tiklanish uzoq davom etadigan, ko'p yillarni o'z ichiga qamrab oladigan murakkab jarayondir. Fuqarolik jamiyatini barpo etish borasida mamlakatimizda amalga oshirilayotgan tub islohotlar xalqimizning milliy o'zligini anglashga bo'lgan intilishlarini rag'batlantirmoqda. Shu ma'noda, milliy taraqqiyot va ma'naviy yuksalish jarayoniga ta'sir etuvchi ob'ektiv shart-sharoitlar va sub'ektiv omillarni ilmiy asosda o'rganish masalasi bugungi kunda tadqiqotchilarning oldida turgan muhim vazifalardan biridir. Ma'naviy yuksalish milliy taraqqiyotning asosi ekanligini ijtimoiy-falsafiy jihatdan ilmiy tadqiq etish o'z navbatida milliy taraqqiyot modellarining xilma-xilligini ham qamrab oladi. Shu bois ma'naviy yuksalish jarayonlari mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatini takomillashtirish bilan bevosita bog'liqdir [4].

Vatanimiz O'zbekiston Rossiyaning qariyb bir yarim asrlik mustamlaka zulmidan ozod bo'lganiga chorak asr to'lmoqda. Bu davrda behad katta va ulug'vor tarixiy hodisa yuz berdi. Qadimdan dunyoga mashhur bo'lgan davlatchiligimiz zamonaviy asosda qayta tiklanib, jahonga yangitdan tanildi. Vatanimiz ravnaqi O'zbekistonning birinchi Prezidenti Islom Karimovning milliy mustaqillik va taraqqiyot yo'li — «o'zbek modeli» asosida amalga oshib, takomil topmoqda [5].

Milliy yuksalish jarayonining evolyutsion modeli ekanligini anglatadi. O'zbekistonda qurilayotgan huquqiy demokratik davlat xususiyatlari, demokratiya va xalq ruhiyati, demokratik tamoyillar rivoji, madaniyatlar va tsivilizatsiyalar sintezi, fuqarolik jamiyati tizimini shakllantirish yo'llari, milliy mafkura zarurati va uning negizlari, milliy qadriyatlarni tiklash, necha ming yillik tariximizni o'rganishning kontseptual g'oyalari asoslab berildi. Xalqimiz 25 yillik istiqloq davrida erishilgan barcha yutuq va natijalarni haqli ravishda Birinchi Prezidentimiz Islom Karimovning nomi va faoliyati bilan uzviy bog'liq holda ko'radi. Butun O'zbekiston bolalari – mening farzandlarim deb bilgan, mamlakatimizning kelajagi zamonaviy bilim va kasb - hunarlarni puxta egallagan, iste'dodli, izlanuvchan yoshlar qo'lida ekanini chuqur anglagan holda, u kishi yoshlarimizning ongu tafakkuri va dunyoqarashini yuksaltirishga xizmat qiladigan, navqiron avlodni tarbiyalab voyaga yetkazishning yangi tizimini shakllantirish hamda hayotga joriy etish ishlariga bevosita rahbarlik qildi. Mustaqil demokratik taraqqiyot va jamiyat rivojlanish qonununiyatlarini asoslab, o'z asarlarida muhim nazariy kontseptual g'oyalarni ishlab chiqdi. Ma'lumki, Islom Abdug'anievich Karimov o'z rahbarlik faoliyatining mazmuniga aylangan «Bizdan ozod va obod Vatan



qolsin!» degan ezgu g’oyani ilgari surgan va bu shior barchamizning, butun xalqimizning qalbidan chuqur joy olgan edi. Ulug’ yo’lboshchi ana shu buyuk vazifani hamma vaqt, har qanday vaziyatda ham sharaf bilan ado etdi, bu yo’lda beqiyos kuch-g’ayrati va aql-zakovatini, kerak bo’lganda hatto aziz jonini ham ayamadi. Ko’pni ko’rgan xalqimiz aynan Islom Abdug’anievich rahbarligida g’oyat murakkab tarixiy davrda mamlakatimiz mustaqillikka erishganini, milliy davlatchiligimizni tiklash va dunyo hamjamiyatidan munosib o’rin egallash, O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini ishlab chiqish va amalga tatbiq etish, hayotning barcha soha va tarmoqlarini isloh qilish borasida ulkan yutuqlarni qo’lga kiritganini, bularning barchasi erkin va farovon hayotimiz uchun mustahkam poydevor bo’lib kelayotganini hech qachon unutmaydi. Dunyoda ikki yuz ellikdan ortiq davlat, minglab xalq va elat bor. Ular orasida O’zbekiston deya atalmish go’zal va betakror mamlakatning o’z o’rni va nufuzi, o’ziga xos taraqqiyot yo’li borligi qalbimizga iftixor bag’ishlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. - Тошкент: Ўзбекистон, 2017.- Б. 80.
2. Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида /Расмий нашр/ - Тошкент: Адолат. 2017. – Б.112.
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 26 март «Маънавиймаърифий ишлар тизимини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида» ПҚ-5040-сон Қарори.
4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 8 октябрдаги «Ўзбекистон Республикаси олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш Концепциясини тасдиқлаш тўғрисида» ПФ-5847-сонли Фармони
5. Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. Жилд 1. – Тошкент: Ўзбекистон. 2017. –Б 592.
6. Фалсафа асослари. – Тошкент. Ўзбекистон, 2005. – Б. 384.
7. Норалиев Р.И. Миллий тараққиёт ва маънавий юксалишнинг ўзаро алоқадорлик хусусиятлари. Фалсафа фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун тақдим этилган диссертация автореферати. Тошкент, 2011. – Б 24.
8. Холбоев С. Миллий мустақиллик ва тараққиётининг ўзбек модели. – Тошкент. Ўзбекистон, 2014. –Б 260.



TA'LIM VA SALOMATLIK – INSON KAPITALINING ASOSI SIFATIDA

Saidkulov Nuriddin Akrmakulovich

Guliston davlat pedagogika instituti dotsenti

+99897-340-22-99

mannur_25@mail.ru

Inson kapitali nafaqat iqtisodiy, balki strategik ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy omildir. Bugungi kunda inson kapitali eksporti mamlakatning xalqaro nufuzini mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Davlat boshqaruv tizimida kadrlar salohiyati masalasi inson kapitali barqarorligining muhim shartlaridan biridir. Rivojlangan davlatlarda bo'lgani kabi, mamlakatimizda ham amalga oshirilayotgan islohotlar zahirida ham kuchli kadrlar salohiyatiga ega bo'lish masalasi yotibdi. O'zbekistonda inson kapitalini rivojlantirish uchun bu boradagi ishlarni samarali yo'lga qo'yish va kadrlar salohiyatini yanada kuchaytirish zarur. Bugun ishonch bilan aytish mumkinki, davlatimiz inson kapitalini rivojlantirishdan manfaatdordir. Boshqacha aytganda, mamlakatda tabiiy resurslar omilini inson omiliga almashtirish jarayoni jadal sur'atda davom etmoqda.

Jamiyat barqarorligining kafolati bo'lgan inson kapitali va uning resurslarini rivojlantirish Yangi O'zbekistonda davlatning strategik maqsadiga aylandi. Bu maqsadni amalga oshirish uchun mamlakat bo'ylab juda muhim loyiha va dasturlar amalga oshirilmoqda. Bu loyihalar jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy sohalarini qamrab olmoqda. So'ngi yillarda inson kapitalini shakllantirishga kiritilgan sarmoyani bilish uchun O'zbekiston hukumati tomonidan ta'lim, sog'liqni saqlash va fanni rivojlantirishga sarflangan mablag'larni hisobga olish kifoya. Shu bilan birga, O'zbekistonda odamlarning moddiy farovonligini, turmush darajasini, ekologik muhitini yaxshilash siyosati izchil amalga oshirilmoqda. Bu esa inson kapitali sifatini oshishiga xizmat qiladi.[1]

Ta'lim va salomatlik har bir jamiyatning taraqqiyotini belgilovchi muhim omillardan biridir. Inson kapitali deganda faqat moddiy resurslar emas, balki insonning bilim darajasi, kasbiy mahorati va jismoniy hamda ruhiy salomatligi ham tushuniladi. Yaxshi ta'lim insonning intellektual salohiyatini oshirib, jamiyatga foydali innovatsiyalar yaratish imkoniyatini beradi. Sog'lom inson esa o'z bilim va malakasidan samarali foydalana oladi. Shu bois, davlat va jamiyat rivojlanishida ushbu ikki omil – ta'lim va salomatlik – ustuvor ahamiyat kasb etishi lozim. Ularning rivojiga investitsiya kiritish kelajakda iqtisodiy barqarorlik va ijtimoiy farovonlikni ta'minlashga xizmat qiladi. Ta'lim va salomatlik esa ushbu kapitalni shakllantiruvchi asosiy omillar sifatida e'tirof etiladi. Ushbu ikki omil jamiyatning iqtisodiy rivojlanishi, innovatsion taraqqiyoti va ijtimoiy farovonligining muhim shartlaridandir.



“RAQAMLASHGAN JAMIYATDA INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH: IMKONIYAT VA ISTIQBOLLARI” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

Ta’lim – inson kapitalini shakllantirishning asosiy ustuni. Ta’lim insonning intellektual va kasbiy salohiyatini oshiradi. Zamonaviy dunyoda bilim va texnologiyalar tez rivojlanayotgan bir sharoitda sifatli ta’lim quyidagi jihatlariga ta’sir ko’rsatadi:

- shaxsiy taraqqiyot – inson o’z bilim va ko’nikmalarini rivojlantirib, jamiyatda o’z o’rnini topadi;
- iqtisodiy rivojlanish – malakali kadrlar bozor talablariga mos ravishda ishlab chiqarish jarayonlarini yaxshilaydi va samaradorlikni oshiradi;
- innovatsiya va texnologik taraqqiyot – ilmiy bilimlarga asoslangan ta’lim yangi ixtirolar, texnologiyalar va yangiliklarni yaratishda muhim rol o’ynaydi;
- ijtimoiy farovonlik – ta’lim darajasi yuqori bo’lgan jamiyatlarda jinoyatchilik kamayadi, fuqarolik faolligi oshadi va yashash darajasi yaxshilanadi.

Salomatlik – samarali inson kapitalining garovi. Salomatlik insonning jismoniy va ruhiy holatini belgilab beradi, uning mehnat qobiliyatini oshiradi va umr ko’rish davomiyligini uzaytiradi. Yaxshi salomatlik quyidagilarga ijobiy ta’sir qiladi:

- ish unumdorligi – sog’lom inson o’z vazifalarini samarali bajara oladi, kamroq kasallikka chalinadi va mehnat bozorida barqaror bo’ladi;
- sog’lom avlod – yaxshi tibbiy xizmat va sog’lom turmush tarzi kelajak avlodning jismoniy va aqliy rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko’rsatadi.
- davlat iqtisodiyoti – sog’lom aholi tibbiyot xarajatlarini kamaytiradi, ishlab chiqarish jarayonining barqarorligini ta’minlaydi va iqtisodiy o’sishni jadallashtiradi.
- ruhiy barqarorlik – psixologik jihatdan sog’lom inson ijtimoiy muammolarni oson hal qiladi, stressga chidamli bo’ladi va jamiyatga ijobiy ta’sir ko’rsatadi.

Ta’lim va salomatlik bir-birini to’ldiruvchi muhim omillardir. Sifatli ta’lim olgan inson sog’lom turmush tarzini yuritish bo’yicha ongli qarorlar qabul qilishi mumkin. Shu bilan birga, sog’lom inson ta’lim jarayonida yaxshiroq natijalarga erishadi va o’z bilimlarini samarali qo’llay oladi.

Ta’limning eng muhim ahamiyatini namoyon etadigan yana bir ko’rsatkich shundan iboratki, jamiyat har qanday inqirozga yuz tutganda, eng avvalo, ta’lim sohasida o’z aksini ko’rsatadi. Inqirozdan, eng avval, ta’lim tizimi zarar ko’radi. Bugungi kunda ta’limning o’rni va ahamiyati oldingi vaqtlardan tubdan farq qiladi. XXI asrda biz zamonaviy hayot panoramasida ikkita dominant dinamikani kuzatib turimbiz: ulardan biri raqamli texnologiyalarining keng ommalashib borishi hamda sun’iy intellektni barcha sohalarga shu jumladan ta’limga ham kirib kelishi, ikkinchisi kapitalning dunyo bo’ylab yoyilishi bilan birga yuz beradigan iqtisodiy globallashtirish. Biz yashayotgan raqamli texnologiyalar asrida daqiqa sayin yangi ma’lumotlar hayotimizga juda tez fursatlarda kirib kelmoqda. Bir necha yil oldin olgan bilimlarimiz o’z ahamiyatini yo’qotmoqda, biz yaqin-yaqin-gacha amin bo’lgan eski bilimlarimiz noto’g’riligi isbotlangan va



“RAQAMLASHGAN JAMIYATDA INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH: IMKONIYAT VA ISTIQBOLLARI” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

dunyoqarashimizni tubdan o'zgartira oladigan yangi bilimlar paydo bo'lmoqda. Yangi ma'lumotlarga ega bo'lgan odamlar soni ham keskin o'sib bormoqda. [2]

Ilmiy bilimlarning shakllanish sur'atining jadal rivojlanishi natijasida bilimlarning tarqalish tezligi an'anaviy “bilish” va “o'rganish” tushunchalarining mazmun-mohiyatini qayta ko'rib chiqishni talab etmoqda. Shu kungacha ta'lim tizimi yosh avlod hamda yangi mehnat resurslarini samarali faoliyat yuritishga tayyorlashga yo'naltirilgan bo'lib, hosildorlikni oshirish, ekologik muhofazani ta'minlash, jamiyatning turli sohalarida faol ishtirok etish, sog'lom turmush tarzini shakllantirish hamda iqtisodiy farovonlikka erishish kabi fundamental bilimlarni o'rgatib kelmoqda.

Bugungi kunda pedagogika sohasida faoliyat yurituvchi mutaxassislar oldida yangi va murakkab muammolar yuzaga chiqmoqda. Xususan, insoniyatning raqamli texnologiyalar asriga moslashuvi uchun qanday kompetensiyalar rivojlantirilishi lozim va ta'lim jarayoni qanday formatda tashkil etilishi maqsadga muvofiq ekani muhim masalalar sirasiga kiradi. Ilm-fan taraqqiyoti sharoitida masofaviy ta'lim hamda an'anaviy ta'lim o'rtasidagi asosiy tafovutlar, ularning ustunlik va cheklovlarini har tomonlama o'rganish talab etiladi. Shuningdek, kelajakda o'quvchilarning individual hamda jamoaviy faoliyatlari bugungi tushunchalarimizdan qanday farq qilishi masalasi ham dolzarb bo'lib qolmoqda. Ushbu savollar taraqqiyot sari intiluvchi har bir ziyoli insonning e'tibor markazida bo'lishi lozim.

Ta'lim jarayoni insonning farovon turmush tarziga, porloq kelajagiga sezilarli darajada ta'sir qiladi. Bilim darajasi inson hayotining turli jabhalariga, jumladan, salomatlik, ijtimoiy munosabatlar, madaniy hordiq, siyosiy faollik, tartibli hayot tarziga va boshqa ko'plab sohalarga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatadi. Ta'lim bolalar tarbiyasi bilan shug'ullanayotgan ota-onalarga farzandining salomat bo'lishida va sifatli ta'lim olishida zamonaviy bilimlarga ega bo'lish imkoniyatini yaratadi. Bir oltin qoidani esdan chiqarmasligimiz zarur. Onaning ta'lim darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, chaqaloqlar va bolalar o'limining darajasi shunchalik past bo'ladi.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekistonda 2022-yilda chaqaloqlar o'limi darajasi har 1000 tirik tug'ilgan chaqaloqqa 19,196 nafarni tashkil etadi, bu 2021-yilga nisbatan 2,09 foizga kamaygan. 2021-yilda chaqaloqlar o'limi ko'rsatkichi har 1000 tirik tug'ilgan chaqaloqqa 19,606 nafarni tashkil etdi, bu 2020-yilga nisbatan 2,04 foizga kam. 2020-yilda chaqaloqlar o'limi darajasi har 1000 tirik tug'ilgan chaqaloqqa 20,015 o'limni tashkil etdi, bu 2019-yilga nisbatan 2,01 foizga kam. 2019-yilda chaqaloqlar o'limi koeffitsienti har 1000 tirik tug'ilgan chaqaloqqa 20,425 nafarni tashkil etdi, bu 2018-yilga nisbatan 1,96 foizga kam bo'lganini ko'rsatadi”. [3] Ushbu yillar kesimidagi statistik ma'lumotlardan bilish mumkinki, chaqaloqlar o'limi so'ngi yillarda kamayib borayapti. Demak, ota-onalarning, xususan onalarning savodxonlik darajasi oshib bormoqda.



Buning yana bir isboti ta’lim dargohlarida xotin-qizlar sonining ortib borayotganidan bilish mumkin. Shuning uchun oilaning moliyaviy ahvoli qanday bo‘lishidan qat’i nazar, bolalarni tarbiyalash, salomatligi va sifatli ta’lim olishiga eng avval e’tibor berish zarurdir. Shu tariqa, ta’lim va tarbiya orqali nafaqat falsafiy tushunchalar, balki ijtimoiy-siyosiy va huquqiy me’yorlar ham yosh avlodga yetkaziladi. Natijada, butun bir davlat va jamiyatning tafakkur darajasi yuqorilashadi.

Xulosa qilib aytganda, ta’lim va salomatlik bir-birini to‘ldiruvchi ikki ustun sifatida inson kapitalini mustahkamlab, har bir shaxs va umuman jamiyatning farovonligini ta’minlaydi. Bu ikkovi o‘zaro bog‘liq: sog‘lom odam yaxshiroq ta’lim oladi, yaxshi ta’lim olgan odam esa o‘z salomatligini muhofaza qilish uchun bilimli qarorlar qabul qila oladi. Shu sababli, davlatlar va tashkilotlar ushbu sohalarga sarmoya kiritish orqali kelajak uchun eng muhim resurs – inson salohiyatini – rivojlantirishi zarur. Ta’lim va salomatlik inson kapitalining asosiy poydevori hisoblanadi. Ta’lim insonni bilim va ko‘nikmalar bilan ta’minlasa, salomatlik uning bu imkoniyatlardan to‘liq foydalanishi uchun zarur shart-sharoit yaratadi. Bu ikki omil birgalikda shaxsning ham, jamiyatning ham rivojlanishini ta’minlaydi. Shuning uchun ta’lim va sog‘liqqa investitsiya qilish kelajakdagi muvaffaqiyatning kalitidir.

Foydalanilgan adabiyotlar.

4. Nuriddin, S. (2024). IMPACT OF MIGRATION PROCESSES ON HUMAN CAPITAL. *Elita. uz-Elektron Ilmiy Jurnal*, 2(1), 12-14.
5. Saidkulov, N. A. (2024). THE ROLE OF THE EDUCATIONAL SYSTEM IN THE DEVELOPMENT OF HUMAN CAPITA. *Academic research in educational sciences*, 5(TSUE Conference 1), 66-70.
6. <https://demografiya.uz/uz/ilmiy-tahliliy-axborotnoma/mamlakatlar-bo-yicha-chaqaloqlar-o-limi-darajasi/>

UCHINCHI RENESANS QURISHDA O‘QUVCHILARDA NOSTANDART TAFAKKUR TARZINI RIVOJLANTIRISH.

Raxmonova Gulchexra Salaydinovna

CHDPU Milliy g‘oya huquq ta’lim kafedrası v.b.dotsenti (PhD)

Annotatsiya

Mazkur maqola uchinchi renesans qurish davrida yurtimiz ta’lim muassasalarida olib borilayotgan, o‘quvchilar o‘rtasida kreativ va nostandart fikrlash va dars mashg‘ulotlarida, bu jarayonda ta’lim mazmunini uzviyligini ta’minlashni mavjud xolati, mavjud muammo va kamchiliklar, ularni echimiga doir masalalar ilmiy-metodik tahlil qilingan. Shu bilan birga ta’lim samaradorligiga xizmat qiluvchi zamonaviy yondashuvlar, nostandart va kreativ fikrlashning dars mashg‘ulotlarida qo‘llashga oid



“RAQAMLASHGAN JAMIYATDA INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH: IMKONIYAT VA ISTIQBOLLARI” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

tavsiyalar xorijiy va maxaliy tajribadan kelib chiqib ilgari surilgan. O‘zbekiston Respublikasida Milliy ta’lim dasturining mazmun-mohiyatini yoritish xam maqsad qilingan. O‘rganilgan xolatlar taxlilidan kelib chiqib, o‘quvchi-yoshlarning tafakkur va fikirlash darajasiga munosabat bildirish, ko‘nikmalarni oshirishga doir takliflar ilgari surilgan.

Аннотатсия

В данной статье в третий ренессансный период строительства учебных заведений нашей страны, в творческом и нестандартном мышлении и уроках учащейся молодежи, научно и методически анализируются современное состояние обеспечения целостности содержания образования в этом процессе, существующие проблемы и недостатки, а также вопросы, связанные с их решением. Подходы, рекомендации по использованию нестандартных - стандартное и творческое мышление на уроках выдвигалось на основе зарубежного и отечественного опыта. На основе анализа изученных ситуаций были выдвинуты предложения по реагированию на уровень мышления и мышления учащихся по повышению их квалификаций.

Abstract

In this article, during the third renaissance period of the construction of the educational institutions of our country, in the creative and non-standard thinking and lessons among students, the current state of ensuring the integrity of the educational content in this process, the existing problems and shortcomings, and the issues related to their solution are scientifically and methodically analyzed. Approaches, recommendations regarding the use of non-standard and creative thinking in the lessons were put forward based on foreign and local experience. Based on the analysis of the studied situations, proposals were put forward to respond to the level of thinking and thinking of students and improve their skills.

Kalit so‘zlar: Ta’lim sohasida o‘qituvchi va o‘quvchilar o‘rtasida nostandart va kreativ fikrlash orqali mustaqil ta’lim ta’lim bilan yondashgan xolda sinfdan tashqari ta’lim, keys va kazuslar birgalikda o‘rganish.

Ключевые слова: в сфере образования, самостоятельное обучение через нестандартное и творческое мышление между учителями и учениками, внеклассное обучение, кейсы и кейсы вместе.

Ta’lim sifati va samaradorligiga erishish faqatgina o‘quvchilarning bilim olish qobiliyati va iqtidoriga bog‘liq bo‘lib qolmasdan, balki unga berilayotgan o‘quv materiallarining sifati, ta’lim jarayonini to‘g‘ri tashkil qilish va yondashuvlarni to‘g‘ri belgilash, o‘qituvchilarning zamonaviy pedagogik yondashuvlar va metodikalardan foydalanish mahoratiga ham bog‘liq. Shu nuqtai nazardan o‘quvchilarda nostandart



“RAQAMLASHGAN JAMIYATDA INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH: IMKONIYAT VA ISTIQBOLLARI” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

tafakkur tarzini rivojlantirish modelini ishlab chiqish, unga ta'sir etuvchi omillarni asoslantirish bugungi kunda pedagogik faoliyatni olib borayotgan har bir shaxsdan talab etiladigan kasbiy kompetensiya bilan bog'liq hodisalardir. Bunda, eng avvalo, ta'lim tizimida o'quvchi intellekti va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, bilish va o'rganishga nisbatan rang-barang yondashuvlar ko'nikmasini shakllantirish, o'rganilayotgan muammoning dolzarbligi, ijtimoiy shart-sharoit bilan bog'liqligi, hayotiy zarurati, shaxs kamoloti va o'z-o'zini rivojlantirishga yo'nalganligi bilan bog'liq jihatlarni qanoatlantirish hamda mazkur omillarni kasbiy kompetensiya nuqtai nazaridan tahlil qilish talab etiladi.

Zamonaviy pedagogik yondashuvlar ta'lim jarayonida qiymat birligi va maqsad muvofiqligi uyg'unligini ta'minlagan holda, o'quvchining shaxsiy mas'uliyati va intellektual salohiyatini rivojlantirish, uni nostandart ijodiy fikrlashga yo'naltirish hamda o'zini-o'zi takomillashtirish bilan bog'liq individual sifatlarni qaror toptiradi. Zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida o'quvchilarda nostandart tafakkur tarzini rivojlantirishda maktab ta'limi jarayonida ta'lim oluvchining intellektual xususiyatlarini individual namoyon etishiga motivatsion shart-sharoitni yaratish, nostandart ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish uchun didaktik imkoniyatlardan yuqori darajada foydalanish lozim. Bugungi kunda maktab ta'lim jarayonida yuqorida biz ta'kidlagan ilmiy mulohaza va yondashuv masalalari etarlicha o'rganilmagan, qolaversa, nazariy asoslantirilmagan davr muammolaridan biri bo'lib qolmoqda.

Bizning nuqtai nazarimizcha, o'quvchi shaxsida nostandart tafakkurni shakllantirish uning individual va tipologik ijodkorlikka xos xususiyatlari bilan asoslagan holda rivojlantirish maqsadga muvofiq va uni yuzaga olib chiqish bevosita unga ta'sir etuvchi tashqi omillar hamda mavjud shart-sharoitlarga bog'liq. Bunda o'quvchining ijod sohasi bilan bevosita bog'liq bo'lgan, kognitiv va shaxsiy shakllanish masalalariga e'tibor qaratish maqsadga muvofiq bo'lib, ijodiy qobiliyatning mohiyati, tuzilishi, tavsifi, tahlili, pedagogik ta'minoti, shakllantirish jarayoni, amaliy mexanizmlari hamda turli usul va yo'llarini pedagogik jihatdan tavsiflash va ilmiy-amaliy faoliyat bilan uyg'unlashtirish zarur.

Pedagogik yondashuvlar nuqtai nazaridan masala mohiyatiga qaraydigan bo'lsak, o'quvchilarda barcha sohalarga xos bo'lgan “tabiiy ijodkorlik” elementlari mavjud bo'lib, uni ma'lum shart-sharoitlar asosida ilg'ash, yuzaga chiqarish va yo'naltirish mumkin. Bunda, eng avvalo, ota-ona va o'qituvchidan kuchli e'tibor talab etilib, bola bilan muloqot o'rnatish borasida to'g'ri va omilkor yo'nalishni belgilab olish hamda rag'bat metodikasidan foydalanish maqsadga muvofiq. Jazolash metodlari o'quvchi shaxsida mavjud ijodiy o'ziga xoslik va nostandart tafakkurni “o'ldiradi”. Chunki nostandart tafakkur tarzi, aksariyat hollarda, tengdoshlar tomonidan kulgi bilan qarshi olinadi va



“RAQAMLASHGAN JAMIYATDA INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH: IMKONIYAT VA ISTIQBOLLARI” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

o‘quvchida o‘z “men”ini namoyon qilishi uchun to‘sqinlik qiladi. Shuningdek, o‘quvchilarning nostandart fikrlashga yo‘naltiruvchi usullardan foydalangan holda mavhum-mantiqiy masalalarga o‘yin faoliyati orqali olib kirish hamda evristik fikrlash usullari orqali faoliyat va jarayon uyg‘unligini ta‘minlash bu jarayonda qo‘l keladigan yondashuv hisoblanadi.

Zamonaviy pedagogik yondashuvda o‘quvchi shaxsida shakllantiriladigan nostandart nevrologik fikrlash usullari quyidagilar bilan asoslanishi mumkin: o‘quvchi tomonidan mavjud masala mohiyatiga nisbatan mantiqiy va o‘zgaruvchan fikrlash qobiliyati negizida yondashish; masala mohiyatini anglagan holda uning echim va yo‘llarini bir nechta nostandart muqobil variantlarini taxmin qilish qobiliyatini shakllantirish; mavjud masalaga nisbatan shaxsiy qiziquvchanlikning ortishi hamda tahlil qilish orqali hodisa va jarayonlar o‘rtasidagi bog‘liqlik va farqni anglash qobiliyati; intuitiv mexanizm (hissiy yondashuv) va ratsional bilimlar asosida assotsiatsiyani ta‘minlay olish va qarorlar qabul qilish; narsa va hodisalar o‘rtasidagi o‘xshashlik va ehtimollilik manbalarini ajratish va sintezlash; ilmiy g‘oya va qarashlarni ratsional asoslash hamda mobillikka asoslangan echimlarni taklif etish qobiliyati.

O‘quvchilarning zamonaviy ta‘lim faoliyati jarayonida intellektual qobiliyati va nostandart ijodiy yondashuv samaradorligini rivojlantirish ma‘lum tizimga asoslangan va aniq maqsad sari yo‘naltirilgan model negizida shakllantirilishi maqsadga muvofiq bo‘lib, biz uni quyidagicha tashkil etish va amalga oshirishni lozim topdik:

Ta‘lim jarayonida o‘quvchilar nostandart tafakkur tarzini rivojlantirish modelining komponentlari quyidagilardan iborat:

Maqsad: ta‘lim jarayonida o‘quvchilarning intellektual salohiyatini oshirish va nostandart ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish.

Vazifalar:

- o‘quvchilarning individual qiziqishlarini oshirish va ijodkorlikka yo‘naltirish hamda pedagogik rag‘batlantirish;
- o‘quvchilarning nevrologik ijodiy faoliyatga yo‘naltirish va aqliy faoliyat motivatsiyasini psixologik-pedagogik jihatdan qo‘llab-quvvatlash;
- o‘quvchilarda maktab ta‘lim jarayonida o‘tiladigan fan va predmetlarga nisbatan mantiqiy va evristik yondashuv ko‘nikmalarini qaror toptirish;
- o‘quvchilarning nostandart ijodiy fikrlashini rivojlantiruvchi darslarni tashkil etishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan maqsadli foydalanish;
- o‘quvchilarni ta‘lim olishga nisbatan subyektiv yondashuvini psixologik jihatdan rag‘batlantirib, pedagogik shart-sharoitlarni yaratib berish;
- maktab ta‘lim tizimidan o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi ijtimoiy psixologik munosabat hamda pedagogik qadriyat maqomini saqlab qolgan holda, uning qadr-



“RAQAMLASHGAN JAMIYATDA INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH: IMKONIYAT VA ISTIQBOLLARI” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

qiymatini oshirish yuzasidan zarur ijtimoiy himoya mexanizmlarini suʼbekt va obyekt faoliyatda namoyon boʻlishini taʼminlash;

- zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida taʼlimni tashkil etish va uning samaradorligi bilan bogʻliq jarayonning monitoringini yuritish hamda olingan maʼlumot, chiqarilgan xulosaga koʻra faoliyat muvofiqligini taʼminlash.

Komponentlar: taʼlim berish jarayonida pedagogdan zamonaviy nuqtai nazardan yondashish kompetentligi talab etilib, ilmiy xarakterli tahlil va mantiqiy izchillikka ega boʻlgan tizimli yondashuv hamda oʻquvchilarning individual xususiyati, aqliy va jismoniy rivojlanish proporsiyasi, qolaversa, yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagilarga yoʻnaltirish maqsadga muvofiq:

- birinchidan, oʻquvchilarning taʼlim olishga boʻlgan ishtiyoqi va kognitiv faoliyati muvofiqligini taʼminlash;

- ikkinchidan, oʻquvchilarning qiziqish va qobiliyati, hissiy munosabatlari, taʼlim qadriyatiga yoʻnalganligi, ijodkorlik sifatleri hamda subyektiv potentsiali va obyektiv taʼsir uygʻunligi natijasida kreativlikni namoyon etish bilan bogʻliq jarayonni pedagogik-psixologik tahlil qilish;

- zamonaviy taʼlim jarayonida oʻquvchilarga uzatilishi lozim boʻlgan taʼlim sifatini boyitish va pedagogik texnologiyalardan foydalanish;

- oʻquvchining taʼlim olishga boʻlgan layoqatini oshirish va nostandart ijodiy fikrlash jarayonini rivojlantirish;

- taʼlim jarayonida va undan tashqari vaziyatlarda oʻquvchining intellektual sifatlerini ragʻbatlantiruvchi va shakllantiruvchi manbalar bilan toʻyintirib borish hamda nostandart ijodiy rivojlanish ustuvorligini taʼminlash.

Oʻquvchilar shaxsini rivojlantiruvchi nostandart taʼlim tamoyillari bilan anʼanaviy oʻquv dasturini boyitish, ularning intellektual salohiyatini oshirib, nostandart ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish jarayonini faollashtiradi hamda shaxsiy tajribasini shakllantirib, bu borada koʻnikma va malakani qaror toptiradi.

Pedagogik jihatdan olib qaraydigan boʻlsak, maqsadli va anglangan faoliyat turi bilan amalga oshirilgan oʻquv mashqlari muntazam takroriy bajarilishi, oʻquvchi tomonidan topshiriq va vazifalarni yuqori darajada oʻzlashtirishga olib kelsa, ikkinchi tomondan, uning oʻziga boʻlgan ishonchning ortishiga xizmat qiladi. Bu jarayon bevosita oʻzlashtirishi yuqori boʻlgan oʻquvchilar tomonidan maqsadli nostandart ijodiy yondashishga nisbatan motivatsiyani rivojlantiradi hamda oʻquvchilar tomonidan barcha fanlarni oʻzlashtirishda ratsionallik elementlari namoyon boʻlib, oʻziga xos kognitiv jarayonlarni rivojlantirishda “qulay makon” qaror topadi.

Xulosa qilib aytganda, maktab taʼlim tizimida oʻquv mashgʻulotlarni tashkil etish, ularning nostandart va qiziqarli topshiriq hamda vazifalar bilan boyitilishi oʻquvchi



“RAQAMLASHGAN JAMIYATDA INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH: IMKONIYAT VA ISTIQBOLLARI” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

shaxsida nostandart ijodkorlik elementlarini shakllantirib, istiqbolda uning rivojlanishiga zamin bo‘lib xizmat qiladi.

Bunda quyidagilarga e‘tibor qaratish maqsadga muvofiq:

- nostandart tavsiya etilayotgan mavzu va darslar o‘quvchi shaxsida rivojlanayotgan muammolarni hal qilishga hech qanday asos bo‘lib xizmat qilmasa-da, biroq uning ongida masala mohiyatiga nisbatan bir nechta muqobil yo‘llar bilan yondashish mumkin ekanligi xususidagi axborotni singdiradi;

- o‘quvchi hayotida sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan shartli va shartsiz qiyinchiliklardan cheklanmaydi, balki uni nostandart ijodkorlik yo‘li bilan hayotidan mutlaqo uzoqlashtirish imkoniyatiga ega bo‘ladi;

- o‘quvchilar o‘zlarining tasavvur va fantaziylarini erkin, nostandart ifoda etishlari orqali mavjud jarayon va voqelikni real voqelik bilan bog‘lay olish imkoniyatini, mustaqil qo‘lga kiritish ko‘nikmasini shakllantiradi;

- nostandart ijodiy faoliyat orqali o‘quvchi o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshirib, istiqbolda real kasbni tanlash hamda jamiyat uchun muhim shaxs ekanligini anglaydi;

- nostandart fikrlash jarayoni past intellektga ega bo‘lgan o‘quvchilarning kelajakda yuqori hayotiy samaradorlikka erishishida zamin bo‘lib xizmat qiladi;

- nostandart ijodiy fikrlash (oila va ta‘lim muhitida) ko‘p cheklovlar mavjud bo‘lgan vaziyatda insonni aql darajasi bilan bog‘lashga olib keladi;

- nostandart ijodiy fikrlash o‘quvchining intellektual imkoniyatlarini oshirib, individual qobiliyatlari dinamikasini rivojlantiradi.

Umuman, tadqiqot natijalari asosida ishlab chiqilgan zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida o‘quvchilarda nostandart tafakkur tarzini rivojlantirish modeli ta‘lim mazmunini isloh qilishni, chuqurlashtirishni, o‘quvchilardagi ijodiy qobiliyatni rivojlantirishga yo‘naltirilishini nazarda tutadi. Bu esa bugungi kunda dunyo mamlakatlari maktab ta‘limiga qo‘yilayotgan talablarga muvofiq keladi. O‘quvchilarda nostandart tafakkur tarzini qaror toptirish ularning ilmiy va kasbiy salohiyatidan foydalanish koeffitsiyentini bir necha karraga oshiradi. Buning natijasida jamiyatda ilmiy yutuqlar, innovatsion loyihalar, ratsionalizatorlik takliflarining soni va sifati ortadi. Bu esa jamiyatning ilmiy yutuqlar asosida rivojlanishini ta‘minlashga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR.

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining "O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida"gi PF-5847-son Farmoni // Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 08.10.2019 y.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oliy ta‘lim muassasalarida ta‘lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli



islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3775-son Qarori // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 05.06.2018 y.

3.Lutskovich V.V. Spetsifika vzaimosvyazi tipov mishleniya i subyektivnix osobennostey ponimaniya//Eksperimentalnaya psixologiya, 2013, tom 6, № 3. –S.54

4.G.S.Raxmonova. Kreativ va ijodiy tafakkur muommosining xorijiy tadqiqotlarda o'rganilishi.O'zMU Xabarlar, 2022. № 1-2, -B 153-155..

5. G.S.Raxmonova Theoretical and methodological fundamentals of developing non-standard thinking in students // ISJ Theoretical & Applied Science, 2022. №04 (108), Pp.565-572.

6. G.S.Raxmonova Kreativ va nostandart tafakkur muammosining pedagogik tadqiqotlarda o'rganilishi // Тафаккур зиёси, 2022. 2-сон, -Б

UCHINCHI RENESSANS SHAROITIDA ALISHER NAVOIY IJTIMOIY-FALSAFIY QARASHLARINING AHAMIYATI

Xaidarov Rahmatullo Ergashevich

falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Andijon davlat universiteti

+998973327776, huroson2@gmail.com

Jamiyat hayotida ijtimoiy-biologik mavjudot sifati inson markaziy o'rinni egallaydi. Markaziy o'rinni egallashi esa uni moddiy va ma'naviy yaratuvchanligi bilan belgilanib, insonning individual siymosida sifat tarzida ifodalanishi tufayli turli xil yondashuvlar asosida o'rganib kelinmoqda. Natijada, fanda insonshunoslikka doir bo'lgan tadqiqotlar dinamikasi o'sib bormoqda. “Homo sapiens”ning paydo bo'lishidan bugunga qadar insonning o'ziga, insonning tabiatga, insonning predmet va buyumlarga, insonning san'at va madaniyatga, insonning yaqinlari va atrofdagilarga, insonning mehnatga bo'lgan munosabat tarzlarini shakllan va mazmunan takomillashib kelmoqda. Bu takomillashuv zahirida orzudagi insonga doir bo'lgan qarashlar ifodalangan bo'lib, bunday yondashuvlarning fanga yoki ilmiy maktablarga taalluqliligini inobatga olgan holda falsafiy talqinni amalga oshirish mumkin. Falsafiy talqin majmuaviyligi jihatidan jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va madaniy sohalarini takomillashtirishga ta'sir ko'rsatuvchi omillar hamda asosiy ishtirokchi inson ekanligini inobatga olgan holda izohlashni nazarda tutadi. Yangi O'zbekistonning taraqqiy etishi ham bevosita ma'naviy-ma'rifiy ishlar mazmundorligiga bog'liq bo'lib, bunda inson omiliga tayanilishini nazarda tutadi.

Bugungi globallashtirish sharoitida insonning ma'naviy yaratuvchanligini barbad qilishga turli ko'rinishdagi harakatlar avj olgan bir paytda siyosiy yaxlitlikni saqlab,



“RAQAMLASHGAN JAMIYATDA INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH: IMKONIYAT VA ISTIQBOLLARI” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

jamiyat hayotining farovonligini ta'minlash bosh strategik maqsad sifatida amal qiladi. Buning uchun davlat mavjud bo'lgan resurslaridan foydalanib, yurtsevar, tinchlikparvar, fidoyi yoshlarni tarbiyalash uchun dasturiy ishlarni amalga oshiradi. Mamlakatimiz Prezidenti Sh.Mirziyoyev har qanday taraqqiyotning asosida ilm fan mavjudligini alohida belgilab, “Hozirgi paytda dunyo miqyosida raqobat qanday keskin tus olib borayotganini hammamiz ko‘rib turibmiz. Bu shiddatli raqobatga faqat zamonaviy ilm-fan, yuqori texnologiyalar va innovatsiya yutuqlarini keng joriy etish orqali munosib javob bera olamiz”[1.237] deb yoshlarimizni ilm-fanga qiziqtirish, ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy institutlarning faoliyatini ham ilmiy o‘rganish asosida takomillashtirishni nazarda tutgan. Bu yo‘nalishda Alisher Navoiyning “O‘zlik uyi” (Men konsepsiyasi) tarkibida “Men – ilm oluvchi va izlanuvchiman” konsepti bugungi tahlikali zamonda ham xavf va tahdidlarning ta'siriga tushmaslik uchun asos sanalishini kuzatishimiz mumkin. Navoiyning komil inson konsepsiyasida kamol topishning substansiyasi ma'naviyat ekanligi va insonning kamol topishida ijtimoiy me'yorlar hamda ideallar asosiy manba sanalishi ko'rsatib o'tiladi. Bu o'z navbatida yoshlar uchun ibrat sanaladigan ideallarni milliy ruhni ifodalab beruvchi xulq-atvor namunasi bilan, moddiy yoki ma'naviy yaratuvchanligi bilan ibrat bo'ladigan insonlarning hayot faoliyatini ommaviylashtirishni taqozo etadi.

Navoiy bu masalaga ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazar bilan yondashib, sub'yektivlikka e'tibor qaratib, Haqqa erishish yo'lida bajariladigan amallar boqiylikka doir bilimga ega bo'lganlarda ifodalanishini e'tirof etgan. Shu sababli komillikni vasf etishda u predmetlilikka (mazmundorlik) urg'u berib, insonlarni anglashga chorlaydi. Ideallik bu ongning sifat ko'rsatkichiga oid bo'lgan tavsif sanalib, Navoiy islomiy manbalar, payg'ambar alayhissalom va solih kishilarning siymosidan foydalangan. Natijada sub'yekt o'zining bilim va tasavvurlarini o'ziga qaratilgan ma'lumotlar tarzida idrok etadi. Ya'ni, reflektivlik ifodalanadi. Jumladan, “Faqat Tangri boqiy qolib, Yeru koinotda istiqomat qilganlardan hech kim qolmas! Yor abadiy bo'lib, dushmanlar izsiz daf bo'ladilar”[2.86].

Komillikka erishishda kechadigan jarayonlarni anglash muhim sanaladi. Mutafakkir “Inson va inson” va “Inson va Haq” munosabatlarida individual insonning kamoloti masalasiga e'tibor qaratib, harakatga keltirish uchun turli ibratli diniy hikoyalar, solih kishilarning hayotidan lavhalarni keltiradi. Uning fikricha, inson har qanday vaziyatda shukr qilib, hayot va faoliyatini davom ettirishi lozim. Shukr qilish bilan ne'matlarning ortib borishi kuzatiladi. Ne'mat deganda, nafaqat dasturxonga tortiladigan mahsulotlar balki, ilohiy ne'mat tarzida insonning xulqida namoyon bo'ladigan sifatlar nazarda tutilgan. Fikrimizga dalil tariqasida “Hayrat ul-abror”da keltirilgan o'n yettinchi makolatdan namuna keltiramiz: “O'zingni g'ofil va parishonhol tutib, har xil ishlar bilan



“RAQAMLASHGAN JAMIYATDA INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH: IMKONIYAT VA ISTIQBOLLARI” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

shug‘ullanar ekansan, bundan Xudoga hech qanday manfaat bo‘lmasa ham, harakat qilki, gunoh ham sodir bo‘lmasin. O‘z faoliyatingda birovga yaxshilik qil, hech bir yomonlik ham qilma”[3.123].

Komillikning belgilari ko‘p. Uning asosiy manbasi ma’naviyat ekanligini anglagan inson hamisha hayrli ishlarga qo‘l urib, hayotguzaronlik qiladi. Mutafakkir aynan shu tarzidagi insonlarga xitob qilib, “gunoh sodir etmagin, yaxshilik qil, o‘zingni yomonlikdan tiy”, deb ta’kidlaydi. Ma’naviyatli inson iymon, e’tiqod va ishonchga tayanib, uning har bir amallariga ijtimoiy munosabatlar darajasida javob qaytishini inobatga olgan holda harakat qiladi. Navoiy o‘zining ijtimoiy-falsafiy qarashlarida “Inson va inson” munosabatida “Men”ni ko‘rsatish va “Men” uchun ibrat bo‘lishni kamol topishning shartlaridan biri hisoblaydi.

Navoiyning komil inson konsepsiyasida “Men konsepsiyasi” “O‘zlik uyi” tushunchasi bilan vasf etiladi. Tadqiqotchi A.Malik “O‘zlik uyi” deganda, “O‘zim”, “Men” degan da’vo insonni Haqdan ayiradi. Namozga otlangan inson o‘zlik uyidan chiqishi shart – nafsini unutmog‘i kerak. So‘ng baytullohga – Tangri uyiga qadam qo‘ysin”; deb ko‘rsatib o‘tadi. Akrom Malikning yondashuvida teologik tahlil tamoyillarining ustivorligi kuzatiladi. Bizningcha, “O‘zlik uyi” (Men konsepsiyasi) insonni:

- a) “Men - insonman”;
- b) “Men – erkak/ayolman”;
- v) “Men – kasb sohibiman”;
- g) “Men – ota/onaman”;
- d) “Men – farzandman (o‘g‘il/qiz)”;

ye) “Men – ilm oluvchi va izlanuvchiman” tarzidagi mantiqiy majmuani ifoda etgan. “Insonning ong va bilimi naqadar yuksalsa, hayvonlik xususiyatlaridan u o‘shancha uzoqlashadi. Ong va idrok tubanligi esa uni hayvonga yaqinlashtiradi. Anglamaslik - yomon. Tushunmaslik – kulfat”. I.Haqqul axloqiy ong darajasida Navoiyning komil inson konsepsiyasidagi “Xulqi hamida”ni tavsiflagan bo‘lsa-da, baribir individual sifatlarga jumladan, ijobiy va salbiy sifatlarning qiysiy bayonini axloqshnoslik tamoyillari asosida keltirib o‘tgan. Jamiyatimizdagi ayrim bir illatlarni (keksa va yosh avlod orasidagi nizo, moddiy boylik orttirish uchun o‘g‘irlik sodir etish, yoki birovning mulkiga hiyonat qilish, turli ko‘rinishdagi kiberjinoyatlar, shantaj va boshqalar) bartaraf etishda ongni to‘g‘rirog‘i, axloqiy ongning madaniy darajasini ko‘rsatib o‘tgan.

Xusola qilib aytishimiz mumkinki, Yangi O‘zbekistonning ijtimoiy-siyosiy hayotidagi o‘zgarishlar dinamikasining mohiyatiga e’tibor qaratsak, barcha bunyodkorlik ishlari inson kamolotini ta’minlashga qaratilganligini kuzatish mumkin. Alisher Navoiyning komil inson konsepsiyasi o‘z zamonasi orzusidagi bunyodkor insonlardan



iborat bo‘lgan jamiyatni tasavvur etib, bunda ma’naviy inson va taqvodor inson konseptlariga ustuvorlik bergan. Yangi O‘zbekistonning ma’naviy hayotini ta’minlashda ma’naviy inson konsepti amaliy mazmun kasb etadi. Chunki bugun turli vositalar asosida milliylikka putur yetkazuvchi va iste’molchi inson modelini targ‘ib qilinishini avj olganligini inobatga olsak, ma’naviy inson konsepti nafaqat milliy qiyofada balki, milliy hayot tarzida ham ifodalanib, regulativ hamda yo‘naltiruvchi funksiyalarni bajara oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi [Matn] – T.: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2021. – 464 b.
2. Алишер Навоий: “Хайрат ул-аброр” (Матн, шарх, насрий баён, луғат) / Биринчи китоб: муқаддима / А.Малик. – Т.: “Tamaddun” нашриёти, 2021. - 472 б.
3. Алишер Навоий. Хайрат ул-аброр. (яхшилар хайрати). Насрий баён қилувчи А.Хайитметов. Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, Т.: - 1974. 145 б.

YOSHLARNI BILIMI, IQTIDORI VA MA’NAVIYATINI YUKSALTIRISHDA ZAMONAVIY AXBOROT TEXNOLOGIYALARNING O‘RNI

РОЛЬ СОВРЕМЕННЫХ ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ПОВЫШЕНИИ УРОВНЯ ЗНАНИЙ, ОДАРЕННОСТИ И ДУХОВНОСТИ МОЛОДЕЖИ

THE ROLE OF MODERN INFORMATION TECHNOLOGIES IN INCREASING THE LEVEL OF KNOWLEDGE, GIFTEDNESS AND SPIRITUALITY OF YOUNG PEOPLE

Mamasidiq To‘lanov

katta o‘qituvchisi, Qo‘qon Universiteti Andijon filiali

“Ijtimoiy va iqtisodiy fanlar” kafedrası tolanov1963@mail.ru, +998 90 1428252

ANNOTATSIYA

Maqolada oliy ta’lim muassasalarida o‘qitish texnologiyalarini takomillashtirish, o‘quv jarayonida zamonaviy axborot kommunikatsiya tarmoqlarini o‘z o‘rinida maqsadga muvofiq foydalanishga bog‘liq ekanligi ko‘rsatib o‘tiladi.

АННОТАЦИЯ

В статье показано, что совершенствование педагогических технологий в высших учебных заведениях зависит от использования современных информационно-коммуникационных сетей в учебном процессе в соответствии с целевым назначением.

ANNOTATION



“RAQAMLASHGAN JAMIYATDA INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH: IMKONIYAT VA ISTIQBOLLARI” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

The article shows that the improvement of pedagogical technologies in higher educational institutions depends on the use of modern information and communication networks in the educational process in accordance with the intended purpose.

Kalit soʻzlar: *axborot texnologiyalari, masofaviy taʼlim, fan-texnika, kompyuter, moddiylashtirish, telekommunikatsiya, informatsiya, shaxs, intellektual, obyektivlik, marketing, biznes texnologiya, ekstensiv, axborot kommunikatsiya, investitsiya, axborotlashtirish, maʼrifat, maʼnaviyat.*

Ключевые слова: *информационные технологии, дистанционное обучение, наука и техника, компьютер, модуляция, телекоммуникации, информация, личность, интеллектуальный, объективность, маркетинг, бизнес-технологии, экстенсивный, информационные коммуникации, инвестиции, информатизация, просвещение, духовность.*

Keywords: *information technologies, distance learning, science and technology, computer, modulation, telecommunications, information, person, intelligence, objectivity, marketing, business technologies, extensive, information communications, investment, informatization, education, spirituality.*

Keyingi paytlarda fan-texnika, axborotlar va kommunikatsiya taraqqiyoti natijasida ilgʻor mamlakatlar jamiyat rivojlanishining turli jabhalarida sezilarli yutuqlarga erishdi.

Bu oʻzgarishlar va yangilanishlar mustaqilik yillarida Oʻzbekistonda ham taʼlim va ishlab chiqarishni barcha sohalariga kirib bordi. Oliy taʼlim tizimida zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanishning ayrim sohalarida mamlakatimiz dunyodagi yetakchi davlatlar qatoridan oʻrin oldi.

Ayni paytda dunyo mamlakatlarida taʼlim standartlarida yangi axborot texnologiyalari taxlili va rivojiga bagʻishlangan qator anjumanlar muntazam oʻtkazilib borilmoqda.

Anjuman va koʻrgazmalar natijasida chiqarilgan asosiy xulosa shundan iboratki yangi axborot texnologiyalarini oliy taʼlimga va ishlab chiqarishga qoʻllash tufayli taʼlim sifati, uning individuallashtirishini hamda jamiyatni axborotlashuv bosqichiga oʻtishini jadallashtirmoqda. Ushbu maqolada hozirgi kunda taʼlimda uchta asosiy texnologik yoʻnalish ustuvorlik qilayotganligi masalasiga bagʻishlangan:

– oʻquv materiallarining SD-ROM texnik imkoniyatlaridan, kompyuter resurslari (matn, grafika, rangli 3D-tasvir, animatsiya, vidokliplar, tovush, muzika va musiqaviy boshqarish)dan foydalanishga imkon beradigan oʻqitishning prinsipial yangi uslubiyotini ishlab chiqish va yaratish;



“RAQAMLASHGAN JAMIYATDA INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH: IMKONIYAT VA ISTIQBOLLARI” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

– yangi axborot texnologiyalari asosida, ta’lim oluvchilarni mustaqil boshqaruvchi va sirtqi ta’limning o’ziga xos yangi shakli, masofaviy ta’limni o’quv jarayoniga tadbqiq etish;

– ta’lim sohasida hozirgi zamon telekommunikatsiyasi va axborot tarmoqlari texnologiyasidan foydalanishga jiddiy e’tibor qaratish.

Bu yo’nalishlar mohiyatini tadqiqotchi Itiyel de Sol Tul quyidagicha izohlaydi: «Axborot-tezlik bilan qayta ishlanish (kompyuterizatsiya) xarakteriga ega bo’lganligi uchungina emas, yer sharining har bir nuqtasiga vaqtning muhim sharoitida kerakli joyga o’z vaqtida zudlik bilan yetib bora olishi bilan ham qimmatlidir» [1]

Axborotning bunday shiddatli funksiyasi ta’limda tarmoq tarmoqlararo tizimlar tashkil etadi. Yuqorida ta’kidlagan ana shu uchta asosiy komponent oliy ta’lim boshqaruvida alohida ahamiyatga ega bo’lib, ta’lim jarayonida ijobiy o’zgarishlarga sabab bo’ladi, uning ishtirokchilarini mustaqil bilim olishdagi salohiyatini yuksalishiga ta’sir etadi. Shuni alohida ta’kidlash kerakki, axborot – obyektiv reallikning muhim qismini ifodalovchi tushuncha bo’lib, o’zini saqlash, qayta ishlash va ta’sir natijalari(izlari)dan foydalanish uchun mo’ljallangan moddiy tizimlarda namoyon bo’ladi.[2] Obyektivlik, moddiylashtirish va uzatish imkoniyatining mavjudligi – axborotning muhim xususiyatlari.

“Axborotni o’rganish axborot-boshqaruv jarayonini tahlil qilish bilan uzviy bog’liq, chunki, axborot unda funksional xossa sifatida mavjuddir.”[3]

Ma’lumki, (informatson) axborot texnologiyalarining insonga ta’sir etuvchi yana bir muhim sohasi ham borki u bevosita ta’lim jarayoni bilan uzviy bog’liq. Axborotlashgan jamiyatda qayta ta’sir kuchga ega bo’lgan texnologiyalarni tadqiqotchi YE.Jukov quyidagicha izohlaydi: «Ijtimoiy-madaniy sohaga ta’sir etuvchi axborot texnologiyasi (He Tech), vujudga kelayotgan yuksak gumanitar texnologiya (Nigh-Hume), shuningdek siyosiy texnologiyalar RR-texnologiyasi, marketing, biznes-texnologiyasi va shakllanib borayotgan mustaqil ijtimoiy-madaniy fenomenlardir»[4] Bu texnologiyalarni ijobiy tomoni bilan birga muayyan xavfi ham mavjud. Xavf shundaki kishilar ongiga tashqaridan kuchli bosim va ta’sir o’tkazish jarayoni oshib borgan sari axborot va bilimni boshqarish ham kishilar ongidagi o’zgarishlar bilan bog’liq holda kechadi.

Ana shu ma’noda, aytish mumkin-ki, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlardagi o’zgarishlar albatta ta’lim tizimida, shu jumladan aliy ta’limda ham o’z aksini topadi. Shunga ko’ra C.X. Карпенновнинг quyidagi fikrlariga to’la qo’shilish mumkin. «Inson ongidagi o’zgarishlarni ijobiy tomonga yo’naltirishda inson va jamiyat axloqiy imkoniyatlarini belgilovchi ta’lim va tarbiya muhim ahamiyat kasb etadi.[5] Bu bejiz



“RAQAMLASHGAN JAMIYATDA INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH: IMKONIYAT VA ISTIQBOLLARI” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

emas albatta. Chunki, «intellektual va innovatsion inqilob nafaqat an’anaviy ta’lim tizimida shu bilan birga ta’lim berishning ichki tizimini takomillashtirishda ham ta’limni rolini yanada oshirdi.

Ta’lim oluvchi uchun o’tkir intellekt, juda qisqa fursatda o’qib o’rganish zarur. Chunki, ta’lim inson hayotidagi asosiy «texnologiya»ga aylanib qoldi. Ayniqsa oliy ta’lim bugungi kunda murakkab ziddiyatli, yechilishi qiyin bo’lgan quyidagi muammolar:

bilimlar oqimini haddan ziyod oshib borayotganligi va oliy ta’limda kadrlar tayyorlov vaqtini cheklanganligi;

fan va bilimni birligi va ayni vaqtda uning fundamental va amaliy turlarga ajralganligi;

ta’limning integratsionlashuv jarayonini kuchayishi ammo uning berayotgan samarasini pastligi.

Ana shu jarayonlar sababini taxlil qilib rus olimlari ta’limida olingan bilimlar axborot-kommunikatsion masalalar samarasini aniqlash maqsadida Reuters kompaniyasidagi 1300 mutaxassislardan so’rovnoma o’tkazganlarida quyidagi natijalar aniqlangan.

25% xodimlar axborotlar xajmini noaniqligi;

38%i, muhim axborot olish uchun katta miqdorda vaqt talab etilayotganligi;

41% i, ish sharoiti haddan ziyod murakkablashganligi;

47%i, ma’lumotlar qidirish, uning asosiy ishidan ajratib qo’yayotganligi;

48%i, internetni informatsiya «uyali»ga aylanib qolishidan qo’rkishini;

49%i, olingan axborotlarni qayta ishlash imkoniyatini chegaralanganligini;

94% bu boradagi vaziyatni yaxshilanishiga ishonch bildirayotganligini ma’lum qilganlar.

Ana shunday taxlil ma’lumotlar, YUNESKOning 2002 yilgi hisobotida ham qayd etilib Yevropa jamoatchiligining 74/o i axborotlashuvdagi ana shu jihatlariga «axborot xorg’inligi sindromi infofobiya» «diagnoz» qo’yishgan.

Bunda axborot almashinuvi mexanizmidagi nuqsonlar bilan bir qatorda, axborotlashgan bilimlarni ma’naviy eskirishi oralig’idagi muddatni (avvallari 1-2 yil, hozirda esa 10-15 yilni) oshishi bilan bog’liq jarayonlarni ta’siri ham katta.

Binobarin, Oliy ta’lim tizimida o’quv jarayonlarini boshqarishning mazmuni ham avvalo olingan axborotni ishonchliligi, ilmiyligi kabi meyorlarni o’z ichiga oladi. Boshqacha aytganda axborot-kommunikatsion texnologiyalardan ilm-fan natijalari asosida samarali foydalanish muhim ahamiyatga ega. Demak ta’lim bilan ilmiy faoliyatni boshqarish orasida ham uyg’unlik bo’lishi zarur.

Mamlakatimizda ilmiy faoliyatni tashkillashtirish, uni amalga oshirish qonuniyatlari, bu boradagi moyilliklar, rag’batlantirishning turli shakllari kam



“RAQAMLASHGAN JAMIYATDA INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH: IMKONIYAT VA ISTIQBOLLARI” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

o'rganilganligi, ta'lim-fan va ilmiy faoliyatni samarali boshqarishni bir oz murakkablashtiradi. O'tish davrida, «...islohotlar chuqurlashgan sayin, ilmiy-texnikaviy faoliyatni tashkil etish tizimida saqlanib qolgan eskicha yondashuvlar mamlakatning texnologik taraqqiyotiga salbiy ta'sir etmokda, ilmiy-texnikaviy imkoniyatlardan foydalanish samaradorligini pasaytirmokda.

Bu fanni rejalashtirishga bo'lgan urinishlar davom etayotganida, fan va iste'molchilarning ilmiy natijalarga nisbatan zamonaviy bozor munosabatlar talab etayotgan o'zaro manfaatdorlik mexanizmlarini topa olmasligida, ilmiy dasturlar va texnologik ishlanmalarning xolis va mustaqil ekspertizasi mavjud emasligida namoyon bo'lmoqda». Buning natijasida «...ilmiy-texnikaviy faoliyat tashkiliy tuzilmasining zamonaviy sharoitlarga nomuvofiqligi, intellektual va moddiy resurslarning yirik ilmiy dasturlar va texnologik loyhalarni amalga oshirishga yo'naltirish imkoni yo'qligi, taklif etilayotgan ilmiy dasturlarning muqobili mavjud emasligi bois mamlakat ilmiy-texnikaviy taraqqiyotiga g'ov bo'lmoqda, milliy salohiyat rivojini sustlashtirmoqda».

Respublikada fan-texnika taraqqiyotini jadallashtirish borasida erishilgan yutuqlar ahamiyatini pasaytirmasdan, bu borada yuqorida qayd etilganlariga qo'shimcha quyidagi muammolarning, xususan, ilmiy tadqiqotlarning ba'zi yo'nalishlari rivojlanishida negativ xolatlar, moyilliklar kuzatilayotganligini, ilmiy faoliyatni rag'batlantirish qoniqarsiz ekanligini, ilmiy muassasalar moddiy-texnik bazasining bugungi holati ilmiy jamoatchilikni tashvishga solayotganligini, olimlar, injener-kadrlar tomonidan olinayotgan patent, litsenziyalarning sonini yildan-yilga past darajada o'zgarmay qolayotganligini ta'kidlash lozim. Bunday holat yuzaga kelishi sababini, sho'rolar hukumatining iqtisodga rahbarlik qilgan davrda yuzaga kelgan ishlab chiqarish tizimida fanni o'zidan begona qilishga qaratilgan mexanizmning shakllanishidir. Bu tezisni yuzaga kelishiga asos bor. Uzoq yillar davomida ishlab chiqarishda ikki parallel voqelik mavjud bo'lgan: birinchidan, ishlab chiqarish arzon ishchi kuchiga ega bo'lgan va unga tayangan; ikinchidan, ishlab chiqarilayotgan tovarlarning aksariyati kamyob bo'lganligi sababli korxonalarda tayyorlangan har qanday mahsulotga ham talab bo'lgan, ularni ishlab chiqarishga zarur bo'lgan yuqori malakali mutaxassislarning, olimlarning mehnati, ular tomonidan o'tkazilgan fundamental tadqiqotlarning natijalari fan va texnika qo'mitasi javonlarida foydalanilmasdan qolib ketavergan.

Serharajat iqtisod va fan-texnika taraqqiyoti bir-biri bilan murosasiz holatda bo'lgan. O'sha davrda g'aroyib vaziyat yuzaga kelgan: yaxlit, markazdan boshqariladigan fan bo'laklarga: akademik fan, tarmok fani, oliy o'quv yurtlarida amalga oshiriladigan tadqiqotlarga bo'lingan va ular o'rtasidagi birlik, uzluksizlik zanjirlari uzilgan. 80-yillarning ikkinchi yarmi 90-yillarning boshlarida (o'tish davrining dastlabki yillari) davlat yaxlit fan-texnika va investitsiya siyosatini olib bor olmadi. Natijada,



mamlakat shunday holatga tushib qoldiki, ishlab chiqarayotgan mahsulotlarning salkam 90 foizi dunyo bozorida raqobatdosh emasligi ma’lum bo’lib qoldi.

Uzoq yillar davomida mamlakatimizda fan ekstensiv takror ishlab chiqarish modeli bo’yicha rivojlandi, ilmiy tadqiqotlarni yangi yo’nalishlarini o’zlashtirish ilmiy xodimlarning sonini o’sishi hisobiga amalga oshirildi, kadrlar rotatsiyasi asosan o’zini fanda ko’rsata olmagan xodimlarning nafaqaga chiqishlari bilan belgilandi. Bu holatning negativ roli ilmiy xodimlar sonini o’sish sur’atlarini pasayishida, fanning bir qator yo’nalishlari o’zlashtirilmay qolganligida, yosh ilmiy xodimlar ulushining keskin pasayishida namoyon bo’ldi.

Umumjahon miqyosida yuqori texnologiyalarni yaratish, ulardan keng foydalanish borasida bayroq hamon AQSH da, ikkinchi o’rinni Yaponiya egallab turibdi. Bu davlatlar qatoriga Yevropa Ittifoqi mamlakatlari ham yaqinlashib kelmoqdalar. Keyingi yillarda yuqori texnologiyalar bozoridagi raqobat kurashiga Janubiy Koreya, Singapur, Gonkong hamda Tayvan kabi mamlakatlar ham qo’shilgan. Bu mamlakatlar oxirgi 20 yilda yuqori texnologiyalarni umumjahon eksportida ulushlarini 1 dan 9% ko’paytir dilar.

Xulosa qilib, yuqoridagi fikrlarga tayanib aytish kerak-ki, kim axborotga ega bo’lsa u dunyoni boshqaradi barcha sohalarda xususan oliy ta’limda ham samarali natijadarga erishadi.[6]

Adabiyotlar

1. Итель де Сол Тул. Использование инструментов технологии свободы. М.: НИИВО, 2004, С-37
2. N.A.Shermuhammedova. Ilmiy tadqiqot metodologiyasi. Darslik. Toshkent 2014. B-352
3. Б.Тўраев. Информационное свойство пространства и времени // Естетествознание и философия. III международный семинар. – Санкт-Петербург: 1992. – С-64
4. Жуков Е. Социкультурная реальность. Высшее образование в России – 2006, №11-с-86-94
5. Карпенко С.Х. Духовно-нравственные ориентиры и современная цивилизация. / Высшее образование сегодня-2006, №29, С-20-27
6. Ortiqov A. O’zbekistonda fanni rivojlantirish va yuqori texnologiyalarni tezkor joriy etish muammolari, Iqtisodiyot va ta’lim jurnali, №2, T., 2005, B-17-18.



INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOIIY ASOSLARI

Abdulkhakov Salim O‘ralovich

Mehnat va ijtimoiy munosabatlar akademiyasi kata o‘qituvchisi sotsiologiya
fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

(93)588-70-19

salim.abdulkhakov@mail.ru

Karimova Dildora Dilshod qizi

Ijtimoiy ish yo‘nalishi 2-kurs talabasi. (94)685-83-75

dildorakarimova363@gmail.com

Toshkent shahri

ANNOTATSIYA

Maqolada jamiyatning barcha bo‘g‘inlarida, inson kapitalini rivojlantirish, mehnat faoliyatini takomillashtirish bilan bog‘liqligi hamda milliy mentalitetning o‘rni ko‘rsatib berilgan.

Kalit so‘zlar: inson kapitali, mentalitet, aqliy mehnat, madaniyat, mamlakat, intellekt, zamonaviy jamiyat

Ta‘lim tizimi zamonaviy jamiyatda nafaqat kapital, balki madaniyat timsoli sifatida namoyon bo‘ladi. Insoniyat dunyosining bevosita va bilvosita ishtirokchilari, ya‘ni yaratuvchilari – subyektlardir. Bu kishilarning tabiatga va o‘zlariga o‘xshash subyektlarga turli ko‘rinishlarda shakllangan usul va vositalar bilan ta‘sir etishida namoyon bo‘ladi. Subyektivlikning predmetli shakli madaniyatni hosil qiladi⁴³.

Yoshlar mehnat faoliyatini takomillashtirish, eng avvalo, mentalitet bilan bog‘liq. Milliy mentalitet asrlar davomida ijobiy va samarali shakllanib u mehnatga bo‘lgan munosabatlar, undagi pragmatizm xususiyatlari orqali namoyon bo‘lgan. Turli davrlarda jamiyat o‘z a‘zolaridan mehnat qilishga oid dunyoqarashni shakllantirish, undan begonalashuv hissini yo‘qotib, unga nisbatan munosabatni o‘zgartirish, uning shakllarini mustaqil belgilashga imkoniyat yaratilgan. Biroq, bolalar mehnati hamma vaqt risoladagidek kechmagan. Sotsiologik tadqiqotlarda o‘smir va o‘spirinlikdan boshlab, «shaxs kamoloti»ga erishuv yo‘lida kasbni atrofdagilar ya‘ni ota-onalar, tanishlar, nufuzli-obro‘li shaxslar tomonidan tanlangan. Xalqimiz maqolida qayd etilganidek, «Bir yigitga qirq hunar ham oz» hisoblangan. Lekin bunday maqol va matallar zamonaviy jamiyatda o‘z ahamiyatini yanada oshirmoqda. Biroq, xorijlik ta‘lim amaliyotini kuzatsak, u yerda «tor mutaxassislik» iborasi ko‘p qo‘llaniladi. Bunda bevosita «qobiliyat» umumiy va maxsus turlarga bo‘lib o‘rganilishi kuzatildi. Darhaqiqat, umumiy

⁴³ Покровский Н.Е. Глобализация и конфликт // Вестник Москва. Ун-та. Сер.18. Социология и политология. 1999. –№ 2.-С. 33.



“RAQAMLASHGAN JAMIYATDA INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH: IMKONIYAT VA ISTIQBOLLARI” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

qobiliyat shaxsning har qanday faoliyatga kirishishida muvaffaqiyat uchun imkon yaratasa, maxsus qobiliyat esa faqat ayrim yo‘nalishdagi faoliyat turidagina muvaffaqiyatga erishish uchun asos bo‘ladi⁴⁴. Ammo har qanday qobiliyat bevosita va bilvosita mehnat munosabatlariga bog‘liq bo‘ladi.

Darhaqiqat, har bir xalqning milliy mentaliteti shakllanishi, rivojlanib borishida mehnat munosabatlari muhim o‘rin tutadi. «Mehnat mentalitetga nisbatan harakatlantiruvchi kuch bo‘lsa, o‘z navbatida, mentalitet mehnatga nisbatan faoliyatni belgilovchi milliy shakl beradi»⁴⁵. Kishilardagi mavjud mehnat mentaliteti inson, millat, xalq xarakterini tavsiflab beruvchi omilga aylanadi. Ammo mehnat mentaliteti mavzusi ko‘p hollarda tadqiqotchilarning e‘tiboridan chetda qolmoqda. Aqliy mehnat mentaliteti masalasi bugungi O‘zbekiston jamiyatida qanchalik samarali yo‘lga qo‘yilgan – buning izohiga ilmiy jihatdan javob topish vaqti keldi. Chunki, ilmiy manbalar bilan ishlash, ularni qiyosiy tahlil etish, o‘z fikrini qog‘ozga tushira olish, tahliliy matn bilan ishlash, yozishmalarda o‘z fikrini aniq bayon etish darajasi hamon sustligicha qolmoqda. «Farzandlarimizni mustaqil fikrli, zamonaviy bilim va kasb-hunarlarini egallagan, mustahkam hayotiy pozitsiyaga ega, chinakam vatanparvar insonlar sifatida tarbiyalash biz uchun dolzarb ahamiyatga ega bo‘lgan masala hisoblanadi»⁴⁶. Bugungi kunda kitob nashr qilish ko‘lami kengaydi, gazeta va jurnallar soni kun sayin ortmoqda. Axborot texnologiyalari rivojlanishi tufayli hayotimizga Internet kirib kelishi natijasida kitoblar ham, matbuot asarlari ham elektron shaklda taqdim etila boshlandi. Axborot oqimining ko‘pligi u bilan tanishish, uni qayd etish, unga ishlov berish, undan maqsadli foydalanish, ya‘ni axborot olish madaniyatini egallash zaruriyatini keltirib chiqardi. Biroq, aqliy mehnat mentaliteti odat tusiga kira olmayapti. Deylik, kitobxonlik orqali kasbiy intellektual salohiyatni namoyon etish, har bir jumlaning kontent-tahlil etish orqali yangi g‘oya yarata oladigan yoshlar «armiyasi»ni shakllantirish sur‘ati ham past.

Xalqning milliy xarakterini namoyon etishda aqliy mehnatning o‘rni katta. U insonning teran tafakkur faoliyatini nafaqat jamiyat, balki kishilik dunyosi bilan bog‘laydi. Aqliy mehnat milliy mentalitet, xalq xarakterining mazmun-mohiyatiga ulug‘vorlik beradi. Nazarimizda, aqliy mehnat mentaliteti millatning o‘z hayotiy ehtiyojlarini qondirish, milliy ruhiyatni namoyon etish usuli bo‘lib, ijtimoiy mohiyatiga ko‘ra, cheklanish, begonalashuv, tengsizlik, xurofot, adolatsizlik va eng muhimi, qonun buzilishiga barham beradi.

⁴⁴ Mahmudov I. Boshqaruv psixologiyasi. –Toshkent. “Akademiya”, 2006. –B.25-26.

⁴⁵ Turg‘unboyev F. Istiqol va mehnat mentaliteti. –Farg‘ona: 2003. – B.12.

⁴⁶ Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. -Toshkent: “O‘zbekiston”. 2017. –B.157-158.



“RAQAMLASHGAN JAMIYATDA INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH: IMKONIYAT VA ISTIQBOLLARI” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

Shaxs mehnat bilan kamolotga erishishida ijtimoiylashuv birinchi navbatda oiladan boshlanadi. Xususan, o‘zbek oilalarida bolalarda aqliy intellektual mehnatning shakllanishi va rivojlanib borish holati bugungi kunda quyidagi holatda yuz bermoqda. Birinchi holat, davlat va nodavlat ta’lim muassasalari, ya’ni maktabgacha va maktabdagi ta’lim-tarbiya tashkilotlarida o‘qiyotgan o‘quvchilar; ikkinchi holat, qo‘shimcha imkoniyati mavjud oilalar, ya’ni turli repetitorlik kurslarida tahsil oluvchi yoshlar; uchinchi holat, to‘liq imkoniyati borlar ya’ni oliy o‘quv yurtlarida tahsil oluvchi, xususan, superkontrakt asosida tahsil olayotgan talabalar. Biroq, mentalitetdagi ayrim stereotiplar bois zamonaviy jamiyatning kuchli bosimi ostida aksariyat ota-onalar o‘z farzandlarining qobiliyat va layoqatlarini aniqlay olishmaydi. Masalan, repetitorlikka bog‘lanib qolish 2 – xil anglangan va anglanmagan holatda kechmoqda. Anglangan bog‘liqlik maqsadli bo‘lib, u juda yoshlik davrdan maxsus ko‘rsatmalar orqali amalga oshirilsa, anglanmagan bog‘lanishda esa ota-onalar repetitorga o‘z farzandlarini berishga «davr talabi» sifatida qarashmoqdalar. Bu yerda individning ichki ruhiyat tarbiyasi ijtimoiy muammo tarzida ikkinchi darajaga tushib qolmoqda.

«Odamning fe’l va xatti-harakatini bir yaxshi shakl va mazmunga keltirish uchun ruhiyatni tarbiyalash lozim. Ruhiyatni tarbiyalash ishi so‘zsiz oiladan boshlanadi. Inson, avvalo, oiladan ruhiy quvvat, ruhiy ozuqa oladi. Oilada bola ona tilini, shuningdek, urf-odat va qadriyatlarni, ayniqsa, mehnat an’analarini o‘rganadi, ota-onalarning bevosita ta’siri ostida unda mehnatga ongli munosabat to‘laroq shakllana boradi»⁴⁷. Bu yerda tarixiy xotira va tarixiy ongning xususiyatlari namoyon bo‘ladi.

Hozirda intellektual ishchi kuchiga talabning o‘sishi ortib borishi natijasida unga nisbatan yangidan yaratilgan ish joyi, investitsiya salohiyati va iqtisodiyotdagi tarkibiy o‘zgarishlarga sabab bo‘ldi. So‘nggi 10 yil ichida O‘zbekiston sharoitida intellektual mehnat bozorining samarali rivojlanishi bir oz susaydi va ko‘plab muammolar vujudga keldi. Ayniqsa, aqlli migratsiyaning faollashuvi, innovatsiyaga yo‘naltirilgan investitsiyalar kirishiga to‘sqinlik qiladigan turli holatlar mavjud edi: a)ayrim soha va tarmoqlarning rivojlanmaganligi; b)intellektual mehnatga to‘lanadigan moliyaviy haqning past darajasi; v)ayirboshlash dasturlarida safarbarlikning pastligi; g)professor-o‘qituvchilarga ish beruvchilarning yetarlicha mablag‘ ajratilmasligi fan va ta’lim sohasida mehnat bozorining samarali rivojlanishiga to‘sqinlik qildi. Bu, o‘z navbatida, yoshlarning kasbiy intellektual salohiyatini rivojlantirishga jiddiy to‘siqlar paydo bo‘lishiga sabab bo‘ldi.

⁴⁷ Umurzaqov B., Rahimov M. Mehnat munosabatlari va mentalitet. –Toshkent: “O‘zbekiston”, 2005. –B.62-63.



“RAQAMLASHGAN JAMIYATDA INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH: IMKONIYAT VA ISTIQBOLLARI” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

Ekspertlarning fikricha, jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy hayotida sodir bo‘ladigan turli o‘zgarishlar, xususan, mehnatga nisbatan ongli munosabat qaror toptirmasdan, intellektual mehnatni rag‘batlantirishning yangi tizimini shakllantirmay turib, innovatsion taraqqiyotni yuzaga keltirish mushkulligicha qolaveradi. Zamonaviy pragmatizm vakili bo‘lgan hozirgi avlod o‘z mehnati qadrlanadigan joyda faoliyat yuritishni ma’qul ko‘radi. Shu bois unga munosib ish joyi yaratib berilmasa, shart-sharoitlar va imkoniyatlar muhayyo qilinmasa, ular ustidan jamoatchilik nazorati ta’minlanmasa, uning aqlli mehnat migratsiyasida ishtirok etishi hech gap emas. XX asrning nazariyotchilaridan futurolog E.Toffler hozirgi jamiyatda «Yangi kishi shakllanayotgani yo‘q, yangi sotsial xarakter shakllanmoqda. Shuning uchun ham biz mifologik «odam» qiyofasini emas, balki uning xarakteridagi o‘ziga xos belgilarini aniqlashimiz darkor, chunki ular kelajak taraqqiyotini belgilashi mumkin»⁴⁸, deb qayd etgan edi.

Intellektual mehnat bozorining tarkibiy qismlari uning shakllanish jarayoni tahliliga ko‘ra, bu sohada yechilishi lozim bo‘lgan ijtimoiy muammolarni aniqlash imkoni paydo bo‘ldi. Ishchi kuchiga bo‘lgan talab va taklifni mutanosiblashtirish, yangi fan tarmoqlari va ta’lim sohalarining raqobatbardoshligini amalga ta’minlash va ilmiy xodimlar malakasini qayta oshirish, ularning ijtimoiy himoyalanganligini real hayotda amalga oshirish kasbiy intellektual salohiyatning sifat darajasini oshirish imkonini beradi. Bu, o‘z navbatida, ilmiy kadrlar zaxirasini vujudga keltirish, turli muammolariga barham berish, mehnat bozorida intellektual mehnatni ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning samarali tartibini joriy etishni talab etadi.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy siyosat oldida turgan dolzarb muammolardan biri intellektual mehnat bozorini shakllantirish va uni samarali rivojlantirishdan iborat. Buning uchun, avvalambor, ijtimoiy tizimlar rivojlanishida obyektiv qonuniyatlardan oqilona foydalanish talab etiladi. Shu nuqtai nazardan, «intellektual mehnat bozori» tushunchasining ijtimoiy-iqtisodiy mazmuni va uning tarkibiy qismlarini tadqiq etishda 5 ta asosiy vazifalarini aniqlashga imkon beradi.

Bular quyidagilardan iborat: 1) intellektual mehnat omiliga talab va taklifning hajmi, tarkibi va nisbatini shakllantirish; 2) kasbiy intellektual salohiyatni amaliyotga keng joriy etishning ijtimoiy-iqtisodiy va xuquqiy mexanizmlari yordamida talab va takliflarni tartibga solish; 3) tashkilot, idora va korxonalarda intellektual mehnat resurslarining oqilona bandligini ta’minlashga bevosita ta’sir ko‘rsatish; 4) kasbiy intellektual salohiyatga ega yoshlarning ish bilan ta’minlanishga, ularning xalqaro darajada malakasi va raqobatbardoshlik qobiliyatini oshirishga ko‘maklashish; 5) yoshlar kasbiy intellektual

⁴⁸ Тоффлер Э. Третья волна. –М.: «Аст», 1999. – С.602.



“RAQAMLASHGAN JAMIYATDA INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH: IMKONIYAT VA ISTIQBOLLARI” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

salohiyatining ijtimoiy muammolarini maktablarda o‘smirlarni hunarga yo‘naltirish bo‘yicha faoliyatni yaxshilash hamda daromad keltiruvchi turlarining miqdorini ko‘paytirish yo‘li bilan hal qilish va boshqalar.

Afsuski, jamiyatda ayrim kasbiy mehnat turlariga nisbatan kontrmadaniyat va submadaniyat sifatida qarash omillari uzoq vaqt kuzatildi. Internetni qattiq nazorat ostiga olishdan tortib, butunlay cheklashgacha bo‘lgan g‘oyalar mavjud edi. Ushbu jihatlar yangicha submadaniyat elementlarini tashkil etardi. Submadaniyat (lotinchada – «sub» – osti, tagi, tevaragi va «cultura» — madaniyat; ya’ni madaniyat osti) sotsiologiya, madadniyatshunoslik va sotsial antropologiya fanlarida madaniyatning bir qismini belgilovchi xulq-atvor me’yorlaridan biriga nisbatan ishlatilgan⁴⁹. Submadaniyat asosan turli sotsial guruhlar madaniyati, deb ham e’tirof etiladi. Ayrim tadqiqotchilar esa ushbu turga mansub a’zolari ijtimoiy hayotdagi yetakchi madaniyatning nisbatan ilgari ketgan, saviyasi baland jihatlarini qabul qila olmaydigan kimsalar, asosan, yoshlar qatlamiga nisbatan ishlatishadi. Biroq, hozirgacha olimlar o‘rtasida bu munozarali holatga maqbul yechim topilgani yo‘q.

Xulosa qilib aytganda, har bir narsada me’yor bo‘lgani ma’qul. Aks holda, vaziyat shu qadar murakkablashib ketadiki, bunda sotsial holat va munosabatlarni keyinchalik nazorat qilish izdan chiqib ketishi hech gap emas. Kasbiy intellektual salohiyatni takomillashtirish, mavjud globallashtirish dunyoga ixtisoslashish davr talabi ekan, jamiyat a’zolari, birinchi navbatda, yoshlarning ushbu jarayonlarga moslashishida ko‘mak berish, zamon bilan birgalikda qadam qo‘yish orqali mutanosiblikka amal qilish zarur bo‘ladi.

O‘zbek xalqining milliy mentalitetiga xos bo‘lgan fazilatlaridan biri – bu mehnatsevarlikdir. Biroq, zamonaviy jamiyatning bozor munosabatlaridagi raqobatchilik, dunyo hamjamiyatiga bog‘lanib butunlay yangicha mentalitet va identiklik asosida o‘ziga xos bo‘lgan yangicha stereotiplarni vujudga keltirmoqda. Bunda milliy qadriyatlar, xususan, muhtojni qo‘llab-quvvatlash, mehr, yordam berish kabi xislatlar texnologik imkoniyatlar kengayishi hisobiga o‘z o‘rnini bo‘shatib bermoqda. Natijada tadbirkorlik va pragmatik fikrlashni o‘zlashtirib borayotgan aholi, hisob-kitoblar asosida axborot texnologiya imkoniyatlariga tayanmoqda. Endilikda raqobat nafaqat insonlar orasida, balki insoniyat yaratgan texnikalar aro sodir bo‘lmoqda. Raqobat ruhi shu darajada shiddatli tus olmoqdaki, talaffuzda yangi-yangi atama va iboralar paydo bo‘lmoqda. Boshqacha aytganda, «intellektual mehnat mentaliteti»ning aksariyat qismi yangicha dunyoda paydo bo‘layotgan ish o‘rinlari bilan bog‘liq, deb e’tirof etsak yangilishmaymiz. Bu o‘z navbatida, esa uzoq asrlar mobaynida mehnatsevar xalq, deb

⁴⁹ Волков Ю.Г., Добренёв В.И. и др. Социология молодежи. -Ростов-на-Дону: “Феникс”, 2001. –С.57.



qadrlangan xalqimiz, birinchi navbatda, yoshlarimizda butunlay boshqa xavfli tendensiya sifatida ijtimoiy xarakterni shakllantiradi.

UCHINCHI RENESSANS VA INSON KAPITALI: O’ZARO ALOQADORLIK DIALEKTIKASI

Egamberdiyeva Matluba Komil qizi

Magistratura 1-bosqich talabasi

Telefon raqam: 93.952.04.16

e.mail: matlubaegamberdiyeva8@gmail.com

Jizzax viloyati, Paxtakor tumani

Anotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekistonning Uchinchi Renessans davrida inson kapitalining rivojlanishi va uning jamiyat taraqqiyotiga ta’siri o‘rganiladi. Ta’lim tizimidagi islohotlar, ilm-fan va madaniyatdagi yangilanishlar orqali insonning bilim, ko‘nikma va salohiyatini yuksaltirish jarayoni tahlil qilinadi. Uchinchi Renessans va inson kapitalining o‘zaro aloqasi, ular o‘rtasidagi dialektik bog‘liqlik, jamiyatning intellektual va ijtimoiy taraqqiyotini shakllantirishdagi roli ilmiy nuqtai nazardan yoritiladi.

Kalit so‘zlar: Uchinchi Renessans, inson kapitali, ta’lim islohotlari, ilm-fan rivoji, innovatsiya, jamiyat taraqqiyoti, yangi avlod.

Anotation: This article explores the development of human capital in Uzbekistan during the Third Renaissance and its impact on societal progress. The analysis focuses on educational reforms, advancements in science, and cultural transformations that aim to enhance the knowledge, skills, and potential of individuals. The dialectical relationship between the Third Renaissance and human capital is examined, highlighting their role in shaping intellectual and social development.

Keywords: Third Renaissance, human capital, educational reforms, scientific progress, innovation, societal development, future generations.

Аннотация: В данной статье рассматривается развитие человеческого капитала в Узбекистане в эпоху Третьего Ренессанса и его влияние на социальный прогресс. Особое внимание уделено реформам в образовании, научным достижениям и культурным преобразованиям, направленным на повышение знаний, навыков и потенциала личности. Анализируется диалектическая связь между Третьим Ренессансом и человеческим капиталом, их роль в формировании интеллектуального и социального развития.

Ключевые слова: Третий Ренессанс, человеческий капитал, реформы образования, научный прогресс, инновации, социальное развитие, будущее поколения.



“RAQAMLASHGAN JAMIYATDA INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH: IMKONIYAT VA ISTIQBOLLARI” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

XXI asr insoniyat tarixida yangi bosqichni boshlab berdi. Globallashuv, raqamli texnologiyalar va bilimlar iqtisodiyoti inson salohiyatiga bo‘lgan ehtiyojni keskin oshirdi. Bunday sharoitda inson omili taraqqiyotning bosh omili sifatida e’tirof etilmoqda. Ayniqsa, O‘zbekiston Respublikasida olib borilayotgan islohotlar, ta’lim, ilm-fan va madaniyat sohalariga berilayotgan e’tibor yurtimizda Uchinchi Renessans davrining shakllanayotganidan dalolat bermoqda. Bu davrning markazida esa inson kapitali, uning bilimi, salohiyati, ijtimoiy faolligi turadi. Mazkur maqolada Uchinchi Renessans tushunchasining mazmun-mohiyati, uning asosiy yo‘nalishlari va inson kapitali bilan o‘zaro dialektik bog‘liqligi tahlil qilinadi. Inson kapitalining jamiyat taraqqiyotidagi o‘rni, Uchinchi Renessansni shakllantirishdagi roli, ularning bir-birini rivojlantiruvchi jihatlari ilmiy asosda yoritiladi.

Uchinchi Renessans — bu O‘zbekiston taraqqiyotining hozirgi bosqichida xalqimizning ilmiy, madaniy va ma’naviy salohiyatini tiklash, zamonaviy bilim va texnologiyalar bilan uyg‘unlashtirish jarayonidir.⁵⁰ Bu tushuncha Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan bo‘lib, u 2020-yildan boshlab mamlakat rivoji uchun ustuvor g‘oya sifatida shakllandi. Uchinchi Renessans bugungi O‘zbekistonning ma’naviy, madaniy va intellektual uyg‘onish davri sifatida baholanmoqda. Uchinchi Renessans g‘oyasi ko‘plab sohalarni o‘z ichiga oladi. Jumladan:

Ta’lim tizimi islohoti – maktabgacha ta’limdan tortib, oliy ta’limgacha zamonaviy va kreativ yondashuvlar joriy qilinmoqda.

Ilm-fan rivoji – yosh olimlarni qo‘llab-quvvatlash, ilmiy tadqiqotlarga grantlar ajratish va innovatsion markazlar tashkil etish.

Madaniyat va san’at tiklanishi – milliy meros, teatr, adabiyot va musiqa sohalarini rivojlantirish.

Texnologik yuksalish – raqamli iqtisodiyot, IT ta’lim, startaplar va sun’iy intellektga e’tibor.

Bu jarayonlarning har birining markazida inson kapitali turadi. Inson kapitali-bu insonning bilim, ko‘nikma, salohiyat, sog‘liq, ijtimoiy faollik kabi omillar majmuidir. Davlat taraqqiyoti va barqarorligining hal qiluvchi omiliga aylangan bu tushuncha Uchinchi Renessansning ichki mohiyatini belgilaydi. Bugungi kunda O‘zbekistonda “inson qadri uchun” tamoyili asosida olib borilayotgan islohotlar aynan inson kapitalini yuksaltirishga qaratilgan. Bu esa Uchinchi Renessansning barqaror negizini yaratadi.⁵¹

Shuningdek, Prezident Shavkat Mirziyoyev rahbarligida olib borilayotgan islohotlarning markazida inson manfaatlari, uning huquq va erkinliklari, shaxsiy

⁵⁰ G‘ofurov, B. G. Renessans va Sharq uyg‘onish davri tafakkuri. – Toshkent: Fan, 2005. – 224 b.

⁵¹ "Uchinchi Renessans nima degani?". (2021). Gazeta.uz.

Link: <https://www.gazeta.uz/oz/2021/08/17/renaissance/>



“RAQAMLASHGAN JAMIYATDA INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH: IMKONIYAT VA ISTIQBOLLARI” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

taraqqiyotini ta'minlash g'oyalari turadi. Bu esa bevosita inson kapitalini rivojlantirish va shu orqali Uchinchi Renessans poydevorini mustahkamlashga xizmat qiladi. Xususan, 2020-yil 6-noyabrda qabul qilingan PF–6108-sonli “O‘zbekiston Respublikasini 2030-yilgacha rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini “Yangi O‘zbekiston” taraqqiyot strategiyasiga muvofiqlashtirish to‘g‘risida”gi Farmon mazkur jarayonning konseptual asosidir.

Ushbu Farmonda quyidagilar belgilangan:

“Davlat boshqaruvining barcha sohalarida inson kapitalini rivojlantirish, zamonaviy bilim va ko‘nikmalarga ega, intellektual salohiyatli yangi avlod vakillarini tayyorlash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilab olinsin”⁵²

Bu esa shuni anglatadiki, ta’lim, sog‘liqni saqlash, fan, texnologiya, madaniyat va boshqa sohalarni qamrab olgan holda, inson kapitalini rivojlantirish orqali Uchinchi Renessansga xizmat qiluvchi mustahkam poydevor yaratilmoqda.

Xulosa qiladigan bo‘lsak, zamon o‘zgarar ekan, taraqqiyotning haqiqiy harakatlantiruvchi kuchi – bu insonning o‘zidir. Inson kapitali – bu ilm, tafakkur, salohiyat, orzu va intilishlar yig‘indisi emas, balki ularni ro‘yobga chiqarish qudratidir. Ana shu qudrat asosida uyg‘onayotgan Uchinchi Renessans – bu faqat tarixiy hodisa emas, balki kelajak sari bo‘lgan strategik siljishdir. Uchinchi Renessans va inson kapitali bir-birini to‘ldiruvchi, rivojlantiruvchi va mustahkamlovchi kuchlar sifatida qaralmoqda. Bu ikki tushunchaning o‘zaro dialektik aloqasi – bu zamonaviy O‘zbekiston taraqqiyotining nazariy va amaliy negizidir. Kelajakni yaratish yo‘lida bu birikma mustahkam asos, kuchli tafakkur va yuksak intellektual salohiyat manbai bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. G‘ofurov, B. G. Renessans va Sharq uyg‘onish davri tafakkuri. – Toshkent: Fan, 2005. – 224 b.
2. "Uchinchi Renessans nima degani?". (2021). Gazeta.uz.
Link: <https://www.gazeta.uz/oz/2021/08/17/renaissance/>
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. O‘zbekiston Respublikasini 2030-yilgacha rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini “Yangi O‘zbekiston” taraqqiyot strategiyasiga muvofiqlashtirish to‘g‘risida”gi Farmon – PF–6108-son // Lex.uz, 06.11.2020. – URL: <https://lex.uz/docs/5062763>

⁵² O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. O‘zbekiston Respublikasini 2030-yilgacha rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini “Yangi O‘zbekiston” taraqqiyot strategiyasiga muvofiqlashtirish to‘g‘risida”gi Farmon – PF–6108-son // Lex.uz, 06.11.2020. – URL: <https://lex.uz/docs/5062763>



UCHINCHI RENESSANS INSON HUQUQLARI HIMOIYACHISI SIFATIDA

Pulatov Hayotbek Abdugani o‘g‘li

Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti magistranti

pulatovhayotbek99@gmail.com

Ilmiy rahbar: R.A. Ikramov, ChDPU professori, yu.f.n.

Annotatsiya: Ushbu maqolada uchinchi Uyg‘onish davri inson huquqlarining rivojlanishi va qadriyatlarining shakllanishida muhim bosqichlardan biri hisoblanishi haqida fikr va mulohazalar yuritilgan.

Kalit so‘zlar: uchinchi renessans, demokratiya, inson huquqlari, inson huquqlari himoyachilari.

Inson huquqlari himoyachisi tushunchasi juda keng qamrovli bo‘lib, insoniyatning asosiy erkinlik va huquqlarini himoya qilish va ta‘minlash uchun harakat qiladigan shaxslar yoki tashkilotlarni o‘z ichiga oladi. Inson huquqlari himoyachilari hukumatlar, nodavlat tashkilotlari (NGO) yoki mustaqil ravishda faoliyat olib borishi mumkin. Ular turli usullar orqali inson huquqlarini targ‘ib qilish va himoya qilishga intiladilar, masalan, huquqbuzarliklarni hujjatlashtirish, huquqbuzarlarga qarshi kampaniyalar olib borish va ta‘lim dasturlarini amalga oshirish orqali.

Inson huquqlari himoyachilari faoliyatining muhim bir qismi — bu inson huquqlarining universal e‘tirof etilgan standartlari va me‘yorlariga rioya etilishini ta‘minlashdir. Ushbu himoyachilar ko‘pincha Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan qabul qilingan hujjatlar, masalan, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro pakt, Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro pakt va boshqalarni asos sifatida qo‘llaydilar.

Inson huquqlari himoyachilari turli sohalarda faoliyat olib borishlari mumkin, jumladan, qamoqxona sharoitlarini nazorat qilish, adolatli sudlovni ta‘minlash, diniy erkinlik, so‘zbekiston erkinligi, ozchilik huquqlari, ayollar va bolalar huquqlari va mehnat huquqlarini himoya qilish. Ular o‘z faoliyati davomida turli xavf-xatar va to‘siqlarga duch keladilar, jumladan, jismoniy tahdidlar, har turdagi tazyiqlar va ta‘qiblar.

2019-yilda Global Huquq Mudofaa Jamiyati tomonidan o‘tkazilgan tadqiqotga ko‘ra, har yili dunyo bo‘ylab 30 dan ortiq davlatda inson huquqlari himoyachilariga qarshi 1600 dan ortiq hujum amalga oshiriladi. Ulardan ko‘pi, ayniqsa, o‘z hukumatlari tomonidan "davlat dushmani" sifatida ko‘rilgan mintaqalarda sodir bo‘ladi.

Inson huquqlari himoyachilari faoliyatini qo‘llab-quvvatlash va ularning xavfsizligini ta‘minlash maqsadida ko‘plab xalqaro va milliy darajali tashkilotlar mavjud. Masalan, Amnesty International, Human Rights Watch, Freedom House kabi xalqaro tashkilotlar inson huquqlari himoyachilarini qo‘llab-quvvatlash va himoya qilish borasida



“RAQAMLASHGAN JAMIYATDA INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH: IMKONIYAT VA ISTIQBOLLARI” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

muhim rol o‘ynaydi. BMT inson huquqlari himoyachilarining xavfsizligi va huquqlarini ta’minlash uchun maxsus referent-o‘rindoshni ham tayinlagan.

Bundan tashqari, inson huquqlari himoyachilarining o‘zlari uchun maxsus qonuniy himoya mexanizmlari ishlab chiqildi. 1998-yil BMT Inson huquqlari himoyachilari himoyasi deklaratsiyasi qabul qilindi. Ushbu deklaratsiya inson huquqlari himoyachilarining suvereniteti va huquqiy himoyasini ta’minlash hamda ularni ta’qib qilishdan himoya qilish uchun muhim bir qadam bo‘ldi.

Inson huquqlari himoyachilarining xizmatlari ko‘pincha jamoatchilik va demokratiya uchun muhim ahamiyatga ega. Ularning faoliyati natijasida ko‘plab insonlar huquq va erkinliklarini anglaydilar, va adolatsizlikka qarshi kurashish maqsadida birlashadilar. Shu tufayli, inson huquqlari himoyachilarini har taraflama qo‘llab-quvvatlash va ularning xavfsiz faoliyat olib borishini ta’minlash uchun xalqaro hamjamiyat doimiy e’tibor qaratmoqda.

Uchinchi Renessans va demokratik qadriyatlar mavzusi O‘zbekistonning tarixi, zamonaviy holati va turli islohotlarini tushunishda muhim ahamiyatga ega. Uchinchi Renessans tushunchasi O‘zbekistonda yangi davr, ilm-fan, madaniyat va jamiyatda katta o‘zgarishlar sodir bo‘layotganligiga ishora qiladi. Demokratik qadriyatlar esa ushbu o‘zgarishlar jarayonida asosiy rol o‘ynaydi.

Uchinchi Renessansni tushuntirishda, avvalo, Renessans nima ekanligiga qisqacha to‘xtalish kerak. Renessans so‘zi "qayta tug‘ilish" degan ma’noni anglatadi va odatda Yevropada XIV-XVII asrlarda Ilmiy va madaniy uyg‘onish davri sifatida tanilgan. O‘zbekistonda esa Uchinchi Renessans termini o‘ziga xos yangilanish va rivojlanish jarayonlariga taalluqli.

Birinchi va Ikkinchi Renessans davrlari tarixiy asoslarga ega bo‘lib, Birinchi Renessans o‘rta asrlarda Markaziy Osiyoda, ayniqsa IX-XII asrlarda, ilm-fan va madaniyatning yirik markazi bo‘lgan. Bu davrda Abu Ali ibn Sino, Al-Xorazmiy, Al-Beruniy kabi olimlar yashab, ilm-fan sohalarida buyuk yutuqlarga erishishgan.

Ikkinchi Renessans esa XV-XVII asrlarda Amir Temur va Temuriylar davrida kuzatilgan. Bu davrda Mirzo Ulug‘bek, Alisher Navoiy kabi buyuk alloma va shoirlar yashab, Markaziy Osiyoda madaniyat va fanning rivojlanishi uchun katta hissa qo‘shgan.

Uchinchi Renessans esa zamonaviy O‘zbekiston tarixidagi jarayonlarga ishora qiladi. Uchinchi Renessansning asosiy maqsadlaridan biri — mamlakatda har qanday sohada, xususan, bilim, iqtisodiyot, madaniyat sohalarida katta rivojlanish va o‘rishga erishishdir.

Demokratik qadriyatlar atamasi inson huquqlari, erkinlik, adolat va qonunchilik asosidagi boshqaruv tamoyillarini anglatadi. O‘zbekistonda demokratik qadriyatlar mustaqillikdan so‘ngki yillar mobaynida rivojlanib kelmoqda. 1991 yilda mustaqillikka



“RAQAMLASHGAN JAMIYATDA INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH: IMKONIYAT VA ISTIQBOLLARI” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

erishilgandan so‘ng, O‘zbekistonda ko‘plab demokratik islohotlar amalga oshirila boshlandi.

1992 yilda O‘zbekiston Konstitutsiyasining qabul qilinishi bilan, demokratik davlat asoslarini mustahkamlovchi huquqiy baza yaratilgan. Konstitutsiya 128 ta modda va 6 ta bo‘limdan iborat bo‘lib, unda inson huquqlari, davlat boshqaruvi, fuqarolik jamiyati kabi masalalar aniq ifodalangan.

Shuningdek, O‘zbekistonda 2017 yilda bir qator ijtimoiy-siyosiy islohotlar boshlanib, mamlakat ichidagi demokratik jarayonlar yangi bosqichga kirdi. Aynan shu yillarda "Harakatlar strategiyasi" qabul qilindi va bu 2017-2021 yillar oralig‘ida qisqa muddatli, ammo keng qamrovli islohotlar o‘tkazishni maqsad qilgan edi. Bu strategiya beshta asosiy yo‘nalishni o‘z ichiga oladi: davlat va jamiyat qurilishi tizimini yanada takomillashtirish, qonun ustuvorligini ta‘minlash va sud-huquq tizimini isloh qilish, iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirish, ijtimoiy sohani rivojlantirish, xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglikni ta‘minlash.

Ushbu islohotlar, jumladan, saylov tizimini rivojlantirish, inson huquqlarini himoya qilish, matbuot va axborot sohasida ochiqlikni ta‘minlash sohalarida amalga oshirildi. Bundan tashqari, iqtisodiyotni liberallashtirish orqali mamlakatda tadbirkorlikka katta e‘tibor qaratildi. Shu bilan birga, mulkchilik shakllarini diversifikatsiya qilish, xususiy sektorni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar orqali investitsiyalarni jalb qilishga harakat qilingan.

2019 yilda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan e‘lon qilingan "Inson manfaatlari — har narsadan ulug‘" g‘oyasi ta‘sirida inson huquqlari va erkinliklarini ta‘minlash borasida yangi strategik yo‘nalishlar belgilab olindi.

Uchinchi Renessans va demokratik qadriyatlar kombinatsiyasi orqali O‘zbekiston o‘zining xalqaro maydonda rolini kuchaytirishga va milliy taraqqiyotini yangi bosqichlarga olib chiqishga qaratilgan strategiyalarni amalga oshirmoqda.

Uchinchi Renessans davrida inson huquqlari himoyasi O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi va boshqa muhim hujjatlar asosida tizimli ravishda kuchaytirilmoqda. Quyida aniq faktlarga asoslangan holatda inson huquqlari qanday himoya qilinayotgani haqida ma‘lumotlar keltiriladi:

O‘zbekiston – 2030 Strategiyasida inson huquqlariga katta e‘tibor berilayotganligini inobatga olgan holda fikrimizni quyidagicha mazmunda davom ettirmoqlik maqsadga muvofiq deya hisoblaymiz

“O‘zbekiston – 2030” strategiyasining asosiy maqsadlaridan biri bu — “inson qadri uchun” tamoyili asosida har bir fuqaroning huquq va erkinliklarini ta‘minlashdir. Quyidagi yo‘nalishlarda aniq ishlanmalar bosqichma – bosqich amalga oshirilmoqda



“RAQAMLASHGAN JAMIYATDA INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH: IMKONIYAT VA ISTIQBOLLARI” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

Sud-huquq tizimini isloh qilish fuqarolarning sudga murojaat qilish huquqi kengaytirildi. Ya'nikim Tegishli Sud organiga endilikda fuqarolar online tarzda ham www.my.sud.uz sayti orqali qoldirishlar, shu o'rinda arizaning holatini online tarzida tekshirib turish imkoniyati yaratilganligini anglagan holda shuni aytish mumkinki, kelajakda uydan turib ham Sud organlarida qatnashish mumkinligini prognoz qilsak tabiiy albatta. Sud qarorlarining adolatli va ochiqligi ta'minlanmoqda. Bugungi islohotlar shuni ko'rsatadiki, Sud organlari bevosita OAV bilan hamkorlik ostida Sud majlislarini ochiqlik va shaffoflik prinsipiga amal qilgan holda tashkil etishdan cho'chish holatlari butkul tugatilib, bimalol OAV bilan birgalikda Sud majlislarini tashkil qilishmoqda. Bunydan ko'rinib turibdiki, fuqarolarning Konstitutsion huquqlari ta'minlanmoqda. Jinoyat-protsessual qonunchilik takomillashtirilib, aybsizlik prezumpsiyasi prinsipi mustahkamlandi.

Inson huquqlari bo'yicha Milliy Strategiya (2021–2025) Bu hujjat BMT bilan hamkorlikda qabul qilingan bo'lib, inson huquqlarini himoya qilishda xalqaro standartlarga yaqinlashishni maqsad qiladi. Qiynoqlarga qarshi kurashish, ayollar va bolalar huquqlarini himoya qilish, nogironlar huquqlari bo'yicha alohida bandlar mavjud.shu o'rinda shuni aytib o'tish kerakki, oilaviy zo'rovonlik oqibatida ajrashayotgan oilalarga endilikda hech qanday muddatsiz ajrim berilishi borasida Oila qonunchiligiga yangi o'zgartirishlar kiritilmoqda.

Ombudsman faoliyatining kuchaytirilishi: O'zbekiston Respublikasi Inson huquqlari bo'yicha vakili (ombudsman)ning vakolatlari kengaytirilib, sudgacha bo'lgan bosqichlarda ham fuqarolar huquqlarini himoya qilish imkoniyati yaratildi. Ombudsmanning hududiy vakolatxonalari ochilib, aholiga yaqinlashtirildi.

Axborot olish huquqining ta'minlanishi: Ochiq ma'lumotlar portallari orqali davlat organlari faoliyati haqida ochiq ma'lumotlar berilmoqda. OAV erkinligi kengayib, jurnalistlar faoliyatiga nisbatan himoya mexanizmlari kuchaytirildi.

Xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik xususida ham fikr yuritar ekanmiz bugungi kunda O'zbekiston inson huquqlari bo'yicha BMTning 80 dan ortiq xalqaro hujjatlarini ratifikatsiya qilgan. 2023-yilda BMT Inson huquqlari kengashi a'zoligiga qabul qilindi. Bu O'zbekistonning inson huquqlari sohasidagi global majburiyatlarga jiddiy yondashayotganidan dalolat beradi.

2023-yilda “Ayollar va erkaklar uchun teng huquqlar va imkoniyatlar to'g'risida”gi qonun qabul qilindi. Bolalar mehnatidan foydalanish, majburiy mehnat kabi salbiy holatlarga qarshi kurash kuchaytirildi.

Xulosa

Uchinchi Renessans davrida O'zbekiston inson huquqlarini himoya qilishni nafaqat ichki siyosatning ustuvor yo'nalishi, balki xalqaro majburiyat sifatida ham ko'rib, muhim



“RAQAMLASHGAN JAMIYATDA INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH: IMKONIYAT VA ISTIQBOLLARI” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

islohotlarni amalga oshirmoqda. “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi aynan inson qadri, huquq va erkinliklari ustuvorligini ta’minlashga qaratilgan muhim strategik amallarni inobatga olganligi yaqqol ma’lumdir. Shu o‘rinda aytish joizki, bugungi yosh avlod bilimga chanqoq yoshlar bu renessansning poydevori bo‘lishi va inson huquqlarining yakdil himoyachisi bo‘lishi uchun ularning huquqiy ongini va huquqiy qarashlarini kuchliroq shakllantirishimiz shart va zarurdir.

Ayni damda buning ijrosi o‘laroq maktablarda huquq fanlarining dars soatlarini bir baravarga oshirishimiz va yoshlarni darsdan keying vaqt davomiyligida yokida darsdan ajralgan holda turli organlarga protsses jarayonlarini kuzatish va tahlil qilishga olib borishimiz muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 2023

O‘zbekiston Respublikasi Qonunchiligiga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risidagi qonun 2025

Mirziyoyev Sh.M. “Yangi O‘zbekiston – taraqqiyot strategiyasi” Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2022. – 440 bet

Saydullayev Sh.A. Davlat va huquq nazariyasi. Darslik. “Yuridik adabiyotlar publistik” 2022. 247 b

www.lex.uz

www.stat.uz

www.my.sud.uz

www.tsul.uz

UCHINCHI RENNASANS VA INSON KAPITALI:O‘ZARO ALOQADORLIK DIALEKTIKASI

Abdumutalipova Zebo Berdikul Qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti 3-kurs talabasi

Tel:+998940458998

Anotatsiya: Mazkur maqolada Uchinchi Renessans va inson kapitali tushunchalari o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorlik va dialektik munosabatlar tahlil qilinadi. Muallif zamonaviy taraqqiyot jarayonlarida inson kapitalining o‘rni va roli, shuningdek, bu uyg‘onish davrining insoniyat tafakkuriga ta’siri haqida mulohaza yuritadi.

Kalit so‘zlar: Uchinchi Renessans, inson kapitali, innovatsiya, tafakkur, taraqqiyot, ta’lim, texnologiya.

Tarixda Renessans davrlari inson tafakkurining yuksalishi, ilm-fan va san’atdagi inqilobiy o‘zgarishlar bilan bog‘liq bo‘lib, ular jamiyat rivojiga chuqur ta’sir ko‘rsatgan. Bugungi kunda esa insoniyat yangi uyg‘onish – Uchinchi Renessans davriga yuz



“RAQAMLASHGAN JAMIYATDA INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH: IMKONIYAT VA ISTIQBOLLARI” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

tutmoqda. Bu davrni o‘ziga xos qiladigan jihat – raqamli texnologiyalar, sun’iy intellekt, biologik va axborot inqilobining uyg‘unlashuvidir. Bunday sharoitda inson kapitalining rivoji har qachongidan muhim ahamiyat kasb etadi. Uchinchi Renessansni birinchi va ikkinchi uyg‘onishlardan ajratib turadigan asosiy jihatlar – tafakkurning texnologik imkoniyatlar bilan uyg‘unligi, globallashuv va axborot oqimi tezligidir. Ushbu davrda inson faqat iste’molchi emas, balki bilim, tafakkur, g‘oya va innovatsiya ishlab chiqaruvchi asosiy kuchga aylanmoqda. Ya’ni, jamiyat taraqqiyotining yo‘nalishi ko‘proq inson resurslarining sifatiga bog‘liq bo‘lib bormoqda. Inson kapitali – bu insonning bilim, ko‘nikma, salomatlik, ijtimoiy va madaniy tajribalari orqali jamiyatga qo‘shadigan ijobiy hissasidir. Davlat va jamiyat taraqqiyotida inson kapitalining roli quyidagi yo‘nalishlarda namoyon bo‘ladi:

1. Ta’lim va kasbiy rivojlanish.

Inson kapitalining negizi ta’lim tizimi orqali shakllanadi. Zamonaviy Uchinchi Renessans davrida innovatsion ta’lim metodlari, STEAM yo‘nalishlari va hayot davomiy o‘rganish prinsipi muhim ahamiyat kasb etmoqda.

2. Sog‘liq va farovonlik.

Sog‘lom va ruhiy barqaror insonlar jamiyat taraqqiyotining asosiy ishtirokchilaridir. Ular yangi g‘oyalar ishlab chiqishga, ijtimoiy hayotda faol bo‘lishga qodirdir.

3. Ijodkorlik va tafakkur erkinligi.

Inson kapitali faqat texnik bilimlar bilan emas, balki ijodkorlik va tanqidiy tafakkur orqali ham yuksaladi. Bu esa aynan Renessans davrining asosiy mohiyatiga mos tushadi. Bu ikki tushuncha o‘zaro uzviy bog‘langan. Bir tomondan, Uchinchi Renessans inson kapitali rivojini tezlashtiradi: yangi texnologiyalar, ta’lim metodlari, axborotga keng kirish imkoniyati orqali. Ikkinchi tomondan esa, inson kapitalisiz bu uyg‘onish davri rivoj topmaydi, chunki uni harakatga keltiruvchi kuch – bu insonning o‘zi: uning bilimi, salohiyati va tashabbusi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, Uchinchi Renessans va inson kapitali o‘rtasidagi dialektik aloqadorlik – bu zamonaviy taraqqiyotning markaziy mexanizmi hisoblanadi. Yangi davr insondan faollik, bilimdonlik, yangilikka ochiqlik va ijtimoiy mas’uliyatni talab qilmoqda. Shu sababli, inson kapitaliga sarmoya kiritish, uni rivojlantirish – har bir davlat va jamiyatning ustuvor vazifasiga aylanishi zarur.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Karimov, I. A. (2015). Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. Toshkent: Ma’naviyat nashriyoti.

2. To‘xtasinov, M. (2022). Inson kapitali va uning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishdagi o‘rni. Toshkent: Iqtisodiyot.



- 3.Davletov, D. (2021). “Uchinchi Renessans: mohiyat, imkoniyatlar va istiqbollar”. O‘zbekiston ijtimoiy fanlar jurnali, №2, 15–23-betlar.
- 4.Schultz, T. W. (1961). “Investment in Human Capital”. The American Economic Review, Vol. 51, No. 1, pp. 1–17.
